

Gafurova N.T.

Kompozitsiya asoslari

Darslik



Toshkent-2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

GAFUROVA N.T.

KOMPOZITSIYA ASOSLARI

5111000 - Kasb ta'lifi (5320900 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari)) va 5320900 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari) bakalavr yo'nalishlaridagi talabalar uchun

D A R S L I K

Toshkent– 2021

MUNDARIJA

KIRISH	9
1. KOMPOZITSIYANING ASOSIY QONUNIYATLARI VA QOIDALARI	
1.1. «Kompozitsiya asoslari» fanining maqsad va vazifalari	13
1.2. Kompozitsyaning asosiy tushunchalari	14
1.3. Kompozitsiya turlari	25
2. KOMPOZITSION KATEGORIYALAR	
2.1. Kostyum tektonikasi	29
2.1.1. Tektonika va shakl	30
2.1.2. Material xususiyatlari va tektonika	31
2.1.3. Notektoniklik sabablari	36
2.2. Kompozitsion shakllantirish	37
2.2.1. Kostyum fazoviy shaklining xususiyatlari: shaklining geometrik turi, shaklining hajmdorlik darajasi, shaklining katta-kichikligi, vazni	38
2.2.2. Siluet va chiziqlar turlari	43
3. KOMPOZITSIYANING ASOSIY QONUNIYATLARI	
3.1. Kompozitsiya yaxlitligi	47
3.2. Kostyumda kompozitsion markazning o‘rni	49
4. KOMPOZITSIYA VOSITALARI	
4.1. Proporsiya va nisbatlar	54
4.2. Proporsiyalar - uyg‘unlashtirishning asosiy vositasi. Proporsiya turlari. Oddiy nisbatlarning komrozitsiyada o‘rni. Irratsional nisbatlarni tuzish qonunlari	56
4.3. Metrik va ritmik tuzilishlar. Ritmnning kompozitsiyada o‘rni. Metrik tuzilishlar qoidalari. Ritmik tuzilishlar qoidalari	60
5. KOMPOZITSIYANING UYG‘UNLASHTIRISH USULLARI	
5.1. Kompozitsiyada kontrast, nyuans va o‘xshashlik	65
5.2. Mutanosiblik va masshtabllilik	69
5.3. Simmetriya va asimmetriya. Simmetriya va asimmetriya turlari. Simmetriya elementlari. Simmetriya guruhlari	70
5.4. Kompozitsion muvozanat	77

5.5. Rangning kostyum kompozitsiyasidagi o‘rni	
5.5.1. Rang xususiyatlari	80
5.5.2. Ranglar doirasini tuzish qoidalari	87
5.5.3. Rang doirasi va axromatik qator asosida garmonik rang birikmalarini yaratish	90
5.6. Kostyum shakli va material	
5.6.1. Kostyumda qo‘llanadigan materiallarni asosiy xususiyatlari: faktura, naqsh	102
5.6.2. Kostyumdagi dekorativ bezaklar	111
6. KOMPOZITSIYA IJODIY JARAYON SIFATIDA	
6.1. Yslub va moda	114
6.1.1. Kostyum kompozitsiyasida uslub va uslublash	115
6.1.2. Katta badiiy uslublar. Muallif uslubi	119
6.1.3. Zamonaviy kostyuming o‘ziga xos xususiyatlari: klassik, romantik, sport va folklor uslublari	120
6.2. Moda tushunchasi va uning tarkibi	131
6.2.1. Moda funksiyalari	139
6.2.2. Moda rivojlanishining asosiy qonuniyatları	143
6.2.3. Modani bashoratlash	145
7. KOSTYUM KOMPOZITSIYASIDA IJODIY MANBALAR	
7.1. Zamonaviy liboslar kompozitsiyasini yaratishda turli ijodiy manbalarni uslublash	163
7.2. Tabiat shakllarini transformatsiyalash usullari	165
7.3. Kostyum loyihalash jarayonida ijodiy manba sifatida tarixiy va milliy liboslardan foydalanish	176
FANGA DOIR TEST SAVOLLARI	181
GLOSSARIY	203
ADABIYOTLAR	215

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	9
1. ОСНОВНЫЕ ЗАКОНЫ И ПРАВИЛА КОМПОЗИЦИИ	
1.1. Цели и задачи предмета «Основы композиции»	13
1.2. Основные понятия композиции	14
1.3. Виды композиций	25
2. КАТЕГОРИИ КОМПОЗИЦИИ	
2.1. Тектоника костюма	29
2.1.1. Тектоника и форма	30
2.1.2. Свойства материалов и тектоника	31
2.1.3. Причины нотектоничности	36
2.2. Формирование композиции	37
2.2.1. Особенности пространственной формы костюма: геометрический тип фигуры, степень объема фигуры, размер фигуры, вес	38
2.2.2. Виды силуэтов и полос	43
3. ОСНОВНЫЕ ЗАКОНЫ КОМПОЗИЦИИ	
3.1. Композиционная целостность	47
3.2. Расположение композиционного центра в костюме	49
4. СРЕДСТВА КОМПОЗИЦИИ	
4.1. Пропорции и соотношения	54
4.2. Пропорции - главное средство согласования. Типы пропорций. Роль простых соотношений в композиции. Законы образования иррациональных соотношений	56
4.3. Метрические и ритмические повторения. Роль ритма в композиции. Правила метрических повторений. Правила ритмических построений	60
5. МЕТОДЫ ГАРМОНИЗАЦИИ КОМПОЗИЦИИ	
5.1. Контрастность, нюанс и сходство композиции	65
5.2. Пропорциональность и масштабность	69
5.3. Симметрия и асимметрия. Типы симметрии и асимметрии. Элементы симметрии. Группы симметрии	70

5.4. Композиционное равновесие	77
5.5. Роль цвета в композиции костюма	
5.5.1. Свойства цвета	80
5.5.2. Правила создания круга цветов	87
5.5.3. Создание гармоничных цветовых сочетаний на основе цветового круга и ахроматического ряда	90
5.6. Форма и материал костюма	
5.6.1. Основные характеристики используемых материалов в костюме: фактура, узор	102
5.6.2. Декоративные орнаменты в костюме	111
6. КОМПОЗИЦИЯ - ТВОРЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС	
6.1. Мода и стиль	114
6.1.1. Стиль и стилистика в композиции костюма	115
6.1.2. Большой художественный стиль. Авторский стиль	119
6.1.3. Отличительные черты современного костюма: классические, романтические, спортивные и фольклорные стили	120
6.2. Понятие моды и ее состав	131
6.2.1. Функции моды	139
6.2.2. Основные законы развития моды	143
6.2.3. Прогноз моды	145
7. ТВОРЧЕСКИЕ ИСТОЧНИКИ В КОМПОЗИЦИИ КОСТЮМА	
7.1. Стилизация различных творческих источников в создании современной композиции	163
7.2. Способы трансформации природных форм	165
7.3. Использование исторических и национальных костюмов как творческого источника в процессе создания костюмов	176
ТЕСТОВЫЕ ВОПРОСЫ ПО ПРЕДМЕТУ	181
ГЛОССАРИЙ	203
ЛИТЕРАТУРА	215

TABLE OF CONTENTS

INTRODUCTION	9
1. BASIC LAWS AND RULES OF COMPOSITION	
1.1. Goals and objectives of the subject "Basics of composition"	13
1.2. Basic composition concepts	14
1.3. Types of compositions	25
2. COMPOSITION CATEGORIES	
2.1. Suit tectonics	29
2.1.1. Tectonics and form	30
2.1.2. Material properties and tectonics	31
2.1.3. Causes of causes of incorrect tectonics	36
2.2. Formation of composition	37
2.2.1. Features of the spatial shape of the suit: geometric type of figure, degree of volume of the figure, size of the figure, weight	38
2.2.2. Types of silhouettes and stripes	43
3. BASIC LAWS OF COMPOSITION	
3.1. Compositional integrity	47
3.2. The place of the composition center in the suit	49
4. MEANS OF COMPOSITION	
4.1. Proportions and ratios	54
4.2. Proportions are the main means of reconciliation. Types of proportions. The role of simple relations in composition. The laws of formation of irrational relationships	56
4.3. Metric and rhythmic repetitions. The role of rhythm in composition. Metric repetition rules. Rhythm rules	60
5. METHODS OF COMPOSITION	
5.1. Contrast, nuance and similarity of composition	65
5.2. Proportionality and scale	69
5.3. Symmetry and asymmetry. Types of symmetry and asymmetry	

Symmetry elements. Symmetry groups	70
5.4. Compositional balance	77
5.5. The role of color in the composition of the costume	
5.5.1. Color properties	80
5.5.2. Rules for creating a circle of flowers	87
5.5.3. Create harmonious color combinations based on color gamut and achromatic consistency	90
5.6. Suit shape and material	
5.6.1. The main characteristics of the materials used in the suit: texture, pattern	102
5.6.2. Decorative ornaments on the suit	111
6. COMPOSITION AS A CREATIVE PROCESS.	
6.1. Fashion and style	114
6.1.1. Style and stylistics in the composition of the costume	115
6.1.2. Great art style. Author's style	119
6.1.3. Distinctive features of the modern costume: classic, romantic, sports and folklore styles	120
6.2. The concept of fashion and its composition	131
6.2.1. Fashion features	139
6.2.2. Basic laws of fashion development	143
6.2.3. Fashion forecast	145
7. CREATIVE SOURCES IN COSTUME COMPOSITION	
7.1. Stylization of various creative sources in the creation of a modern composition	163
7.2 Methods of transforming natural forms	165
7.3. Using historical and national costumes as a creative resource in the process of creating costumes	176
SCIENCE TEST QUESTIONS	181
GLOSSARY	203
REFERENCES	215

KIRISH

Insoniyat jadal taraqqiyot yo‘liga yuz burganidan buyon badiiy tafakkurga ko‘proq ehtiyoj sezal boshladi. Bu jarayon shunga olib keldiki, bugun san’at inson ijtimoiy hayotining ajralmas bir qismiga aylandi. Chunki san’at hayotni chuqr o‘rganishda, uni go‘zallik me’zonlari nuqtai nazaridan idrok etishda hamda nafosat olamining ilg‘ab olish murakkab bo‘lgan nozik sir-asrorlarini anglash va his etishda yaqin ko‘makdoshdir. San’at insonlarning obrazli tasavvuri, tafakkur dunyosining manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ayni paytda u hayotning badiiy tasviri, aks sadosidir.

O‘zbek milliy san’ati boy tarixga, o‘zining ko‘plab turlari, ajoyib turfa namunalariga ega. Ana shu qadim o‘tmishdan rivojlanib, takomillashib kelayotgan barhayot qadriyatlarimiz hozirgi turmushimizni yanada go‘zal, mazmunli qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy o‘zbek san’ati taraqqiyoti, xususan kiyinish madaniyati, me’morchilik, uy-joy qurilishi sohalarida qo‘llanayotgan o‘z milliy uslubimizning, an’analaramizning yevropa, g‘arb san’ati uslublari bilan qo‘silib, qorishib, ba’zan chalkashib ketayotganligi hech kimga sir emas. Yoshlar ijodida ham ko‘proq yevropacha uslub yetakchilik qilayotgani sezilib turibdi. Buning sababi, milliy san’atimiz qadriyatlarini hanuzgacha mustaqil ravishda yetarli tiklay olmaganimizda bo‘lsa kerak. Agar ijodkor fikri milliy negizdan bahramand bo‘lmasa, u hech qachon to‘laqonli, umumbashariy asar yarata olmaydi. Ammo, san’at ichidagi san’at hisoblangan keng qamrovli «kompozitsiya» tushunchasi ko‘p muhim aniqliklarni talab qiladi. Masalani hal etishda, ijodkor konstruktor - dizaynermi, texnologmi, musavvirmi, bundan qat’iy nazar masalaning bir tomonini yoddan chiqarmasligi kerak. U ham bo‘lsa kompozitsiya unsurlarida ijtimoiy muammolar va zamonaviy madaniyat ko‘لامи darajasini yanada kengroq aks ettirishdir. Shuni nazarda tutib ish ko‘radigan bo‘lsak, bugungi kunda yaratilgan kompozitsiyalar zamonamizning anchayin murakkab chizgilari bilan bezalishi lozim.

Bugun hayotga qadam qo‘yayotgan konstruktor - dizaynerlar, musavvirlar, san’atshunoslar ham yangi dorulomon zamon ruhida, yuksak saviyada ta’lim

olishlari kerak. Tubdan o‘zgartirilishi zarur bo‘lgan ta’lim - tarbiya tizimlari, xususan talabalarga bilim berish pog‘onalari ham yangi davr talabi bilan bizga mahtal bo‘lib turganligini bugun yanada teranroq fahmlashimiz lozim. Kompozitsiya yaratish tajribasidan kelib chiqqan holda, undagi ijodiy ish usulini o‘rganish - unga ma’lum darajada odil baho berishning bir yo‘li hisoblanadi.

Davr talabi va ustozlar ish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, har qanday uslubiy adabiyotni ilmiy jihatdan muhokama etish uning aniqligi, to‘liqligi va samarasi faqatgina chuqur ijodiy tajribalardan va aniq g‘oyaviy yo‘nalishlardan qidirilgandagina mo‘ayyan uslubiy tushunchani, ma’lum falsafani to‘liq ifoda etishi mumkinligini nazarda tutish kerak [1].

Kompozitsiya haqidagi tushunchalarni his etish, tushunish, o‘rganishning yana bir muhim tomoni shundaki, u talabalar ilmiy saviyasini ko‘taradi, timsollar anglatgan ma’noni tezda anglab olishlari, fikr yuritish iqtidorlarini oshiradi. Natijada ularning faoliyati sermahsul bo‘ladi va qobiliyatları yanada takomillashadi. San’at sohasida, ayniqsa tasviriy san’atda kompozitsiya va uning uslubiyati nisbatan kam o‘rganilgan.

Kompozitsiya maqsadlar rang-barangligini, ko‘pqirralilagini, shaxsiy his-tuyg‘ularning tug‘yonini anglatgani uchun ham yagona yo‘riqqa bo‘ysunmaydi va shu tomoni bilan boshqa fanlar uslubiyatidan mutlaq farq qiladi. Kompozitsiya yaratish jarayonidagi shaxsiy ish usuli, kishi ichki dunyosi bilan bog‘liq bo‘lib, ijodkorming hissiyoti, tafakkuri olamiga kirishi dastlab bir qadar qiyin bo‘lsada, bu boradagi tajribaga suyangan holda «kompozitsiya» sirlarini ochish imkonini beradigan muammolarni alohida-alohida ko‘rib chiqish, tasvirlangan har qanday murakkab munosabatlarga aql ko‘zi bilan qarab yondashish, taassurotlarni va suratda aks etgan timsollarga bog‘liq fikrni mustahkamlab, ularni tartibga solishga, sirli qirralarini ochishga yordam beradi.

Uzoq yillik ish tajribalari shuni ko‘rsatdiki, kompozitsiya yaratishda tasviriy va falsafiy yo‘nalishning shaklu - shamoyilini keltirib chiqaradi. Bunday ijodiy uslub yordamida kashf etilgan ilmiy kuzatishlar talabalar va o‘qituvchilar - ijodkorlar uchun juda zarur. Uning natijasida talabalarning erkin fikrlashi, o‘zaro

munozaralari orqali tasviriy san'at asarining qimmati aniqlanadi, ijod jarayoni idrok etiladi, san'at asarini tahlil etish qobiliyati oshadi [1, 2]. Fikrlash doirasining bu qadar kengayishi esa goho har qanday mutolaadan ustunroq turishi mumkin. Shu sababdan talaba o‘z fikrini mustaqil bayon qilishga o‘rganishi jarayonida ushbu darslik yaxshi yordam beradi, degan umiddaman.

Aniq uslubiy tavsiyalar yordamida dars beruvchi o‘qituvchi, mo‘ayyan bir shakldagi uslubga, uni talqin etuvchi fikrga bog‘lanib qolmay, talabalarga xilmalixil ijodiy izlanish yo‘llarini o‘rgatar ekan, ayni chog‘da o‘zi ham ularning erkin fikrlashidan vujudga keluvchi yangi imkoniyatlarni o‘rganib boradi. Ma’lumki, yengil sanoat mahsulotlarini baholash ham o‘ziga xos ijodiy yondashuvni talab etadi. Bunga talabalar ushbu fan saboqlarini o‘rgana borishlari kerak. O‘qituvchi ularda ko‘proq mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishi lozim.

Kompozitsiyaning nazariy uslubiyoti muammosi tasviriy san'at sohasida o‘zbek tilida birinchi bor yoritilayotgani sababli darslikda ayrim nuqson va kamchiliklar bo‘lishi tabiiydir. Shunga qaramay, libos kompozitsiyasi sohasidagi mazkur darslik kompozitsiyani o‘rganish va unga ilmiy uslubiy jihatdan yondashish yo‘llarini bir qadar ochib beradi va yosh ijodkorlarning ijodiy izlanishlarida yordami tegadi deb o‘ylayman. Har qanday fan ilmiy izlanishlar natijasida mavhum mavzular majmuasini u yoki bu darajada bilib olishimizga yordam beradi. Shunga ko‘ra, bu ishda ayrim ilmiy manbalarga murojaat etildi. Chunki, kompozitsiya barcha san'at asarlarining shakllanishida asosiy vositadir.

Tikuvchilik materiallarida tasvir va naqsh, libos eskizi, shakli, ifodasi va yechimi bo‘lgan badiiy ijod namunalarining asosiy tarkibiy o‘zagi ham kompozitsiyadir. Shu sababdan uning mohiyatiga har jihatdan, chuqr yondashish kerak. Bu yondashish ijodkor ish qobiliyati, dunyoqarashi, fikr doirasi, salohiyatidan tortib to o‘zidan oldin o‘tgan ustozlar merosini o‘rganishgacha bo‘lgan ko‘plab muammolarga oydinliklar kiritadi. Kompozitsiya tuzilishiga ko‘ra ob’ektiv qonunlarga asoslangandir. Ayrim ijodkorlar kompozitsiya asoslari fanining ilmiy-uslubiy nazariyasi bo‘lishi shart emas, deyishadi. Biroq ularning o‘zlari aynan ana shu ob’ektiv qoidaga amal qilib ish boshlaydilar.

Konstruktor o‘z shogirdiga libos modeli eskizini chizishni o‘rgatar ekan, birinchi bor beixtiyor kompozitsiyani qanday yaratish to‘g‘risida, uning qoidalari haqida gapirib berishi tabiiy. Ba’zi bir liboslarning badiiy ifodasi ko‘pincha faqat kompozitsyaning puxta topilganligi tufayli ham bizni o‘ziga rom qiladi.

Kompozitsiyani ta’riflashda yana bir ajoyib ibora bor, bu ham bo‘lsa, umumiylit, yaxlitlik, asosni tanlab olish, markazni aniqlashdir. Shuning o‘zi ham kompozitsiya azal-azaldan san’at asarining asosiy siri ekanligini ko‘rsatadi va uning qoidalari har doim qo‘llanayotganligini tasdiqlaydi.

Libos kompozitsiyasi o‘z ichiga kostyumning mazmuni, ijodiy jarayon mashaqqatlarini qamrab oladi, talqinda badiiy obrazni yuzaga chiqaradi va uni boshqa vositalar qatorida yaqqol ko‘rsatib beradi. Bu obraz orqali asarning yaxlit ko‘rinishiga ob’ektiv qonunlar asosida estetik va badiiy jihatdan baho beradi. Shuning uchun ham bu jarayon, ya’ni kompozitsiya tuzilishi yangi shakllar majmuasi bo‘lib, bizga ko‘plab tafakkur qirralarini havola etgan holda namoyon bo‘laveradi [2]. Ijodkor uslubi, uning ichki dunyosi, shaxsiy kechinmalari, estetik talab, badiiy ifoda, milliy an‘analar zamirida kompozitsiya orqali o‘z talqinini topadi hamda fikrlarining isboti o‘laroq; namoyon bo‘ladi va uning baholanishi bilan yakunlanadi. Ijodkor asar yaratayotganda masalani bu tarzda qo‘yilishini hayoliga ham keltirmasligi mumkin. Lekin ijodkorning namunalarida o‘z in’ikosini topgan uning fikrlari dunyosiga talabalarni olib kirish foydadan holi emas. Bunga esa odatda asar mazmunini tahlil qilish orqali erishiladi. Yuqoridagi bu savolga har bir kishining shaxsiy fikri, ijodiy imkoniyati, badiiy saviyasidan kelib chiqqan holda yanada aniqroq javob berish mumkin. 5111000 - Kasb ta’limi (5320900-Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari)) va 5320900-Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari) bakalavrlari yo‘nalishlari bo‘yicha “Kompozitsiyasi asoslari” fanidan mashg‘ulotlar o‘tishda, talabalarga faqat belgilangan dastur orqali bilim berish bilan cheklanish bugungi kun talabi me’zonlariga aslo to‘g‘ri kelmaydi. Anchayin cheklangan soatlar va ularga mo‘ljallangan dasturdan tashqari, chuqur ma’lumot berish, talabalar fikr-doiralarini

kengaytirish, ularni asarga ijodiy yondashishga, mustaqil fikrlashga o‘rgatish darsni ilmiy-ijodiy, uslubiy asosda namunali tashkil qilish muallimlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, o‘qituvchi tomonidan kompozitsiya muammosi o‘rtaga tashlanishi bilan talabalarda izlanish, fikrlash jarayoni boshlanadi. Bu jarayonga o‘qituvchi o‘zining tajribasi, bilimi, iqtidori, ijodiy imkoniyatlari orqali yo‘nalish berishi zarur. Shunday paytda sinalgan-amaliy yo‘l-yo‘riqlar, fikr mulohazalar qo‘l keladi.

Kompozitsiya namunalarini ko‘rsatib, ularning falsafiy talqini va markaziy voqealarining bog‘lanish yo‘llarini atroflicha tushuntirish ham uslub taqozosidir. Bunday uslubiyot talabalarining darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham darslikka tayangan holda mustaqil ijodiy izlanishlari, ishlashlari imkonini yaratadi. Biz, o‘tmish san’atimizni qanchalik puxta bilsak, bugungi san’atimiz qimmatini, nafosatini, estetik zavqini shu qadar teranroq anglab yetamiz. Mazkur darslik ushbu yo‘nalishda ta’lim olayotgan talabalar bilan bir qatorda keng kitobxonlar ommasiga ham mo‘ljallangan.

Darslikni tayyorlash jarayonida o‘zbek, rus, va xorijiy tillarda nashr etilgan adabiyotlardan va internet ma’lumotlaridan foydalanildi (adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan).

1. KOMPOZITSIYANING ASOSIY QONUNIYATLARI VA QOIDALARI

1.1. «Kompozitsiya asoslari» fanining maqsad va vazifalari

«Kompozitsiya asoslari» darsligi 5111000 - Kasb ta’limi (5320900 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari)) va 5320900 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari) bakalavr yo‘nalishlariga mo‘ljallangan. Ushbu kurs bo‘lajak mutaxassislarni atrof-muhit xarakterini real uslubda tasvirlash uchun nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi.

Davlat ahamiyatidagi maishiy masalalarni yechish, yuqori sifatli kostyum (kiyim, poyabzal, aksessuarlar)ni loyihalash va ishlab chiqarish - sanoat murakkab masalarini yecha olish va shu bilan birgalikda bo‘lajak yengil sanoat texnolog-

konstruktor muhandislarining estetik savodxonligini oshirish-kursning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ular bevosita kostyum yaratishda ishtirok etib yoki kostyum namunalari sifatini tekshirayotib, masalani chuqur tahlil etib, namuna sifatini ob'ektiv baholab, uning estetik yutug'i va kompozitsiyaviy yetuqligini aniqlay olishi zarur. Dizaynerning fikrini mahsulot orqali yetkazish muhandis- konstruktor yoki muhandis - texnologning savodxonligiga va sezuvchanligiga bog'liq bo'lib, u mahsulot konstruksiyasi va texnologiyasi sifati bilan chambarchas bog'liqdir.

Murakkab tarkibli kompozitsiyalarni puxta o'rganish, har tomonlama tahlil etish, san'atni o'rganuvchi talabalarni uning sirlaridan yanada chuqurroq ogoh etadi. Natijada talabalarga ijodiy fikr yuritish imkoni paydo bo'ladi, tug'ilgan fikrlarni qog'ozga tushirish ishtiyoqi tug'ilishi ham mumkin. Asar faqat uslubnigina emas, balki kompozitsiya miqqosi, shakli, ijod namunasining badiiy darajasini baholashni o'rgatadi. Shuningdek, ushbu adabiyotda kompozitsiya uslub imkoniyatlarining yangi ba'zi qirralarini bir qadar ochishga harakat qilinadi. San'at asari sifatidagi liboslarni, undani kompozitsion yechimni oddiy ko'z bilan tomosha qilish kishiga estetik zavq bag'ishlaydi. Uning ma'no ko'lamenti chuqurroq anglash uchun esa ilmiy uslubiy jihatdan kompozitsiya jarayoni tarkibidagi umumiy ma'no ifodasini tasviriy va tarkibiy, falsafiy qirralarini ko'rish va his eta bilish kerak.

1.2.Kompozitsyaning asosiy tushunchalari

Arxeologlar fikricha, kiyim insoniyat rivojlanishi davrining ilk bosqichida, bundan 40 - 25 ming yil ilgari paydo bo'lgan. Ob-havo ta'siri, hasharotlar chaqishidan saqlanish maqsadida, odamzot o'z tanasini, loy, yog', tatuirovka, o'simlik bo'yoqlaridan foydalanib, o'zlarini himoya qilishgan va kiyimning birlamchi ko'rinishi bo'lib hisoblanadi.

«Kiyim», «kostyum» va «moda» tushunchasi bir - biriga o'xshash ma'noda keladi. Ammo bular o'xshash bo'lsa ham, ular bir-biridan farq qiladi.

«Kiyim» fransuzcha «vetement» so'zidan olingan bo'lib, odam tanasini o'rab turadigan qobiq ma'nosini anglatadi. Masalan: ilk bor kiyim belgilarini paleolit odamlar kashf etganlar. Ular hayvon va baliq terisini yelkalariga tashlab yurganlar, o'tlarni birlashtirib yubka ko'rinishda kiyganlar. So'ngra har xil matolar paydo

bo‘la boshlagach, odamlar mato bilan o‘ranib yurganlar. Qadimgi Misrda matodan bosh va qo‘l uchun alohida o‘yiqlar hosil qilinib, yelkaga tashlab yurishgan.

«**Kostyum**» so‘zi ham fransuz tilidan olingan bo‘lib, kiyim tushunchasiga o‘xhash. Kostyum va kiyim odamning tanasini yopadi, ammo farqi ham bor. Kostyum tushunchasiga kiyim, poyabzal, soch turmagi, bosh kiyimi, qo‘lqop, taqinchoqlar va grim kiradi. «**Kiyim**» va «**kostyum**» tushunchalari – insonning gavda tuzilishi va obraziga nisbatan ko‘rib chiqilishi zarur.

Kiyim - bu materiallarning odam tanasidagi qobiq sistemasi bo‘lib, tanani iqlim ta’siridan saqlaydi va odamning o‘ziga xos ba’zi xususiyatlarini namoyon qiladi.

Kostyum - bu kiyim qismlarining mo‘ayyan obrazli-badiiy sistemasi bo‘lib, ushbu qismlarni insonning individual obrazini yoki ijtimoiy guruhini xarakterlovchi, qaror topgan prinsiplarga asosan yaratilgan va mo‘ayyan tarixiy bosqichda erishilgan ma’lum texnik, ilmiy va madaniy yutuqlarni aks ettiradi. Odatda, erkaklar va ayollar kiyimining pidjak va shimdan yoki jaket va yubkadan iborat ma’lum bir turi ham kostyum deb ataladi. Qo‘srimchalar kostyumga tugalanganlik ko‘rinishini beradi. Bularga sharf, sumka, zont, hassa, qo‘lqop, taqinchoqlar va hok. kiradi.

“**Ko‘ylak**” terminining ikkita ma’nosi bor. Birinchidan, bu bevosita badan ustiga kiyiladigan ich kiyimni bildirsa, ikkinchidan ich kiyim ustidan kiyiladigan yengil kiyimdir. Bundan tashqari ayollarning eng keng tarqalgan kiyim turi ham ko‘ylak deyiladi.

Kiyim-kechak deb, ma’lum vazifaga mo‘ljallanganlikni ifoda etuvchi detallar xarakteriga binoan sinchiklab tanlangan, kosmetika va soch turmagi bilan qo‘silib, kostyumi to‘ldiruvchi va bezovchi buyumlar bilan birlashgan liboslarga aytildi. Maqsadiga qarab kiyim-kechak maishiy, kechalik, ishlik, tantanavor, sportbop va hokazo bo‘lishi mumkin.

Garnitur - bu odatda aynan bir tur materialdan tayyorlanib, ma’lum bir maqsadga mo‘ljallangan bir sidra kiyimlar yig‘indisi (ich kiyim garnituri, zargarlik buyumlari va hokazo).

Garderob - bu bir qator hollarda zarur bo‘lgan bir sidra kiyim komplektlari va kostyumni to‘ldiruvchi boshqa qo‘sishimcha buyumlar, ya’ni bir kishining yoki butun oila a’zolari barcha kiyimlarining yig‘indisi.

Komplekt - bir xil yoki har xil materialdan tayyorlangangan, maqsadi va uslubiy hal etilishi umumiyligi bo‘lgan to‘la bir sidra buyumlar to‘plami: komplektdagi ayrim buyumlarni mo‘ljallanganligi va uslubiy hal etilishi o‘xshash boshqa buyumlarga almashtirish mumkin.

Ansambl - kostyumning mo‘ayyan badiiy uslub birligiga ega bo‘lgan barcha qismlarining yig‘indisidir o‘zaro mustahkam birlikni bildiradi. U inson obraziga ajratilgan kiyimlar majmuasidir. Ansambl murakkab tuzilmadan tuzilgan bo‘lib, bir nechta qismlardan iborat, unga ustki va oyoq kiyimi, bosh kiyimi va taqinchoqlar kiradi.

Nabor - umumiyligi vazifa ado etuvchi bir qancha buyumlar: unda material bilan uslub birligi bo‘lishi shart emas (bolalarning ich kiyim nabori).

“Model” so‘zi kiyimga nisbatan qancha, shakli, materiali, bezagi yoki boshqa sifatlari yangicha bo‘lgan kiyim namunasini bildirib, ulardan tikuvchilik sexi, arteda yoki uyda namuna-mahsulot sifatida foydalanishadi.

Bir nomli kiyim guruhidagi shakl, bichiq va boshqa xususiyatlar farqi **fason** deb ataladi. Fason kiyim modelining o‘ziga xos xususiyatlari yig‘indisini bildiradi.

Kolleksiya - obrazli yechimi, uslubi, konstruksiyasi, shakli va materiallar strukturasining yagonaligi asosida qurilgan, vazifasi turlicha bo‘lgan modellar seriyasidir.

Maket - bu bir buyum hajmining tasviri, uning shakli, proporsiyasi va funksiyasini tasvirlovchi buyumdir.

Kompozitsiya – badiiy asar shaklining barcha elementlarini mazkur asarning obrazli g‘oyaviy-badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirishdir.

Kiyim kompozitsiyasi - kiyim shakli barcha elementlarini uning mazmuni ni ifoda etadigan birlikni barpo etish vositalari yordamida to‘zib chiqish demakdir.

Kiyimning mazmuni uning nimaga mo‘ljallanganiga qarab belgilanadi [3,4].

Kiyim shaklining kompozitsiyasi uning mazmunini olib berishga olib kelishi kerak. Har qanday yaratilgan modelda uni tashkil etgan barcha elementlar o‘rinli bo‘lishi kerak. Ortiqcha yoki muallif fikrini yetarlicha yaxshi ifoda etmaydigan nimaiki bo‘lsa, hammasi olib tashlanishi kerak.

Kompozitsiya maxsus badiiy tildan iborat bo‘lib, uning yordamida san’atkor borliqni aks ettiruvchi g‘oya va tuyg‘ularni tasvirlab beradi.

Kostyumni tashkil etuvchi buyumlarni loyihalash bir necha bosqichdan iborat:

- buyum assortimentini aniqlash;
- buyumga qo‘yiladigan funksional, estetik, texnik va hokazo talablardan kelib chiqqan holda, ularni tahlil etish;
- buyum ushbu assortimentining rivojlanish perspektivasini aniqlash;
- shakl kompozitsiyasi, materiallar tavsifi, kolorit va texnik yechim, ya’ni rivojlanish perspektivasini hisobga olgan holda, buyumlarini iishlab chiqish.

Kompozitsiya (lotincha «composition» so‘zidan olingan bo‘lib, birikma, tuzilma ma’nosini bildiradi) – badiiy asar qismlarining ahamiyatli nisbatidir. Bu tushuncha amaliyotda birqancha ma’noni anglatadi. Kompozitsiya sifatida musiqa, amaliy san’at, mo‘yqalam asari yoki libos ham hisoblanadi.

Libos kompozitsiyasi kiyimning tuzilishi hamda bichimni hosil qiluvchi detallarning birlashmasi bo‘lib, uning mazmunini ifodalaydi.

Kompozitsiyadan maqsad-funksional, texnik va texnologik jihatdan takomillashtirilgan zamonaviy forma hosil qilish bilan birga, chiroyli, uyg‘un, hamma qismlari o‘zaro mutanosib, majoziy, atrof-muhitga uslubiy jixatdan bog‘liq bichim hosil qilishdir [3,4].

Muayyan libos kompozitsiyasi haqida so‘z ketganda, insonning kostyumdagi badiiy – obrazlilik ifodasini ta’minlovchi ba’zi hajm va elementlarning o‘ziga xos tuzilishi tushuniladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va xuquqiy-estetik normalar o‘zgarishi tufayli inson obrazi ham o‘zgarib keladi. Ijodkor bu o‘zgarishlar tendensiyalarini sezgirlik

bilan ilg‘agan holda, o‘z san’atining vositalari orqali «yangi» insonni ifodalaydi. Shu sababli libos - o‘z zamonasining estetik va ijtimoiy jixatlarining ifodasidir.

Ijodkor ish faoliyati ancha murakkab. Hissiy – sezgi darajasida paydo bo‘lgan g‘oya va obraz eskiz ko‘rinishda, qog‘oz yoki maket ko‘rinishda yuzaga kelar ekan, yetarli mahoratni talab etadi. Eskizlarning mantiqiy taxlili, ulardan eng sarasini tanlashni va so‘ngra unga kompozitsiya qonunlari asosida ishlov berishga imkon yaratadi. Bu ish jarayonida kompozitsiyaning quyidagi vositalaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi: shaklga ishlov berish; muayyan plastik xususiyatlari va fakturali materiallarni tanlash; shaklni koloristik tashkil etish; shaklning asosiy qismiga urg‘u berish.

Shunday qilib, maqsadli yo‘naltirilgan ijodiy faoliyat jarayonida yaratilgan shakl kompozitsiyasi – ushbu faoliyat mahsuli bo‘lib hisoblanadi va ma’lum xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Kompozitsiya san’ati ijodkorming qiziq va muhim jihatlarni ko‘ra bilish va alohida tarqoq komponentlarni bir butunlikka uyushtira bilish mahoratidan iborat. Rassom - konstruktor o‘z ishida uning tasavvuri rivojlantiradigan, boyitadigan turli ijodiy manbalarga murojaat etadi.

Xalqning tarixiy o‘tmishi va hozirgi jamiyat hayoti, atrof - tabiatning xilma-xilligi, tarixiy kiyimlar va xalq kiyimlarining boyligi, badiiy adabiyot, musiqa, kino, teatr va hokazolar hozirgi zamon rassomi ijodining manbalari bo‘lib xizmat qiladi. Mutaxassis o‘ylarini yetishtirishga va aniqlashtirishga yordam beradigan ayrim motivlardan foydalanib, ana shu manbalardan o‘z g‘oyalari va obrazlarini to‘plab boradi. Demak, kiyim kompozitsiyasi - kiyimning tuzilishi hamda bichimini hosil qiluvchi detallarning birlashmasi bo‘lib, uning mazmunini ifodalaydi.

San’at asarlaridagi, jumladan, suratlardagi turli jonli va jonsiz buyumlar, tabiat manzaralari shunchaki tasvir etilmasad, ular bir-birlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, bu munosabat ayni paytda ifoda etilayotgan mazmunni yorqinlashtiradi. Asarda kompozitsiya shu tarzda yaratiladi.

Kompozitsiya ijodkor imkoniyatlari va uni hayajonlantirgan mavzu asosida

yaratiladi hamda unda aks etgan san'at olamining turlanib qanchada, jilolanishida asosiy rol o'ynovchi omillardan biri hisoblanadi. Kompozitsiyaga asos qilib olinadigan mavzu ko'lami avvalambor musavvir, ijodkor shaxsning bilimi, o'z yurti, xalqining turmush tarzini qanchalik chuqur idrok eta bilishiga bog'liq bo'lib - ijodiy mahorat bilan tanlanadi va aks ettiriladi. Mavzuni ifodali talqin qilish va uni shakllantirishdagi imkoniyat chegaralarini oldindan aniq belgilash kompozitsiya ijodkori oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi [5].

O'zbek san'atida, so'nggi yillar ichida, tarixiy tahlilga asoslangan milliylik ruhi aks etgan liboslar, hayotga qaytarish borasida juda ko'p ibratli ishlar kilindi. Biroq o'zbek milliy san'ati kompozitsiyasining bir qator muhim nazariy va amaliy masalalari hanuz to'g'ri va aniq hal etilgani yo'q. Masalan, kompozitsiyaning san'at asari tarkibida tutgan muhim o'rni, unda milliylikning aks etishi, kompozitsiya yaratish usullaridagi o'ziga xoslik (uning turlari, voqelikni milliy ohanglarda aks ettirish) kabi umumiy mavzularda hali hanuz bir fikrga kelinmadи.

Badiiy tasvir-inson tafakkuri yaratgan ma'naviy boyliklarni, mumtoz fikrlarni asrlardan - asrlarga, avlodlardan-avlodlarga bekamu ko'st yetkazuvchi, nafosat olamining sehrli qudratini namoyon etuvchi noyob vositadir. Shu bois u yaratuvchilik bobidagi buyuk kashfiyotlardan biri hisoblanadi.

Mo'ayyan asar, avvalo shu millat doirasida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Kishi diqqatini o'ziga tortish qudratiga ega bo'lgan liboslar halkning yuksak salohiyati va tafakkuridan darak beradi. Har qanday libosning muhim tarkibiy unsuri hisoblanuvchi - «kompozitsiya» haqida gap ketganda, avvalo uni shakllantirish vositasi ustida to'xtalish zarur. Zero, har bir kompozitsiya zamirida keng va teran xususiyatlar to'qnashuvi, his-tuyg'ular o'z aksini topadi. Shu bois, ijodkorlar tomonidan yaratilgan namunalar kompozitsiyasini bir butun, o'ziga xos, yuqori saviyadagi badiiy ifoda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xo'sh, kompozitsiya degani o'zi nima? Kompozitsiya so'zining lug'aviy ma'nosi - tasvir ifodasini to'zmoq, shakl yaratmoq, tasvirlangan shakllarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirmok, - umumiylizka olib kelmoq, ularga badiiy mazmun ifodasini yuklamoqdir [5,6]. Malumki, kompozitsiya yaratish

orasida har bir ijodkorning o‘z uslubi, yo‘li bo‘ladi. Shu sababdan kompozitsiya yaratayotgan ijodkor unga qobiliyati darajasida yondashadi. Buni amaliy san’atda, manzarali rang - tasvirda, mahobatli devoriy rasmlarda, hatto kitobiy bezaklarda ham ko‘rishi mumkin.

Kompozitsiya odatda obrazlar vositasida yaxlit ma’no beruvchi tasvirlarning asosi sifatida namoyon bo‘ladi. U tasvirdagi asosiy mazmunni yuzaga chiqaruvchi «kalit» hisoblanadi va asarning qimmatini belgilovchi sifatlarni o‘zida mujassam etadi.

Kompozitsiya har qanday tasvir ifodasini kuchaytiruvchi, kishini o‘ylashga, beixtiyor fikr-mulohaza yuritishga undovchi ta’sirli kuchga ega. Chuqur badiiy ifodaga ega mukammal kompozitsiya yarata olish har bir san’atkor ijodida naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini jahon rassomlari qadim-qadimdan e’tirof etib kelganlar. Uning ko‘pdan-ko‘p zarur qonun-qoidalarini qayta-qayta yangilab, mukammallashtirib, to‘ldirib kelganlar [7].

Har bir ijodkor hayotda va ijodda katta sinovdan o‘ta olsagina baholovchi tomonidan tan olinadi. Shu sinovlarga bardosh bergen namunalargina kelajak avlodlarga meros qoladi. Badiiy talqin «kompozitsiya» o‘zbek san’atining ham sirli kaliti hisoblanadi. Ko‘plab yuksak mahoratli ijodkorlar tomonidan asrlar davomida yaratilgan madaniy «ne’matlar» san’atimiz tarixini qamrab boyitib kelmoqda.

Xalq tasviriy san’ati ijodiy uslublarida, jumladan, qadimiy mo‘jaz suratlarda uslub xususiyati jihatidan mazmunga mos keladigan turli rang, buyum va ashyolar (me’morchilik bezaklari, turli naqshlar, qadimiy kiyim-kechaklar va hok.) tasviridan ustalik bilan foydalanilgan. Shunday tasviriy vositalar asosida qurilgan kompozitsiyada -ko‘pdan-ko‘p bezaklardan timsol sifatida foydalaniladi, ular orqali mo‘ayyan sifat, kayfiyat (hoh ijobiy, hoh salbiy) anglashiladi. Bu sohada jon kuydirib ijod qiluvchi: shoir, musiqachi, me’mor, rassom-konstrukturlarning niyatları o‘zlaridan keyin ishonarli kompozitsion tayanch nuqtasini kelgusi avlodga me’ros qilib qoldirishdir.



1 - rasm. Baxtiyorlik kayfiyati anglashiladigan kompozitsiya


Ma'lumki, oldindan rejalashtirilgan har qanday puxta yo'l - yo'riq, san'atda qo'llaniladigan uslub ham, yosh ijodkorlarni san'at «tojkursisiga» osonlik bilan chiqarib qo'ymaydi.

Birinchidan, tasvir haqiqiy asliga juda aniq o'xshashligi yoki tasviriyligi shakl badiiy barkamol ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Kishilarning qiyofalari tabiatan bir xil bo'lмаганидек, rassomlarning badiiy talqini ham xilma-xildir. Bir ijodkor tomonidan yaratilgan shakl-shamoyil boshqasi uchun yangi ochilgan «kashfiyat» bo'lishi ham mumkin. Shunga ko'ra bitta rassom tomonidan «kashf» etilgan ijod namunasi bir necha ming tomoshabin uchun “sevimli” asar hisoblanishi ham ehtimoldan holi emas.

Ikkinchidan, rassom bilan tomoshabin o'rtasidagi farq masalasi muhim. Rassom ham tomoshabin kabi, tomoshabin esa rassom kabi ichki kechinmalarga boy, u ham o'z navbatida makon va narsalarga befarq qaramasligi tabiiy hol. Shunday ekan, tomoshabin ayrim vaziyatlarda rassomga nisbatan qobiliyatliroq, fikran ongli bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, “san'atning badiiy yuksakligi nimada?”- degan savol tug'iladi.

San’at – rassom qalbidagi sirli siymolarning mukammal tasviri orqali shakllanib tomoshabinga badiiy jihatlari bilan to‘la namoyon bo‘lishidir. Sodda til bilan aytganda, kompozitsiyani yaratish va uni anglash ijodkor shaxs bilan bog‘liq masalalar, ish jarayonida yana ham o‘z qobig‘ini ochib beradi degan umid bor. Ijodkor tomonidan puxta yechimini topgan kompozitsiya o‘z o‘rnida tomoshabindan ham shu yechim ifodasi nimada mujassam bo‘lganligini chuqr anglab yetishni talab etadi. Kompozitsiya so‘zini o‘zbek tiliga aniq ag‘darib bo‘limganligi tufayli uning lug‘aviy ifodasini yozish bilan cheklanildi. Kompozitsiya so‘zi hamma ijodkorlar uchun tushunarli ekanligi ham nazarda tutildi. Kompozitsiyaning mohiyatini ko‘rib chiqamiz. Biz borliqda qabul qiladigan barcha narsa fazo va vaqtida qabul qilinadi, va hech bir narsani biz faqat vaqtida yoki faqat fazodagina alohida qabul qilmaymiz. Borliqni biz uch o‘lchovda emas, to‘rt o‘lchovda qabul qilamiz (4- o‘lchov - vaqt), shu sababli rasm real borliqni aks ettirishi kerak bo‘lsa, uning oldida vaqtini aks ettirish vazifasi turadi [8].


Vaqtdan tashqari qabul qilishga shartli bo‘lsa ham yaqinlashishi uchun biz bir ko‘z bilan qarashimiz va undan naturani loyihalashtirish uchun ob’ektiv kabi foydalanishimiz kerak. Bunday tasvir, albatta, faqat shartli ravishda vaqtdan tashqari bo‘ladi, chunki bitta ko‘z ham harakatlanadi, ham qabul qilish uchun vaqtdan foydalanadi. Biroq har holda ma’lum shart bilan bu tajribani tahlil maqsadida qabul qilishimiz mumkin, lekin bunday tasvirni real borliqni aks ettiruvchi deb hisoblay olmaymiz, chunki u, ya’ni borliq, ham vaqtiy, ham fazoviydir, bunda esa biz faqat fazoviy tasvirga ega bo‘lamiz. Misol bo‘lib, chopayotgan ot (2-rasm) harakatining lahzalik surati xizmat qila oladi. Bu deyarli hamma vaqt noqulay holat bo‘lib, harakatni aks ettirmaydi va rassom bir tasvirda bir necha lahzani birlashtiribgina harakatni tasvirlay olishini biladi (o‘zida oldingi harakat qoldiqlari va keyingisining boshlanishini mujassam etuvchi tasodifiy holatlarga istisno bo‘ladi). Biroq, yuqorida aytilganidek, biz o‘zimiz ham, rassom ham vaqtida bo‘lamiz, naturaning qabul qilinishi ham tasvirlanishi ham vaqtida ro‘y beradi va uni uslubiy hisobga olishi kerak.



2– rasm. Kompozitsiyada vaqt birligi

Biz tarixiy voqeani tasvirlashimizda ham, harakatlanayotgan buyumlarni tasvirlashimizda ham, nisbatan harakatsiz buyumni qarab chiqishimiz, ushlab ko‘rishimiz va o‘rganishimizda ham o‘rin tutadi. Chunki ma’lumki, biron - bir narsaga ikki ko‘zimiz yordamida qaraganda, ko‘zlarimizni konvergatsiyalaydigan tekislikda ancha-muncha sekin ko‘ra olamiz. Tasvir har qanday rasm, vaqt ni tashkil etadi va tasvirlaydi, bunda, albatta, tasvir butunligi to‘g‘risida savol turishi kerak, chunki turli vaqt ni berib uni biz butun, bir vaqtli berishimiz kerak, dinamikasini ko‘rsatib, biz tasvirda dinamika - statikani berishimiz kerak, sof fazoviy, shartli rasm esa tasvir butunligini o‘ylamasligi kerak, chunki u mexanik tarzda bir vaqtlikka olib keladi va tom statikaga intiladi. Bu fikrlar to‘g‘ri bo‘lsa, «to‘g‘ri» akademik rasm badiiy tasvir sohasida mavjud bo‘lmay, ko‘z yordamida proeksiya shartli uslubi bo‘ladi, borliqni badiiy tasvirlashga intiluvchi har bir rasm esa fazo va vaqtda yashovchi borliqni tasvirlash maqsadini qo‘yadi, demakki, kompozitsion vazifaga ega bo‘ladi [9].

Tasvir yaxlitligiga intilib, biz yo ko‘rish, yo harakat yaxlitligiga intilishimiz mumkin (bu, albatta, mavzu, material, qabul qilish sharoitlari bilan shartlanadi) yoki turli vaqt lahzalarini ritmik qatorga o‘rnatishimiz, aniq vaqtdan foydalanib, uni tashkil etib borliqni tasvirlashimiz bilan qonikishimiz mumkin. Misol: hajm ustida tasvir, kitob illustrasion qatori, kino va hokazo.



**3– rasm. Komprozitsiyada butunlikning mavjud - a,
butunlik mavjud emas – b**

Yaxlitlikning harakatlanuvchi shaklini biz konstruktiv shakl deb, ko‘rish shaklini esa-kompozitsion shakl deb atashimiz mumkin. Tasviriy materialni asarda harakatlanuvchi yaxlitlikka keltirish konstruksiya bo‘ladi. Ko‘rish obrazini yaxlitlikka keltirish kompozitsiya bo‘ladi. Konstruktiv tasvirning oxirgi shakli kino yoki fotomontaj bo‘lib, unda apparatning ritmik harakati figura yasashi, fazoni chizishi mumkin. Bunda biz harakat bilan birlashtirilgan, vaqtda qabul qilinuvchi alohida lahzalarga ega bo‘lamiz. Bunday tasvirda vaqt - harakatning ritmlashtirish asosiy bo‘ladi.

Libosda rassom vaqtni ma’lum jihatdan turlicha qayd etadi. Biroq biz faqat yuzadagi tasvirni qaraydigan bo‘lsak, vaqtning turli tuzilishining butun qatorini bu yerda ham aniqlash mumkin. Masalan, misrliklarda insonning turli nuqtai nazardan tasvirlangan rasmini ko‘ramiz, ular insonni nuqtai nazardan emas, ko‘rish tekisligida olishadi va shu sababli harakatni gorizontal bo‘ylab quradilar, ularga ko‘p yoki bir necha markazlar bilan hamma harakatlarni birlashtiruvchi friz ko‘rinishini beradilar. Qayd etish qiziqliki, biz vaqtdan qanchalik bevosita foydalansak, kino, fotomontajdagidek, materialimizni shunchalik soddaroq tashkil etamiz va, boshqa tomondan, biz tasvirlaydigan buyumlar kam o‘zgaradi. Va aksincha, bizning harakatsizligimizda ko‘rish faolligi juda rivojlanadi, endi harakatli emas. Ko‘z bilan turli ko‘rishlarni birlashtirish fazoning juda boy

tasvirlanishini beradi va bunda ko‘pincha buyum statikasini buzadi va uning odatdagi konturlari zarar ko‘radi.

Kompozitsiya - badiiy asar shaklining barcha elementlarini mazkur asarning obrazli g‘oyaviy-badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirishdir.

Kiyim kompozitsiyasi - uning barcha elementlarini uning mazmunini ifoda etadigan birlikni barpo etish vositalari yordamida tuzishdir. Kiyimning mazmuni uning nimaga mo‘ljallanganiga qarab belgilanadi [10].

Kiyim shaklining kompozitsiyasi uning mazmunini ochib berishga olib kelishi kerak. Har qanday yaratilgan modelda uni tashkil etgan barcha elementlar o‘rinli bo‘lishi kerak. Ortiqcha yoki muallif fikrini yetarlicha yaxshi ifoda etmaydigan nimaiki bo‘lsa, hammasi olib tashlanishi kerak.

Kompozitsiya maxsus badiiy tildan iborat bo‘lib, uning yordamida san’atkor borliqni aks ettiruvchi g‘oya va tuyg‘ularni tasvirlab beradi.

Buyum elementlarining bir-biriga bo‘ysunishi ham kompozitsiya qonuniyatlariga tayanadi. Buyum xarakteriga bog‘liq ravishda uning elementlari bir-biriga bo‘ysunishi turli asoslarga ega bo‘ladi.

Zamonaviy xomashyolar ko‘rinishdan juda nomustahkam namoyon bo‘luvchi ajoyib shakldagi pishiq va mustahkam konstruksiyalarni yaratish imkonini beradi. Bunday holda dizaynerning vazifasi - mahsulotga ko‘rinishdan mustahkamlik berishdir.

1.3. Kompozitsiya turlari

Kompozitsiyaning uchta asosiy turi mavjud: frontal, hajmli va bo‘rtma-fazoviy. Ushbu bo‘linish ma’lum darajada o‘zboshimchalik bilan amalga oshiriladi, chunki amalda biz har xil turdagи kompozitsiyalar bilan shug‘ullanmoqdamiz. Masalan, frontal va hajmli kompozitsiyalar fazoviy qismdir; hajmli kompozitsiya ko‘pincha yopiq frontal sirtlardan iborat va shu bilan birga fazoviy muhitning ajralmas qismidir.

Frontal kompozitsiyaning o‘ziga xos xususiyati - form elementlarini bitta tekislikda tomoshabinga nisbatan ikki yo‘nalishda taqsimlash: vertikal va

gorizontal, masalan, bino fasadlari, vizual stendlar, matolar, gilamchalar va boshqalar.

Hajmli kompozitsiya - bu nisbatan yopiq yuzaga ega bo‘lgan va har tomondan qabul qilinadigan shakl.


Hajmli kompozitsiyalarni idrok etishning aniqligi va ravshanligi ularning elementlarining o‘zaro bog‘liqligi va joylashishiga, shaklni shakllantiruvchi sirt turiga va kuzatish nuqtasiga bog‘liq. Hajmli shaklning ekspresivligi ufqning balandligiga ham bog‘liq. Pastdan ko‘riniшга ega bo‘lgan hajmli shaklni idrok etish jarayonida uning monumentalligi haqida taassurot paydo bo‘ladi. Tomoshabin ob’ektga yaqinlashganda, uning qirralarining istiqboldagi qisqarishi kuchayadi. Bunga dastgoh asboblari, dastgohlar, maishiy texnika va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Hajmli kompozitsiya doimo atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir qiladi. Atrof-muhit bir xil kompozitsyaning ekspresivligini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Rassomlarda yorug‘lik – soyali rasmga teskari konstruktiv rasm haqida gapirish qabul qilingan. Buyum tuzilishini ifodalovchi rasm ko‘zda tutiladigandek ko‘rinadi. Lekin nima uchun uning tuzilishi yorug‘lik soyali rasmda ifodalana olmas ekan? «Kompozitsiya» so‘zi adabiyot nazariyasida ham deyarli atamalashтирilgan. Kompozitsiya esa matnda mo‘ayyan materialning joylashtirilishi yoki hikoyalashda nuqtai nazarlar almashuvi kabi tushuniladi. Anig‘i shuki, «tuzilish», «konstruksiya», «kompozitsiya» so‘zlari asosida yaxlitlik tushunchasi bor, u qismlar va butunlikning turli turdagи nisbatlarini qamrab oladi. Umuman kompozitsiya ma’nosida quyidagi shartlarni qoniqtiruvchi yaxlitlik tarkibi va qismlarining joylashuvini tushuniladi:

- 1) butunlikning biron qismi yaxlitlikka zarar yetkazmasdan olinishi va almashtirilishi mumkin emas;
- 2) qismlar butunga zararsiz o‘rinlarini almashtira olmaydi;
- 3) butunga zarar yetkazmasdan bironta ham yangi element unga qo‘sila olmaydi.

Kompozitsiyani yaratish yoki tasodifiy guruhlarda kompozitsiyani ko‘rish uchun hamma guruhlarni biron-bir qonun, ichki bog‘lanish bilan bog‘lash kerak.

Biz guruhlar ritmini tashkil etishimiz, qumlar guruhining buyumlar bilan o‘xshashiga intilishimiz, kartina tasviri yo‘liga turishimiz mumkin. Shunday qilib, biz qonuniy butunlikni yaratuvchi bog‘lanishlar bilan tasodifiy birlik elementlarini birlashtirish maqsadini ko‘zlaymiz. Kompozitsiya, tuzilish, konstruksiya tushunchalarini farqlash uchun umumiyo‘l butunni qismlarga ajratish qonuni, butunlikning qismlardan sintezlash qonuni, qismlar va bog‘lanishlar xarakteri. Bu uch tushunchadan eng umumiysi - tuzilish tushunchasi. «Tuzilish» so‘zining turlicha qo‘llanishi butun va qismlar nisbati alohida ko‘rinishini ajratishga imkon beradi. Tuzilish butun sifatida o‘zaro qonuniy bog‘langan qismlardan iborat bo‘lib, ularni tasodifiy bo‘laklardan farqli butunning komponentlari yoki elementlari deb ataymiz.




4-rasm. Kompozitsiya komponentlari orasidagi bog‘lanishga misol

Kartinada bu - rang va chiziqlar analogiyasi va kontrastlari, asosiy dog‘, buyumning ajratilishi, asosiy buyumlar holatidagi qatorlar va kontrastlar, fazoviy tuzilish va hokazo. San’at asari kompozitsiyasi, shu jumladan rasm kompozitsiyasi, ikkinchidan – ma’no yaxlitligi. Konstruktiv markaz ko‘pincha ma’no tuguni bo‘ladi. Rasmda konstruktiv bog‘lanishlar vazifalari – ma’no jihatdan bog‘lanishlarni yaratish va mustahkamlash zarur.

San’at asari kompozitsiyasi hamma vaqt tushunish uchun konstruksiya, ma’no uchun konstruksiyadir. Tabiiyki, kompozitsiya nazariyasida konstruktiv va ma’noviy bog‘lanishlar birga qarab chiqiladi. Birinchilari ancha umumiyo‘l

xarakterga ega bo‘lib, bizning san’atni umumiy qabul qilishimiz tabiatidan kelib chiqadi, ikkinchilari - konkret bo‘lib, ushbu alohida san’at asarida bo‘ladi. Biri ikkinchisi uchun mavjud bo‘ladi.

Kompozitsion vositalar xarakteri mazmun xarakteriga bog‘liq. Tasviriy, g‘oyaviy, emotsiyal, timsoliylikning murakkab birligida mazmunning alohida komponentlari asosiy, boshqalari – ikkinchi darajali bo‘lishi, umuman aytganda, umuman bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, lirik peyzajda (5 - rasm) timsoliy matnni izlash o‘rinsiz.



5 - rasm. N. G. Karaxan. Tog'larda bahor

Peyzajda boshqacha ishora bo‘lsa, kompozitsiya turi ham, kompozitsion bog‘lanish ham o‘zgacha bo‘ladi. Shu bilan birga ko‘rish, zavq olish diapazonida lirik ohang, emotsiyal ton o‘z kuchini yo‘qotadi.

Kompozitsion vositalar chegaralanganligining juda yaqqol misollarini ba’zan ma’lum mazmunga intiluvchi nofigurativ rassomchilik namoyon etadi. O‘zbek so‘zanasidagi qizil fonda bir maromda joylashtirilgan quyoshning shartli tasvirlaridan iborat. Yashirin timsolni bilmaganda ham so‘zananing emotsiyal ta’siri ma’lum. So‘zana – quvonch, yorug‘likni ifodalaydi.



6 - rasm. O‘zbek so‘zanasi

Kompozitsiya bu - dialektik jihatdan murakkab jarayon bo‘lib, unda faqat eng kichik va oddiy zarrachalar emas, balki butun bir galaktik obrazlar sistemasi kurashi davom etadi. Bu qarama-qarshiliklar kurashi mazmuni sport musobaqasi kabi qizg‘in kurashlarda emas, aksincha o‘zaro kelishuvchanlikka erishishda, ma’lum ifoda uchun jijsroq birlashuvdadir. Chunki turli unsurlar kelishuvchanligi asarga o‘zgacha ma’no berib, boshqacha hayot bag‘ishlaydi. Shuning uchun bu muhim unsurlarni tanlashga talabchan bo‘lish lozim. Ana shunday topqirlik asarning tabiiyligini, purma’noliligini, jozibaliligini, umrboqiyligini ta’minlaydi.

2.KOMPOZITSION KATEGORIYALAR

2.1. KOSTYUM TEKTONIKASI

Kompozitsiya nazariyasi kuzatilayotgan hodisalar orasidagi eng umumiyl va eng muhim aloqalar va munosabatlarni aks ettiruvchi kategoriyalarga asoslangan bo‘ladi. Libos kompozitsiyasida **tektonika bilan hajviy - fazoviy shakl** ana shunday kategoriylar hisoblanadi.

Tektonika-bu asarning badiiy qismini konstruksiya va ashyolar orqali ko‘rsatadi, sifat belgisi hisoblanadi. Bu esa buyumning muhim belgilardan biridir. Konstruktorlik tizimini o‘zlashtirish badiiy asarning mezon talabiga ega shaklni yaratish demakdir. Bezak asarni nafosat jihatdan boyitsa, shu bilan birga unga milliy mazmun yo‘nalishini ham bag‘ishlaydi. Lekin har qanday bezak berish ishi

me'yor chegarasidan chiqib ketmasligi kerak. Tarixiy kostyum ham inson faoliyati va jamiyat uchun muhit hozirlaydi, lekin u hech narsa tasvirlamaydi. U faqat geometrik shakllar majmuasini yaratadi, xolos. Ammo kostyuming tashqi ko'rinishi bo'l mish ifoda vositalarining nafosat kuchi juda katta ta'sirga ega. Bunday ta'sirchanlikni oshiradigan vositalar qatoriga rassomlik, haykaltaroshlik va xalq amaliy san'ati bezaklari, gazlama va libos namunalari ham kiradi. Ular zamonni ifoda etuvchi sifatda-kostyum bilan uyg'unlik kasb etuvchi muhim qismlar hisoblanadi.

2.1.1.Tektonika va shakl

Tektonik shakl - bu sanoat buyumi shakli konstruksiyasining va tayyorlanish usulining material xususiyatlarini badiiy tushunib yetish, ularni ko'rsatib berish nuqtai nazaridan ifodalangan ishi. Material yoki tayyorlanish usuli buyumning tektonik shaklini topish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Konstruktor-modeler material xususiyatlarini, uning konstruksiyadagi ishini va buyumning tayyorlanish texnologiyasi xususiyatlarini - bularning hammasini umumiy g'oyaga, ya'ni badiiy va kompozitsion mo'ljalga bo'ysundirib ongli ravishda tanlaydi, topadi, bo'rttirib ko'rsatadi.

Libos shaklini hosil qilishda estetik jihatdan oqilona yechim topsa (siluetlari aniq, qismlar proporsiyasi to'g'ri, detallarning ritmik tuzilishi bir-biriga mos, tanlangan ranglar libos vazifasiga muvofiq bo'lsa), u maqsadga erishadi va ifodali ko'rindi. Libos shaklini uning silueti xarakterlaydi [7].

Geometrik shakl - shaklning uchta fazoviy koordinatalaridagi o'lcham miqdorlarining nisbati, umumiy shakl va detallari yuzasining xarakteri bilan belgilanadi.

Kiyim shaklini ko'rib chiqayotganimizdagi dastlabki taassurot shaklning hajmdorlik darajasidan, siluet va chiziqlaridan kelib chikadi. Hajmdorlik darjasasi - bu uchta fazoviy koordinata bo'ylab shakl o'lchamlarining nisbatidir. Shaklning hajmdorlik darjasasi bitta o'lchamli bo'lsa, chiziqli xarakterda, ikki o'lchamli bo'lsa, tekislik xarakterida, kiyim shakli uch o'lchamli bo'lsa, hajm xarakterida bo'ladi.

Buyumning hajmdorlik darajasini tanlash libosning ko‘rinish va qanday maqsadga mo‘ljallanganligi bilan belgilanadi. Chiziqli xarakterdagi shakl bashang kiyimlar uchun tavsiya etilsa, tekislik xarakteridagi har kanday ishga mo‘ljallangan kostyum uchun va hamma turdagи gavdalar uchun, hajm xarakteridagi shakl esa bo‘ychan, ozg‘in gavdalarga mo‘ljallangan bashang kiyim uchun tavsiya etiladi.

Kiyim shaklining tekislikka tushirilgan eng ifodali proporsiyasini **kostyuming silueti** deb ataladi. Odatda, kostyum shaklini asosan frontal siluetlar va kamroq holatlarda profil siluetlar xarakterlaydi. Kostyum yaratishda uning vazifasi va undan foydalanish sharoitlarini bilish zarur.

2.1.2. Material xususiyatlari va tektonika

Har bir materialning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, ana shu xususiyatlar mo‘ayyan shaklga asos qilib olinadi. Masalan, shifondan bo‘laklari minimal mikdorda bo‘lgan mayin, plastik, yengil shakl yaratilsa, parchadan qattiq, «quruq» geometrik shakl yasaladi. Materialdan buyumning kanday ishslash nuqtai nazaridan foydalanish har kanday buyumning chinakam tektonikligiga erishishning muhim shartidir.

Hajmiy-fazoviy shakl - kompozitsiyaning ikkinchi muhim kategoriyasi hisoblanadi. U bilan mahsulot shakli va fazo munosabati, o‘zaro aloqasi belgilanadi. Konstruktor - modeler fazoni inobatga olmay estetik mukammal mahsulot yarata olmaydi.

Har bir buyum shakliga uning barcha elementlarining bir-biri va fazo bilan o‘zaro mo‘ayyan ta’sir etishi nuqtai nazaridan qarash, ya’ni uni hajmiy-fazoviy shakl deb hisoblash mumkin. Bu shakl ba’zan oddiy va ixcham, ba’zan esa juda murakkab bo‘ladi.

Hajmiy - fazoviy shaklining murakkablik darjasini qandayligidan qat’iy nazar undagi barcha elementlarning o‘zaro aloqadorlik tizimi tektonika bilan bir qatorda chinakam uyg‘unlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Kompozitsiya xususiyat va sifatlarida mahsulotning quyidagi ko‘rsatkichlarini ajratish mumkin: mahsulot shaklining uyg‘unlikdagi yaxlitligi, elementlarning bir - biriga bo‘ysunishi, elementlarning kompozitsion muvozanati,

ular kombinatsiyasida simmetriya va asimmetriya, ularning dinamikligi va statikligi, xarakter birligi va hokazo.

Mahsulot shaklining garmonik yaxlitligi konstruktiv yechim bilan uning kompozitsion talqini aloqasining mantiqiy va uzviyligini ifodalaydi.

Har bir buyum shakliga uning hamma elementlarining bir-biri bilan va fazo bilan o‘zaro mo‘ayyan ta’sir etish nuqtai nazaridan qarash, ya’ni uni hajmiy-fazoviy struktura deb hisoblash mumkin. Bu struktura ba’zan esa juda murakkab bo‘ladi. Hajmiy-fazoviy strukturaning murakkablik darajasi qandayligidan qat’iy nazar undagi barcha elementlarning o‘zaro aloqadorlik sistemasi tektonika bilan bir qatorda chinakkam uyg‘unlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi

Kostyum yaratilayotganda uning nimaga mo‘ljalanganligi va qanday sharoitda ishlatilishini bilish kerak. Kostyum qulay, ishbop va chiroyli bo‘lishi kerak. Shuning uchun kostyuminning shakli, konstruktiv hal etilishi, materiallarning tanlanishi, bezaklari va rangi uning asosiy vazifalariga, ya’ni estetik va amaliy vazifalariga itoat etgan bo‘ladi.

Kiyimning kompozitsiyasi ustida ishlovchi mutaxassisning asosiy vazifasi kompozitsiya elementlarini kompozitsion vositalar yordamida uyg‘unlashtirib, kiyimning konkret vazifasi va maqsadini ifodalaydigan birikma hosil qilishdir [8].

Libos kompozitsiyasi o‘z vositalariga ko‘ra xilma-xil va murakkab hodisadir. Kompozitsiya - elementlarni birlashtirish vositasidir. Bunda kostyum elementlari bir-biriga bo‘ysungan va bir-biriga mos tushgan, qandaydir garmonik yaxlitlik sifatida tasavvur qilinishini hisobga olish kerak. Libosda asosiy va ikkinchi darajali elementlar bo‘lsa, ular orasida bo‘ysunish kuzatiladi. Shaklining asosiy elementi - libosning tanaga mo‘ljallangan qismi. Kiyimning asosiy qismi bilan hamma detallar birlashadi [9].

Material fakturasi - gazlama tuzilishining tashqi namoyon bo‘lishidir. Ma’lum faktura ta’sirlariga iplar shakli hosil qilishdan boshlab gazlama hosil bo‘lishi texnologik jarayoni natijasida erishiladi. Faktura kattaligi va uning gazlama yuzasi birligiga elementlari miqdoriga ko‘ra gazlamalar ifodaliligi turlichay bo‘lgan yuzaga ega.

Materiallarning gigienik xususiyatlari ham kiyim shaklini hosil qilishga ta'sir etadi. Masalan, havo o'tkazish va nam o'tkazishi yomon materiallardan bo'lgan kiyimlarni, kiyim tagidagi havo ventilyatsiyasini ta'minlash uchun, gavdaga yopishmaydigan ochiq shaklli qilib tikish tavsiya etiladi. Gazlamalarning dekorativ xususiyatlari shaklning geometrik shaklini tanlashdagina emas, balki shakl hosil qilish prinsiplarda ham, shakldagi ichki yechimlarni tanlashda ham katta ahamiyatga ega.

Faktura - materialning eng ifodali xususiyatlaridan biri hisoblanadi, u seziluvchan informatsiya manbai bo'lib xizmat qiladi.

Faktura - bu material yuzasining tuzilishini xarakterlovchi xususiyat. Faktura tabiiy (mo'yna, teri, yog'och, zamsh) va mexanik yo'l bilan olingan hosila bo'ladi. Materiallar silliq, g'adir-budur, yaltiroq, xira, toqli fakturali bo'lishi mumkin. Hosila fakturaning xarakteri materialning qanday usulda (to'qimachilikda, to'r to'qishda olinganiga, yuzasidagi bo'rtiq qismlarining baland - pastligini va iplarning material zichligini belgilaydigan xarakterga bog'liq. Sath birligiga to'g'ri keladigan faktura elementlarining katta-kichikligi va miqdoriga qarab materiallarning yuzasi ifodaliligi jihatidan har xil bo'ladi

Faktura xususiyatlariga yetarli e'tibor bermaslik ko'pincha bitta kiyimda turli materiallar noqulay birga qo'shilib kolishiga olib kelib, bu shaklni bo'linib va nomonand ko'rindigan qilib qo'yadi. Badiiy reja va yechimlar turliligi sababli, ekspluatatsion, texnologik yoki iktisodiy zarurat boisdan bitta kiyimda har xil fakturalarning sifat va miqdor jihatidan birga qo'shilishlarini bo'rttirib ko'rsatgan ma'kul. Har bir fakturada badiiy obraz belgilari bo'ladi. Faktura sovuqlik va iliqlik, yengillik va vazminlik va boshqa taasurotlar hosil qilishi mumkin. Faktura tanlashda mavsum, kiyimning kanday maqsadga mo'ljallanganligi, odamning jinsi, yoshi va gavda tuzilishi turlari hisobga olinishi kerak. Oqshomda kiyiladigan bashang kiyimlar uchun oliyjanob, yaltiroq, sidirg'a materiallar ishlatiladi, lekin olachipor gazlamalar zinhor - bazinhor to'g'ri kelmaydi.

Gazlama xususiyatlari tolalari tarkibi, o'rilib strukturasi va pardoz turiga

bog‘liq. Gazlamaning asosiy xususiyatlaridan biri - uning plastikasi kiyimga shakl berish xususiyatidir. Bu xususiyat har bitta modelga o‘ziga xos stil va kompozitsion tuzilishni belgilaydi.

Kostyuming shakli va kompozitsiyasi gazlama fakturasi, ya’ni gazlama sirtqi ko‘rinishiga bog‘liq. Ayollar ust kiyimini loyihalashda har xil fakturali gazlamalar ishlatiladi (ustki yuzi silliq, to‘qli rasmli va hok.).

Kiyimning hajmiyligini aniqlashda gazlama fakturasi katta ahamiyatga ega. Turli gazlamalar kiyim hajmini kattalashtiradi, yuzasi silliq gazlamalar esa faraziy shaklni kichraytiradi. Kiyimning har bir turi o‘ziga mos bezakli bezaklarni joylanish prinsipini talab qiladi. Ayollar va bolalar ustki kiyimida bezak sifatida quyidagi uning variantlari ishlatilishi mumkin: har xil faktura, rang, dekorativ detallar, furnitura va konstruktiv usullar [11].

Jun gazlama bilan baxmal yoki ipak kabi birikmalar ingliz klassik kostyumida ishlatilishi ko‘pdan beri ma’lum. Bu birikma hozirgacha tantanali marosimlarda va sahnada kiyiladigan kostyumda qo‘llanadi. Jun gazlamalardan tayyorlangan kostyum va paltolarda bolalar kiyimida yoqa, yenglarning qaytarilgan uchlari trikotajdan tayyorlanishi mumkin.

Paltoning mo‘yna yoqasi rangli va fakturali bezak hisoblanadi. Furnitura (tugmalar, to‘qalar, tasma, bog‘ich va hok.) bezak sifatida qo‘llanishi mumkin.

Dekorativ detallar (qopqoqlar, cho‘ntaklar, listochka, belbandlar va hok.) ayollar ust kiyimida va bolalar kiyimida bezak sifatida qo‘llanishi mumkin. Lekin bezak qanchalik yaxshi bo‘lmisin, uning miqdori me’yorda bo‘lishi zarur.

Gazlama fakturasini ifodalashda chekka chegaralar bu yuza birligiga bu elementlarning katta bo‘lmagan miqdoridagi juda yirik element, shunda gazlama bo‘rtma chokli kabi qabul qilinadi (bo‘rtma chokli barxat); element juda mayda, elementlar miqdori bunda shunchalik kattaki, gazlama deyarli silliq kabi qabul qilinadi (krep o‘rilishli gazlamalar). Gazlama yuzasi xarakteri bo‘yicha gazlamalarni silliq, dag‘ir-dug‘ir, buklirlangan, bo‘rtma choklilarga ajratish mumkin. Har bir guruh ichida o‘ralish turi, iplar shakllanish xarakteri, tola turiga ko‘ra o‘z bo‘linishlari bo‘ladi: silliq - yaltiroq (teng aks etuvchi), yaltiroq

(yo‘naltirilgan aks ettirilishli), nursiz (tarqoq aks ettirilishli), mayda va o‘rtalarachali dag‘irlik, buklirlangan – o‘rtacha va yirik zarrali, bo‘rtma chokli - rasmi, yo‘l-yo‘l. Shunday qilib, gazlama rassom-modeler uchun ikki muhim tavsiflarga ega aniq plastik va faktura xususiyatlari.

Amaliyotdagi bu kiyim tayyorlash gazlamalari tavsiflari belgidek bo‘lib qolgan. Ulardan birini qabul qilinishi boshqasi to‘g‘risida va umuman gazlama to‘g‘risida tasavvurni chaqiradi. Kostyum tashkil etilishida texnologik va plastik xususiyatlar, faktura, rang va rasmi bo‘yicha turli gazlamalardan foydalaniladi (gazlamalar va trikotaj, plyonkali va noto‘qima materiallar va boshqalar). Ular kostyuming umuman vazifasi va uning har bir alohida qismidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bu doiralarda kontrast qo‘shilishlar ham, va albatta, juda yaqin fakturali gazlamalar tanlanishi tabiiy. Shaklning faktura va plastik xususiyatlari, uning konfiguratsiyasi yaxlit shaklni qabul qilinishida illyuziyalar paydo bo‘lishiga ta’sir etadi va shu sababli o‘rtta standart o‘lchamlardan og‘gan figuraga kiyimi loyihalashda yaxshilab hisobga olinishi kerak.

Modellashtirish vaqtida gazlamaning struktura xossalaridan foydalaniladi. Gazlama strukturasining xilma-xilligiga iplarni turlicha (ipak, paxta ipi, jun ip, sintetik va sun’iy tola)dan foydalanish yo‘li bilan erishiladi; shunday iplardan to‘qilgan gazlamadagi xususiyatlar trikotajda hamda noto‘qima gazlamalarda bo‘lmaydi. Krep to‘qilishidagi yupqa mayin shoyi va jun gazlamalar har xil yuzali hajmiy formalar hosil qilishga imkon beradi. Cho‘ziladigan mayin gazlamalardan ko‘ndalang va qiya yo‘nalishda chiroyli burmalar hosil qilib bo‘ladi, qattiq va hurpaygan yupqa gazlamalar faqat qiya yo‘nalishda burmalanadi.

Gazlamadagi tanda va arqoq iplarining bir-biriga nisbatan siljish hamda elastik cho‘zilish xossasidan kiyim detallarini qiya bichishda foydalaniladi. Gazlamaning fakturasi uning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, kiyimning tashqi ko‘rinishini belgilab beradi.

Faktura gazlama sirti (yuzasi)ning ishlanish sifati (turi)dir. Gazlamani sirti tekis va g‘adir-budir, xira va yaltiroq, shaffof va xira va hokazo fakturali bo‘lishi mumkin.

Gazlamaning fakturasi uning yuza birligiga to‘g‘ri keladigan to‘qlar, tugunchalar, bo‘rtma yo‘llar va hokazolarning ko‘p - ozligiga bog‘liq. Kiyimning hajmiyligi, zichligi, vaznini belgilashda gazlamaning fakturasi muhim rol o‘ynaydi. Gazlamaning fakturasi kuchayishi (ya’ni, gazlama sirtining g‘adir-budirligi, to‘qliligi ortishi) bilan kiyimning hajmi, zichligi va vazni oshadi. Sirti tekis gazlamadan tikilgan kiyim, aksincha, yengil va ko‘rinishidan ixcham bo‘ladi.

Gazlamaning gullari deganda, uni to‘qigan vaqtida hosil qilingan yoki gazlamani pardozlash jarayonida bosilgan naqshlar, yoxud kiyimni tikish vaqtida solingan gul va bezaklar tushuniladi. Gullarni tashkil etuvchi elementlar abstrakt, geometrik shaklda bo‘lishi, shuningdek, hayvonot yoki o‘simpliklar dunyosiga xos bo‘lishi mumkin. Kiyim tarixining har qaysi bosqichiga o‘z bezak turlari va ularni ishlatish usullari xos bo‘lgan. Kiyimni modellash tajribasida ishlatiladigan bezak turlari xilma-xil bo‘lib, ular kompozitsiyadagi asosiy g‘oya bo‘lishi yoki kostyumdagagi mo‘ljallangan badiiy-obrazli g‘oyani kuchaytiradigan yoki boyitadigan bo‘lishi mumkin.

2.1.3. Notektoniklik sabablari

Kompozitsiyaning ikkala kategoriyasi o‘zaro mustahkam bog‘liqdir. Tektonikaning buzilishi (konstruktiv asos ishining soxta aks etishi) buyum hajmiy tamoyil jihatdan-fazoviy shakli elementlarining uzviy aloqadorligiga albatta ta’sir etadi, shuningdek hajmiy - fazoviy yechimning tamoyil jihatdan noto‘g‘ri hal etilishi tektonik xarakterdagi xatoliklarga olib keladi.

Kiyim loyihasida mo‘ayyan materialning potensial - konstruktiv imkoniyatlaridan foydalanilmasa yoki, bundan ham yomoni, undan g‘ayritabiyy tarzda foydalanilsa, unda tektonika buzilishi kuzatiladi. Odamning harakatlari natijasida chinakam zo‘r kelishlar hisobga olinmasa, shakl konstruksiyasini ishlayotganda notektoniklik yuzaga keladi. Qachonki tektonika mo‘ayyan badiiy yaxlitlikning uzviy qismi bo‘lsa, shundagina u aniq, ravshan va ifodali bo‘lib chiqadi. Fan - texnika revolyusiyasining yutuqlari - yangi materiallarning paydo bo‘lishi tektonikaga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Nima uchun tektonika kompozitsiyaning asosiy kategoriyalaridan biri

hisoblanadi? Gap shundaki, konstruksiya va shaklning konkret materialda ifoda topgan o‘zaro bog‘liqligi - bu eng muhim jihat bo‘lib, u butun buyumning kompozitsiyasini va shu kompozitsiya ustida olib borilgan ishni, ya’ni kompozitsion usuldan boshlab va shakl xarakterini, hamda uning nyuanslarini topishga kadar kompozitsiya vositalaridan foydalanishgacha bo‘lgan ishni belgilab beradi.

2.2. Kompozitsion shakllantirish

Kostyum qulay, chiroqli va amalda xizmat qiluvchi bo‘lishi kerak. Shu sababli uning shakli, konstruktiv yechimi, materiallar, bezaklar va rang tanlanishi uning asosiy amaliy va estetik funksiyalariga bo‘ysunadi. Zamonaviy kostyum ko‘p qatlamli. Uning alohida qismlari bir-biri bilan turlicha nisbatda bo‘ladi: ba’zisi biri ikkinchisi ustiga kiyiladi va to‘liq yoki qisman boshqasini ustini yopib turadi (sorochka, jilet, jaket) yoki birin-ketin kiyiladi (sorochka, shorti, golfi, kedilar). Ma’lum vaqt davomida kostyum kiyim alohida qismlari, poyabzal, bosh kiyimi va qo‘srimchalarning to‘g‘ri tashkil etilishiga ega, ya’ni ma’lum tuzilish bilan tavsiflanadi. Libos shaklining tashqi namoyon bo‘lishi - kostyum shaklidir.

Qismlarning muayyan tartibda tashkil topganligi, ya’ni strukturasi kostyumi xarakterlab beradi. Struktura degan obrazli, funksional va texnik yechimga bog‘liq bo‘lgan geometrik shakl elementlarining muayyan fazoviy tizimini tushunish kerak.

Shaklning geometrik ko‘rinishi shaklning uchta fazoviy koordinatalaridagi o‘lcham mikdorlarining nisbati bilan, umuman shakl va detallari yuzasining xarakteri bilan belgilanadi. Kiyim shaklini ko‘rib chiqayotganimizdagи dastlabki taassurot shaklning hajmdorlik darajasidan, siluet va chiziqlaridan kelib chiqadi.

Shaklning hajmdorlik darjasи – bu uchta fazoviy koordinata bo‘ylab shakl o‘lchamlarining nisbatidir. Shaklning hajmdorlik darjasи bitta o‘lchamli bo‘lsa, chiziqli xarakteri, o‘lchamli bo‘lsa, tekislik xarakterida; kiyim shakl uch o‘lchamli bo‘lsa, hajm xarakterida bo‘ladi.

Buyumning hajmdorlik darjasini tanlash - kostyuming ko‘rinish va

nimaga mo‘ljallanganligi bilan belgilanadi. Chiziqli xarakterdagi shakl bashang kiyimlar uchun tavsiya etilsa, tekislik xarakteridagi har qanday ishga mo‘ljallangan kostyum uchun va hamma turdagи gavdalar uchun, hajm xarakteridagi shakl esa asosan bo‘ychan, ozg‘in gavdalarga mo‘ljallangan bashang kiyim uchun tavsiya etiladi.

2.2.1. Kostyum fazoviy shaklining xususiyatlari: shaklining geometrik turi, shaklining hajmdorlik darjasи, shaklining katta-kichikligi, vazni

Kiyimni shakli kanday tuzilganligi va rivojlanganligini bilish uchun uning ahamiyati va mohiyatini anglash kerak. Dizayn sohasidagi nazariy tushunchalar «Kiyim shakli» tushunchasining mazmunini to‘liq izohlay olmaydi. Kiyim shakli ko‘pincha statik holatda ko‘rib chiqiladi. Vaholanki, u dinamik sistema bo‘lib hisoblanadi. Ba’zida kiyimning inson bilan bog‘liqligini, uning harakati va proporsiyasi bilan bog‘liq holatda qarab chiqish kerakdir. Harbiy xizmatchilarning XIX asr davomida kiyimlar rangining o‘zgarishi o‘rganilganda, faqatgina ularning rangiga e’tibor berib kifoyalanishimizga to‘g‘ri keladi.

Kiyimning shakli o‘rganilayotganda 4 ta darajaga ajratishimizga to‘g‘ri keladi:

- Gazlama fakturasi, rangi, bezak chiziqlari va ko‘rinuvchi choklari - moddiy dekorativ darajadir.
- Kiyim erkinlik darjasи (tanaga yopishuvchanligi - erkin yotish haq darjasи).
- Kiyim shakli geometrik - ichki tavsiv sifatida (proporsiya, geometriya, simmetriya).
- Strukturaviy daraja - odam tanasi shaklining plastikligi - tana plastiklik darajasidir.

Libos shaklining yuqoridagi darajalari bo‘yicha o‘rganish chuqur o‘zaro tahlilni talab etadi. Shunday ekan, kiyim shakli dinamik holatda teatrlashtirilgan guruq yoki bir kishilik manekenchilar yordamida namoyish bilan olib boriladi.

Kiyim namoyishida asosan kiyim modelining fiksatsiyasidan ko‘ra, uning plastik tilsimining shakli xotirada koladi. Kiyimlar namoyishining asosiy maqsadi - shakllar g‘oyasini, masalan geometrik shakllar va ularning proporsional mosliklari

asosida tuzilgan kiyimlar assortimentini omma e'tiboriga berishdan iborat [12].

Kiyim shakli bunda harakatda ko'rindi. Harakat kiyim shakli haqida ma'lumot beruvchi omil bo'lib hisoblanadi. Ma'lum bir kiyim shaklining o'qilishi va qabul kilinishi ma'lum bir vaqt oralig'ida yuzaga keladi, ya'ni fizikaviy jismning fazoda harakatlanishi bilan birgalikda biologik o'zgarish, kuchlanish, tovushlar, mexanik faktorni - vaqtinchalik faktor sifatida qabul qilish kerak. Kiyim shakli ma'lum bir vaqt mobaynida fazodagi alomatlar yig'indisidan hosil bo'ladi.

Shunday qilib, kiyim shakli deganda fazoviy vaqt sistemasining dinamik modeli tushuniladi. Undan model elementlari figurasi va muhiti o'rtasidagi ko'p darajali strukturaviy bog'liqligiga egadir. Kiyim shaklini geometrik ko'rinish – struktura va konstruksiya aniqlaydi.

Shakl mavjudligining asosiy qoidasi - uning yetuqligi va tashkil etilishidadir. Shakl 3 ta aspektida bo'lishi mumkin. Yakka elementar model sistemasi: - Insonning ma'lum obrazini tavsiflovchi sifatida;

- Mahsulotlar guruhining umumiyligi goyasini beruvchi tur sifatida;
- Vaqtning umumiyligi g'oyasini anglatuvchi maksimum sistemanı tavsiflovchi bazaviy shakl sifatida.

Libosdagi geometrik ko'rinish konstruksiya, material va proporsiya shaklini tavsiflaydi. Barcha variantlar uchun asos bo'lib xizmat ko'rsatuvchi bazaviy yoki asosiy shakl deb hisoblaydi. Bazaviy shakl mahsulotlar seriyasiga asos bo'lib, ma'lum uslub uchun goyaviy shakl hisoblanadi. Uslubiy - bazaviy shakl bo'lib, vaqtning ma'lum ahamiyatli alomatlarini mujassamlashtirgan shakl hisoblanadi. Klassik shaklga misol: rubashka, shim, pidjak, yumshoq shlyapa, shapka - qulochchin. Klassik shaklda - azaldan saqlanib kelgan va hozirda funksional talablarga javob beruvchi elementlar mujassamlashgan bo'ladi.

Shakl - nafaqat tashkil etilgan hajm, balki uning fazo bilan chegarasidir. Har bir shakl og'irlik markazi o'q va simmetriyaga ega bo'lishi lozim. Shakl o'rganilishining turli aspektlari - morfologik chiziqlari, funksiyalari, tayyorlash texnologiyasi bo'lib hisoblanadi. Struktura - biror bir ob'ektning muallaq «skeleti» bo'lib qolmay, balki qoidalar majmuasi bo'lib, bir ob'ektning 1, 2, 3 chi va hokazo

elementlari va hosilalari almashtirilishi bilan yuzaga keltiriladi. Struktura - keng tarqalgan tushuncha bo'lib, u geologiya, matematikada uchraydi. Struktura nafakat taxlil uchun, balki buyumning birlamchi qabuli uchun zarurdir. Struktura - 2, 3 bo'lakdan iborat sistema ko'rinishda qabul qilinib, bo'laklanuvchi tushunchasi makrostruktura bo'lib hisoblanidi.

Makrostruktura - uning mashtabi butun asar mashtabiga teng yoki sistemaning to'liqligidir. Makrostruktura deganda, ma'lum bir konstruksiya estetik timsol asosida tuzilgan mahsulotlar guruhining elementar strukturasi bo'yicha ketma-ketligi tushuniladi. Masalan: o'zbek xalqi san'ati motivlari asosida yaratilgan sozandalar, raqqosalar kiyimining murakkab ansamblini.

Mikrostruktura yoki elementar struktura tushunchasi asosida makrostruktura tarkibini tashkil etuvchi alohida modellar tushuniladi.

Strukturani anglashdan maqsad - kostyum alomatlarining sifati o'zgarishlarini tushunish, bu o'zgarish siljishni anglatish va bu hakda EHMga ma'lumot shakli o'zgarishining ahamiyatli va ahamiyatsiz ekanligini ajratishdan iborat. XIX-XX acr kostyum shakllari tahlil kilinganda, ular geometrik shaklning ma'lum bir turiga mansubligi aniqligi, ya'ni shakl detallari ma'lum bir shakl sifatida ekanligi ma'lum bo'ladi. Kiyim shakllaring tahlili, ular siluetlari tahlili bilan yondosh bo'lib, ular trapesiya, to'rtburchak, aylanalar shaklida berilgan. Vaqt o'tishi bilan oddiy, ovalsimon, to'rtburchaksimon konfiguratsiyalar murakkablashib kelmokda (7-rasm). Ular doim transformatsiyalanib, burchaklar kattaligi va chiziqlar qiyshiqligi o'zgarishi bilan hosil bo'ladi.

Kiyim shakli zamona uslubiga mos holatda o'zgarib keladi. XX asr kostyumlaridagi ham sifatiy, ham mikdoriy alomatlar tahlil kilinganda, kiyimning uzunligi va eni bel sathi, shakl proeksiyasi yuzasiga tayanilishi kuzatiladi.

Ustki kiyimlar - palto, plash, ko'ylaklarga nisbatan kam o'zgaruvchan shakldagi to'rtburchaklar ham vaqt davomiyligida o'z shaklini o'zgartiradi. Masalan: 1910 – 1944 yillar va 1966 yillardagi ayollar kiyimidagi shakl farqlari. Har bir moda sikli 103-106 yilni tashkil etadi.



7-rasm. Kiyim shakllari

Kostyum shakli konstruktiv yo'llar bilan ayrim hajmlar va kostyum qismlarining tutashmasi orqali yaratiladi. Bu tutashmalar chiziqlari konstruktiv chiziqlar deyiladi. Ular ichiga releflar, shaklning bo'linish chiziqlari va shaklning hajmini o'zgatiradigan kesik va vitachkalar kiradi. Agar bu chiziqlar dekorativ bezatilsa (chok, badiiy choclar, shnur, tasma va h.k. bilan) ular konstruktiv - dekorativ chiziqlar deyiladi. Bu holda kontruksianing o'zi estetik funksiyani bajaradi.

Dekorativ chiziqlar detallar ustiga tikilgan tasmalar va charmdan bichilgan to'g'ri chiziqli bezaklar bo'lishi mumkin.

Bel chizig'i tikuv buyumi siluetini shakllantirishda yetakchi chiziqlardan biri hisoblanadi. Bel chizig'ida kiyimning zikh yopishib turgani yopishib turuvchi siluetni; o'rtacha yopishib turgani - sal yopishib turadigan siluetni, bel chizig'idagi kiyimning kengligi ko'krak chizig'idagi kenglikka deyarli teng bo'lsa - to'g'ri siluetni, juda bemaloli - kengaygan siluetni hosil qiladi. Yopishib turadigan siluetning bel chizig'i ravon bo'lib ko'rindi.

Struktura deganda obrazli, funksional va texnik yechimga bog‘liq bo‘lgan geometrik shakl elementlarining mo‘ayyan fazoviy sistemasini tushinish kerak.

Kostyum shakli kostyum alohida hajmlari yoki qismlarini konstruktiv yechimi va qo‘shilishi chiziqlari bilan yaratiladi. Bu qo‘shilish hosil qiluvchi chiziqlar konstruktiv deb ataladi. Ularga biriktiruvchi choklar, bo‘rtma choklar, kesish, vitochka shaklini ajratish chiziqlari va hok. kiradi. Bu chiziqlar dekorativ bezalgan bo‘lsa bahyaqator, kashta, bog‘ich, tasma va hokazo), ular konstruktiv-dekorativ deb ataladi. Bu holda konstruksiyaning o‘zi estetik funksiyani bajaradi. Kashta, to‘r, merejka, tasma va hok. bilan ishlangan sof dekorativ chiziqlar ham mavjud.

Asosiy xomashyo materiali sifatida gazlamalar va trikotaj polotnolar o‘z plastik xususiyatlari, drapirovkalanish darajasi bilan shakl xarakterini aniqlaydi: uning yumshoqligi, osiluvchanligi, tana tuzilishi. Demak, shaklning plastik xususiyatlari uning konstruktiv yechimiga ham, gazlamalar xususiyatga ham bog‘liq bo‘ladi.

Kiyim ishlab chiqarish uchun sanoat ishlab chiqaruvchi gazlamalar tola turi: tabiiy (o‘simlik yoki hayvonlardan olingan), sun’iy (o‘simlik yoki hayvonlardan olingan xomashyoni mexanik yoki kimyoviy qayta ishslash yo‘li bilan olingan tolalar) va sintetik (ko‘mir, neft va boshqa smolalarni kimyoviy qayta ishslash yo‘li bilan olingan) tolalar bo‘yicha tizimlanadi.

Gazlama olish uchun iplarni tayyorlashda ko‘pincha yetarli darajada gigienik, mexanik, texnologik, ekspluatatsion va estetik talablarga javob beruvchi turli tolalar aralashmasidan foydalilanadi. Iplarni shakllantirish jarayonining o‘zi turli-tuman: ular ko‘p yoki kam eshilgan, fasonli eshilgan, buklirlangan, profillangan va hokazo bo‘lishi mumkin.

To‘quvchilik va trikotaj o‘rilishlarning turli usullari turli faktura yuzali va turli plastik tavsifli gazlamalar va trikotaj polotnolar ishlab chiqarilishiga yordam beradi. Masalan: yupqa, tiniq, kapron gazlamalar ma’lum taranglikka ega bo‘ladi. Ulardan shakli gazlama yengilligiga mos keluvchi hurpaygan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bunday gazlamalardan tayyorlanadigan tikuv mahsulotlarida

ko‘rinuvchi choklar minimal bo‘lishi kerak (bunday gazlamalarda choklar mahsulot tashqi ko‘rinishini qo‘pollashtiradi va og‘irlashtiradi). «Yog‘simon», «Oquvchan» (krep satinga o‘xshash) gazlamalar odatda (satin o‘rilishi tufayli) yaxshi aks ettiruvchanlik, yaltirash xususiyatiga ega bo‘ladi. Bunday gazlamalardan mahsulotlarni gazlamaning figura bo‘ylab plastik harakatini ko‘zda tutuvchi yetarli darajadagi hajmli qilib bajariladi, bu yengil drapirovkakash bilan erishiladi, shunda gazlamaning ifodaliligi mahsulot shaklini dekorativ ohanggacha ko‘taradi.

Quruq gazlamalar (jun lavsan bilan, zig‘ir tola lavsan bilan va hokazo) mahsulot tayyorlashda ma’lum texnik qiyinchiliklar yaratadi, biroq tarang plastiklikka ega bo‘ladi, ular odatda, yumshoq, tinch tuslarga bo‘yaladi. Ulardan bosiq, biroz «yumshatilgan» yoki qat’iy aniq shakllar (kostyumlar, ko‘ylaklar, ko‘ylak-paltolar va hokazo) yaxshi «yasaladi».





Vazn-kiyim shaklining yaxlitligiga yoki uning alohida qismlarining (tana, yeng, yoqa va h.k.) ko‘z bilan ko‘ringan soni yoki bu umuman kiyim shaklini yoki undagi alohida qismlarning og‘irlik miqdoridir.

Shakl vaznining ko‘rib, idrok etilishiga quyidagilar ta’sir etadi. Shaklning katta-kichikligiga misol: kattaroq shaklning vazni kattaroq tuyuladi; hajmdorlik darjasasi-hajm xarakteridagi shaklning vazni maksimal, chiziqli xarakteridagi vazni esa minimal bo‘lib ko‘rinadi. Shaklning o‘z chegarasi doirasidagi konstruktiv, konstruktiv - dekorativ va dekorativ chiziqlariga qanchalik to‘lganlik darjasasi - kiyim shakli chiziqlarga siyrak to‘lgan bo‘lsa, vazni minimal, o‘ta ko‘p to‘lgan bo‘lsa vazn maksimal bo‘lib ko‘rinadi [13].

2.2.2. Siluet va chiziqlar turlari

Siluet ma’lum davr mobaynida modada yuz bergan o‘zgarishlarini umumiylar tarzda aniqlash imkonini beradi.

Siluetlarni quyidagicha sinflash mumkin: gavdaga yopishib turish darajasiga binoan - yopishib turadigan, sal yopishib turadigan, bemalol turadigan (8-rasm).

1.	2.	3.	4.	5.
				
Yopishuvchi	O'ta yopishuvchi	To'g'ri	Trapesiya	Teskari trapesiya

8 - rasm. Kiyim siluetlari


Materiallar tektonik xususiyatlarini e'tiborga olib, for-eskiz bajariladi. Eskizlar yaratishda kiyim fantaziyasini uning funksionalligini e'tiborga olmasdan, chuqur obrazlilikda ifodalash kerak. Eskizlar chiziqli, chiziqli-dog'li grafika yordamida sinalgan tasviri vosita orqali bajariladi.

Plastik xususiyatlari turli xil bo'lgan gazlamalardan tayyorlangan kiyim shaklining for-eskizini yaratish. Qiziqarli va asl xususiyatlarga ega bo'lgan qator shakllar (moda jurnaliari asosida) tanlanadi va ular asosida taklif-modellar yaratiladi. Bunda talaba quyidagilarni aniq belgilashi lozim:

- kiyimning yelka yoki beldan turishi;
- kiyimning vazifasi va tayyorlanish mexanizmi aniq bo'lishi kerak;
- modellardagi kiyim detallari konkretlashtirishgan bo'lishi kerak;
- eskizlar ijodiy ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Kostyum kishining ma'lum sharoitlarda faoliyati va o'zini tutish xarakteri usullari to'g'risida yuzaga kelgan odatlar va tasavvurlarni hisobga olgan holda yaratiladi [14].

Inson faoliyat sohalarining kengayishi yangi mutaxassisliklar paydo bo'lishiga olib keladi, bu esa kostyum yangi turlarini ishlab chiqilishini talab etadi, ularning shakli nafaqat qulaylik va maqsadga muvofiqlik bilan tavsiflanishi, balki estetik ifodali, insonning ushbu faoliyat turini qayd etishi ham kerak. Quruvchilar, harbiy shifokorlar va boshqa soha mutaxassislari uchun maxsus kiyimlar misol bo'lib xizmat qiladi.



9-rasm. Siluet shakllari

a-to‘g‘ri; b-trapesiyasimon; g-yarimyotuvchi; d-belga yotuvchi

Kostyum shakli uning estetik to‘g‘ri yechimida maqsadga muvofiq va ifodali bo‘ladi: bunda siluet aniqlash, kostyum qismlari proporsional nisbatlari to‘g‘rililigi, detallar ritmik tuzilishi yaqqolligi, kostyum rang tuzilishining uning vazifasiga mos kelishi ko‘zda tutiladi.

Kiyim loyihalash jarayonida uning shakli chuqr ahamiyatga ega. Kiyim shakli o‘sha zamon uslubiga monand bo‘ladi. Kiyimdagি shakl vaqtdagi davriylikni o‘zida saqlab koladi.

Modali narsalarning butun assortimenti muayyan siluet shakllarda yasaladi, bunda yangi mahsulotlar bu siluet shakllarga kiradi va bizning u yoki bu siluet to‘g‘risidagi tasavvurimizni kengaytiradi. To‘rt yetakchi siluetlar ajratiladi (11 - rasm): to‘g‘ri (a), trapesiyasimon (b), yarim yotuvchi (v) va belga yotuvchi (g). Model rasmlarini sxemalar bo‘yicha bajarishni bu jarayonni tezroq o‘zlashtirish uchun o‘rganishadi. Sxemalar bo‘yicha chizish kostyum rivojlanishi mantiqi to‘g‘risida tasavvur bermasa ham, u turli proporsional qismlari kerakli siluetlarni tez yasashga yordam beradi. Modaning har bir yangi rivojlanish davrida kostyuming o‘z proporsiyalari mavjud bo‘lib, u biz intiluvchi moda ideali deb ataladi. Bu eng avvalo uning silueti, ya’ni kostyuming eng sodda geometrik shaklda –

uchburchak, to‘g‘riburchak, kvadrat, oval va hokazo – timsoliy ifodalanishi (2-rasm) bo‘lib, unda asosiy bog‘lamlar (yelka, bel, ko‘krak) muayyan qismlari ajratiladi. Bu bog‘lamlar figura proporsiyalarida ham ajratilgan, biroq ular turli vaqtda turlicha yetakchi bo‘ladi. Figura plastikasi bu bog‘lamlarni kostyumni gorizontal yoki vertikal teng yoki noteng qismlarga bo‘lib ajratib ko‘rsatadi.

Kiyim shaklini tasvirlashda quyidagi asosiy chiziq guruhlari foydalaniladi:

Siluet chiziqlari - shaklning tashqi konturlarini chegaralovchi chiziq.

Konstruktiv chiziqlar - kiyim shaklini hosil qilishdagina qatnashadigan chiziqlar; yelka choklari, vitochkalar, yeng o‘tkazish choklari.

Konstruktiv - dekorativ chiziqlar deb, ham shakl hosil qiluvchi, ham dekorativ vazifalarni bajaruvchi chiziqlar: burtmalar, koketkalarni ulash choklari, qirqmalar, mayda taxlamalar, bo‘rtma burmalar, drapirovkalar, burmalar tushuniladi.

Dekorativ chiziqlar - dekorativ vazifalarmigina bajaruvchi chiziqlar: quyma burmalar, ikki tomonlama quyma burmalar, tasmalar, to‘rlar, bezak detallar, furnitura, kashtalar, bantlar [14].

Shaklning bu xususiyatiga kiyim shakli katta-kichikligi bilan odam gavdasining nisbati tariqasida, shuningdek ikki yoki uch shaklning - ularni bir-biriga taqqoslayotgandagi nisbati tariqasida karaladi.



10 – rasm. Kostyumda chiziqlar:

a – konstruktiv; b – konstruktiv-dekorativ; v, g – dekorativ.

Dekorativ chiziqlar detallar ustiga tikilgan tasmalar va charmidan bichilgan to‘g‘ri chiziqli bezaklar bo‘lishi mumkin. Siluetlar hajmiga ko‘ra quyidagi belgilar bo‘yicha tasniflanadi: figurada joylanishi bo‘yicha (sal yopishib turadigan, yopishib turadigan, bemalol, kengaygan, pastga toraygan) va geometrik shakli bo‘yicha (to‘g‘ri, trapesiyasimon, oval, uchi kesilgan ikki uchburchak ko‘rinishida va X-simon). Moda o‘zgarishida siluet asosiy vositadir. Geometrik shaklning ko‘rinishidagi o‘zgarish siluetdagi o‘zgarishning belgisidir.

3.KOMPOZITSIYANING ASOSIY QONUNIYATLARI

3.1.Kompozitsiya yaxlitliligi

Shaklning yaxlitligi–ma’lum bir kompozitsyaning ichki va tashqi ko‘rinishi birligidir. Badiiy loyihalashda sanoat mahsuloti shaklining to‘liqligi-mantiq va konstruktiv yechimning kompozitsion tatbiq bilan o‘zaro organik aloqasini ifodalarydi.

Yaxlitlilik kompozitsyaning asosiy xususiyatlaridan biri-bo‘ysunuvchanlik bilan o‘zaro bog‘liq. Kiyim yoki poyabzalning ixtiyoriy kompozitsiyasi buyumning ahamiyatli, kamahamiyatli va ikkinchi darajali elementlarining bo‘ysunuvchanligiga asoslangan mo‘ayyan sistema deb qaraladi.

Har kanday kompozitsiyani - asosiy elementlar bilan ahamiyati kamroq va ikkinchi darajaliroq elementlarning bir-biriga bo‘ysunganligiga asoslangan mo‘ayyan sistema deb qarasa bo‘ladi. Bunda asosiy va bo‘ysungan qismlar bir butunlikni tashkil etib, o‘zaro bir-birini kuchaytiradi. Kompozitsion tuzilgan shaklda, shu jumladan kostyumda ham albatta asosiy qism yoki kompozitsion markaz mavjud bo‘lib, boshqa qismlar unga bo‘ysunishi kerak. Asosiy qism yaxlit kompozitsiyada hukmron bo‘ladi turadi.

Kompozitsiyaviyilikning eng muhim sharti, mezoni bo‘lmish yaxlitlik buziladi. Kompozitsiya mahorati aslida yaxlitlik yo‘lida xususiylikni qurbon berishdir. Lekin «qurbon berish» «unchalik muhim bo‘lmagan» unsurni e’tibordan soqit qilish degan so‘z emas. Chunki ikkinchi «toifali» unsurlarsiz asosiy shakl o‘z ifodasini yetarli darajada topa olishi mumkin emas. Har bir holatda me’yorni bilish

zarur. Mayda unsurlar katta miqyosni keltirib chiqaradi, shuningdek, «katta» shakl, vaqt jihatdan idrok etiladigan tasvirda ikkinchi darajaga tushib qolsa ham samara yaxshi bo‘lmaydi, u o‘z ta’sirchanligini, g‘oyaviy salmog‘ini yo‘qotib qo‘yadi.



13-rasm. Kompozitsiyada yaxlitlilik

Kompozitsiya yaratish jarayonida buyumlarga oddiy nigoh bilan qarash, ko‘rinib turgan narsalarni o‘zgartirmay ko‘chirish, bu ijodiy haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Tasviriy san’atda erishilgan ifoda qudrati albatta, hisobning manfiy yo‘rig‘i bilan o‘lchanmaydi. Oddiy suratday haqiqat, san’at sifatida foyda keltirolmaydi. San’at haqiqati, bu nisbiylik, buyum va buyumlarni kompozitsiya qonuniga bo‘ysundirib kerak bo‘lsa, ularning sonini, sifatini, rangini tasviriy ifoda talabiga muvofiq o‘zgartirishdadir.

Kompozitsion birlik deb, kompozitsiyaning mavjudligini ta’minlaydigan xususiyat-kiyim shakli barcha elementlarining birligi, ya’ni elementlarning o‘lchamliligi va bo‘ysunuvchanligi tushuniladi.

Birlik - kompozitsion xususiyat sifatida san’atning barcha ko‘rinish va janrlarida kuzatiladi.

Bo‘ysunuvchanlik – ikki teng bo‘lmagan elementlar nisbati kiyim shaklning teng bo‘lmagan qismlarga bo‘linishi bilan yuzaga keladi [15].

3.2. Kostyumda kompozitsion markazning o‘rni

Kompozitsion markaz qanday quriladi? Inson ko‘zi faqat mo‘ayyan radiusda ko‘radi. Rasmni ko‘zning anatomik tuzilishiga mos qurish lozim. Axir u o‘sha apparatning yordamida ko‘rib chiqiladi, shu sababli uning kompozitsiyasining tuzilishi, albatta, shu qonunlarga bo‘ysunishi kerak. Agar kompozitsiyaning markazi joyini judayam chetga sursangiz, unda rasmda g‘oyaviy ma’no ahamiyatini kamaytiruvchi oqlanmagan bo‘sh fazo hosil bo‘lishi mumkin.

Kompozitsiya markazi ortiqcha, aytaylik, chapga siljitim bo‘lsa, shunday taassurot paydo bo‘ladiki, rasmning romidan tashqarida chapda ham harakat davom etishi kerak, o‘ng tomon esa - egallanmagan bo‘shliq kompozitsiyasini «suyuqlashtiradi», tomoshabin e’tiborini rasm asosiy fikridan chalg‘itadi. Bunday tuzilishda rassom rasmning tasviri tekisligidan noto‘g‘ri foydalanadi.

Kompozitsiya markazi bir oz chetga surilishi mumkin, lekin xolstning qolgan bo‘sh joyini keraksiz material yoki bo‘sh, hech narsa bilan oqlanmaydigan bo‘shliqqa berish uchun emas. Bunda muvozanat qonunlari, xolstning kompozitsiya bilan to‘ldirilganlik hissini ko‘zda tutish lozim. Hech narsani olib tashlash mumkin bo‘lmagan va qo‘sish ham kerak bo‘lmagan kompozitsiya eng qimmatlidir. Buni qonunlashtirmoqchi emasman, biroq rassomda har vaqt kompozitsiya muvozanati va to‘yinganligi hissi bo‘ladi.

Uyg‘unlikni yarata turib, uning ikki zaruriy shartini bajarish kerak: birinchisi muvozanat, ikkinchisi - umumiylidir va bir-biriga bo‘ysunishlik. Kompozitsiyaning asosiy qonunlari shunday.

Kompozitsion – tashkiliy shakl, albatta boshqa qismlar bo‘ysunadigan o‘z asosiy qism yoki kompozitsion markaziga ega bo‘ladi. Asosiy qism – kompozitsiyaning dominanti bo‘lib, bu qismda elementlar o‘zaro aloqalarining yig‘iladi.

Kompozitsion markaz bo‘lib, shaklning ixtiyoriy elementi yoki qismi bo‘lishi mumkin. Kostyumda kompozitsion markaz bo‘lib, sumka yoki poyabzal ham bo‘lishi mumkin. Bunda erkaklar kostymida shim ostki qirqimi va tuqli

o‘rtasidagi, ayollar kostyumida yelka yoki belda turadigan kiyim va etik ustki qirqimi o‘rtasidagi nisbatlar kabi kompozitsiya maydonlarining butun yechimini aytib o‘tish joizdir. Erkaklar kostyumida shimplarning poyabzal ustiga tushirib kiyish urf bo‘lishi – ularning poyabzal bilan aniq o‘zaro kompozitsion aloqasi yuzaga keltirdi.



a

b

c

14 - rasm. Kompozitsion markaz:a – old yuqori qismda, urg‘u – yoqada; b – yubkada, urg‘u – volanlarda, c – kostyum orqa qismida, urg‘u – yoqada

Kompozitsion markaz gavdaning istalgan qismida bo‘lishi mumkin. Masalan, u yuzga yaqin joyda, belda, ko‘krakda, bo‘ksada, oyoq yaqinida, oldinda yoki orqada joylashgan bo‘ladi. Shakl elementlarining o‘zaro tengsizlikni belgilaydigan kompozitsion markazning boshqa qismlardan ustunligini ta’kidlab beradigan xususiyatlarning qonuniyatlari asosida kompozitsion markazni bo‘rttirib ko‘rsatishga erishiladi. Quyida shu konuniyatlarni ko‘rib chiqamiz:

Miqdor qonuni - bir turli bezakning katta-kichikligi, hajmi, vazni yoki miqdori kattaroq bo‘lgan boshqa qismlaridan ustunrok kelishidir.

Markazda bo‘lish qonuni – bo‘rttirib ko‘rsatiladigan qismning nisbatan markaziy joyda bo‘lishi va boshqa hamma jihatlari teng bo‘lgan holda, shu qismni asosiy kompozitsion markaz qilib ko‘rsatishidir.

Sifat qonuni - xususiyati yoki bir guruh xususiyatlari jixatidan ko‘proq bo‘lgan qism ustun bo‘lib turishidir. Rasmiy xarakterda bo‘lgan har kanday turli bezaklarning har xil aktivligidan va sifatidan foydalanish asosiy qismni bir butundan ajratib ko‘rsatish usullaridan biri bo‘ladi.

Ma’no omili qonuni - bir butunning ma’nosini bor bezakli qismi rasmiy xarakterdagi bezakli qismlardan ustun turishidir.

Ikki o‘lchamli va uch o‘lchamli tasvirning yasalishini tashkil etuvchi asosiy qoidalari yoki doimiy qonuniyatlarga kiradi:

1. Proporsiyalar, qismlar va butun organizm uyg‘unligi qonunini o‘rgatuvchi tabiiy shakllar ko‘pligi, odam gavdasi tuzilishi plastikasidan kelib chiquvchi simmetriya qoidalari;
2. Muvozanat qoidalari – turli massali tasvir qarama - qarshi tomonlarining qo‘shilishi;
3. Kompozitsiyaning plastik yechimida statika va dinamika (tinchlik va harakat) qoidalari;
4. Ritm qoidalari – katta va kichik shakllar, harakat va tinchlik, kontrast va pasaytirilgan, yorug‘lik va soyaning to‘g‘ri navbatlashuvi;
5. Turli kompozitsion yechimlarga qo‘llanuvchi istiqbol qoidalari – illyuzor istiqbol, to‘g‘riburchakli (ortogonal), havo;
6. Oltin kesilish va order arxitekturada qismga ajratish qonuniyati sifatida;
7. Masshtab natural kattalikka nisbatan kichraytirish yoki kattalashtirish yo‘li sifatida;
8. Ansamblda uslubiy birlik – bir necha san’at turlarining qo‘shilishi;
9. Boshqa barcha yo‘nalishlarga nisbatan o‘qlar doimiylar sifatida vertikallar va gorizontallar [16-17].

Aytilgan qoidalar bo'yicha haykallar, rassomchilik, me'morchilik, tikuvchilik asarlari va rasmlar yaratiladi – faqatgina tasvirlash vositalarigina o'zgaradi.

Kompozitsiyaning eng asosiy qonuniyati deb yaxlitlikni hisoblash kerak. Syujet jihatdan kompozitsiya qanchalik murakkab bo'lmasin, unda qancha figuralar bo'lmasin, ular masshtabi qanday bo'lmasin, kartina o'zida alohida tasviriy dunyoni aks etarkanmi. Shuning uchun rassom ijodi, uning kompozitsion g'oyasi qanchalik o'ziga xos bo'lmasin, kompozitsiyaning ob'ektiv vositasi **yaxlitlik** - uning qonuniyatlaridan muhimidir.

Yuqoridagilardan xulosalar chiqarishga harakat qilamiz.

Kompozitsiya konstruktiv - plastik yechimining ob'ektiv qonuniyatlarini deb:

- 1) rassomchilik maydoni cheklanish chegaralari, kompozitsiya doiralarini;
- 2) rasmda fazoviy chegaralar va syujet ta'sir joylarini;
- 3) yaxlitlik;
- 4) komponentlar o'lchami mosligi, ya'ni ritm va plastika;
- 5) ko'rish markazining topilishini hisoblash kerak.

Rasmning tuzilishida asarni hosil qiluvchi barcha elementlari kompozitsiya tasviriy tuzilishi rasm g'oyaviy mazmuniga zid bo'lmasligi, u ma'no jihatni va ifodaliligi bo'yicha qolishmasligi, tasviriy markaz ruhiy markaz bilan mos kelishi uchun asosiy kompozitsion g'oyaga bo'ysunishi kerak.

Kompozitsiyani shunday hal etish mumkinki, u yaxshi tuzilgan bo'ladi: odamlar harakatlariga mos holatda olingan bo'ladi, ular bir-biri bilan bog'liq bo'ladi, biroq tasviriy tuzilish uning mazmuni, g'oyasiga hamohang bo'lmasligi mumkin. Bu hol rasmning tomoshabinni jalb etuvchi eng chiroyli qismi tomoshabin e'tiborini eng kam tortish kerak bo'lgan joyda joylashtirganda yuz berishi mumkin.

Kompozitsiya tarkibiy qismlarini bir biriga mosligi. Kompozitsiyada muhim omillardan biri - **shakllar muvozanatidir**. Ularning unsurlari bir-biri bilan mo'ayyan bog'lanishli muvozanatda bo'ladi. Kompozitsiya muvozanati o'lchamlar tengligiga bog'liq emas.



15 -rasm. Kompozitsiyada muvozanat

Kompozitsiyaning qay darajada aks etishi ko‘pincha uning markaziga bog‘liqdir. Yuki og‘ir buyumlar yuqorida, markazda joylashgan bo‘lsa, bu hol turg‘unligi uchun juda katta ahamiyatga egadir. Ba’zan tirgovich va massa orasidagi munosabat bizni o‘ziga qaratadi, fikrimizni jalb etadi.

Me’morchilikda fizik markazning kompozitsiya markazi bilan to‘g‘ri kelmasligi ko‘p uchraydi.

Kompozitsiya turg‘unligi mutanosib shakllarda bo‘ladi. Ayni chog‘da, mutanosiblik kompozitsiyaning turg‘unlik darajasiga kafillik bera olmaydi. Butun va qisman bo‘lsada nomutanosiblik. va miqiyosga ega bo‘lmaslik mutanosib turg‘unlikni buzishi mumkin.

San’at olamida shunday hollar ham uchraydiki, u yerda kompozitsiya turg‘unlikning eng noyob asosi, namunasi bo‘lib qolishi mumkin.

Loyihalovchining vazifasi, buyum shakllanishining fizik turg‘unlik muvozanatini yechib ko‘rsatishdan iboratdir. Chunki buyumlar uchun kompozitsiyaviy butunlik katta ahamiyatga ega. Fizik turg‘unlik konstruksiyani mustahkamlashda ham yaxshi vositalardan biri bo‘lib, u hisob-kitoblar asosida aniqlanadi.



a

b

16-rasm. Libos kompozitsiyasida muvozanat

a-muvozanat mavjud b-muvozanat mavjud emas

4. KOMPOZITSIYA VOSITALARI

4.1. Proporsiya va nisbatlar

Kompozitsiya vositalari orasida proporsiyalarni, o'lcham nisbatlarini birinchi o'ringa qo'yish kerak - butun kompozitsiyani ko'rishning asosidir.

Shaklning bo'laklardan iboratliligi odam gavdasi tuzilishining murakkabligidan, uning qaddi - qomati tuzilishidan, necha yoshdaligidan, materialning xarakteridan va kiyimning tikilish texnologiyasidan, modaning nimaga mo'ljallanganligi va yo'nalishi qandaylidan kelib chiqadi.

Kiyimdagи mutanosiblik - proporsiya kiyim alohida qismlardagi mos o'lchamlarning bir - biriga, hamda odam gavdasidagi mos o'lchamlarga bo'lgan nisbatidir.

Proporsiya - ikki nisbatning tengligi. Ikki solishtirma miqdorning ijobiy taassuroti ularni bir-birnga mosligini bildiradi. Solishtirma miqdorlarning bir-biriga qonuniy mosligini ta'minlaydigan nisbatlar bor. Ular oddiy va irratsional turlarga bo'linadi. **Oddiy nisbatlar** - bu butun sonlarning nisbati. **Irratsional nisbatlar** - bu kasr sonlar nisbati. Ular geometrik tuzilma yordamida topiladi va nisbatlar tuziladi. Detallar o'lchamlarini, kiyim qismlarining aniq nisbatlarini va uning obrazli yechimini aniqlashda asosan sonlar nisbatida asoslangan.


Tasvirlangan buyumni uning proporsiyasiga qarab, ya'ni buyum qismlari uzunligining kengligiga nisbati orqali bilish mumkin. Har qanday buyum faqat o'zigagina xos bo'lgan ma'lum proporsiyalarga, buyum qismlari kattaliklarining bir - biriga va butun buyumga nisbatan o'lcham nisbatlariga ega bo'ladi. Buyumni bilishda na uning shakli, na rangi yoki materiali proporsiya kabi shunchalik katta rol o'ynamaydi.

Rasmda buyum proporsiyasini aniq topish rasm soluvchi ko'zining o'lhash (chamalash) qobiliyatiga bog'liq. Ko'z bilan o'lhash qobiliyati naturadan (aslidan) sistemali ravishda rasm chizish mobaynida asta-sekin rivojlanadi. Buyumlar guruhini chizishda murakkabroq masalani yechishga - buyumlar guruhi proporsiyasini topishga to'g'ri keladi. Bu holda buyumlar qismlari va kattaliklarini ko'z bilan chamalab taqqoslash usuli ishlatiladi. O'lchov birligi sifatida shu guruhdan biron buyumning kattaligi olinadi. Qanday proporsional nisbatlarni tanlash kiyimga qo'yiladigan funksional talablarga bog'liq. Shuning uchun hamma hollarda bir xilda yaxshi bo'laveradigan qandaydir proporsiya bo'lishi mumkin emas. Proporsiya tanlash kishi gavdasining xususiyatlariga ham - uning bo'yi, to'laligi, qomat rasoligi tuzilishga va albatta, yoshiga ham bog'liq.

Qanday proporsional nisbatlarni tanlash kiyimga qo'yiladigan funksional talablarga bog'liq. Shuning uchun hamma hollarda bir xilda yaxshi bo'laveradigan qandaydir proporsiya bo'lishi mumkin emas. Proporsiya tanlash kishi gavdasining xususiyatlariga ham - uning bo'yi, to'laligi, qomat rasoligi tuzilishga va albatta, yoshiga ham bog'liq.

Kiyimning shakli har xil bo'linishlarga ega bo'lishi mumkin, buni odam

tanasi shakliga, material strukturasiga va tikuv buyumi texnologiyasiga, kiyimning vazifasiga va unga qo‘yiladigan talablarga bog‘liqligi bilan tushuntirish mumkin.



17- rasm. Qizlar gavdasining tuzilishidagi o‘zaro mutanosib nisbatlar-a; qizlarning har xil yosh guruhlariga oid kiyimlarning konstruktiv shakli-b

4.2. Proporsiyalar-uyg‘unlashtirishning asosiy vositasi.

Proporsiya turlari. Oddiy nisbatlarning komrozitsiyada o‘rni.

Irratsional nisbatlarni tuzish qonunlari

Konstruktiv poyaslarning gorizontal sathi odam figurasining proporsiyasi bilan uzviy bog‘langan. Bolalar figurasiga kelganda, bolalar bir tekis rivojlanmaydi. Ularning qo‘l, oyoq va bosh uzunliklarining nisbati yoshining xususiyatlarini aniqlaydi. Bolalar yoshi bo‘yicha beshta guruhga bo‘linadi. Har bir

yosh guruhiga mansub bo‘lgan kiyim mutanosibligi va hajmi bo‘yicha o‘z xossasiga ega. O‘smirlar kostyumiga kelganda, uning mutanosiblik yechimi va kompozitsion tuzilishi asosan kattalar kostyumiga o‘xshash.


O‘smirning shakllangan figurasi kiyimda har xil (lekin uning yoshiga monand) konstruktiv chiziqlar va murakkablashgan bichimlar qo‘llashga ruxsat beradi.

Libos proporsiyasi - bu kiyim qismlarining o‘lchamlariga binoan birbiriga va odam gavdasiga taqqoslangan nisbatlaridir. Kiyimning bo‘yi, eni ko‘krak qismi bilan yubkasining, yenglarining, yoqasining, bosh kiyimining, detallarining hajmi, uzunligi, kiyim kiyilgan qad-qomatni ko‘rib idrok etishga, uning o‘lchamlari monandligini fikran baholashga ta’sir ko‘rsatadi. Inson gavdasining tabiiy mutanosibligiga yaqin bo‘lgan nisbatlar eng chiroyli, mukammal, «to‘g‘ri» ko‘rinadi.

Ma’lumki, boshning uzunligi kishi bo‘yining uzunligiga 8 martagacha joylashadi, bel chizig‘i esa tanani taxminan 3:5 nisbatda ikkiga bo‘ladi. Turli yo‘llar bilan tabiatdagi, san’atdagi monandlikni izlagan qadimgi rassomlar, arxitektorlar, olimlarning tadqiqotlarida, chizmalarida, hisoblashlarida «oltin kesim» tushunchasini uchratamiz; bu tushuncha matematik yo‘lda 3:5, 5:8, 8:13, 13:21 va hokazo sonlar nisbati tarzida ifoda etiladi. Bunda kichik qism katta qismga xuddi katta qisn butun qismga nisbati kabi bo‘ladi. «Oltin kesim» mutanosibliklari eng yaxshi arxitektura asarlarida takrorlanadi, jonli tabiatda ko‘p marta uchraydi, ya’ni qonuniy, doimiy hisoblanadi.

Odam figurasi orasida ham mana shu proporsiyalar takrorlangani eng proporsional hisoblanadi. Kostymda tabiiy proporsiyalarni ham, ataylab buzilgan proporsiyalarni ham ishlatish mumkin. Bu yerda turli variantlarni batafsil ko‘rib chiqishning iloji yo‘q, chunki buning uchun kompozitsiya qonunlarini jiddiy o‘rganish kerak. Tabiiy mutanosiblilar, odatda, har qanday figura uchun "foydali" ekanini yodda saqlash kerak; ayni vaqtida kiydirib ko‘rish vaqtida biron chiziqni sal nari - beri surib, "izlab ko‘rib" (masalan, bel chizig‘ini ozroq ko‘tarish yoki tushirish, yelkalarni toraytirish yoki kengaytirish, ko‘ylak, yeng uzunligini, yoqa,

cho‘ntaklar, belbog‘ o‘lchamini, sal o‘zgartirish mumkin) gavda tuzilishi kamchiliklarini tuzatish mumkin [17].



18 – rasm. Odam gavdasi va kostyum proporsiyasi

Kiyim yaratish ko‘p jihatdan me’morlikka o‘xshab ketadi - bu ikkala san’at ham odamlarga bevosita tegishli, odamning tabiiy mutanosibliklaridan kelib chiqqan: nihoyat, kiyim odam bilan birga deyarli hamma vaqt binolar orasida, ichki xonalarda bo‘ladi. Binolar ham o‘z navbatida tabiiy muhitda, shahar arxitekturasi orasida bo‘ladi. Shuning uchun turli zamonlarda arxitektura va kiyim o‘z davrining badiiy uslubini aks ettirgan: xalq kiyimi esa eng yaxshi, eng mukammal, eng «mangu» nima bo‘lsa, hammasini o‘ziga singdirib asrlar mobaynida saqlaydi. Kiyim detallari o‘zicha qanchalik yaxshi bo‘lmasisin, lekin butun hajmiy-fazoviy strukturani aniq proporsional sistema birlashtirib turmasa, shaklning bir butun bo‘lib chiqishi qiyin.




19-rasm. Libosda proporsiya

Kiyim detallari o‘zicha qanchalik yaxshi bo‘lmasin, lekin butun hajmiy-fazoviy strukturani aniq proporsional sistema birlashtirib turmasa, shaklning bir butun bo‘lib chiqishi qiyin.

Kiyim shakli monolit bo‘lmaydi va odatda, uni tashkil etuvchi butun bir qator qismlardan iborat bo‘ladi. Shaklning bo‘laklardan iboratligi odam gavdasi tuzilishining murakkabligidan, uning qad - qomatidan necha yoshdaligidan; materialning xarakteridan va kiimni tikish texnologiyasidan; modaning nimaga mo‘ljallanganligi va yo‘nalishi qandayligidan kelib chiqadi.

Oddiy nisbatlar - bu butun sonlar nisbati. 1 dan 8 gacha bo‘lgan sonlar oddiy nisbatlarning chegarasi hisoblanadi. Ularni amalda inson idrok etadigan miqdorlar mosligini aniq idrok etish chegarasi deyish mumkin. Kostyum ustidagi tadqiqotlar ko‘rsatishicha, $\frac{7}{8}$, $\frac{3}{4}$, $\frac{1}{3}$, $\frac{2}{3}$ nisbatlari eng ko‘p uchrab turar ekan (20-rasm).

Irratsional nisbatlar - bu ko‘pincha geometrik tuzilma yordamida olinadigan kasr sonlar nisbati.



20-rasm. Inson tanasi proporsiyasi

Qanday proporsional nisbatlarni tanlash kiyimga qo‘yiladigan funksional talablarga bog‘liq. Shuning uchun hamma hollarda bir xilda yaxshi bo‘laveradigan qandaydir proporsiya bo‘lishi mumkin emas.

Proporsiya tanlash kishi gavdasining xususiyatlariga ham - uniig bo‘yi, to‘laligi, qomat rasoligi qandayligiga va, albatta, yoshiga ham bog‘liq.

4.3. Metrik va ritmik tuzilishlar. Ritmnинг kompozitsiyada о‘rni.

Metrik tuzilishlar qoidalari. Ritmik tuzilishlar qoidalari

Ritm - maromlilik tushunchasi, umumiyl ko‘rinishda - bu shakl elementlarining navbatma - navbat konuniy almashlanib turishidir.

Maromlilik tushunchasi umuman olganda vaqt davomida yoki fazoda elementlarning mo‘ayyan takroridir.

Maromlilikning eng oddisi - bu bir elementning teng oraliqlarda takrorlanishi. Maromlilikning bu xili metrik takrorlanish deyiladi.

Elementning o‘zini yoki elementlar orasidagi masofaning orta borishi yoki kamaya borishi mutanosibli ketma-ket maromlilikni xarakterlaydi.

Maromlilik asosiga mutanosibli nisbatlar qo‘yilgan. Quyidagi maromlilik chiziqlar (konstruktiv va dekorativ), dekorativ detallar (cho‘ntaklar, qopqoqlar, belbandlar, tugmalar, bezak bahyaqatorlar va hok, gazlama fakturasi (ikki-uch xil fakturalar birikmasi), ranglar (kostyumda ikki-uch xil ranglar birikmasi), bezak shakli kabi elementlar yordamida yaratiladi.

Ritm - aynan «takt, marom» (grekchada - «rafmos») degan ma’noni anglatadi. Ritmnинг muhim belgilari - ko‘rinish, elementlar yoki shakllarning takrorlanishi, ularning almashinish qonuniyati kabilardir.

Metriklik - mexanik tarzli harakatdagi bir maromlilik. Agar kompozitsiyada ritm rivoji chegaralangan bo‘lsa, metrik kompozitsiya cheksiz qaytariladi. Ornament metrik qatorning yorqin namunasi bo‘la oladi. Turli to‘lqinsimon va to‘g‘ri chiziqlar, kichkina krestlar, romblar, aylanachalar - bularning hammasi qatorda, tekislikda yoki biror hajmda qatorlashib, shu bilan ornament hosil qiluvchi ma’lum ma’lumotdir.

Kostyum kompozitsiyasidagi maromlilik kostyumni tashkil etgan shaklning hamma qismlarini bir-biriga bog‘lovchi vositalardan biri hisoblanadi. Aksentli (e’tibor tortadigan) elementlar **aktiv elementlar** deyiladi, aksentsizlari esa **passiv elementlar** deb yuritiladi.

Aktiv elementlar o‘rtasidagi oraliq (interval) **dinamik odim** deb ataladi. Elementlar harakatining orta borish tezligi **sur’at** deyiladi. Oddiy metrik qator, ya’ni bir xil shakllarning teng intervallarda takrorlanishi kompozitsiya tuzishga asos qilib olinadigan eng oddiy qonuniyat hisoblanadi.


Ikki yoki undan ortik oddiy metrik qatorlarning birga qo‘shilganidan iborat qator **murakkab metrik qator** deb ataladi.

Shakllarning va ular o‘rtasidagi intervallarning birin-ketin konuniy o‘zgara borishi (kattalashi yoki kichraya borishi) shakllar joylanishining ritmik tartibi

deyiladi.

Ritmik tartiblar quyidagi sxemalarda bo‘lishi mumkin: teng elementlar takrorlanib turadi-yu, ular o‘rtasidagi intervallar o‘zgara boradi:

- shakl elementlari kattalasha yoki kichraya boradi-yu, interval o‘zgarmaydi;
- shakl elementlari ham, ular o‘rtasida intervallar ham kattalasha yoki kichraya boradi;
- shakl elementlari radial yo‘nalishda kattalasha yoki kichraya boradi.



21 - rasm. Kompozitsiyada ritmik tuzilish

Ritm kamaya boradigan yoki orta boradigan bo‘ladi. Bundagi sur’at sur’at sekin, o‘rtacha, tez bo‘lishi mumkin. Bu esa kostyumda dinamika hosil qiladi.

Odam gavdasining simmetriya o‘qiga nisbatan yechimlarini turli xil joylanishidan foydalanib, shakl elementlarining ritmik tuzilishiga erishsa bo‘ladi. Kostyum kompozitsiyasida ritmik tuzilishining birgina turidan foydalanish kamdan - kam uchraydi. Kompozitsiyalarda metr va ritm munosabatlardan foydalanish mumkin. Ritmik qatorlarning metrik takrorlanishi juda original asarlar yaratishga yordam beradi. Shakl badiiy obraz ifodasining eng muhim vositasi, lekin birdan bir, yolg‘iz vosita emas. Rang shakl bilan muvofiqlikda o‘z mohiyati jihatidan boy asarlarni tashkil etadi. Bundan tashqari, rang, faktura yoki yorug‘lik bilan ifodalanmagan tasviriy shaklning o‘zi shunchaki mavjud emas.

Metrik tuzilish - elementlar takrorlanishining malum qonuniyatları. Agar takrorlanishlar orasi bir xil bo‘lsa (yoki ko‘rinishdan bir xil bo‘lib tuyulsa), bu **metrik takrordir**.



22 - rasm. Kompozitsiyada metrik tuzilish

Agar takrorlanishlar orasi sekin - asta o'zgarsa, bu **ritmikadir**. Ritm - elementlar tuzilishi tartibining qonuniy o'zgarishi bo'lib, almashinuvchi, element xususiyatlarining sekin-asta miqdoriy o'zgarishlarida biz ular majmuining ma'lum bir ritm ko'rinishidagi dinamik xususiyatlariga ega bo'lamiz. Ritm elementlar xususiyatlari dinamikasini yaratadi va kuzatuvchi ko'zlarini mahsulot kompozitsion markaziga «olib boradi», bu esa o'z navbatida undan, mahsulot mnemonik (esda saqlanadigan) tuzilishini yaratishda ma'lumot beruvchi sifatida foydalanish imkonini beradi.

Shaklning hamma elementlari – hajm chiziqlar, faktura, detallar, bezak va hokazolar ritmik tuzilishi mumkin. Kostyum elementlarining birlashish sxemasiga binoan ritmik tuzilish vertikal, gorizontal, diagonal, spiral, nursimon, radial, bir tomonli, qarama - qarshi va aralash yo'nalishli bo'ladi.

Ritm tushunchasi umumiyligi ko'rinishda bu shakl elementlarining navbatma-navbat qonuniy almashinib turishi. Kostyum kompozitsiyasidagi ritm kostyuminini tashkil etgan shaklning hamma qismlarini bir-biriga bog'lovchi vositalardan biri hisoblanadi. Ritm har qanday asarga musiqiylik baxsh etadi, uni harakatga soladi. Ritm sababli bosh kompozitsion g'oyaning jarangdorligi ortadi, mo'ayyan tartib va ravonlik kiritiladi. Shakl elementlarining va ular o'rtasidagi intervalning

takroriyligi ritmning xarakterli alomati hisoblanadi [18].

Shakllarning va ular o‘rtasidagi intervallarning birin - ketin qonuniy o‘zgara borishi (kattalashishi yoki kichraya borishi) shakllar joylanishining ritmik tartibi deyiladi. Ritmik tartiblar quyidagi sxemalarda bo‘lishi mumkin; teng elementlar takrorlanib turadi-yu, ular o‘rtasidagi intervallar o‘zgara boradi; shakl elementlari kattalashib yoki kichkinalashib boradi-yu, interval o‘zgarmaydi; shakl elementlari ham, ular o‘rtasidagi intervallar ham kattalasha yoki kichraya boradi.

Ritm kamaya boradigan yoki orta boradigan bo‘ladi. Bundagi sur’at sekin, o‘rtacha, tez bo‘lishi mumkin. Kostyum kompozitsiyasida ritmik tuzilishning birgina turidan foydalanish kamdan kam uchraydi. Shaklning hamma elementlari - hajm, chiziqlar, faktura, detallar, bezak va hokazolar ritmik tuzilishi mumkin. Kostyum elementlarining birlashish sxemasiga binoan ritmik tuzilish vertikal, gorizontal, diogonal, spiral, nursimon, radial, bir tomonli, qarama-qarshi va aralash yo‘nalishli bo‘ladi. Elementlarning rivojiana borishida o‘z qonuniyat borligi kompozitsiyani ritmik hal qilishning xarakterli xususiyatidir. Bir kompozitsiyada, ritmda va bir-biriga nisbatan parallel rivojlanuvchi, kesishib yoki hatto qarama - qarshi yo‘nalishda harakatlanib qurilgan kompozitsion birikmaning katta miqdori bo‘lishi mumkin. Ritmik ko‘rinish hisobiga tekislik yoki hajm markazi faol tashkil topadi, hajmiy-fazoviy yechimda esa asosiy g‘oya aniqlanadi.

Kompozitsiyaviy tarkibga ko‘ra, harakat masofa oralig‘i (interval) orqali ohista tasvirlansa tamom bo‘lmaydigan, davom etadigan ko‘rinish kasb etishi mumkin. Bunday holda tasvir shartli ravishda tamomlanadi. Uy bezagi hisoblangan palak naqshlari asosidagi kompozitsiyani asosan ritmdan iborat tasvirlar desak ham yanglishmaymiz. Ammo, tasviriy san’atning barcha sohalarida ham ritm asosiy, hal etuvchi vazifani bajaravermaydi. Ayrim kompozitsiyalar voqeligidagi ritm o‘zining asosiy badiiyatli ta’sirini ko‘rsatadi. Vazn (ritm) kompozitsiyaning qonuniy bir bo‘lagi bo‘lishi bilan bir qatorda asar diapozonining kengligini belgilashi bilan ham rassom ijodida katta o‘rin tutadi [19].



23 - rasm. Kostyumda ritm ko‘rinishlari

Ritmik ko‘rinish qonuniyatları bilimi ko‘p jihatdan har qanday turdagı kompozitsiyalarни, ularning birligi va bir-biriga bo‘ysunishi, yaxlit asar singari ularning qismlari muvozanatini yaratish muammolarini hal qiladi.

5. KOMPOZITSIYANING UYG‘UNLASHTIRISH USULLARI

5.1. Kompozitsiyada kontrast, nyuans va o‘xshashlik

Shakl elementlari o‘xshashlik prinsipiga kontrastlik prinsipiga binoan birlashgan bo‘lishi, ya’ni hamma qismlar takrorlanishga asoslangan yoki shakl, rang, hajmlilik darajasi, fakturadagi chiziqlar jihatidan bir-biriga qarama-qarshi ko‘yilgan bo‘lishi mumkin.

Kontrast kompozitsiyadagi turli yo‘nalishlarning kurashi, bir - biriga qarama - qarshiligi bo‘lib, bu rassomlarning hamma vaqt eng keng foydalaniib kelgan vositalaridan biri bo‘lib kelgan. Kostyum tarixida kontrastlik mavzusi asar xarakteri, davr uslubi, avtor individualligi ko‘ra, eng xilma-xil ifoda topib, asrlar davomida o‘zgarib kelgan.

Kostyum kompozitsiyasining asosi bo‘lmish - odam figurasi kontrast asosida yaratilgan: uning vertikal tuzilishi gorizontal o‘lchamlari bilan kontrastdadir. Demak, figuraning tuzilishi kostyum kompozitsiyasiga kontrast

kiritishga imkon beradi. Figuraning barcha qismlarida kontrastni qo'llash mumkin. Qo'l va yelka – odam tanasining eng faol zonasini hisoblanadi.

Shaklning kontrastiga uning miqdori va turini grafik taqqoslash yordamida erishiladi. Chiziqlari o'xhash shakllarda figurani barcha konstruktiv kamarlarida kontrastni qo'llash mumkin. Geometrlashgan shaklning silueti figuraning shakli bilan kontrastda kostyum qismlari esa vazn nisbatlari bilan bo'lishi mumkin. Yengning ta'siri ikki xil bo'lishi mumkin: yeng shakli neytral bo'lsa, asosiy qismlarining kontrastiga halaqit bermaydi, yoki u shaklni biror-bir shakliga nyuansli bo'ladi. Shunga ko'ra siluetda shakl kontrasti kuchayadi, qaerda faqatgina lif va yubkani kattaligini o'zgartirmasdan, yeng shakli va vazni o'zgargan. Yengda egri chiziqli shakllar kiritilganligi tufayli kontrast kuchayadi.

Shaklning vazni ko'payishi siluetni og'irlashishiga olib keladi. Shunday qilib kostyum odamni o'ziga bo'ysundiradi va salobatli qilib ko'rsatadi. Kostyumda rang, faktura kontrastlari ham muhim rol o'ynaydi.

Kontrast kompozitsiyasidagi turli yo'naliishlarning kurashi, bir-biriga qarama - qarshiligi bo'lib, bu rassomlarning hamma vaqt eng keng foydalanib kelgan vositalardan biri bo'lib kelgan. Kontrastga asoslanib tuzilgan kompozitsiyaning mohiyati - uning ta'siri aktivligidadir [20].



24-rasm. Libosdagi ranglar kontrasti

Shunisi qiziqliki, kontrastning kuchliligi – uning zaif tomonidir. Idrok etishga aktiv ta'sir etuvchi vosita bo'la turib, unda salbiy tomonlari ham bor: u odamni tez charchatadi va tez jonga tegadi, chunki u doimo o'ziga e'tiborni tortib turadi. Har qanday kuchli ta'sir etuvchi vosita ehtiyoj bo'lishni talab qiladi, bunday vositani haddan tashqari har qanday taassurotni buzib yuboradi. Kontrast bilan foydalanganda muayyan darajadan oshmaslik, kontrast me'yorini saqlash kerak. Kontrast kompozitsion vositasi asosan bashang, sport, tomoshaga oid kostyumlarda qo'llanadi.



25 - rasm. Libosdagi bo'yalmagan ranglar kontrasti

Nyuans - kompozitsiya vositasi tariqasida proporsiyalarda, maromda, gul va tus nisbatlarida, dekorda, plastikada, andaza qo'yib chiziladigan murakkab egri chiziqlar yordamida shakllar tuzishda va hokazolarda ko'rindi.

Plastik nyuanslar avvalo shakl xarakterida ko'zga ko'riniib, unga san'atga xos, alohida iliqlik beradi.

Nyuans - eng nozik vosita. Kostyum kompozitsiyasini nyuansli hal etilishi hamma yoshdagilarga, hamma turdag'i qomatlarga va har qanday ishga mo'ljallanganda ham to'g'ri kelaveradi.

Nyuans – kotrastdan o'xshashlikka o'tish holati bo'lib, garmonik yechimni ta'minlovchi o'zaro elementlar aloqasidir.

Nyuans - kompozitsiya vositasi tariqasida proporsiyalarda, maromda, gul va tus nisbatlarida, dekorda murakkab egri chiziqlar yordamida shakllar tuzishda ko'rindi.

Nyuans matoni barcha xususiyatlari bilan bog'liq. Nyuansning shu jumladan uslubiy va badiiy yechimi buyumni mohiyatiga mos bo'lishi lozim.

Libos kompozitsiyasida nyuans shakl va rangni bir-biriga moslashtirmsangina shaklni o'zgartirishga imkon beradi. U kompozitsiya vositalaridan eng nozigi bo'lib nyuansda yaratilgan kompozitsiya barcha kostyum mo'ljallariga, har xil figura qomatlariga va yosh jinslariga mos keladi.



26-rasm. Libosdagi nyuans tamoyili

Moslashirishning eng oddiy turi - *o'xshashlik*, ya'ni bir-biriga mos elementlardan kompozitsiya tuzishdir.

O'xshashlik tamoyili - elementlarning libos va poyabzal kompozitsiyasida takrorlanib va taraqqiy topib, turli variantlarda rivojlana borishidir.

O'xshashlikka elementlar takrorlanishi asos bo'ladi. O'xshashlik nisbatlaridan ehtiyojkorlik bilan foydalanish kerak, chunki ayrim elementlarning takrorlanishi tez zeriktiradi va ta'sirni susaytiradi [21].



27 - rasm. Libosdagi o'xshashlik tamoyili

Kostyum kompozitsiyasida baravariga kontrast, nyuans va o‘xshashlik qo‘llanishi mumkin. Masalan, shakllar kontrasti, chiziqlar nyuansi va rang o‘xshashligi.

5.2. Mutanosiblik va masshtabga oidlilik

Masshtablilikka erishish proporsiya bilan bog‘liq bo‘ladi. Proporsiyalarni o‘zgartirish yo‘li bilan gavdani kattalashtirib yoki kichiklashtirib ko‘rsatib, gavdaga chinakam yoki sun’iy masshtab berish mumkin.

Masshtab - tomoshabinga nisbatan ko‘rish nuqtasini hisobga olgan holda, tasvir tekisligi sathiga nisbatan olinadi.

Kiyimda proporsiya garmoniyaning yana bir muhim vositasi - **masshtablilik** bilan ajralmaslikda bo‘ladi.

Odatda devoriy rasmlar tempera va mineral bo‘yoqlar bilan ishlanadi. Bunda devordagi ranglar majmuasi orqali hosil bo‘ladigan, aks etadigan buyum yoki bezaklarning tomoshabinga ko‘rinadigan nisbiy o‘lchovini ham aniq hisobga olgan hisoblanadi. Chunki har qanday bino insonning yashash sharoiti va tabiiy iqlim xususiyatlariga moslab qurilishi kerak. Uy - joyning hajmi va uning miqyosi ham shunga mos ravishda belgilanadi.

Me’mor biror imorat loyihasini tayyorlar ekan, undagi masshtab o‘lchovini ko‘rsatish uchun, bir chetiga, odam tasvirini ham chizib qo‘yadi. Shunda loyihaning hajmi qanday bo‘lishini anglab olish unchalik qiyin bo‘lmaydi. Ammo mahobatli - badiiy tasvirdagi masshtab butunlay boshqacha bo‘lib, muammo ana shu aniq devor sathidan va u bilan tomoshabin oralig‘idan kelib chiqadi. Goho unga tanlangan mavzu kompozitsiyaning turli o‘zgarishlariga sabab bo‘lishi mumkin. Devorga mahobatli rangtasvirlar ishlaydigan musavvir ham o‘z kompozitsiyasini yaratar ekan, unda aks ettirayotgan shakllarining bir chetiga odam tasvirini chizish orqali masshtab miqyosini ma’lum qiladi.

Masshtablilik - shaklning va undagi elementlarning odamga nisbatan, tevarak-atrof fazoga va boshqa shakllarga nisbatan mosligidadir [22].



28 - rasm. Kostyum qism va detallari nisbatining masshtabliligi

Kiyimning masshtabliligi uning absolyut katta-kichikligiga emas, balki uning odamga moyilligiga qarab belgilanadi. Kostyum va uni tashkil etgan hamma elementlar odamning o'lchamlariga – uning bo'yiga, gavda tuzilishiga hamma vaqt biron nisbatda, ya'ni mos bo'ladi.

5.3. Simmetriya va asimetriya. Simmetriya va asimetriya turlari.

Simmetriya elementlari. Simmetriya guruhlari.

Kompozitsiya qonunlariga qaytamiz. Muvozanat simmetrik va asimetrik kompozitsiyalarda turlicha namoyon bo'ladi. Simmetriya o'zicha kompozitsiyada muvozanatlashdirish kafolati bo'la olmaydi. Simmetrik element va tekislikning miqdoriy nomuvofiqligi (yoki qismlar va bir butunning disproporsiyasi) ko'rinishdan muvozanatlashmagan bo'lib ko'rindi.

Inson doimo predmetning fazoviy muhitida to'la hissiy qulaylik va yashash garmoniyasini yaratuvchi shakl muvozanatiga intiladi. Simmetrik kompozitsiyani muvozanatlashdirish asimetrik kompozitsiyani muvozanatlashdirishdan ancha oson va bunga ancha oddiy vositalar bilan erishiladi, chunki simmetriya kompozitsion muvozanat uchun zamin yaratadi.

Yaxshi tuzilmagan simmetrik kompozitsiya, uning tuzilish murakkabligiga bog‘liq bo‘lmay, oson va tez idrok qilinadi. Asimmetrik kompozitsiya ko‘pincha uzoq vaqt o‘ylashni talab qiladi va asta-sekin namoyon bo‘ladi. Lekin simmetrik kompozitsiyani ifodaliroq deb tasdiqlash noto‘g‘ri. San’at tarixi shuni tasdiqlaydiki, garmoniya qonunlari bo‘yicha asimmetrik qurilgan kompozitsiyalar, simmetrik kompozitsiyalardan badiiy qiymati jihatidan qolishmaydi.

Simmetriyaning vertikal yoki gorizontal o‘qli aks tasvir, markaziy va burchakli turlari ko‘proq qo‘llaniladi.

Biz markazga faol e’tibor qaratuvchi markaziy, shuningdek, burchakli simmetriya haqida eslatdik. Markazlidan farqli o‘larоq, unda harakat yaratiladi, ya’ni markazga qarab harakat – markazga intilish, markazdan harakat - markazdan qochish demakdir. Bunday kompozitsion usul keng qo‘llanilgan va hozir dekorativ amaliy san’atda ham qo‘llaniladi: ro‘mollar naqshida, intererda shift, pol tekisligi yechimida. Simmetriya faqat tekislik kompozitsiyalarida emas, shuningdek, hajmiy va hajmiy-fazoviy kompozitsiyalarda ham qo‘llaniladi. Shuni ta’kidlash kerakki, XX asr boshlarida tezliklar, qanoatlanmaslik, mantiqsizlik asrida simmetriya bir qancha ikkinchi rejaga o‘tib qoldi va asimmetrik kompozitsiyaga birinchilikni berdi. Asimmetriyadan foydalanish, talaba oldida turgan vazifalarga bog‘liq holda guruh yoki elementlar guruhini joylashtirish zarur bo‘lgan tekislikka faolroq munosabatda bo‘lish imkonini beradi. Bunday hollarda kompozitsiyani muvozanatlashtirish ancha murakkab, lekin buning uchun rang va uning to‘yinganligi, shakl va uning qiyofasi, tekislikda mo‘ljal olish, faktura kabi tasviriy vositalar, shuningdek, garmonizatsiya vositalari - ritm, proporsiya, kontrast, nyuans va masshtab kabi vositalar mavjud.

Kostyum kompozitsiyasining uyg‘un bir butunlik sifatida shaklning yaxlitligi, simmetriya va asimmetriya, birlik, yaxlitlik, bo‘ysunuvchanlik, statiklik va dinamiklik kabi bir qator xususiyatlari bor. Shaklning yaxlitligi konstruktiv yechim bilan uning kompozitsion mujassamligi o‘rtasidagi aloqa mantiqini va uyg‘unligini aks ettiradi. Inson tanasiga mos buyum - kiyim haqida gap borar ekan, kiyimning atrof - muhit va inson qaddi - qomatiga o‘zaro ta’siri majburiy shart

hisoblanadi. Bu shartning tavsifi simmetriya va asimmetriya kabi kompozitsiya xususiyatlariga asoslanadi.

Simmetriya - kompozitsiyaning eng yorqin va ko‘zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri (29 - rasm). “Simmetriya” uning yordamida inson bir necha asrlardan beri tartibga, go‘zallikka va kamolotga yetishmokchi va buni yaratmokchi bo‘lib kelgan o‘sha g“oyadir”. Kiyim kompozitsiyasida simmetriya masalalari muhim rol o‘ynaydi. Bu ikki jixatdan: materialdagи rasm kompozitsiyasida va kostyumning o‘zini shakllantirishda o‘z aksini topadi.



29- rasm. Arxitekturada simmetriya

Simmetriya – nuqta, o‘q yoki tekislikka nisbatan detal bo‘laklari aylantirilganda, ularning ustma - ust tushishidir. Simmetriyaning bir necha ko‘rinishlari mavjud: oynaviy, markaziy, tekislikka va o‘qqa nisbatan.

Kostyum simmetriyasi figurani tabiiy simmetriyasi va funksionalligi bilan aniqlanadi. Odam figurasining simmetriyasi – bu qavatli murakkab simmetriyadir. Misol uchun, yuz simmetriyasi kiyim shakli simmetriyasining asosi bo‘ladi. Bulardan har bir qavati oynali simmetriya bo‘lgan holida, kiyim shaklining simmetriyasiga sabab bo‘ladi. Lekin odam figurasi mutlaqo simmetrik emas, chunki u tabiatning garmonik ijodidir. Shu sababli odam faqat simmetriya bilan yashamaydi [22].

Simmetriyaning yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, simmetrik buyumlarda asimmetriyaning uchrashidir. Bunda umumiylar simmetrik buyumda

nosimmetrik elementning ratsional joylashuvi kompozitsion muvozanatni yuzaga keltiradi, simmetriya esa o‘ziga xos nozik originallikka erishadi. Ushbu kompozitsiya xususiyati **isimmetriya** deb ataladi.

Nosimmetrik shaklning – kompozitsion muvozanatini ta’minlaydigan mo‘ayyan qonuniyatlarga asoslangan murakkab tashkiliy xususiyatlarini namoyon etadi. Ba’zida asimmetriya – kompozitsianing o‘ziga xos tamoyili yuzaga keladi. Nosimmetrik shakl yaxlitligiining asosiy sharti bo‘lib, kompozitsion muvozanat hisoblanadi.



30- rasm. Kompozitsiyada asimmetriya

Nosimmetrik usul simmetrik kompozitsiyada rang, bichim, har xil materiallar, chiziqlar, bezaklar, detallar asimmetriyasi bilan tuziladi. Asimmetriya simmetriya singari go‘zallikka ishlashi kerak va garmonik yaxlitlikni yaratishi shart. Shakl bilan ishlash simmetriya va asimmetriya oralig‘ida kompozitsion muvozanati bilan bog‘liq va qachonki unga erishilsa umumi yechim ratsional va go‘zal bo‘ladi. Agar simmetrik kompozitsiya darhol tushunilsa, nosimmetrik kompozitsiya asta-sekin ochiladi. Uning ustida ishlash murakkabroq va sezgirlik saviyasini va kompozitsion muvozanatga nisbatan nozik hisni talab qiladi.

Asimmetriyada kostyum kompozitsiyasi murakkabroq usulni talab qiladi. Agar simmetrik kostyumda asimmetriya doimo uchrab tursa, u ko‘makchi vazifasini bajaradi va simmetrik shakl ichida o‘tkir yechim yaratadi. Asimmetriya faqat aniq simmetriya o‘qi yo‘qligida bo‘lishi mumkin. Lekin odam figurasi asosan

simmetrik tuzilgan bo'lsa xam, kostyumda esa nosimmetrik misollar ko'p uchraydi. Shuning uchun kostyumda asimmetriya simmetrik shakl asosda tuziladi va kostyumda nosimmetrik kompozitsiya demasdan nosimmetrik asos deyiladi. Kostyuming funksional-ligini kompozitsianing ikkita asosi qo'llaydi: simmetriya figura tuzilishi, asimmetriya esa - kiyimning funksionalligi bilan asoslanadi.

Simmetriya va asimetriyadan unumli foydalanish – kiyim va poyabzalning turli xil modellarni yaratilishini ta'minlaydi. Kompozitsiyada o'ta birlashtirish vazifasini simmetriya, aynan o'q simmetriyasi bajaradi. Kartinaning markaziy o'qini simmetriya o'qi sifatida ajratamiz. U asosiy figura, asosiy harakat yonida «qanothalr»ni to'playdi, birlashtiradi. Albatta, bu yerda ham qabul qilishning umumlashtiruvchi vazifasi ham ta'sirini ko'rsatadi. Oynadek aks ettirish ma'lum formulalari bilan rasmida simmetrik formulalari tasvirlana olmaydi. Bu har doim «noaniq», taxminiy mosliklardir. Rasm kompozitsiyalarida sof ornament kompozitsiyalariga qaraganda birinchi yarim bo'lakning ikkinchisida oynadek qat'iy takrorlanishi yo'q. Bizning oldimizda faqatgina geometrik simmetriyaga intiluvchi muvofiqlik, ma'lum variatsiyalar zonasi doirasida tomonlar muvofiqligi turadi (bunda o'zining obrazli – geometriyasi). Ko'p simmetrik kompozitsiyalarda faqat markazga «yo'nalganlik» saqlanib, oynadek aks ettilishidan ancha cheklanishga yo'l qo'yadi.

Simmetriya - bu kompozitsiya holatini aniq ko'rsatadigan eng yorqin xususiyatlardan biridir. Bu xususiyat - shakllanish holatini, ya'ni tashkiliy jarayonni ko'rsatadi. Mashhur matematiklardan biri Genrix Beyl simmetriyaning matematik qonunlarini chuqur o'rganib chiqdi. Simmetriyani yaratgan kishi shaklni garmonik uyg'unlashtirish yo'lini ongli ravishda topgan. Simmetriya rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tgan. Masalan, Uyg'onish davridagi asarlarda ham simmetriyaning roli saqlanib qolgan.

Qadimgi musulmon arxitekturasi uchun esa simmetriya kompozitsiyalash xususiyatini bermaydi. Shu bois ko'pchilik masjid, honaqodagi bezak, naqshlar shakli tabiat bilan bog'lanib ketadi. Tabiatda asimetriya va simmetriya shakllari


ko‘p uchraydi. G. Beyl aytganidek «Ko‘zgu simmetriyasining geometrik tushunchasi vaznlik holatida g‘ira-shira bo‘lib qoladi», (uyg‘unlashuv tushunchasiga muvofiq). Shuni ta’kidlash kerakki, loyihalashda ham, tasviriy san’atda ham uchrab turadigan simmetriya muammolari bizda hali yetarlicha tahlil qilinmagan. Bular tez orada maqbul yechimini topadi degan umid bor. San’atshunos olimlarimiz bu sohada ilmiy-nazariy ishlar qiladilar degan umiddamiz. Biz kompozitsiya muammolarining ayrimlariga misollar keltirdik. Hali bu borada ham qilinadigan, aniqlanadigan, o‘z yechimini kutayotgan ishlar ko‘p. Qobiliyatli yosh olimlarimiz bu masalaga ko‘proq murojaat qilsalar yana ham yaxshi bo‘lardi.



31- rasm. Libosda simmetriya

Kostyum kompozitsiyasida simmetriya masalalari katta ahamiyatga ega. Kostyumda simmetriya shakning barcha xususiyatlari bo‘yicha namoyon bo‘lishi mumkin: simmetrik joylashgan detallar, furnitura, bezaklar va hok. Rang ham buyumning simmetrikligini tasdiqlaydi. Kostyuming simmetrik shakliga nosimmetriklik kiritilsa, odam figurasining muvozanatiga yetishmoq mumkin. Masalan, yapon kimonolarining rasmi doim nosimmetrik joylashgan. Demak, uning rangli kompozitsiyasi ham nosimmetrik. Lekin bichimi simmetrik holda koladi. Masalan, old bo‘lak o‘tar qismining kengligi to‘g‘nalgan holda chetida aniq nosimmetrik chiziq hosil qiladi. Kostyuming simmetrik shaklida geometrik boshlanishi nafaqag nosimmetrik detallar tufayli, balki ko‘pincha nosimmetrik bichish natijasida namoyon bo‘ladi.

Kostyumdagi **asimmetriya** mustahkam simmetriya asosida mavjud. 42-rasmida detallar tashkilida va shaklning konstruktiv yechimidagi asimmetriya va simmetriyaga misollar keltirilgan.



32 - rasm. Ayollar ustki kiyimining tuzilishida (yuqoridagi liboslarda) simmetriya va (pastdagи liboslarda) asimmetriyaning namoyoni

Simmetriya - kompozitsiyaning eng yorqin va ko‘zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri. Kiyim kompozitsiyasida simmetriya masalalari muhim rol o‘ynaydi. Bu ikki jihatda: gazlamadagi rasm kompozitsiyasida va kostyumning o‘zini shakllantirishda o‘z aksini topadi. Kostyumlarda kiyimning alohida qismlari, uning detallari, rangi, bezagi, furniturasi va shu kabilarni simmetrik joylashtirilishi mumkin. Tabiatda absolyut simmetriya bo‘lmaydi. Kostyumda ham ko‘pincha simmetriyadan chetga chiqishlar bo‘lib, bu uning nimaga mo‘ljallanganiga, ishlatish sharoitining xarakteriga, ishlab chiqarishdagi texnologik sharoitiga, badiiy obrazlilik vazifalariga bog‘liq bo‘ladi. Nosimetrik kompozitsiya ham simmetrik

kompozitsiya singari funksional vazifani hal etishning ob'ektiv natijasi bo'ladi. Lekin nosimmetrik shakl o'qida ishslash murakkabroq, lekin kompozitsion muvozanatni nozik his etishni, badiiy butunlikni ta'minlash darajasida taraqqiy topgan intuitsiyani talab qiladi.

Asimmetriyaning kundalik kostyum kompozitsiyasida yorqin ko'zga tashlanmasligi undan shakl xususiyatlarining ozgina qismida foydalanishni bildiradi. Amalda bunday kompozitsiyalar simmetriya ichida asimmetriyani ko'rsatish maqsadida hal qilinadi. Bashang kiyimdag'i yorqin ifoda etilgan asimmetriya kiyimni odatdagidan boshqacha, yorqin ko'rinishli dinamik qilib turadi. Kiyimga hajmiy forma deb qarab, uni qanday gazlamadan (gazlama, trikotaj, charm, sun'iy va tabiiy mo'yna, to'qilmay tayyorlangan gazlama va hokazolardan) tiqish maqsadga muvofiqlilagini bilish kerak. Har bir gazlanan faqat o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi: gigienik xususiyatlar (nam va havo o'tkazuvchanlik, gigroskopiklik, issiqdan himoyalash va boshqalar) va fizik - mexanik xususiyatlar (dag'allik, burmalanuvchanlik, g'ijimlanish, elastiklik, kirishish, cho'ziluvchanlik va boshqalar) shular jumlasidandir. Bu xususiyatlar mazkur gazlamadan qanday maqsadlarga mo'ljallangan va qanday shakldagi kiyimlar tikish mumkinligini aniqlab beradi.

Agarda to'rtburchak shakldagi ko'ylak, sumka yoki tuqli ikki teng bo'limgan qismlarga bo'linsa, kattaroq bo'lak ajralib ko'rindi va kichikrok bo'lgan qismni o'ziga bo'ysundiradi. To'rtburchak shaklni uchta qismga bo'laklashda turli tengli holatidagi asosiy bo'lakni ajratishning uch xil imkoniyati yuzaga keladi. Shaklni bo'laklash teng olib borilganda ham, o'rta qism asosiy qism hisoblangan bo'ladi.

5.4. Kompozitsion muvozanat

Kompozitsion muvozanat - kompozitsiyaning shunday holatiki, unda uning hamma elementlari o'zaro muvozanatlashtiriladi. Lekin bu tushunchani o'lchovlarning oddiy tengligi bilan chalkashtirmslik kerak.

Muvozanat kompozitsiya asosiy vazni joylashuviga, kompozitsion markazni tashkil qilishga, kompozitsiyaning plastik va ritmik qurilishiga, uning

proporsional bo‘linishiga, alohida bo‘laklarning o‘zaro va umumiyl rang, tonal va faktura munosabatlariga bog‘liq. Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, kompozitsiyaning vosita va qonunlaridan birortasi ham alohida holda uyg‘unlashgan asarni yaratmaydi, chunki ularning hammasi o‘zaro bog‘liq va muvofiqlashgan.

Elementlarning kompozitsion muvozanati va mahsulot shakllari uning kompozitsion markazga nisbatan muvozanati bilan belgilanadi.

Kompozitsiyada statika va dinamika. Kompozitsiyaning ifodaliligi, uning tushunishga qulayligi shaklning bo‘ysungan qismlardan bosh kompozitsion markaz tomon harakatda bo‘lib, qancha va qay darajada hosil qilinganligiga bog‘liq. Kompozitsiya statik va dinamik bo‘lishi mumkin, elementlarning ma’lum tartibda o‘zaro bo‘ysunuvchanligi kompozitsion muvozanatni yuzaga keltirsa, umumiyl qatorning jiddiy tekshirilishi va kostyum elementlariga nozik ishlov berish orqali shaklning garmonik butunligini ta’minlash mumkin.

Kompozitsiyada garmoniya, ya’ni uyg‘unlik haqidagi, uning asosiyl va zarur sharti - muvozanat haqidagi gap shunday mantiqiy xulosaga olib keladiki, hamma narsa - elementlar miqdori, ularning shakli, ularning kompozitsion tekislik bilan va o‘zaro munosabati, ularning rang, kolorit va faktura yechimi o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi. Shuning uchun uyg‘unlikning bir qonunini bajarishga kirishib, ikkinchi qonuni - birlik va bir-biriga bo‘ysunishlik shartlarini bajarish zarur. Shu ikki shartni bajargandan so‘nggina, siz uyg‘unlikdagi kompozitsiya yaratdim, deb aytishingiz mumkin.

Statika - shakl turg‘unligining, osoyishtalik holatining bo‘rttirib ifoda etilganidir. Shaklning statikligi o‘lchamlar tengligini yoki o‘lchamlar nyuansini xarakterlaydi.

Dinamika – bu shakl yuzasida ko‘z ilg‘aydigan harakat. Shaklda dinamika hosil bo‘lishi uchun shakl hususiyatlaridan birortasining tengsizligi bo‘lishi kerak. Shaklda dinamika paydo bo‘lishiga quyidagilar sabab bo‘ladi:

- shakl o‘lchamlarida tengsizlik bo‘lsa, harakat ko‘p miqdordan kam tomonga yo‘naladi;

- shakl qismlarga bo‘linganda ham dinamika paydo bo‘ladi. Bunday holda kattaroq qismidan kichikroq qism tomon harakat paydo bo‘ladi;
- shakl ichidagi chiziqlar yo‘nalishining xarakteri qandayligiga qarab, shaklning turlicha yo‘nalganligi hosil bo‘ladi, uning dinamikligi kuchayadi;
- shaklda bir necha rang qo‘llanilsa, och, yorqin ranglar o‘z tomoniga dinamikani hosil qiladi;
- shakl kompozitsiyasida qo‘llangan ritmik tuzilishlar ham dinamikani hosil qiladi.

Aktiv holatda bir tomonga yo‘naltirilgan shaklga – **dinamik shakl** deb ataladi. Shaklning dinamikligi – uning bo‘laklari nisbatiga uzviy bog‘liq. Kattaliklar nisbatlarining o‘xshashligi va nyuansi shaklning tinch holati, ya’ni statikligini ta’minlasa, ulardagi kontrast – vizual harakat, ya’ni dinamikani ta’minlaydi. To‘rtburchak yoki trapesiya shakl ichidagi chiziqlar tavsifi va yo‘nalishi orqali shaklning dinamikligi yoki statikligini yuzaga keltiradi [23,24].

Shaklning ifodaliligi - uni tushunishga qulayligini ta’minlaydi. Libos kompozitsiyasida - dinamika kompozitsion markaz bo‘lishi kerak. Agar dinamikaning yo‘nalishi kompozitsion markaz tomon bo‘lmasa, kompozitsion markazni kuchaytirish kerak yoki harakat yo‘nalishini o‘zgartirish lozim.



33-rasm. Libos shakli elementlarida statika

Kompozitsiyaning ifodaliliginini bo‘ysungan qismlaridan bosh kompozitsion markaz tomon harakatda bo‘lib ko‘rinishi (dinamikasi) qay darajada hosil qilinganligiga bog‘liq. Nima bo‘rttirilayotgani aniq bo‘lishi uchun, dinamikani libosning qaysi qismiga qaratilsa ham, dinamika rassomming bo‘rttirgan qismini ko‘rsatishi kerak.



34-rasm. Libos shakli elementlarida dinamika

Dinamika hususiyatlarini inobatga olib, gavdaning tashqi ko‘rinishini o‘zgartirish mumkin. Masalan, figurani balandroq ko‘rsatish uchun dinamikani yuqoriga yo‘naltirish lozim, ozg‘inroq ko‘rsatish uchun esa dinamika gorizontal yo‘nalishda markaz tomonga yo‘nalishi kerak.

5.5. Rangning kostyum kompozitsiyasidagi o‘rni

5.5.1. Rang xususiyatlari

Atrofimizni turli-tuman ranglar chulg‘ab olgan. Rang tabiat boyligi, uning hayotiy moslanuvchanligining saxiy ifodasi, turmush quvonchi, bezagidir. Kishilarga xos bo‘lgan estetik intilish ularning o‘zini ham bo‘yoqlar yaratishga o‘rgatadi. Tabiat bizga rang taqdim etdi, lekin uning rango - rang jilvalaridan, xossalardan to‘g‘ri foydalana bilish, uning tuslarini ajrata bilishga o‘rganish

lozim. Inson ajoyib bo‘yoqlarni kashf etdi va ularni mukammallashtirmoqda. Bo‘yoqlar shoyi gazlamalarda tovlanadi, junda jilvalanadi, ular rasmga hayot va barhayotlik bag‘ishlaydi. Rang qudratli, hal kuch sifatida o‘z ta’sirini o‘tkazadigan narsalar, sohalarining sanog‘i yo‘q.

Rang - kostyum shaklining ajralmas qismi. Uning ifodali ko‘rinishi kostyumda ishlatilgan ranglar gammasiga bog‘liq. Hayoliy ranglar doirasidan foydalanib bir-biriga mos tushadigan shunday ranglar juftini topish mumkinki, ular xususiyatlaridan foydalanib yaqin yoki kontrast prinsipi bo‘yicha bir-birini to‘ldirib turishi mumkin [11].

Tabiatda ham rang xuddi qadim-qadimlarda gidek kishilar xayolini to‘lqinlashtirishda davom etmoqda. Rangning inson faoliyatiga bo‘lgan emotsional ta’siri juda murakkabdir. Gyote, Leonardo da Vinchi, Kandinskiy, Alpatov, kabi buyuk san’at nazariyotchilari va rassomlar rangning psixologik ta’siri bilan shug‘ullanishgan. Turli ranglar o‘lim va hayotning ramzları sifatida xursandchilik va qayg‘uni ifodalagan. Rangning insonga bo‘lgan emotsional ta’siri ko‘p qirralidir va unga turlicha nuqtai nazar bilan qaramoq kerak. Masalan, devor sirtiga surtilgan bo‘yoq rangi ko‘ylak rangi uchun yoqtirib tanlanganda yoqmasligi mumkin.

Insonning xursandchilikka, go‘zallikka, ravshanlikka bo‘lgan intilishi uning tabiatiga xosdir, shuning uchun u doimo chiroyli bo‘yoqlari, garmonik uyg‘unlikni afzal ko‘radi. Xalq ijodi namunalari bo‘lgan kashta, iroqi, gilam, chinni, sopol idishlar va boshqa hunarmandchiligi buyumlari ranglarining jilosi va o‘zaro uyg‘unligi bilan insonni hayratga soladi.

Rang estetikasi butun ijodiy jarayon bilan organik ravishda bog‘liq bo‘lib, inson tafakko‘rining tabiatni, atrof-muhitni chuqur va nozik idrok qilish natijasidir. Odadta turli odamlar ranglarga, xuddi musiqadagidek, turlicha munosabatda bog‘ladilar. Rang ham musiqa kabi inson kayfiyatiga ta’sir qilishi mumkin. Masalan, iliq ranglar (sariq, olov rang, qizil) ta’sirchan, hayajonlantiruvchi, qo‘zg‘atuvchidir, sovuq ranglar (binafsha rang, ko‘k, havo rang yoki yashil) bosiq, tinchlantiruvchidir. qizil rang bolalar va ayollar, ko‘k erkaklar orasida ommalashgandir. Qizil rangdan qadimdan qizamiq, qizilchani davolashda

foydalanganlar. Shu bilan birga qizil rang bosh og‘rig‘iga va charchoqqa sabab bo‘ladi, qon bosimini oshiradi, ya’ni odamni qattiq hayajonlantiradi. Yashil rang - o‘simplik rangi, odamni tinchlantiradi, binafsha rang - yurak va o‘pkaga yaxshi ta’sir qiladi; sariq - iliqlik hissini uyg‘otib, kayfiyatini ko‘taradi, ishtahani ochadi; qora rang - qorong‘ulik va sovuq bilan assotsiatsiyalanadi va hok.

Osmondagи kamalakning rang - barang tovlanishiga hayajonlanmay qarab bo‘ladimi? Bu manzara har doim zavq bag‘ishlaydi. Ana shu kamalakni kishilar osmondan «o‘zib», uning ranglari sehrini tarkibiy qismlarga (spektrga) ajratdilar va tabiatning hayajonlantiruvchi, ajoyib hodisasini fanga aylantirib, rangini o‘z xohishlariga bo‘ysundirdilar. Masalan, kamalakning uch asosiy rangi - qizil, sariq va ko‘k ranglarda bitmas - tuganmas boylik yashiringan bo‘ladi; ularni aralashtirib, son - sanoqsiz rang va tuslar hosil qilish mumkin.

Spektrda (kamalakda) oq, kul rang ranglar yo‘q. Ular alohida guruhni tashkil etadi. Shu guruhga qora rang ham qo‘shiladi. Uning kul rangdan farqi yanada to‘qligidir.

Ranglar tarifnomasi o‘rganilar ekan, uning yangi - yangi qiziqarli tomonlari ochilaveradi. Rang orqali dunyo sirlaridan xabardor bo‘lamiz. Zangori yoki havo rang insonlar fikrini osmon va dengiz sari jalb etsa, sariq va yashil (ko‘k) ranglar esa quyosh va maysazorlarni ko‘z oldimizda namoyon qiladi. Ranglar sof fiziologik ta’sir kuchini kishilar ko‘zida aks ettiribgina qolmay, u sezgiga, tafakkurga, dunyoqarashga va estetik ongiga ham ta’sir o‘tkazadi. Kishini uning ustidagi libos bezaganidek, tabiatni ranglar bezaydi.

Tasviriy san’atda ranglar vositasida quvonch, qo‘rquv, hayajon ifoda etiladi. Hatto dramatik obrazlarga ma’no bag‘ishlanadi. Tabiatdagи buyumlarga, narsalarga nisbatan kishilarning ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalaydi. Narsalarni bir-biridan farq qilish - rassom uchun ko‘ri-nib turgan buyumlar rangini, hajmini tasviriy vositalar orqali ifodalash va taqqoslashdir. Taqqoslash esa, bu ko‘z bilan ko‘rgan buyum va narsalar haqida fikr yurgizish, yana shu tasvirlanmoqchi bo‘lgan buyumni ijod jarayonida badiiy san’at asari darajasiga ko‘tarishdir. Rassom ko‘z ilg‘amas ranglarni bir-biridan farqlasa, topa bilsa, unga ma’no

yuklasa, bu uning tabiatga ongli ravishda, falsafiy hamda badiiy kuz bilan boqishidir. Tabiatda uchraydigan ranglar asosan zangori, sariq, qizil, yashildir. Agar ranglarga badiiy obraz yuklanadigan bo'lsa, ularni quyidagicha ta'riflash mumkin: Sariq rang - ranglarni ichida eng yorug'idir.

O'zining o'tkirligi bilan intilish, harakatni ifoda etadi. Sariq rang plakat san'atida shartli ravishda quyosh, tonggi osmon yoki issiq havo, jazirama sahro va hokazolarning tasviriy obrazini belgilaydi. Qizil rang - kishi e'tiborini jalb qilish ramzi bo'lib, ichki harorati bilan u odamlar qalbini isitadi, ruhini ko'taradi, hamda quvonch, hayajon bag'ishlaydi. Bundan tashqari, qizil rangni qalb haroratiga, qonga qiyos qilinishi bejiz emas, albatta. Zangori - bu rang sariq va qizil ranglarning ta'sir kuchiga nisbatan bo'g'iqroq, sustroqdir.

Havo rang - o'z ta'sir kuchi bilan qalbga osoyishtalik bag'ishlaydi, inson xayolini bepoyon kengliklar sari olib kyotadi. Bu uch xil rangning o'zaro birikmasidan ko'plab ranglar jadvalini yaratish mumkin. Agar, zangori rang bilan qizil rang bir-biriga qorishtirilsa - binafsha rang hosil bo'ladi. Sariq rang bilan zangori rang aralashmasidan, yashil, ko'k rang hosil bo'ladi. Qizil bilan sariq ranglarning qo'shilmasidan qovoq, ya'ni qizil-sariq zarg'aldoq ranglari hosil bo'ladi. Qizil bilan yashil rangni bir-biriga aralashtirmaslik kerak, chunki bunday qorishmada ranglar o'z kuchini yo'qotadi va natijada sifatsiz, xunuk tusli past rang hosil bo'ladi. Rang birikmasi tasviriy san'at asarining mazmuniga chuqrur ma'no, tasviriga jon bag'ishlaydigan asosiy vositadir.

Buyumming eng muhim axborot sifatlaridan biri rang hisoblanadi. Amaliy san'at buyumlarida rangning vazifasi turlicha. Bular psixologik, ijtimoiy, emotsiyal va estetik vazifalardir.

Rang hayot va mamot timsoli, quvonch va xafalik ifodasi bo'lib kelgan: u ilikliklik va sovuqlik, quruqlik va namlik, yengillik va vazminlik hissini berishi mumkin. Bizning his - tuyg'ularimizda ham rang ta'siri kuchli. Rang hamma vaqtda jins - yosh farqini bildiradigan vosita bo'lgan. Bolalar kiyimi nozikrok tusli bo'ladi, o'smirlar kontrast ranglarni ma'qulroq ko'radi, katta yoshlilarga chuqurroq rang tuslari yoqadi. Ayollarning kiyimi erkaklar kiyimidan ko'ra yorqinroq va ko'p

rangliroq bo‘ladi.

Olimlar va taniqli rassomlar tomonidan ranglar, ularning o‘zaro fizik ta’siri va tomoshabinga ta’siri to‘g‘risida yig‘ilgan ma’lumotlar bir tizimga solinadi. Asosiy va oraliq ranglarning ish sxemasi ranglar doirasi sifatida yaratilishi tadqiqotlarda asosiy o‘rin egallaydi .

Har xil ranglar kishiga turlicha ta’sir qiladi. Masalan, yashil rang insonni tinchlantiradi, qizil toliqtiradi, sariq kishi ruhini bezovta qiladi [10].

Asosiy ranglar xili to‘rtta: qizil, yashil, sariq va ko‘k. Bu ranglar boshqa ranglardan ko‘zimizga toza rang bo‘lib ko‘rinishi bilan farqlanadi. Toza shu ma’nodaki, ular tarqalishida ranglar xalqasida qo‘shni ranglarning aralashmasi yo‘q. Ranglar xalqasining asosiy ranglari orasida - oraliq ranglar joylashgan.

Ranglar doirasining o‘zaro perpendikulyar diametrlarining uchida joylashgan asosiy ranglar hamma ranglar tusini o‘z ichiga olgan ranglar doirasida choraklar chegarasini belgilaydi. Xilma-xil tuslar - asosiy to‘rt rangni aralashtirib, ularga qora va oq qo‘shish natijasida hosil qilinadi.Buni ranglar xalqasida kuzatish mumkin. Ranglar xalqasida bir-biriga har xil miqdoriy nisbatdagi aralash - ranglar shtrix chiziq bilan belgilangan.Agar bu ranglarning har biriga qora va oq rang qo‘shsa, bir xil tusdagi, lekin ochligi va to‘qligi har - xil bo‘lgan cheksiz ranglar qatori hosil bo‘ladi. Rangning to‘qligi rangda asosiy rang tusi mayjudligi va uning oqishlik darajasi bilan aniqlanadi. Och rangda qora rang mavjudligi bilan aniqlanadi: qora rang rang tusi o‘zgarishiga aktiv ta’sir ko‘rsatadi. Sariq rangga qora rang aralashmasi jigar rangning har xil variatsiyalarini beradi, qizilga qora qo‘shilsa, uni xiralashtirib, jigarrang tus beradi.

Rang qora yoki oqqa yaqinlashgan sari xromatik va axromatik ranglar hosil bo‘ladi. Xromatik rang deb («xromos» grekcha rang so‘zidan) asosiy ranglarning aralashmasini o‘z ichiga olgan barcha ranglar deyiladi, axromatik boshqa ranglarni o‘z ichiga kiritmagan, ochligi har xil darajada bo‘lgan faqat oq va qora ranglar. Bizga rang iliq va sovuq tuyulishi, buyum faraziy yaqinlashishi yoki uzoqlashishi mumkin. Rangda sariq yoki qizil «yonadigan» (unda buyum yaqinlashgandek ko‘rinadi) rang, yoki ko‘k (unda buyum uzoqlashadi) rang

mavjudligi bu hodisani vujudga keltiradi.

Agar bir-biriga yaqin ranglar birikmasiga qaralsa, bu ranglar ranglar xalqasida bir-biriga yaqin joylashgan ikki ixtiyoriy rang bo‘ladi. Ranglar doirasining asosiy choraklari ichida joylashgan ranglar bir-biriga yaqin hisoblanadi. Asosiy ranglarning faqat to‘rt xil birikmasi bor: sariq-qizil, sariq-yashil, ko‘k-qizil, ko‘k-yashil. Kontrast ranglar birikmasi - dinamika, dramatizm, san’at asarining idrok ta’sirini kuchaytiradigan kompozitsiyaning asosiy vositalaridan birdir. Kontrast har qanday shaklni aktivlashtiradi.

Oq - qora ranglarning (axromatik) qarama - qarshilik tusida qurilgan kostyum shaklini xromatik gammada ham bajarish mumkin. Bir xil xromatik rang oqishligiga ko‘ra bir-biridan farqlanishi, lekin to‘qlikda bir xil bo‘lishi mumkin. Bu ranglardan tuzilgan kompozitsiya shubhasiz faqat toza och kontrastlardan iborat. Bu holda kontrast va to‘q ranglar mustasno qilinadi. Shunga o‘xhash kompozitsiyalar bir rangli yoki monoxrom ko‘pincha pastel tuslar deyiladi. Bu ranglar axromatik tuslar aralashmasi bilan zaiflashgani sababli ular koloritiga yumshoqlik mansub. Bunday tuslar kompozitsiyasida qurilgan libos, odatda, yuqori darajali ulug‘vorlikka ega.

Liboslar monand ranglar kompozitsiyasi kishining obraziga, uning individual koloristik xususiyatlarga bog‘liq. Kostyuming rangi albatta bu nozik farqlarni hisobga olib, u bilan o‘xhash va kontrast prinsipda moslangan bo‘lishi kerak. Odamlarning yoshi bo‘yicha farqlanishida kiyim rangining ahamiyati katta. Bolalar kiyimiga nozik va och yumshoq tuslar xos, o‘smirlar kontrast, kattalar chuqur tusli ranglarni afzalroq ko‘rishadi.

Rang turlari. Tabiatdagi hamma ranglar xromatik va axromatik ranglarga bo‘linadi. Xromatik ranglar deb bo‘yalgan, ya’ni spektr ranglariga aytildi. Xromatik ranglarning xususiyatlari kuyidagilardir:

- **Rang tusi** - rangning shartli belgisi (qizil, ko‘k, to‘q sariq, xavo rang va hokazo) rangning nomi shartli yoki bironta buyum, o‘simlik nomiga yaqinlashtirib aytildi) limonrang, apelsinrang, o‘rikrang va hokazo.
- **Rang to‘qligi** - rang kuchining va xromatik rangga axromatik rang

aralashgani bilan haraterlanadigan rang to‘qligining ko‘rsatkichi hisoblanadi.

- **Oqishlilik** - xromatik rangning oq rangga yaqinlik darajasi.

Axromatik ranglarda faqat oqishlik xususiyatigina bo‘ladi. Spektrdagи ranglar eng sof, eng to‘q ranglar bo‘ladi. Oq aralash ranglarni (pushti, havorang, bargikaram) postel (mayin) ranglar deyiladi. Kulrang qo‘shilsa, to‘qligi kam bo‘lgan odmi ranglar chikadi. Ranglarning gavdani o‘zgartirib ko‘rsatish xususiyati ham bor. Gavdani iliq (sarg‘ish qizil va sarg‘ish yashil) ranglar yaqinlashtirib va kattalashtirib ko‘rsatadi, sovuq ko‘kish qizil va ko‘kish yashil) ranglar uzoqlashtirib va kichraytirib ko‘rsatadi. Qora rang gavdani maksimal uzoqlashtirib va kichraytirib, oq rang esa maksimal yaqinlashtirib va kattalashtirib ko‘rsatadi.

Xromatik va axromatik ranglarning birga qo‘shilgани kiyim kompozitsiyasida juda ifodali bo‘lib chiqadi. Oq rang sof xromatik tusining kuchi va jarangdorligi yuzaga keladida, bayramona manzaralilik xissi tug‘iladi: oq rang bilan mayin ranglar (oq - havo rang, oq bargikaram va boshqalar) uzviy va osongina qo‘shilib, soflik va bashanglik hissini yuzaga keltiradi. Qora rang bilan sof xromatik rang birga qo‘shilib, ko‘zga tashlanib turadigan va keskin ko‘rinadigan ranglar hosil qiladi. Qora rang tusning yorqinligini va sofligini bir qadar kamaytirish xususiyatiga ega.

Tegishib turgan ranglar bilan o‘zaro ta’siri yo‘q ranglar **neytral ranglar** deyiladi. Kulrang, ko‘kimdir kulrang, yashilroq kulrang va boshqa ranglar ana shunday ranglarga kiradi. Baravar kontrastlik hodisasini hisobga olish - bet, ko‘z, soch rangiga moslab, kiyim rangini tanlashda juda muhim. Optik nuqtai nazardan ko‘p sonli ranglar turkumidan **to‘rtta asosiy rangni** ajratish mumkin:

- toza sariq,
- toza qizil,
- toza yashil,
- toza ko‘k.


Ranglar doirasidagi fakat shu ranglargina o‘zining qo‘shni ranglari bilan qo‘shilma ranglar hosil qilmaydi. Kamalakni xayolan davom ettirsak, u rang

xalqasini hosil qiladi. Bu xalqadagi to‘rtta asosiy rang: qizil, sariq, ko‘k, yashil orasidagi oraliq ranglar deb ataladigan ranglar yotadi. Rang tuslarining tabiiy shkalasi quyosh nurining spektri - kamalak bo‘lib, unda ranglar ma’lum tartibda joylashgan. Spektrning eng chetki ranglari - to‘q qizil va ko‘k-binafsha ranglarini aralashtirib - to‘q siyoh rangni olish mumkin. Agar spektrga qirmizi rang kiritilsa va uni xalqasimon qilib o‘ralsa, tabiiy ranglar xalqasi hosil bog‘ladi.

5.5.2. Rangli doirasi tuzish qoidalari

Asosiy rangli doira dotsent M. Shugaev tomonidan yaratilgan. Asosiy ranglar juftligi: ko‘k - sariq, qizil – yashil ranglar o‘zaro bir diametr uchlarida joylashtiriladi. Asosiy ranglar orasidagi oralik ranglar rangli doiraning to‘rtta choragida joylashadi:

- sariq-qizil
- qizil - ko‘k
- ko‘k-yashil
- sariq-yashil.



35- rasm. Ranglar (M. Shugaev) doirasi

Ranglarning miqdoriy tarkibi va rangli doiraning tuzilish prinsiplari:

- toza sariq(100%),
- sariq (75%)-qizil (25%),
- sariq (50%)-qizil (50%),
- qizil (75%)- sariq (25%),
- toza qizil (100%).

Fizik nuqtai nazardan barcha ranglar teng huquqlidir. Ranglar insonga bo‘lgan emotsiyal ta’siriga qarab issiq ranglarga (quyosh, olov, yorug‘lik va hok. ranglarga) va sovuq ranglarga (muz, suv, osmon, namozshom ranglariga) bo‘linadi. Ranglar xalqasiga ko‘ra tiniq ko‘k va tiniq sariq ranglarda qizg‘ishlik yoki yashillik alomatlari yo‘q. Xuddi shu kabi, tiniq yashil va tiniq qizilda sarg‘imtir yoki ko‘kintir tuslar yo‘q. Beshta rang birikmasidan tuzilgan sistema turli yo‘nalishdagi ranglar uyg‘unligini hosil qilish uchun yetarlidir. Har biri 24 rang tusidan tuzilgan ranglar xalqasi sistemasidagi uchinchi xalqa asosiy va eng to‘yingan ranglarni o‘z ichiga oladi. To‘rtinchi va beshinchi xalqalar xuddi shu rang tuslaridan iborat, lekin ularning to‘yinganligi kamayib boradi. Ikki chetki xalqada esa, ya’ni ikkinchi va birinchida asosiyga qaraganda ranglar borgan sari to‘qroq bo‘lib boradi. Shunday qilib, har bir 24 xil rang 5 xil to‘yinganlik yoki ochiqlik darajasiga egadir.

Berilgan ranglar doirasi negizida to‘rt xil rang mavjud - sariq, ko‘k, qizil va yashil. Ularning barchasi asosiy ranglardir, chunki ularning birortasiga ham boshqa asosiy ranglardan zig‘ircha ham aralashmagan.

Doiradagi asosiy ranglar juftlari (sariq va ko‘k, qizil va yashil) diametr bo‘yicha qarama-qarshi tomonda joylashgani uchun ular bir-biriga nisbatan kontrast va to‘ldiruvchi ranglardir. To‘yinganlik va ochiqlik darajasiga qaramasdan to‘rt asosiy rang orasida joylashgan rang tuslari oraliq ranglardir. Doiraga ko‘ra oraliq ranglar ham to‘rt guruhga bo‘lingan: qizil - sariq, ko‘k - qizil, ko‘k - yashil va sariq - yashil. Ranglarning miqdoriy tarkibi 32-rasmda ko‘rsatilgan: sap-sariq (100%), olov rang-sariq (83% sariq va 17% qizil), olov rang-sariq (66% sariq va 34% qizil), olov rang (50% sariq va 50% qizil), olov rang-qizil (34% sariq va 66%

qizil) olov rang-qizil (17% sariq va 83% qizil), qip-qizil (alvon, 100%) va hok. Ranglar doirasidagi 1-6 va 20-24 ranglar to‘yinganligi va ochiqligidan qat’i nazar iliq ranglar, 8-18 esa sovuq ranglardir.

Yuqorida keltirilgan ranglarning miqdoriy nisbati taxminiy hisoblanadi. Rangli doiraning to‘yinganlik darajasi oq va kulrangning qo‘shilishidan o‘zgaradi. Turli xil to‘yinganlik darajasidagi rangli doira sistemasi tahlili quyidagicha xulosalar qilishga imkon beradi. Bir diametrda joylashgan ranglar – kontrast ranglar hisoblanadi. Unda ularning yorug‘ligi va to‘yinganligi e’tiborga olinmaydi. Rangli doira teng pog‘onali xususiyatga ega. Diametr uchidagi barcha ranglar o‘z juftligida inson tomonidan turli xil hosil qilinadi.

Rangli doira yuqorisidagi joylashgan sariq – yashil va qizil – sariq o‘zining issiqligi va to‘yinganligi farqli ravishda issiq ranglar hisoblanadi. Uning pastka qismida joylashgan ranglar esa ko‘k-yashil, qizil-ko‘k kiyimni modellashtirishda o‘zining psixologik va fizik alomatlariga ko‘ra turli xil bo‘ladi.

Kompozitsiyada to‘rtta asosiy ranglar guruhidan foydalaniladi:

- monoxrom (bir tonli ranglarning uyg‘un birikmali);
- qardosh ranglarning uyg‘un birikmali;
- qardosh-kontrast ranglarning uyg‘un birikmali;
- kontrast ranglarning uyg‘un birikmali.

Xromatik ranglarning to‘yinganligi deb, bu rangning unga yorug‘ligi bo‘yicha teng bo‘lgan axromatik rangdan farqlanish darajasiga aytiladi. Agar toza yashil rangga u bilan yorug‘ligi bir xil bo‘lgan ozgina kulrang aralashtirilsa, rang tusi bundan o‘zgarmaydi, yashil rangning yorug‘ligi ham o‘zgarmaydi, sababi unga qo‘shilgan kulrang yorug‘ligi bo‘yicha u bilan bir xil. Shu bilan birga yangi yashil rang dastlabki rangdan farq qiladi: u xiralashadi, kamroq yashillikda bo‘ladi. Mana shu o‘zgarish to‘yinganiikning o‘zgarishi bo‘ladi [24].

Yangi rang dastlabkisiga nisbatan kamroq to‘yingan bo‘ladi. Biron xromatik rangga u bilan yorug‘lik bo‘yicha teng bo‘lgan axromatik rangning katta miqdorini qo‘shib, biz, uning to‘yinganligini sekin-asta kamaytiramiz. Har qanday toza, maksimal to‘yingan rang va yorug‘ligi bo‘yicha unga teng kulrang orasida

biz to‘yinganlikning turli darajasidagi oraliq ranglar qatorini qo‘ya olamiz.

Agar birorta maksimal to‘yingan rangga borgan sari ko‘proq oq rangdan qo‘shsak, tobora to‘yinganligi kamayuvchi va yorug‘ligi oshuvchi ranglar qatoriga ega bo‘lamiz. Agar maksimal to‘yingan rangga borgan sari qora rang aralashtirilsa, to‘yinganlik ham, yorug‘lik ham kamayadi.

Rang tozaligi - berilgan rangning umumiy yorqinligidagi toza spektrning ulushidir. Eng tozalari bu spektr ranglaridir.

Bizni o‘rab turgan olamning hamma rang xilma-xilligidan uch xromatik rangni - qizil, sariq va ko‘k, shuningdek, ikki axromatik - qora va oqni ajratish mumkin. Xromatik ranglar, ular qanday rang bilan taqqoslanayotganiga qarab «iliq» va «sovuq» bo‘lib idrok qilinadi. Masalan, iliq (qizil) ranglar guruhida to‘q sariq, malina rangga nisbatan iliqroq, sovuq ranglar guruhida binafsharang ko‘k rangga nisbatan iliqroq.

5.5.3. Rang doirasi va axromatik qatori asosida garmonik rang birikmalarini yaratish

Ranglar uyg‘unligi (garmoniyasi) qadimdan rassomlar va olimlarni juda qiziqtirib kelgan. Xo‘sh, ranglar uyg‘unligi nima? Ushbu tushuncha qanday mazmunga ega? Ranglar uyg‘unligi - ranglarning qonuniyatli birikmasidir. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, har qanday uyg‘unlik ma’lum qonuniyat kasb etishi mumkin, lekin har qaysi qonuniyat ham uyg‘unlikni keltira olmaydi. Badiiy amaliyot va tasviriy san’atda ranglar uyg‘unligini baholashda ma’lum tarixiy davrda shakllangan did va qarashlar bilan hisoblashmoq muhimdir. Ranglar uyg‘unligini qotib qolgan kategoriya, aqida sifatida tushunmaslik kerak. Xunuk va chiroyli, uyg‘un va moslashmagan ranglarning o‘zi yo‘q. O‘zaro moslashmagan ranglarning fakturasini o‘zgartirib, uyg‘unlashtirish mumkin. Ko‘pincha tekislikda o‘zaro muvofiqlashmagan ranglar birikmasi kostyum shakllarida butunlay boshqacha - uyg‘unlashgan ko‘rinishda namoyon bog‘ladi. Garchi bir xil miqdordagi ikki rangni qo‘shganda yoqimsizroq birikma hosil bo‘lsada, shulardan biri rang miqdori ozgina o‘zgartirilsa, xuddi shu ranglar bir-biri bilan juda ham uyg‘unlashishi mumkin.

Demak, ranglarning uyg‘unligiga ularning o‘zaro munosabatlari uyg‘unligi sifatida qarash, ya’ni rangning barcha asosiy sifatlari: ochiqlik, to‘yinganlik, rang tusi, ushbu ranglar egallaydigan yuza va shakllarni hisobga olgan holda, shu ranglar kombinatsiyalari yig‘indisi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Ranglar uyg‘unligini estetik jihatdan baholashning asosiy mezoni - vizual (ko‘z bilan ko‘rish orqali) baholashdir. Ranglar uyg‘unligiga erishish qonuniyatlarini bilish juda muhimdir, lekin ulardan oqilona, individual ijodni rivojlantirgan holda foydalangan ma’qul.

Ranglar uyg‘unligining to‘rtta asosiy guruhi mavjud:

- ranglarning bir tusli uyg‘unlashgan birikmalari (monoxromatik);
- o‘xhash ranglarning uyg‘unlashgan birikmalari;
- o‘xhash-kontrast ranglarning uyg‘unlashgan birikmalari;
- kontrast va qo‘sishimcha ranglarning uyg‘unlashgan birikmalari.

Ranglarning bir tusli uyg‘unlashgan birikmalari axromatik ranglar qatoriga juda o‘xhash bo‘lib, ulardan farqi shundaki, uyg‘unlikning asosini qandaydir bir rang tusi tashkil etadi. Bu rang ma’lum miqdorda birikadigan ranglarning har birida mavjuddir. Ranglar esa bir - biridan faqat to‘yinganligi va ochiqligi bilan ajraladi.

Umumlashgan rang tusi - bir tusli birikmalarni tinch, vazmin, osoyishta qilib ko‘rsatadi. Qo‘yilgan masalaga qarab, uyg‘unlik turini ochiqlik diapazonlarida tashkil etilishi mumkin. Bir tusli ranglar uyg‘unligi uchun birikadigan ranglar egallaydigan yuzalar nisbati ayniqsa muhimdir. Uchta rang uchun yuzalar taxminan bir xilda teng taqsimlansa, statik holat kelib chiqadi, yuzalar bir-biridan keskin farq qilganda, rangning ochiqligi va to‘yinganligi bo‘yicha ham kontrastni ko‘rsatish shart.

O‘xhash ranglarga doiradagi barcha oraliq ranglar, shu jumladan, ularni tashkil qiluvchi bir xil asosiy ranglar kiradi. Ranglar doirasida yonma-yon joylashgan (qo‘shti) asosiy ranglar o‘xhash emas, lekin ulardan har biri qo‘shti oraliq ranglarga nisbatan o‘xhash bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, o‘xhash ranglar ikki yoki bitta asosiy rang qo‘shilgan ranglarni birlashtiradi. Ranglar

doirasida o‘xshash ranglarning to‘rt guruhi mavjud: sariq-qizil, sariq-yashil, ko‘k-qizil va ko‘k-yashil.

O‘xshash ranglarning uyg‘unligi ular tarkibiga asosiy ranglar qo‘shilganligi bilan xarakterlidir. O‘xshash ranglar uyg‘unligi ranglar tusining o‘xshasliligi va oz-moz qarama- qarshiligidagi (doira bo‘yicha) asoslangandir. Ikki xil o‘xshash rangning uyg‘unligi - bu ranglar birikmasidagi ikki asosiy rangning o‘zaro muvozanati emas, balki ikki taqqoslanuvchi ranglar tarkibiga kiruvchi bir asosiy rangning ko‘z bilan chandalash orqali kelib chiqadigan muvozanatidir. Ikki xil o‘xshash ranglarda ikki asosiy rangni birdaniga muvozanatlash mumkin emas. Bir asosiy rangni esa muvozanatlash uning to‘yinganligini o‘zgartirish (kamaytirish) hisobiga mumkindir. Uch xil o‘xshash ranglarni qanday qilib uyg‘unlashtirish mumkinligini quyidagi misolda ko‘rish mumkin. Tiniq sariq 1, olov rang 3 va qizg‘ish-olov rang 4 da sariq va qizil rang miqdori turlicha. Ko‘rsatilgan ranglarning uyg‘unligiga erishish uchun hech bo‘limasa bir rangni muvozanatlash kerak, masalan, sariq rangni. Buning uchun tiniq sariq 1 ochartiriladi, ya’ni sariq rangning miqdori kamaytiriladi; olov rang 3 kamroq miqdorda ochartiriladi, ya’ni ham sariq, ham qizil rang miqdori bir vaqtning o‘zida kamaytiriladi.

Nihoyat, qizg‘ish-olov rang 4 miqdori o‘zgartirilmaydi. Natijada, tiniq sariq rang miqdori uchala rangda ham bir xil miqdorda qoladi. Shu masalani ikki xil rangga turni miqdorda qora rangni qo‘shish bilan ham hal qilish mumkin.

O‘xshash kontrast ranglariing uyg‘unligi. O‘xshash - kontrast ranglar birikmasi ranglar uyg‘unligining eng ko‘p tarqalgan xilidir. Ranglar doirasida o‘xshash - kontrast ranglar qo‘shni choraklarda joylashgan. Bularga iliq sarg‘ish - qizil va sarg‘ish - yashil ranglar, sovuq ko‘qish - yashil va ko‘k- qizg‘ish ranglar, iliq sarg‘ish - qizil va sovuq ko‘k - qizg‘ish ranglar kiradi. Hammasi bo‘lib to‘rtta o‘xshash - kontrast ranglar guruhini ko‘rishimiz mumkin.

O‘xshash-kontrast ranglar turli guruhlarining uyg‘unlashgan birikmalari ranglar aktivligining kuchayganligi va murakkabligi bilan xarakterlidir. Sovuq ko‘k - qizg‘ish va ko‘kish - yashil ranglar birikmalari ulardan prinsipial tarzda farq qiladi. Va nihoyat, iliq sarg‘ish - yashil ranglarning sovuq ko‘k-yashil ranglar bilan

birikmalari va iliq sarg‘ish- qizil rangning sovuq ko‘k - qizil bilan birikmasi butunlay boshqacha ko‘rinishda bog‘ladi. O‘xhash - kontrast ranglarning hamma birikmalari ham bir xil darajada uyg‘unlashgan emas. Chunki o‘xhash - kontrast ranglarning bunday juftliklari o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjuddir: ya’ni ular tarkibi bir xil miqdordagi birlashtiruvchi asosiy ranglardan va bir xil miqdordagi kontrast ranglardan tuzilgan.

O‘xhash - kontrast rangli kompozitsiyalar doiradagi uch yoki to‘rt xil oraliq ranglar qo‘shilmasidan ham tuzilgan bo‘lishi mumkin. Tajribadan ma’lumki, o‘xhash-kontrast ranglar sof holda ham, ya’ni ularga axromatik ranglar qo‘shilmaganda ham, o‘zaro uyg‘unlikka ega bog‘ladi, qachonki ikki qo‘shiluvchi rangli kompozitsiyalarda ularni birlashtiruvchi asosiy rang miqdori va ularga kontrast bo‘lgan asosiy ranglar miqdori teng bo‘lsa.

Kontrast ranglaming uyg‘unlashgan birikmalari rang tuslarining uyg‘unlashgan muvozanati ularning o‘xhashligi, rang tusi bo‘yicha qondoshligi yoki aksincha, ma’lum qarama-qarshiligi, rang sifatlarining o‘zaro mos kelmasligi bilan izohlanadi, tasviri amaliyatda ularning uyg‘unlashgan birikmalariga ko‘p misollar mavjud. Biz uchun kontrast ranglarning uyg‘unlashgan birikmalar tashkil qilishdagi imkoniyatini bilib olish prinsipial ahamiyatga ega.

Kontrast ranglar doirada qutb kabi bir-biriga nisbatan juda qarama-qarshi joylashgan uchun, ularning uyg‘unlashgan birikmalari o‘z aktivligi, kuchli taassurot qoldirganligi va harakatchanligi bilan tavsiflanadi. Kontrast ranglaming uyg‘unlashgan birikmasini hosil qilish uchun dastaval dastlabki rang tanlanadi, keyin doiradan taxminan unga kontrast bo‘lgan rang aniqlanadi. Bir rangni, masalan, boshlang‘ichini, imkon darajasida to‘yingan qilib olgan ma’quldir. Undan tashqari, ranglarni ochiqligi bo‘yicha ham bir-biriga yaqin tanlash tavsija qilinadi (ochiqlik darajasi bo‘yicha kuchli kontrast rang kuchini qirqadi). Birikmadagi uchinchi rang boshqa ikki kontrast rang tuslari qatoridan tanlanadi [29].

Ranglarning asosiy guruhlari. Hamma ranglarni ikki katta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga oq, qora va hamma kulranglar kiradi, eng ochidan boshlab eng to‘qigacha. Bu ranglar axromatik deb ataladi.

Axromatik ranglar. Har bir axromatik rang ma'lum yorqinlikka ega, shu bilan birga bir axromatik rangda yorqinlik juda kuchli, boshqalarida u kamroq, uchinchisida yana ham kam va hokazo. Axromatik ranglar bir-biridan faqat yorqinligi bo'yicha farq qiladi: agar ikki axromatik rangda yorqinlik bir xil bo'lsa, bu ranglar umuman bir - biridan farq qilmaydi.

Kam yorqinlikdagi axromatik rang hosil qilish uchun hamma tomondan yopiq qutini olish, uni qora duxoba bilan ichkaridan yelimalsh - va qutining bir devorida kichik tuynuk hosil qilish kerak. Agar bu tuynukka biror masofadan qaralsa, biz hamma qora ranglardan eng to'q rangni ko'ramiz. Bunday tuynuk mutlaqo qorong'ilik deyiladi.

Axromatik ranglarni shartli besh guruhga bo'lish mumkin: oq, och kulrang, o'rtacha kulrang, to'q kulrang va qora ranglar. Bu guruhlar orasida qat'iy chegara, albatta, mavjud emas.

Ikkinci guruhga hamma qizil, to'q sariq, sariq, yashil, moviy, ko'k, binafsharang va qirmizi ranglar, ular orasidagi hamma oraliq va nozik farqlar bilan birgalikda kiradi. Bu ranglar xromatik deb ataladi.

Xromatik ranglar. Har bir xromatik rang uch xususiyatga ega: u yoki boshqa rang tusi, ko'p yoki kam yorug'lik va ma'lum to'yinganlik kabilardir.

Libosda monoxrom rang birikmalarini qurish prinsiplari

Bir tonli uyg'un rangli birikmalar asosini bitta qandaydir rangli ton asosini tashkil etib, bu rang birikadigan ranglar tarkibiga ma'lum miqdorda ishtirok etadi. Turli xil yorug'lik farqlanishi bilan uyg'unlik hosil kilingan bo'lishi mumkin. Bir tonli birikmalarni tuzish uchun bir tonli uchburchak ko'rinishdagi soyaviy qator kuriladi. Uchburchakning asosida axromatik ranglar, yon tomonidan axromatik ranglar, cho'qqida ma'lum bir to'yingan rang olinadi:

- uchburchakning tashqi diametridagi ranglari qorayib keladi;
- uchburchakning ichki diametriddagi ranglar oqarib keladi.



36– rasm. Ranglar uchburchagi

Rangli xalqalar sistemasida qardosh - kontrast oraliq choraklarda joylashadi. Qardosh kontrast ranglarning to‘rtta guruhi mavjud:

- sariq-qizil va ko‘k-qizil ranglar,
- ko‘k-qizil va ko‘k-yashil ranglar,
- ko‘k-yashil va sariq-yashil ranglar,
- sariq-yashil va sariq-qizil ranglar.

Qardosh – kontrast ranglarning turli xil uyg‘un birikmaliyuqori rangli aktivligi va murakkabligi bilan tavsiflanadi. Rangli xalqaning vertikal va gorizontal diagonallari uchlarida joylashgan rangli birikmali o‘ziga xos uyg‘unlikni yuzaga keltiradi. Bu shunday izohlanadi - qardosh-kontrast ranglar juftligi orasida ikki tomonlama aloqa mavjud:

- ular (asosiy) bir xil miqdordagi birikuvchi ranglardan tashkil topgan;
- ular (asosiy) bir xil miqdordagi kontrast ranglardan tashkil topgan.

Ikki qardosh kontrast ranglarning uyg‘un birikmali ularga axromatik (oq va qora) ranglarning qo‘shilishi natijasida boyiydi.

Libosda kontrast - qo‘sishma ranglar birikmasini qurish prinsiplari.

Rangli doiraning qarama-qarshi choraklarida joylashgan qo‘sishma ranglari kontrast - qo‘sishma ranglar deyiladi:

- sariq- qizil va ko‘k -yashil
- sariq- qizil va ko‘k -qizil.

Ranglarning optik qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan xromatik ranglar qo‘sishimcha ranglar deb aytiladi. Ular rangli doira diametrining qarama – qarshi uchlarida uchrashadi (ko‘k, yashil, qizil va sariq). Qo‘sishimcha ranglar uyg‘un ranglar bo‘lib hisoblanadi. Ranglar vazminligi ularning qarama-qarshi sifatlari bilan yuzaga keltiriladi. Shunday qilib, qo‘sishimcha va kontrast ranglar qutbiy xususiyatlarga ega. Ularning uyg‘un birikmalar o‘zining qiziqarligigi bilan hamda ranglarning harakatchanligi bilan tavsiflenadi.

Ranglarning uyg‘un birikmalarini hosil qilish uchun ma’lum bir rang yorug‘lik darajasi bilan yaqin bo‘lgan ranglardan foydalaniladi. Dastlabki rang bo‘lib, to‘yinganrok rang olinadi. Kontrast ranglarning birikmalar dinamika, dramatizm va his - tuyg‘uning o‘tkirligini, semirish ifodasini beruvchi kompozitsiya vositalaridan hisoblanadi. Kontrast ranglar har qanday rangni aktivlashtiradi.

Libosda xromatik ranglarning 3 va 4 rangli birikmalarini kurish prinsiplari. Badiiy ijodiyot amaliyotida ikki rangli kompozitsiyalar nisbatan kam uchraydi. Oddiy uyg‘un rangli birikmalar tarkibiga uchinchi yoki to‘rtinchchi axromatik ranglar ishtirok etishi uni ancha boyitadi. Ikki rangli kompozitsiyalarga AQSh pul birligi – dollar misol bo‘la oladi.

Uch rangning uyg‘un birikmaları uchburchak prinsiplari asosida tuziladi. Teng yonli uchburchak birikmalar - uchburchak asosida yotuvchi ikki qardosh rang va uchburchak to‘g‘risidagi kontrast ranglar birikmalaridan hosil bo‘ladi.

Teng tomonli teng yonli prinsip bo‘yicha birikmalar - uchburchak asosidagi ikki qardosh kontrast va cho‘qqidagi asosiy kontrast rang teng yonli uchburchak bo‘yicha birikmalar - uchburchak asosida ikki qardosh – kontrast va ularning umumiy rangi - uchburchak cho‘qqisida ranglar uyg‘unligi uchun asosiy ranglar oqartiriladi yoki qoraytiriladi. Teng burchakli uchburchak bo‘yicha birikmalar bunda qardosh kontrast rangdan va kontrast rangdan foydalaniladi. Katetida qardosh kontrast ranglar gipotenuzada kontrast ranglar uch xil rangning barcha

birikmalar uchburchak asosida birikib, chiroyli aktiv va uyg‘un ranglarni hosil qiladi.

To‘rt rangli birikmalar to‘rburchak asosida olib boriladi. Bunda qardosh ranglar kontrast ranglar o‘rtasidagi bog‘liqlikdan foydalilanadi. Ranglar o‘rtasidagi to‘rburchak bog‘liqlik kvadratga almashtirilganda aktiv rangli birikmalar hosil kilinadi. Axromatik ranglar birikmalarning turli yorug‘lik farqini o‘zida mujassamlashtirgan ranglar ikki yoki uch rangda uyg‘unlik asosida birikmalar hosil qiladi.

Rangli birikmalarni hosil qilish uchun teng pog‘onali axromatik qatordan foydalilanadi. Bunda ranglar teng darajada bir - biridan o‘zining yorug‘ligi bilan farqlanadi. Rangli xalqada o‘zaro yaqin joylashgan ikki qardosh rangning birikmasi nyuansni va ikki uzoqda joylashgan ranglar kontrast rangli birikmani hosil qiladi. Uch xil rangning uyg‘un birikmalari quyidagi asosiy miqdor va yorug‘lik jihatdan farqlanadigan birikmalarda ifodalanadi.

Yaqin ranglar bir-biriga yaqin joylashib, doiraning chorak qismini egallaydi. Asosiy ranglardan biri ularni o‘zaro bog‘laydi; bu ranglar tarkibida qo‘sishimcha ranglarga xos tuslar bo‘lmaydi.

Yaqin ranglar birligi uyg‘un bo‘lsada, ta’sirchan bo‘lmaydi. Yaqin - kontrast ranglar doiraning yon tarafdagagi chorak qismini egallaydi: ko‘kimir-qizil va ko‘kimir-yashil, sarg‘ish-qizil va sarg‘ish-yashil, sarg‘ish-qizil va ko‘kimir-qizil, sarg‘ish-yashil va ko‘kimir-yashil. Yaqin - kontrast ranglar yaqin ranglarga nisbatan aktivroq va ko‘rkamroqdir.

Kontrast ranglar doiraning qarama - qarshi tomondagi chorak qismini egallaydi (sarg‘ish-qizil va ko‘kimir-yashil, sarg‘ish-yashil va ko‘kimir-qizil); ularning bir-biriga hech qanday o‘xshashligi yo‘q. Kontrast qo‘sishimcha ranglar - toza sariq bilan toza ko‘k ranglar, toza qizil bilan toza yashil ranglar. Kontrast va qo‘sishimcha ranglardan ancha yorqin va his-tuyg‘uga aktivroq ta’sir etadigan qo‘sishimcha ranglar hosil etish mumkin [12].

Barcha ranglar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-biriga ta’sir etadi. Qora fonda barcha ranglar ochilib, ravshan ko‘rinadi; yorug‘ fonda, aksincha, odmilashadi

(ravshanlik kontrasti). Biror rangga qandaydir xromatik rang qo'shilgandagina emas, balki unga qora yoki oq rang aralashtirilganda ham uning xarakteri o'zgaradi.

Axromatik qator asosida garmonik rang birikmalarini yaratish. Ikki xil rang (xromatik va axromatik ranglar)ning aralashuvidan hosil bo'ladigan chetki kontrast ranglar illyuziyasining ajoyib ko'rinishlaridan biridir. Bu hodisa taqqoslanayotgan ranglar chetida ularga xil kelmaydigan rang paydo bo'lishidan iborat.

Ravshan, to'yingan, yoqimli («iliq») ranglar kamroq to'yingan, xira, sovuq ranglarga qaraganda masofani yaqinroq qilib ko'rsatadi.

Ranglarning baravar kontrasti deb yuritiladigan hodisa ham mavjud. Bu hodisa shundan iboratki, yonma-yon turgan ranglar muhitga qarab tusini o'zgartiradi. Masalan, kontrast ranglar yonma - yon tursa, ularning kontrastligi kuchayadi. Kul rang qora fon ustida ochroq bo'lib, kamroq to'yingan ranglar yanada xiraroq bo'lib ko'rinadi. Och ranglar hajmni kattalashtirib, to'q ranglar esa kichiklashtirib ko'rsatadi. Och va to'yingan, yorqin rang gazlamadan tikilgan kiyimda jussa katta bo'lib ko'rinadi. Qizil va sariq ranglar jussani kattalashtirib ko'rsatadi, go'yo oldinroqqa suradi va qiyofani ko'zga yaqqol tashlanib turadigan qiladi. Qora rang kiyim jussaning konturlarini ochiq - oydin ko'rsatadi.

Ranglar illyuziyasi. Ranglar va ranglar birikmalarining xususiyatlari kiyim modellashtirishda ishlatiladigan illyuziyalar kompleksini bunyod etadi. Bitta rang qaysi rangning fonida turishiga qarab har - xil ko'rinishi mumkin. Masalan, kichik kulrang kvadrat qora qog'oz fonida oq qog'oz foniga nisbatan birmuncha ochroq ko'rinadi. Oq buyumlar to'q fonda nafaqat oqroq, balki yassiroq ko'rinadi, xuddi shunday to'q buyumlar och fonda to'qroq va yassiroq bo'lib qoladi.

Kulrang kichik kvadrat katta qizil qog'oz ustida yashil tusli kulrang ko'rinadi, ko'k rangli qog'ozda sarg'ish-kulrang, yashil rang ustida kizg'ish-kulrang, to'q sariq rang ustida ko'kimtir kulrang, keltirilgan misoldan kulrang fon rangidan qo'shimcha tus olib o'z rangini o'zgartirgani ko'rinib turibdi. Bu hodisa xromatik kontrast deyiladi.

Libosda toza ranglar ishlatilganda xromatik kontrastlar ta'sirining oldini olish uchun konturlash usulidan foydalaniladi. Uning rolini neytral ko'proq qora rangli bezak mag'iz) bajaradi. Barcha to'q ranglar ochlarga nisbatan «og'ir» rang deyiladi, ochlari esa «yengil». Agar og'ir ranglar yengil ranglar ustiga joylashtirilsa, bu hodisa ayniqsa namoyon bo'ladi [30].

Ranglarning fazoviy xususiyatlari orasida rangli yuzalarni xayolan uzoqlashgani yoki yaqinlashgani kuzatiladi. Ko'ringandan kelgan tuyg'u hamma kishilarda bir xil emas, lekin bu hodisaning qandaydir qonuniyatini chiqarish mumkin. Shuningdek, och axromatik ranglar, odatda, buyum shaklini aniqlashga ko'maklashadi, qora rang esa yorug' soyalarni bo'g'ib, shaklni to'g'ri uyg'unlashtirmaydi. Bo'yalgan yuzani yaqinlashtirish qobiliyati issiq va och ranglarda (sariq, to'q sariq, qizil) kuchliroq. Bo'yalgan yuzani uzoqlashtirish qobiliyatiga sovuq va to'q ranglar (binafsha, ko'k, zangori, yashil) ega. Issiq ranglarni turtib chiqqan rang, sovuqlarni esa chekingan rang deyiladi.

Buyumning eng muhim informatsiyaviy sifatlaridan biri - rang hisoblanadi. Amaliy san'at buyumlarida rangning vazifasi turlicha. Bular psixologik, ijtimoiy, estetik vazifalardir.

Rang hayot va mamot timsoli, quvonch va xafalik ifodasi bo'lib kelgan: u ilqliqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik, yengillik va vazminlik hissini berishi mumkin: bizning xis - tuyg'ularimizda ham rang ta'siri bor.

Rang hamma vaqtarda jins - yosh farqini bildiradigan vosita bo'lgan. Bolalar kiyimi nozikroq tusli bo'ladi, o'smirlar kontrast ranglarni ma'qulrok ko'radi, katta yoshlilarga chuqurrok rang tuslari yoqadi. Ayollarning kiyimi erkaklar kiyimidan ko'ra yorqinroq va ko'p rangliroq bo'ladi.

Ranglarning gavdani o'zgartirib ko'rsatish xususiyati ham bor. Gavdani iliq (sarg'ish qizil va sarg'ish yashil) ranglar yaqinlashtirib va kattalashtirib ko'rsatadi, sovuq (ko'kish qizil va ko'kish yashil) ranglar uzoqlashtirib va kichraytirib ko'rsatadi.

Qora rang gavdani maksimal uzoqlashtirib va kichraytirib, oq rang esa maksimal yaqinlashtirib va kattalashtirib ko'rsatadi [25]..

Ranglar his-tuyg‘uga juda katta va har xil ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi ranglar kishiga taskin beradi (tinchlantiradi), ko‘ngilni ko‘taradi, ko‘zni quvontiradi; boshqalari - hayajonlantiradi, ma’yuslantiradi va tashvishlantiradi. To‘q yoki nafis ranglar, yoqimli va xira ranglar farq qilinadi [12]. Yuqorida keltirilgandek, jami ranglar xromatik (bo‘yalgan) va axromatik (bo‘yalmagan, ya’ni tussiz) ranglarga ajratiladi (oq, kul rang va qora rang axromatik rang hisoblanadi). Asosiy xromatik ranglar to‘rtta: sariq, ko‘k (zangori), qizil va yashil. Ular boshqa ranglarning hammasidan shunisi bilan ajraladiki, ko‘zimizga toza, juda «sof» bo‘lib ko‘rinadi; boshqacha aytganda, ranglarga bo‘lingan doiradagi qo‘shti ranglarga oid tuslar go‘yo sariq, ko‘k, qizil va yashil ranglar tarkibida yo‘qdek tuyuladi. Boshqa ranglar ana shu to‘rtta asosiy rangning aralashuvidan hosil bo‘ladi va oraliq ranglar deb yuritiladi.

Kiyimni loyihalashda ikki - uch (kamdan - kam hollarda to‘rt) rangga murojaat qilinadi, chunki ranglar ko‘payib ketsa, ularning uyg‘unligi va birligi buziladi. Ranglar birligiga bo‘yoqlar tusining xilma-xilligi, yorqinligi va to‘yinganligi xosdir. Uch xil rangning garmonik nisbati yorqinlik darjasini jihatidan asosiy ranglarning to‘rt xil qo‘shilishi bilan ifodalanadi: yorqin rang, o‘rtacha rang va to‘q rang baravar miqdorda qo‘shilgan; yorqin rang ko‘proq, o‘rtacha rang yorqinroq rangga yaqinlashgan va to‘q rang kamroq qo‘shilgan; to‘q rang ko‘proq, o‘rtacha rang to‘q rangga yaqinlashgan va yorqin rang kamroq qo‘shilgan; o‘rtacha rang ko‘proq, yorqin rang va to‘q rang kamroq qo‘shilgan.

Garmonik qo‘shilish (birlik) hosil qilishning bu qonuniyatlarini ranglar qatoriga ham to‘la daxldordir (qizildan qora rangga yoki sariqdan oq rangga tomon). Ranglarning bunday qo‘shilishi monoxrom qo‘shilish deb ataladi [25]. To‘rtta asosiy rang yordamida ranglar doirasini tuzish mumkin, modellashtirish jarayonida bu doiradan osonlikcha foydalanish mumkin. Ranglar doirasida ranglarni yaqin (bir-biriga xil tushadigan, o‘xshash), yaqin-kontrast va kontrast (bir-biriga xil tushmaydigan) turlarga ajratish mumkin.

Rang buyumning shaklini va o‘lchamini faraziy o‘zgartira olganini hisobga olib, to‘la va gavdali kishilar kiyimida shakllarni faraziy kichraytiradigan rang va

tuslardan foydalangan ma'qul. To'la va baland bo'yli ayollarga gazlama rangini tanlashda sovuq chekinadigan ko'k, (zangori, yashil, feroza, zumrad, binafsha, kul rang, ko'k) ranglarni tavsiya qilish mumkin. Qora rang, bir tarafdan, to'la figurani faraziy siporoq va kelishganroq ko'rsatadi, lekin ikkinchi tarafdan to'la dumaloq yelkalarni va yo'g'on belni aniq ko'rsatadi. Ozg'in, baland bo'yli ayollarga issiq rangli (och jigarrang, tamaki rang, fil suyagining rangi, ochiq - shokolad rang, asal rangi, terrakota rangi, to'q qizil, banan rang) gazlamalar tavsiya qilish mumkin. Unchalik baland bo'limgan ozg'in ayollar uchun o'z kiyimlarida murakkab ranglar garmoniyasini ishlatmasliklari kerak, chunki ular shunday ham kichik figurani yaxlitligini buzishadi. Bunday nozik figuralarga eng sodda ikki rangli garmoniyalar yarashadi [29,30].

Quyosh yorug'ida deyarli hamma ranglar oqaradi yoki sal sarg'ayadi. Kundo'zi sariq sarg'ish-yashil eng yorug' rang bo'lib ko'rindi, kechqurun esa - zangori. Qosh qoraygan paytda eng birinchi qizil ranglar yo'qoladi, tongotarda ham ular eng kech ko'rindi, lekin zangori ranglar uzoq vaqt yaxshi ko'rindi. Tarqoq kunduzgi yorug'likda ko'k, binafsha, zangori, ko'k-yashil ranglar yorqin ko'rindi. Kechqurun elektr yorug'ida ranglar sarg'ish tusga ega bo'ladi yoki xiralashadi, yoki aksincha, yorqin bo'lib chuqurlashadi. Masalan, hamma qizil ranglar yorqinlashadi, ko'k sariqlar - ochiq oltin rang, sariqlar oqaradi, iliq yashil - to'qroq ko'rini yorqinlashadi, sovuq yashil ranglar - xiralashib to'qroq ko'rindi, och zangori kul rang yoki kul rang zangoriga o'xshab qoladi, to'q ko'k qoramitir ko'rindi, binafsha yoki qizg'ish binafsha, yoki kirroq xira ko'rindi.

Ranglarning yoritilganlikka bog'liq ravishda o'zgarishi - bir xil sharoitda iliq va sovuq ranglar optik jihatdan o'zaro qarama-qarshi xususiyatlari bilan farqlanadi. Kunduzgi yorug'likda iliq ranglar yaqinlashayotgandek, sovuq ranglar esa uzoqlashayotgandek taassurot qoldiradi. Sariq rang, masalan, bo'yagan yuzani kengaytirib, uni tomoshabinga yaqinlashtiradi, qizil rang kunduzgi yorug'likda oldingi planga chiqadi, g'ira-shirada esa uzoqlashayotgandek tuyuladi. Elektr yorug'ligi tabiiysiga qaraganda anchagina sariqroqdir, shuning uchun rangtasvir bilan tabiiy yorug'likda shug'ullangan ma'quldir. Agar elektr chirog'i yorug'ligida

ishlanganda qizil, olov rang va sariq ranglar ochroq ko‘rinadi; ko‘k, havo rang va siyoh rang to‘qlashadi, qizil to‘yinganroq bo‘lib, och-sariq oqdan, havo rang yashildan, to‘q ko‘k qoradan deyarli farq qilmaydi. Qorong‘ilashtirilgan va yoritilgan buyum shakllari ko‘z oldimizda turganda, biz nafaqat iliq rang va yarim soyani farqlashimiz, balki eng yoritilgan joyda ranglar qanday taqsimlanganini idrok etishimiz zarur. Ko‘pincha rassom o‘z ko‘ziga ishonmay, qoidalarga murojaat qiladi. Lekin tajriba shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy kuzatuvlarsiz qida bo‘yicha ishlanganda hayot noto‘g‘ri tasvirlanishi mumkin.

Ayollar ust kiyimi uchun gazlama tanlaganda yoritilganlik kunduzgi bo‘lishi kerak. Quyosh yorug‘ligida qora va to‘q jigarrang ranglar ko‘rimsiz ko‘rinadi (changli va eskiroq). Kostyumda faraziy ko‘rinishlar ranglar birikmalarini idrok qilishda, ayniqsa kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Kostyum shakli geometrik hajmlar birikmasini ifodalagani uchun optik faraziyliklar muhim ahamiyatga ega. Ikki teng kvadrat (oq va qora) o‘lchamlari bo‘yicha har xil ko‘rinadi. Agar shu kvadratlarni vertikal va gorizontal chiziqlar bilan bo‘linsa, birinchi holda kvadrat cho‘ziqroq ko‘rinadi, ikkinchisida esa kengroq ko‘rinadi. Lekin bu illyuziyalarning namoyon bo‘lish chegarasi bor. Masalan, agar o‘sma kvadratlarning orasi kam masofali chiziqlar bilan bo‘linsa, qarama-qarshi illyuziya hosil bo‘ladi.

Rang davrga xos ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi. Masalan, arg‘uvon rang hamma vaqt jamiyatning imtiyozli tabaqalariga xos rang bo‘lib hisoblangan; qora rang, jigar rang, yashil, to‘q ko‘k rangdagi kiyimlarni shaharliklar va kul rang kiyimlarni faqat hunarmandlar kiyishgan.

Ranglar yoshdagagi farqni bildiradigan vosita bo‘lib ham hisoblanadi.

5.6. Kostyum shakli va material

5.6.1. Kostyumda qo‘llaniladigan materiallarni asosiy xususiyatlari: faktura, naqsh

Kiyimni hajqli shakl deb karalganda uning qanday materialdan tikilganini bilish kerak (gazlamalar, trikotaj, mo‘yna, charm, zamsh, noto‘qima materiallar, qavat gazlamalar, plyonka, yog‘och, plastmassa, shisha va boshqalar).

Bu materallardan har birining o‘z plastik xususiyatlari (mayinlik, osiluvchanlik, dag‘allik va shu kabilar), dekorativligi (faktura, rang, naqsh, gul), fizik-mexanik xususiyatlari (zichlik, qayishqoqlik, cho‘ziluvchanlik, kirishuvchanlik, titiluvchanlik) va gigienik xususiyatlari (havo o‘tkazuvchanlik, nam o‘tkazuvchanlik, chang o‘tkazuvchanlik, issiqlik o‘tkazuvchanlik) bo‘lib, shaklning xarakteri va konstruktiv yechimi qanday hal etilishini ushbu xususiyatlar belgilab beradi. Masalan, harir shifon gazlamalar mayin, osiluvchan, drapirovkabop bo‘ladi, shuning uchun ularidan choklari minimal darajada kam, yumshoq ovalsimon shakl yaratilishi kerak, bunda drapirovkalar, burmalar, mayin taxlamalar, klyosh bichiq hisobiga shakl hosil qilinadi: bemalol tashlanib turadigan (krepsatin tipidagi) gazlamalarning yetarli darajada hajmli, gavda bo‘ylab "sirpanib" osilib turadigan kiyim tikish imkonini berib, gazlamaning jimirlashi uning yuqoridagi xususiyatlarini kuchaytirib ko‘rsatadi: sintetika aralash jun gazlamalardan aniq, geometrik shakldagi buyumlar tikiladi.



37-rasm. Materiallarning plastik xususiyatlari

Materiallarning gigienik xususiyatlari ham kiyim shaklini hosil qilishga ta’sir etadi. Masalan, xavo va nam o‘tkazishi yomon materiallardan bo‘lgan kiyimlarni, kiyim tagidagi havo ventilyatsiya bo‘lib turishi uchun, gavdaga yopishmaydigan ochiq shaklli qilib tikish tavsiya etiladi.

Faktura - bu material yuzasining tuzilishini xarakterlovchi xususiyat. Faktura tabiiy (mo‘yna, teri, yogoch, zamsha va boshqalar) va mexanik yo‘l bilan olingan hosila bo‘ladi. Materiallar silliq, g‘adir - budur, yaltiroq, xira, to‘qli va hokazo fakturali bo‘lishi mumkin.

Hosila fakturaning xarakteri materialning kanday usulda (to‘qimachilikda, to‘r to‘qishda va hokazo) olinganiga, yuzadagi bo‘rtik qismlarning baland - pastligini va iplarning merial zichligini belgilaydigan chalishish xarakteriga bog‘liq. Sath birligiga to‘g‘ri keladigan faktura elementlarining katta - kichikligi va mikdoriga qarab materiallarning yuzasi ifodaliligi jihatidan har xil bo‘ladi.

Har bir fakturada badiiy obraz belgilari bo‘ladi. Faktura sovuqlik va iliqlik, yengillik va vazminlik va boshqa taasurotlar hosil qilishi mumkin.

Faktura tanlashda mavsum kiyimning nimaga mo‘ljallanganligi, odamning jinsi, yoshi va gavda tuzilishi turi hisobiga olinishi kerak. Kechqurungi bashang kiyimlarga olivjanob yaltillaydigan sidirg‘a materiallar ishlataladi, lekin olachipor gazlamalar zinhor - bazinhor to‘g‘ri kelmaydi.

Gazlamalarning faktura xususiyatlari umuman shaklni va uning qismlarini idrok qilishda ko‘z aldanishi paydo bo‘linishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, vazmin, xira, tukli fakturalar shaklni kattalashtirib ko‘rsatadi.

Shaklning va umuman gavdaning idrok etilishida naqsh gulning muhim ahamiyati bor. Shaklni naqsh guldan ajratib bo‘lmaydi. Hamonki shaklda naksh gul bor ekan, demak naqsh gul shaklning zarur komponenti, bir qismi bo‘lib turadi. Naqsh gulning ham kostyum singari ko‘p asrli tarixi, xalklarga, millatlarga mansubligi bor.

Materiallarning dekorativ motivlari quyidagi ko‘rinishlarda bo‘ladi:

1. Abstrakt yoki geometrik motivlar;
2. Realistik yoki buyumli motivlar (o‘simliklar, hayvonlar, buyumlar)

Aralash motivlardan iborat rasmlar juda ko‘p ishlataladi. Rasm mayda, o‘rtacha, yirik bo‘lishi mumkin.



38 - rasm. O‘zbek milliy ipaklaridagi motivlar

Turli kiyim turlarini modellashtirishda nafis gul tanlashga jiddiy munosabatda bo‘lish kerak va naqsh gul xarakterlari bilan xususiyatlarini jins - yoshga, gavda tuzilishining tipiga, kiyim nimaga va qaysi mavsumga mo‘ljallanganiga, tikish usuliga qarab hisobga olish kerak.

Bolalar kiyimidagi naqsh gul kompozitsiyasi ayniqsa, aniq, ravshan, tushunish oson, ko‘pincha qiziq - qiziq rasmlı bo‘lishi kerak, chunki bolalar kiyimidagi naksh gulining fakat estetik emas, balki bilim orttirish vazifasi ham bor.

Katta yoshli kishilar mayda yoki o‘rtacha gulli, bosiqroq bo‘g‘iq tusni ma’qul ko‘rishadi. Kundalik kiyimda mayda va o‘rtacha gulli gazlama ishlataladi, bordiyu, gazlama yirik gulli bo‘lsa, unda gullar sokin koloritli bo‘lishi kerak. Bashang kiyimlarda va istirohat kiyimlarida rasmlar diapazoni juda keng bo‘ladi.

Gazlama rasmi. Gazlama rasmlari turli-tumanligini geometrik, o‘simplik, hayvon va aralash xarakterdagi rasmlar bilan ko‘rsatish mumkin bo‘lib, bunda geometrik rasmlar alohida o‘rin tutadi. Geometrik xarakterdagi rasm sof geometrik yoki kuchli geometrik shakllardan yasaladi. Ularga klassik rasmlar (no‘xat, yo‘l-yo‘l, katak va ularning variantlari) kiradi. Geometrik shakl va yo‘llarning mumkin bo‘lgan barcha uyg‘unliklari foydalilaniladi. O‘simplik xarakteridagi rasm o‘simplik dunyosining tasviriy va uslublashtirilgan shakllaridan iborat bo‘ladi.

To‘qimachilik matolari rasmida hayvonlar tasviri ko‘pincha kuchli uslublashtirilgan yechimda bo‘ladi - ko‘pincha chiziqlar yoki tekisliklar naqshli yechimlar yoki multiplikatsion yumshoq hazil sifatigacha yetkaziladi. Bunday gazlamalarda aralash motivdagi rasmlar keng qo‘llanadi. Kompozitsiyaning «loskut» yechimi o‘simplik va geometrik motivlar uyg‘unligida tuziladi. Aniq mavzuga doir rasmlar bosh kiyim va ro‘mollarda yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Gazlamada bajarilgan rasm aniq naqsh motivlarning ko‘p yoki kam sonidan iborat bo‘lishi mumkin, ular miqdori turli-tuman. Gazlamada takrorlanuvchi (rapportda) rasm o‘lchami esa ishlab chiqarish sharoitlari (bosmalash valining kengligi, bosmalash elagi yuzasi va hokazo)dan bog‘liq bo‘ladi. Gazlama kupon rasmga ega bo‘lishi mumkin, bunday gazlamalar, odatda, tantanali yoki yozgi (dam olish) uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

Kiyim turli turlarini modellashtirishda gazlama rasmlarini tanlashga jiddiy qarash, uning xarakteri va xususiyatlari jins yosh belgiga qarab kiyim taqsimlanishiga ko‘ra, funksional vazifasi, mavsum va kiyimni tayyorlash xarakteri va jihatlaridan kelib chiqib, hisobga olish lozim.

Bolalar kiyimi uchun gazlamalar har doim kompozitsiya alohida aniqligi, murakkab bo‘lmagan, kulgili rasmlarning oson o‘qilishi va rang sofligi bilan ajralib turadi. Keksa yoshli kishilar uchun gazlamalar past tuslarda, naqshli motiv mayda yoki o‘rtacha kattalikdagi rasmlar bilan bajariladi. Keksa odamlar esa vazifasiga ko‘ra ko‘proq ochiq tusdagi yetarlicha kontrast naqshli shakl ishlanmali gazlamalardan foydalanishadi. Bunday gazlamalardan kiyimlar «yoshartiradi» va figura konturidan e’tiborni uzoqlashtiradi. Kiyimlar tayyorlashdagi gazlamalardan foydalanishdagi hozirgi erkinlikka qaramay ta’kidlash mumkinki, erkaklar uchun sorochkalar ishlab chiqarishda afzallik naqshli motiv mayda yoki o‘rtacha kattalikdagi rasqli, bosiq koloritda geometrik yoki kuchli uslublashtirilgan xarakterdagi yoki yetakchi murakkab rang uslub ohangida yoki sof ranglar nisbatida hal etilgan aralashlikdagi gazlamalarga beriladi. Kiyim (ko‘ylaklar, bluzkalar, yubkalar, sarafanlar, erkaklar sorochkalari va hokazo) mayda yoki o‘rtacha rasqli ancha kontrast rangli gazlamalardan yaratilishi mumkin.

Gazlamaning yirik rasmi yumshoq kolorit yoki naqshli shakl elementlarini «nozik» ishlanishini talab etadi. Bu prinsiplarda kundalik kiyimning hal etilishi nafaqat individual kostyum yaratishga, balki kishilar jamoasini ma'lum yaxlitlikda qabul qilishga imkon beradi. Formali kiyimni modellashtirishda ma'lum darajada individuallikning namoyon bo'lish imkoniyati ma'lum darajada torayadi, biroq bunday kostyum mehnat jamoasini atrof - muhitda ko'proq ifodaliroq namoyon etadi.

Bayramona va turli dam olish turlari uchun mo'ljallangan kostyumlarda juda keng rasmlar qamrovi bo'lgan gazlamalardan foydalaniladi.

Kiyimlarning mavsumlarga ko'ra bo'linishi gazlama rasmlarini tanlashda ham aks etadi. Yil faslining sovuq vaqtি uchun kiyimni (kuzgi - qishki davr) iliq, to'yingan tusli geometrik abstrakt va uslublashtirilgan rasmlи gazlamalardan bajarish afzalroq, issiq palto va kurtkalar uchun plash guruh gazlamalari sovuq, yostiq tuslarida bajariladi. Issiq yil fasli (bahorgi - yozgi davr) kiyimi uchun tasviriy xarakterdagи yengil o'simlik rasmlи o'tkir kontrast ranglar yoki ochiq sof tusli gazlamalar ko'proq to'g'ri keladi. Gazlama rasmini tanlashga kiyimni tayyorlash uchun muhim ta'sir etadi. Individual buyurtmalar bo'yicha kiyim tayyorlashda rasmlarning bir yo'nalishligi yoki naqsh motivi kattaligi kabi xususiyatlar mayda rasmlи gazlamadagidan ko'ra gazlama sarfi ko'pligini hisobga olmaganda alohida qiyinchilik tug'dirmaydi.

Shaklning keyingi juda muhim xususiyati – bu rang. Mahsulotni tayyorlashda gazlama ajralmas tavsifi sifatida rang mahsulot xususiyatiga, ba'zan esa uning timsoliy tavsifiga aylanadi. Biz «qizil sarafan», «binafsha rang beret» va hokazo so'zлarni har bir buyum o'z aniqlovchisiga ega bo'lgan oddiy so'z birikmasidek qabul qilmaymiz. Bu so'z birikmalari mustahkam timsollarga aylanib qolgan kishi tasavvurida rang – ob'ektning eng hajmli, ifodali tavsifi. Turli sharoitlarda bir rangning o'zi kishi individualligini aks ettira oladi va xalqda bir davr davomida timsoliy ma'no kasb etishi mumkin (qora rang - aza rangi. Bugungi kunda yosh kelishgan qizlar o'z tashqi imkoniyatlarini qora rang bilan ajratib turishini yaxshi ko'rishadi).

Kiyimning jins yosh belgisi, funksional vazifasi, kasbiy tegishliligiga ko‘ra mo‘ljallanishini aniqlovchi tavsif sifatida rangga nisbatan an’anaviy munosabatlar mavjud. Masalan, to‘q ranglarning jarangdor faolliligi - maktabgacha yoshdagি bolalar kiyimini tavsiflaydi.

O‘smirlar kostyum rangi bo‘yicha moda takliflarini kuzatib borishadi, biroq ko‘pincha ularning shakllanib borayotgan dunyoqarashidagi maksimalizmiga, jo‘shqin energiyasi va sport bilan qiziqishiga mos keluvchi, kontrastlarni afzal ko‘rishadi. O‘rta yoshlilar moda takliflariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishadi va ko‘pincha murakkab ranglarning chuqur jiddiy tuslarini afzal ko‘rishadi. Kiyimga nisbatan funksional yondashuv uning rang tuzilishini aniqplaydi. Kiyimning kundalik va tantanali, ostki kiyim va ustki kiyimlarga mavjud bo‘linishi bugungi kundagi modaning kuchli ta’siriga qaramay taqqoslashda rang yechimida baribir prinsipial farqlanishga ega. Rang kostyum xususiyati sifatida ko‘p omillarga va eng avvalo kostyum vazifasiga bog‘liq bo‘lgan murakkab hodisa. Kostyum shakli bilan bog‘liq holda u katta ma’lumot hajmiga ega va ma’lum ma’noda belgi funksiyasini bajaradi.

Materialning rangi, rasmi va fakturasi - fonini zich to‘ldirib turgan yirik rasmlı odam yoki to‘q rangli metallar va fakturasi yaltiroq materiallar vazni maksimal, fonini siyrak to‘ldirib turgan mayda rasmlı ochiq rang, oqish materiallar fakturasi siyrak materiallar vazni minimal bo‘lib ko‘rinadi. Kiyimlarni loyihalayotganda uning vaznini yoshga, mavsumga va qanday maqsadga mo‘ljallanganligiga bog‘liqligini hisobga olish kerak. Masalan, yasli yoshidagi va maktabgacha yoshdagи bolalar kiyimining vazni yengil bo‘lishi uchun ularni hamma vaqt ochiq, mayin rangli, mayda siyrak rasmlı materiallardan tiqilishi maqsadga muvofiqdir; qishki kiyim ham ko‘rinishdan yengil bo‘lishi kerak; chunki uning tabiiy vazni nisbatan katta bo‘ladi, shuning uchun ular hurpaygan turli fakturali materiallardan tiqiladi; maktab bitiruvchilarining tantanali marosimdagи ko‘ylaklarini oq, pushti, havorang va boshqa rangdor gulli materiallardan tiqiladi, chunki bunda yoshlarga hayolchanlik xos bo‘lgani uchun sho‘xchanlik, qushdek yengillik, parvoz hissi sezilib turishi kerak. Kiyimni ommaviy ishlab chiqarishda

rasmning bunday xususiyatlari umuman to‘g‘ri kelmaydi. Ular gazlama sarflanishini oshiradi, bu mahsulot nomuvofiqligiga olib keladi. Shunday qilib, gazlama rasmini tanlash qator omillar bilan shartlanadi: kiyimning yosh - jins belgisi, mavsum, funksional vazifasi va tayyorlash usuli bo‘yicha mo‘ljallanishi. Bu omillarni mahsulotni ommaviy ishlab chiqarishda hisobga olish juda zarur.

Materiallarning ko‘pdan-ko‘p xil gullarini quyidagi dekorativ motivlar ko‘rinishida bo‘ladi deb qarash mumkin:

1. O‘simglik mavzulari;
2. Geometrik mavzular;
3. Hayvonot olami mavzusi;
4. Buyumlar mavzulari;
5. Kalligrafik mavzular;
6. Fantastik mavzular;
7. Astral mavzular;
8. Syujet mavzular;
9. Abstrakt mavzular;
10. Manzara mavzulari;
11. Aralash mavzular.

Rasm tasviri naturalistik yoki stillashtirilgan, yassi yoki hajmli hamda mayda, o‘rtacha, yirik bo‘lishi mumkin. Naqsh gul yuzani tekis to‘ldirib turishi (motor - harakatlanuvchi yoki rapport - takrorlanuvchi bo‘lishi), yohud muayyan uchastkalarda joylashgan (kupon holida yoki hoshiyada) bo‘lishi mumkin. Turli kiyim turlarini modellashtirishda naqsh gul tanlashga jiddiy munosabatda bo‘lish kerak va naqsh gul xarakteri bilan xususiyatlarini jins-yoshga, gavda tuzilishining tipiga, kiyim nimaga va qaysi mavsumga mo‘ljallanganligiga, tikish usuliga qarab hisobga olish kerak.

Bolalar kiyimidagi naqsh gul kompozitsiyasi ayniqsa aniq - ravshan, tushunish oson, ko‘pincha qiziqarli rasmlı bo‘lishi kerak, chunki bolalar kiyimidagi naqsh gulning nafaqat estetik, balki bilim orttirish vazifasi ham bor. Katta yoshlilar mayda yoki o‘rtacha gulli, bosiqroq bo‘g‘iq tusni ma’qul ko‘rishadi. Tasviriy

motivlarning, razmerga bog‘liq rang va tus yechimlarining va rasm joylashtirilishining eng emotsional jarangdorligi, ifodaliligi, xilma-xilligi yoshlarning kiyimida bo‘ladi deb hisoblanadi.



39-rasm. Bolalar uchun gazlamalardagi tasvirlar

Kundalik kiyimda mayda va o‘rtacha gulli gazlama ishlataladi, agar gazlama yirik gulli bo‘lsa, unda gullar sokin koloritli bo‘lishi kerak. Bashang kiyimlarda va dam olish kiyimlarida ranglar diapazoni keng bo‘ladi. Rasm murakkab (rasmi yirik, rapporti katta, rasmi yo‘nalishli, kupon ko‘rinishidagi yoki hoshiyadagi) materiallardan kiyim modellashtirganda, hamma detallarda rasmlar yo‘nalishi bir tomonga qaragan bo‘lishini, o‘q chiziqlarining joylanishini, umumiy rang yechimini hisobga olish kerak. Kiyimni bichayotganda juft detallarda, vitachkalarda, chocklarda rasmlar mos kelishini, detallar chocida rapport saqlanishini nazorat qilib borish kerak.

Naqsh gulli materiallarda turli chiziqlar, bo‘rtma choclar, drapirovkalar, mayda detallar kam seziladigan bo‘lgani uchun, ular ifodali chiqmasligini yodda tutish kerak. Ularni ko‘rinarli qilish uchun sidirg‘a gazalamadan mag‘iz, tasma va hokazolar qo‘yib qo‘sishmcha bezash kerak bo‘ladi.

5.6.2.Kostyumdagি dekorativ bezaklar

Kiyimni bichayotganda juft detallarda, vitochkalarda, choklarda rasmlar mos kelishini, detallar chokida rapport saqlanishini nazorat qilib borish kerak.

Naksh gulli materiallarda turli chiziqlar, bo‘rtma choklar, drapirovkalar, mayda detallar kam seziladigan bo‘lgani uchun, ular ifodali chiqmasligini yodda tutish kerak.

Ularni ko‘rinarli qilish uchun sidirg‘a gazlamadan mag‘iz, tasma va hokazolar qo‘yib, qo‘shimcha bezak kerak bo‘ladi.

Bezak kompozitsiyasining mustaqil elementi emas - bu qo‘shimcha, ziynat bo‘lib, kiyimda u yo‘q bo‘lishi ham mumkin.

Hozirgi son - sanoqsiz bezaklarni materiali va shakliga binoan quyidagi guruhlarga ajratsa bo‘ladi:

1. Barcha turdagи bo‘rtma choklarni, taxlamalar, bo‘rtma burmalar, drapirovkalar, plisse, gofre, bezak bahyaqatorlarni tikish natijasida hosil bo‘ladigan bezaklar.
2. Kiyimni o‘z materialidan yoki bezak gazlamadan yasalgan detallar yordamida bezak (quyma burmalar, ikki tomonlama quyma burmalar, aylana burmalar, beykalar, mag‘izlar, bo‘rtma magizlar, bantlar, galsto‘qlar, xlyastiklar, fatalar, pogonlar va hokazo).
3. Maxsus bezak materiallar (to‘r, tasma, popuk, lentalar, gullar va boshqalar) yordamida bezash.
4. Furnitura (tugmalar, dekorativ pistonlar, blochka - pistonlar, "chaqmoq - taqilmalar" va boshqalar).
5. Kashta, koplama bezak, emblemalar.
6. Boshqa materiallar (mo‘yna, teri, trikotaj, zamsh, to‘r polotno va hokazolar) yordamida bezash.
7. Kiyim detallariga bosma gul solib bezash.



40 - rasm. Tarixiy kiyimda gazlama va bezak

Bezak turini, uning joyni tanlash kiyimning turi va nimaga mo‘ljallanganligiga, kiyim shakliga, materialning fakturasiga, jins - yosh omiliga, odam gavdasining turiga, gavdaning shaxsiy xususiyatlariga, xarakteriga bog‘liq.



41- rasm. Zamonaviy libosda dekor

Kostyum - axborot vositasi. Jamiyat rivojlanishi bilan birligida kiyimda ham tabiat va jamiyatdagi o‘zgarishlar aks etadi. Kiyimdagi shakl va rang - tabiiy elementlarning timsoli bo‘lib, ularning takrorlanishi hisoblanadi va tabiiy elementlar bo‘lib, xayvonot olami yoki biologik jarayon imitatsiyasi (tatuirovka, barg va teridan yopinchiq) tushuniladi. Har qanday davr va xalqning xususiyatlari o‘ziga xos arxitektura, interer atrof muhitga bog‘liqlikni o‘zida qayd etadi. Shu tufayli, kiyimni san’atning boshqa elementlari bilan nafaqat birligida, balki uslub rivojlanishda asosiy ahamiyatga ega deb aytish mumkin. Haqiqiylikning kiyimda aks etishi kanday vosita, usul va sistemada foydalanib amalga oshiriladi? Bu savol bir necha 10 yillikni o‘z ichiga qamrab oladi.

Kiyim - kommunikatsiyaning ma’lum bir ko‘rinishi bo‘lib, u uslub, moda, o‘sha davr estetik va ilmiy konsepsiyalari, jamiyatning, moddiy va ma’naviy hayotning tarzi, darajasi, texnologiyasi va hokazolari to‘g‘risida ma’lumot beradi. Haqiqiylikning dialektik tasviri shundaki, obrazni o‘rganish shakli - unda qarama - qarshilikni aks ettirish belgisi shartlili elementlardan foydalaniladi. Birinchi navbatda belgilar til doirasida ideal obrazlarning moddiylashtirilgan shakli bo‘lib xizmat qiladi. Shuni e’tiborga olish kerakki, bizni xaqiqiylikni belgilar yordamida aks ettirish jarayoni emas, balki kiyim sohasidagi o‘rganish va ijod imkoniyatlarini kengaytirish shartlari qiziqtiradi. Kiyimning madaniyat elementlari - tasviriy san’at, adabiyot, teatrga nisbatan egallaydigan o‘rnini aniqlash uchun kiyimning mazmuniy xususiyati yoki kommunikatsion mohiyatini anglash e’tiborga loyiqdir.

Libosda ham arxetikturadagi singari ma’lum bir sodir bo‘ladigan voqelik va jihozlarning assotsiativ tushunchalari hukmronlik qiladi. Kiyim rivojlanish tarixining davomiyligi davrida uning shakli geometrik va abstraktiv elementlari asosida quriladi. Bu zamonaviylik kiyimda aks etmaydi degani emas.

Kiyimning ritmikligi, kompozitsion tarkibi, ularning tartib, joylashuv ritmi ma’lum emotsiyal his - tuyg‘u yoki oddiy emotsiyal tuyg‘uni chaqiradi. Kiyim obrazining haqiqiylik bilan taqqoslash jarayoni - uning til mohiyati yoritilishi asosida yotadi va u (semiotika va sintakmatika) terminlari bilan ifodalilaniladi.

Semiotika - ob’ektning sifati o‘ziga xosligi va ifodalash ma’nosini yoritadi.

6. KOMPOZITSIYA IJODIY JARAYON SIFATIDA

6.1. Uslub va moda

Kiyimning tarixiy rivojlanishiga, o‘zgarishiga uslub va moda sabab bo‘ladi. Uslub - jamiyatning moddiy va ma’naviy madaniyatidagi muhim va xarakterli belgilar obrazli sistemasi ijodiy prinsiplarining tarixan tarkib topgan bir kadar barqaror mushtarakligidir.

Uslub -badiiy fikrlashning eng umumiy kategoriyasi; san’atda muayyan davr yoki asarning tasviriy vositalarning g‘oyaviy birligi; buyum muhitining badiiy - plastik o‘xshashligi. Uslubda har bir davrni dunyoqarashlar, g‘oya va qarashlari aks etiladi, ya’ni uslub - g‘oyaviy mazmuni bir xil bo‘lgan vositalar obrazli sistemasi va badiiy ifoda usullarining birligidir.

Uslub - davrning badiiy tili, davrning badiiy ifodasi. Unda muayyan tarixiy davrning estetik ideali namoyon bo‘ladi. Uslub barcha san’at turlariga o‘zgacha ta’sir etadi, uni “davrning katta badiiy uslubi” deb atashadi. San’at tarixida davrga mansub “katta uslublar” birin ketin bo‘lgan: Qadimiy Misr, Antik, Roman, Gotik, Renessans, Uyg‘onish, Barokko, Rokoko, Klassitsiizm, Ampir, Modern. Ushbu uslublar kostyum turini, shaklini, proporsiyalarini, qo‘llagan matolarini, kiyish usulini va hok. belgilagan.

Uslub - bu davrning badiiy tili va xarakteristikasidir. Davr o‘ziga xos ijtimoiy-iktisodiy formatsiya bilan belgilanadi [26].

Har qanday tarixiy davrdagi kostyum shaklining zaminida odamning mo‘ayyan darajada plastik nafis obrazi va gavdasi (qaddi - qomati) yotadi.

Kompozitsiyada har bir buyum garmoniyasi (yunoncha «harmoniya» - buyumlar, voqealar, butun qismlarning turli sifatlarining bog‘liqligi, kelishganligi, muvofiqligi, monandligi) va barkamolligi haqida inson gavdasining estetik ideali o‘zining tushunchasini rivojlantiradi, bundan esa kostyumdagi mutanosiblik, ko‘lam, geometrik hajm, shakl va ranglarning turli - tumanligi kelib chikadi. Antik estetikada me’yor go‘zallikning asosi, me’yor yo‘qligi esa o‘xshovsizlik ekanligi haqida qoida bor.

Uslub jamiyat hayotidagi muhim omilni aks ettiradi. Har kaysi tarixiy davr

o‘zi uchun xarakterli shakllarni tanlar, kostyumda insonning ma’lum darajada o‘z ifodasini topgan mo‘ayyan estetik talablarini o‘ziga bo‘ysundirar edi. Har kanday tarixiy davrdagi kostyum shaklining zaminida odamning mo‘ayyan darajada plastik nafis obrazi va gavdasi yotadi.

6.1.1. Kostyum kompozitsiyasida uslub va uslublash

San’atda uslub asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, vaqt mobaynida va jamiyatda kostyum evolyusiyasi bilan bog‘liq. Davr uslubi, tarixiy kostyum uslubi, moda uslubi, dizayner uslubi, firma uslubi tushunchalar ham uchraydi.

Har bir uslub rivojlanish jarayonida bir necha bosqichlardan iborat: paydo bo‘lishi, avjga yetishi, inqirozga uchrashi. Shuni e’tiborga olish lozimki, har bir davrda bir necha uslublar birgalikda mavjud bo‘lgan: oldin bo‘lgan, ayni shu vaqtida xukmronlik qilgan va kelajak uslubning elementlari.

Har bir mamlakatda badiiy madaniyati rivojlanish darjasи, siyosiy va ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyoti, boshqa mamlakatlar madaniyati bilan aloqaligi bilan bog‘liq badiiy uslublarni evolyusiya dinamikasi o‘ziga xos bo‘lgan: masalan, XV asrda Italiyada Renessans uslubi avjiga chiqqan bo‘lsa, Fransiyada - kech Gotika, Germaniyada esa - Gotika XVI asrni o‘rtasigacha bo‘lgan, O‘rta Osiyoda esa - Renessans uslubi IX asrdan boshlab to XVII asrga qadar rivojlangan. Zamonaviy buyum muhitni badiiy - plastik bir xilligi “dizayn-uslub” deb ataladi. Bu uslub texnikaviy taraqqiyotni o‘zlashtirish natijasini namoyon etadi. U yangi mato va texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, buyumlarni tashqi ko‘rinishini faqat o‘zgartirmasdan, insonni hayotiga yangi xossalarni baxsh etadi va buyum hamda insonni o‘zaro aloqasiga ta’sir etadi.

Dizaynda “firma uslubi” degan tushuncha ham bor - bu firmani ishlab chiqargan mahsulotiga uslubiy birlik mansub. Firma uslubi konkret mualliflar tomonidan yaratiladi va sub’ektiv xossaga egadir.

“Uslub” va “uslublash” tushunchasi chambarchas bog‘liq. Yangi san’at asrlari yaratilganda uslublash badiiy usul sifatida qo‘llanadi.

Uslublash – ma’lum uslubning siymosi va formal belgilarini yangi, unga monand emas baddiy kontekstda g‘arazli maqsad bilan qo‘llashdir. Bu usul timsol

bilan erkin foydalanishni, transformatsiya etishni asos qilib olingan uslub bilan aloqani uzmasdan ijod etishni ko‘zda tutadi. Bu holda ijodiy manba doimo tanish bo‘ladi. Badiiy vosita sifatida uslublash klassitsizmda, neoklassitsizmda va hok. qo‘llangan [27].

Zamonaviy dizaynda ommabop iste’molchiga mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqarishda bu usul o‘z ahamiyatini ayniqsa, kommersiyachilik dizaynida saqlab qolgan (“korporativ” dizaynda).

Dizaynda uslublash – bu birinchidan buyumni loyihalashda muayyan uslub xossalari ongli qo‘llash (bu ma’noda ko‘pincha “stayling” tushunchasi qo‘llanadi); ikkinchidan – madaniy namunani ko‘rinarli xossalari to‘g‘ridan - to‘g‘ri loyihalayotgan buyumga ko‘pincha bezagiga ko‘chirmoq; uchinchidan – tabiiy shakllar yoki muayyan buyumlarga taqlid etib, shartli dekorativ shakl yaratishdan iborat.

Uslublash usulida Iv Sen-Loran 1960-1980 yillarda ajoyib kolleksiyalarini (“Afrikanka”, “Rus balet-operalar”, “Xitoy ayoli”, “Ispan ayoli”, “Pikasso hotirasiga” va hok.) yaratgan.

Modaga nisbatan uslub - og‘ishmasi K. Shanel ijtimoiy fenomeni bo‘yicha: “Moda o‘zgaradi, haqiqiy uslub esa - hech qachon” deb ta’riflanadi.

Dizaynerlar, moda jurnallari, televidenie va Internet bo‘yicha zamonaviy kostyum dizaynida asosiy yo‘nalishni tavsiya etgan ko‘p uslublarni aniqlash mumkin.

Bu yo‘nalishlardan biri - modaning demokratizatsiyalanishi, o‘ziga xos “moda xukmdorligidan ozod bo‘lish”, barchaga majburiy yagona moda namunasi yo‘qligi, turli mo‘ljaldagi kiyimlarning farqlanmasligi, “yaxshi did” qonunlarini, turli buyumlar birikmalarini, ranglar va materiallarni qo‘llash qoidalarini muqarrar emaslidir.

Ikkinci yo‘nalish – buyum muhitining industrializatsiyalanishi, ya’ni har bir insonga o‘z fikrini erkin ifodalashga sharoit yaratish berishdir.

Mo‘ayyan ijtimoiy - iqtisodiy formatsiya tikuvchilik sanoatida rassomlarning qanchalik me’yor, estetik ideal bilan yondashganligini va moddiy

muhit buyumlari uslubining xarakterini belgilab berardi. Yunonlar me'yor bilan garmoniya o'zaro mustahkam bog'liq bo'lib, bunda me'yor ijtimoiy amaliyotda ham norma vazifasini o'taydi, deb bilardilar. Ular odam gavdasini shakl ideali deb hisoblardilar. Yunon arxitekturasi, haykallari va kostyumlari - "odam gavdasining aks sadosi" edi.

Qadimiy Yunon kostyuming uslubi gazlama bilan inson shakli va tabiiy mutanosibligining uyg'unligi bo'lib, bu yelkadan pastga tomon bemalol osilib turadigan kiyimdagি behisob xilma-xil taxlamalarda o'z ifodasini topgan edi. Kiyim to'g'ri to'rtburchak gazlamadan iborat bo'lib, uni yelka ustida bog'lab yoki yelkaga tashlab qo'yib, gavdaning tabiiy go'zalligi va harakat bemallolligini ko'rsatadigan va unga halaqit bermaydigan nafis taxlamalaridan iborat bo'lardi. Kiyinish san'atidan bahramand bo'lish va "standart" shakldagi xilma - xillikni topish uchun katta ustalik, madaniyat va did kerak bo'lardi.

Insoniyatning moddiy va ma'naviy madaniyati hamma sohalarida din hukmronlik qilgan. Yevropa mamlakatlarida feodalizm mustahkam qaror topgan O'rta asrlar davrida maxsus estetik ideal va shunga mos kostyum xarakteri tarkib topdi. Odamzod gavdasining go'zalligidan zavqlanishi nomunosib va gunoh ish hisoblanar, shuning uchun gavdani qo'poldan - qo'pol, og'ir, keyinchalik esa cho'ziq shakllarga o'rab tashlar edilar. Tor yuqori qismi qator - qator murakkab taxlamalardan iborat, orqa etagi juda uzun ko'yak, juda baland konussimon bosh kiyim va nihoyatda cho'ziq poyabzal bilan birga qo'shilib qad - qomat qancha o'zgarib ketardi. Ayol kiyishining ideal obraziga, ya'ni ona - madonna obraziga murojaat qilish ana shu vaziyatning in'ikosi edi.

Kostyuming yon tomondan ko'rinishi homilador ayol gavdasiga taqlid qilinardi. Kostyuming murakkab silueti chiziqlari - gavdaning egri chiziq plastikasiga muvofiq kelardi. Kostyumda bir tomondan nazokatni, onalikni ta'kidlashga intilish aks etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan cherkov ko'rsatmalariga binoan gavdani yashirishga, uni taxlamalarga ko'mib tashlashga intilish aks etardi.

O'rta asrlar kostyumi gavdani turli vositalar (shnurlar, korsetlar) yordamida qattq qisib, tabiiy shakldan uzoqlashtiradigan "g'ilof" sistemasi rivoj topishini

boshlab berdi. Bunday kostyum yuqori tomon intilgan butxonalar arxitektura shakllarining dabdabador, cho‘ziqligida, turmush va odatlarning sertakallufligida namoyon bo‘lgan o‘sha davr umumiy uslubining ifodasi edi.

Ruhiy va moddiy omil o‘rtasidagi ziddiyat kuchayib ketganligi natijasida O‘rta asrlar san’atida disproporsiya bilan asimmetriya alohida ifodasini topgan edi. Uyg‘onish davrida estetik dunyoqarashlarni qayta baholash yuz beradi: yangi gumanistik ideologiya shakllanadi. Bu buyuk geografik kashfiyotlar, ilm va texnika yuto‘qlari davri, san’at davri edi. Bu Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo kabi ulug‘ allomalar davri edi. Bu davr kishisi faol va kuchli bo‘lib, g‘ayrat bilan harakat kilar edi. U O‘rta asrlardagi singari gavdasidan uyalmaydi, balki undan faxrlanadi. Odamning tabiiy qomati - estetik ideal hisoblanadi. Taxlamalar bilan basavlat turadigan yubka, ko‘plab burmali yengli, ochiq dekolteli kostyumlar og‘ir duxobadan, parcha, atlas, movut va mo‘ynalardan tikilardi. Kostyumlar juda ko‘plab qimmatbaho toshlar bilan bezalardi. Soch oddiy, tabiiy holda, tur yoki harir gazlama tutib, qimmatbaho ziynatlar taqib bezatilardi. Poyabzal - oyoqda bemalol turadigan keng boshmoq.

Uyg‘onish davridagi vazmin garmonik shakllarning asli tariqasida absolyutizm, dvoryanlar madaniyati va dunyoni bo‘lib olish maqsadidagi urushlar ta’sirida tarkib topgan Barokko uslubidagi XVII asr san’ati yuzaga kelib, san’atda tantanavorlik, ulug‘vorlik, dabdabadorlik, ortiqcha zeb - ziynat, teatrona qalbaki xususiyatlar hukmron bo‘lib koldi. Endilikda odam ma’naviy qudratini gavda proporsiyalarining go‘zalligini namoyish qiladi, ijtimoiy moliyaviy dunyodagi qudratli odam obrazi e’tibor markaziga o‘tadi. Ataylab soxta holatda turish, teatrona harakat, dabdabali sersavlat alomatlar yuzaga keladi. Gavdaning plastikasi o‘zgardi, chunki podsho saroylarida oyoq uchida yurish lozim bo‘lib, bu poshnali poyabzal paydo bo‘lishiga olib keldi. Gavdani munosib qilib ko‘rsatish uchun kostyumning yelkasi, qorin qismiga har xil tagliklar qo‘yardilar. Ayollar kiyimida qimmatbaho gazlamalardan (parcha, vual, atlas, duxoba) ko‘pqavatli tikilib, naqsh jimpimalari, bantlar, to‘r tiqilgan, qimmatbaho toshlar taqilgan kostyum, erkaklar kiyimida - harbiy kostyum (mushketyorlar kostumi), parik hukmronlik kilardi.

XVII asrda Barokko uslubi o‘rniga nozik - nafis Rokoko uslubi yuzaga keladi. Bu uslub o‘zidan oldingi uslubning bevosita davomi bo‘lib, undan shakllarinig nazokatliligi, murakkabligi bilan va g‘aroyib jimmadorligi bilan farq qiladi. Bu uslub uchun mavjud voqelikdan kechib, orzu - umidlar, sevgi - muhabbat olamiga intilish xarakterlidir. Bu uslub ta’sirida manfaatdorlik vazifasiga aloqador bo‘lmagan kostyum qaror topdi. Bunday kostyumda gavdaning bel, ko‘krak, bo‘ksa qismlari ko‘zga tashlanib turardi.

Kostyum yengil, nozik bo‘lib, boshdan - oyoq gul tikilgan to‘rdan va «gazsimon» materialdan «ko‘pchitib» qo‘ygandek tikib bezatilardi.

Umumiy aytganda, kiyim shaklining rivojlanishi davrning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, ijtimoiy hayotning estetik va ma’naviy talablari va san’atda hukmron bo‘lgan badiiy uslub bilan bog‘liq.

6.1.2. Katta badiiy uslublar. Muallif uslubi

“Katta uslub” doirasida “mikrouslublar” rivojlanishi mumkin. Masalan, Rokoko uslubi doirasida (1730-1750 yy.) “shinuazri” (xitoy uslubiga o‘xshash) va “tyurkeri” (turkcha uslub); modern uslubi doirasida (1890-1900 yy.) “neogotika”, “neorus” va geometrik uslublari; “art deko” uslubda (1920 yy.), Misr, rus, afrika, geometrik va hok. mikrouslublar mavjud bo‘lgan.

Ammo, tarixiy davrlar o‘tishi bilan “katta uslub”lar o‘tmishda qoldi: jamoa va insonni turmush sur’ati tezlashishi, informatsion jarayonlarni rivojlanishi, yangi texnologiyalar va ommabop bozorni ta’siri, yagona uslubga emas, balki ko‘p uslubiy shakllar va plastik siymolarni mavjud bo‘lishiga olib keldi.

XIX asrda ilgari bo‘lgan uslublarga asoslangan uslubiy yo‘nalishlar paydo bo‘la boshladi (eklektizm, o‘tmishga berilish va b.). Eklektika – bu har xil uslublarni aralashmasi, bir necha uslubni baravariga mavjudligi. XX asrda eklektika madaniyatini muhim xususiyatlaridan biri bo‘ldi, ayniqsa asrni oxirida – postmodernizm madaniyati modaga ta’sir etgandi.

XX asrda “katta uslub”larni o‘rniga san’atda avangard san’atni innovatsion mohiyati bilan bog‘liq yangi konsepsiylar keldi: abstraksionizm, funksionalizm, surrealizm, pop-art, op-art va hok. Modada har bir o‘n yillikda “mikrouslub”lar

mavjud bo‘lgan: 1910 yy. - neo-grek va sharq uslubi; 1920 yy.- rus, misr, lotinamerika, afrika; 1930 yy.- neoklassitsizm, o‘tmishga berilish, lotinamerika, syurrealizm; 1940 yy.- kantri, vestern; 1950 yy.- Nyu Luk, Shanel; 1960 yy. – kosmik; 1970 yy. romantik, retro, folk, etnik, sport, djins, diffuz, militari, ichki kiyim, diskо, safari, pank; 1980 yy. – ekologik, yangi qaroqchilar, neoklassik, neobarokko, seksi, korset; 1990 yy. – granj, etnik, neo-pank, kiberpank, glamur, o‘tmishga berilish, neo-xippi, minimalizm, dekonstruktivizm va b.

Har bir mavsumiy nashrlar yangi uslublarni targ‘ibot etadi, dizaynerlar esa o‘z uslubini yaratishga intilishadi. Ammo, barcha uslublar tasodifiy paydo bo‘lmaydi. Siyosiy voqealar, ijtimoiy muammolar va b. uslubni shakllanishiga ta’sir etib, uni aktual qiladi. Modali uslublarda insonning siymosi va turmush tarzini o‘zgarishi hozirgi zamonda uni o‘rni va va roli bo‘yicha tasavvuri ifodalanadi. Yangi uslublarni paydo bo‘lishiga yangi materiallar va ularga ishlov berish usullari ta’sir etadi.

Ko‘p uslublar orasida klassik uslubni ajratish mumkin: ular uzoq vaqt davomida aktualligini saqlab, modada bo‘ladi. Klassik uslub muayyan xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin: universallik, ko‘pfunksiyalik, shakl yaxlitligi va oddiyligi, odamni talablarini qondiradigan. Klassik uslubga, masalan, ingлиз, Shanel uslublari kirishi mumkin.

“Katta badiiy uslub”lar va “mikrouslub”lardan tashqari **“muallif uslubi”** yoki “ustaning individual uslubi” degan tushunchalar bor. Bu uslub turida muallifning mavzulari, g‘oyalari, qo‘llagan tasviriy vositalari va badiiy usullari namoyon etiladi. K.Shanel, K.Dior, A.Kurrej, Dj. Versache, K.Lakrua, V.Zaysev, V.Yudashkin kabi ijodkorlar ishlari muallif uslubi bilan ajralib turadi [28].

6.1.3. Zamonaviy kostyumning o‘ziga xos xususiyatlari:

klassik, romantik, sport va folklor uslublari

XX asrda kiyimlarning formalari ko‘payishi natijasida formaning bajaradigan vazifasiga qarab, kiyimning **klassik uslubi, sport va romantik kabi katta uslublari** paydo bo‘ldi.

Klassik uslubdagi kiyim sipoligi, formasining ixchamligi, detallari juda

kamligi, kiyim proporsiyalari kishi gavdasining tabiiy proporsiyalariga mosligi bilan ajralib turadi. Bunday kiyimning asosiy qismlari gavdaning tegishli qismlari ustiga aniq to‘g‘ri keladi. Klassik uslubda tikilgan kiyim bezaklar bilan deyarli bezatilmaydi.

1.Klassik uslubi

Klassik (odmi, ishbilarmon, elegant) uslubi - modaga deyarli sig‘inmaydigan turg‘un vaqt davomida tanlangan, deyarli o‘zgarmaydigan uslubdir. Klassik uslub - chiziqlarning sipoligi va oddiyligi, bichimning mantiqiyligi bilan ifodalanadi. Odatda, klassik uslubdagi buyumlar – bu ko‘zga tashlanmaydigan bo‘lib, e’tiborni o‘ziga sifati bilan tortadi.



41 - rasm. Klassik uslubidagi liboslar

2. Romantik yoki «fantaziya» uslubida tikilgan kiyim detallar shaklining har xilligi va savlatliligi bilan farq qiladi, Uning qismlari g‘ayrioddiy, konstruktiv chiziqlari e’tiborni jalg qilmaydi, ko‘pincha, xalq motivlaridan foydalanilgan bo‘ladi. Kiyim (kostyum)ning uslubini birinchi navbatda uning bichimi belgilaydi. Bichim, birinchidan, yelka chizig‘i bilan yengning shakli o‘rtasidagi nisbat bilan va ikkinchidan, kiyimning belgacha uzunlik yubkaning shakli hamda uzunligi bilan ifodalanadi.



42 - rasm. «Fantaziya» yoki romantik uslubidagi liboslar

3. Sport uslubida tikilgan kiyim shaklining erkinligi, yeng bichimining har xilligi, ustidan qoplangan cho'ntaklari, cho'ntak qopqoqlari, belbandlar, koketkalar, bahyalar, to'qa, ilgak, piston, tugma kabi furnituralar mavjudligi bilan ajralib turadi.



43- rasm. Sport uslubidagi liboslar

4. Folklor uslubi – bu milliy kostyumlarning elementlarini qo‘llaydigan uslub. 1950 yillardan boshlab qishloq uslubi “*kantri uslub*” ommabop bo‘lgandi, 1990 yillarda bu uslub etno–miks shaklida tarqalgandi. Folklor uslubi bugun – bu faqat kiyimni bezagigma emas, balki elementlarni, shaklni, buyumlarni zamonaviy modada o‘zlashtirish. Folklor uslubida kiyim yaratish – bu milliy kiyimni nusxasini yaratish emas. Gazlamani tanlash, uning rangini, merejka kashtasi, naqshli tasma, atlas lentalar, bichim va detallarni qo‘llanishi buyumni folk uslubiga mansubligini ko‘rsatadi. Shartli folklor uslubiga ingliz kantri, amerikalik vestern va turli etno–mikslar kiradi.



44- rasm. Folklor uslubidagi liboslar

Kichik uslublar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:..

1. Ingliz uslubi

“Ingliz kostyum” tushunchasi XVIII asrda paydo bo‘lgan. Aynan shu vaqtda Angliyada shakli va rangi bo‘yicha sipo kiyim uslubi yuzaga kelgan. XVIII asrning 80-chi yillarida otda yurish kostyumi juda ommabop bo‘lgan: movutdan frak, redingot- etagi to‘g‘ri ustki kiyim, tor pantalonlar, qaytarmali etiklar. Bu odmi kostyumni ingliz kostyumi deb atashadigan bo‘ldi.



45 - rasm. Ingliz uslubidagi liboslar

2. Minimalizm uslubi

Minimalizm uslubi oddiy aytilganda – soddalik, odatda davrlar o‘zgarishida ro‘y beradi, qachonki eskisi jonga tekkan, yangisi esa hali yaratilmagan paytda. Ayni shu vaqtda jamoada “toza varaqdan hayotni boshlash” talabi paydo bo‘ldi. Bu uslubda oddiy bichim rang palitrasи ochiq, qora, kulrang va oq ranglar ko‘p qo‘llaniladi.



46 - rasm. Minimalizm uslubidagi liboslar

3. Animal uslubi

Animal uslubidagi kiyimlarda charm va mo‘yna qo‘llaniladi. Animal uslub modadan chiqmaydi. Demak u klassik deb hisoblanadi. Animal uslubi kundalik kiyim modasi emas.



47 - rasm. Animal uslubidagi liboslar

4. Katak-katak uslubi

Katak-katak kiyim modaga tez kiradi va tez chiqib ketadi, ammo doimo bo‘ladi. Katak-katakning uzoq hayoti klassik uslubga kiritishga imkon beradi. Kundalik modaning yangi siymosi “shotlandka”, yorqin taxlamali katak-katak yubkalar, jemperlar va beretlar. Optimal variant - oq fon qizil katak-katak. Surilgan katak-katak tovuqning panjasini naqshini Koko Shanel kiritgan.



48 - rasm. Katak-katak uslubidagi liboslar

5. Romantik uslub

Bu fantaziya, izlanish, xotira ifodasidir. U tarixiy kostyumga intiladi va undan shakl, bichim va dekorativ bezak o‘zlashtiriladi. Romantik libos qomatning go‘zalligini va ayollarning an’anaviy sentimintalligini, sezuvchanligini namoyon etishi lozim. Bu uslubning asosiy silueti X-simon bo‘lib, yumshoq va mayin chiziqlar bilan ifodalanadi.



49- rasm. Romantik uslubidagi liboslar

6. Fantaziya uslubi

Zamonaviy moda romantikaga o‘z ta’sirini aks etadi. Fantaziya uslubining avangard uslubidan farqi - zamonaviy modaning ifodasi bo‘lmaydi. Bezak sifatida bantlar, munchoqlar, charm va zamsh, kashta va boshqalar qo‘llaniladi.



50 - rasm. Fantaziya uslubidagi liboslar

7. Xippi uslubi

XX asrning 60-yillarida xippi modani boshdan oyoqqa ag'dardi. Endi modanining qoidasi – hech qanday qoida bo'lmay qoldi. Xippilar orasida dehqonlar kiyimi taxlamali uzun yubka keng tarqalgan.

Xippilar libos to'plamida kashtali jinsilar, o'zgacha belbog'lar, ola-buka koftalar va topiklar, to'qilgan yoki katta sumkalar, tunika yoki uzun beli yuqori ko'tarilgan yupqa ko'yak, ochiq shippaklar, kosmetikaning minimumligi, to'g'ri tashlangan sochlar.

Bilakuzuklar, qulqoq va burun uchun xalqalar tinchlik ramzlari in-yan va boshqa sharq ekzotikasi ramzlari, marjonlar bilan bezatilgan.



51 - rasm. Xippi uslubidagi liboslar

8. Retro uslubi

Retro uslubi o'tmish modasi - zamonaviy dizaynerlarining ijodida ilhomlanish manbai hisoblanadi.

Retro uslubi - zamonaviy modada o'tmish mavzularni, modellashtirish usullarini qo'llash yo'nalishi hisoblanadi, ammo ular takrorlanishmaydi.



52- rasm. Retro uslubidagi liboslar

9. Vintaj uslubi

O‘tmishga asoslangan romantik modaga mansub yana bir yo‘nalish vintaj (vintage) uslubidir. Bu uslubda o‘tgan yillardagi o‘ziga xos liboslar kiradi, ya’ni popukli sumkalar,to‘qilgan shollar va boshqalar. Bu uslubning asosiy elementlari - to‘g‘ri siluetlar, kashta va to‘rning qo‘llanilishi, shaklning sipoligi.



53 - rasm. Vintaj uslubidagi liboslar

10. Safari uslubi

Bu sport uslubining eng ommabop yo‘nalishidir. Safari uslubi Afrikada ingliz xarbiylarning ov safarida kiygan liboslariga asoslangan. Bu uslubning targ‘ibotchisi 1980-yillarda Iv Sen-Loran bo‘lgan. Safari uslubidagi libos asosan zig‘ir, ip, arashma va jinsi gazlamalardan tikiladigan kiyim.



54 - rasm. Safari uslubidagi liboslar

11. Kantri uslubi

Ushbu uslub XX asrning boshida vujudga keldi. Ayollar bu uslubda yubka, yopinchiq, shlyapa, tufli va paypoqlar kiyishi mumkin. Kantri uslubidagi muhim detall - gulli, yo‘l - yo‘l va katak - katak naqshli to‘qimachilik materiallaridir. Kostyum koloritida tabiiy ranglar qo‘llaniladi: yashil, sariq, moviy rang, suv, daraxt, kuzgi yaproqlarni eslatuvchi ranglar.



55 – rasm. Kantri uslubidagi liboslar

12. Gaucho uslubi. Bu uslub 1960 - yillarda modaga kirgan folklor uslubining bir varianti. Gaucho uslubi Janubiy Amerikadagi chorvadorlar - gaucho kiyimlaridan o‘zlashtirilgan charm va zamsh kurtkalar, charmdan qilingan popuk va zaklyopkalar bilan bezatilgan shimlar, nimchalar.



56– rasm. Gaucho uslubidagi liboslar

13. Denim usuli – paxta tolali jinsi matosidan urchga kirgan ayol va erkaklar ko‘ylagi, kurtkasi, shimi va plashlar.



57 – rasm. Denim uslubidagi liboslar

6.2. Moda tushunchasi va uning tarkibi

Kostyumda umumiy uslub yo‘nalishi asosiy shakl va mutanosiblikda, kiyim uslubida, ishlatilgan mo‘ayyan gazlamada va ansamblning tanlangan ranglarida ifodalanadi. Davr badiiy uslubining umumiy o‘zgarishlari ham har doim uzoq davomli tarixiy bosqichlarda bo‘lib o‘tgan katta g‘oyaviy va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Lekin uslub ichida har sohadagi faoliyatga ta’sir qiluvchi serharakat va qisqa muddatli hodisa - moda bor.

Dizaynerning asosiy faoliyatining mazmuni madaniy namunalarni yaratish bo‘lgani uchun, unda moda kabi fenomen to‘g‘risida to‘liq tassavuri bo‘lishi lozim. Moda industriyasida muvaffaqiyatli ishslash uchun modaning asosiy qonuniyatlarini, modani ijtimoiy xodisa sifatida tushinish kerak, uni ijtimoiy psixologik va ijtimoiy rivojlanish jihatlarini, bashoratlash usullarini va o‘zgarish innovatsion va siklsimon mexanizmini bilish kerak.

Bular barchasi faqat modali namunalarni taqlid qilmasdan va yaratmasdan, balki modaga ongli ta’sir etib, uni boshqarishdir. Moda faqat kostyum evolyusyasini muhim fursatlarini namoyishchisi bo‘lmasdan, balki zamonaviy jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning boshqaruvchi sifatida bo‘ladi.

XVII asrni oxirida moda inson madaniyatining o‘ziga xos fenomeni sifatida san’at sohasida va kostyumda estetik ideal va didni o‘zgarish bilan bog‘liq estetik hodisa sifatida tahlil etildi. XIX-XX asrlarda moda tadqiqotchilari modani ijtimoiy va psixologik fenomen sifatida tahlil etishgan, uni paydo bo‘lishiga va rivojlanishiga sabablarni va uni ta’sirida ro‘y beradigan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlarini ko‘rib chiqishgan.

Modani har xil nuqtai nazardan o‘rganishgan: ijtimoiy psixologiya va psixotahlil, bozor iqtisodi va madaniyatshunos, zamonaviy jamiyatda uni dinamikasini belgilaydigan muhim komponenti sifatida.

Moda (fransuzcha «mode» so‘zidan olingan bo‘lib - me’yor, tarz, usul ma’nosini bildiradi) paydo bo‘lishi anchagina murakkab voqeal bo‘lib, jamiyat hayotidagi qator hayot omillariga bog‘liq, insonning juda ko‘p faoliyatiga o‘tadi.

Moda - kiyim formasi (fasoni)ning o‘zgarishi, yangilanishi va jamiyatning

turli guruhlari o‘rtasida rasm bo‘lishidir. Moda o‘z zamonasiga, turmush tarziga hamohang bo‘lib, kishining ehtiyojini qondirish uchun xizmat qiladi va kishilik jamiyatining taraqkiyoti, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi bilan bog‘liq [24].

Moda libosda - qiziqarli va yetarli darajadagi murakkab hodisa. Jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik jarayonlar libosda o‘z aksini topadi. U ma’lum darajada shaxsning hayot uslubini, ahloqini mujassamlaydi, ya’ni kishini o‘z-o‘ziga va boshqalarga munosabat uslubini ifodalaydi.

Moda - turmushning tashqi ko‘rinishida, asosan libosda namoyon bo‘ladigan biror didning mo‘ayyan ijtimoiy muhitda ma’lum vaqt hukmron bo‘lib turishidir. Moda va iqtisod bir-biriga bog‘liq ma’nodosh so‘zlar.

Moda bilan uslub o‘rtasidagi farq zaminida ularning ijtimoiy vazifalari yotadi. Uslubda jamiyatning o‘tmish va tevarak - atrofdagi dunyoga munosabati ifoda topsa, modada ana shu jamiyat ichidagi zamondoshlarning o‘zaro bog‘liqligi aks etadi. Umuman, modaga hayratlanib va hayrihohlik bilan qaraydilar. Undan zavqlanadilar, unga ergashadilar. Lekin barcha insonlar ham emas. Modani yoqtirmaydiganlar ham bo‘lib, ular modelerlarning har bir yangi taklifiga ular ashaddiy qarshilik ko‘rsatadilar. O‘zgarib turish - modaning eng muhim xususiyati. Yangi moda paydo bo‘lganda kostyum o‘zining estetik qadrini yo‘qotadi. Bu esa moda xarakteridagi ziddiyatni ko‘rsatadi. Moda vaqtinchalik va o‘tib ketadigan tushuncha, lekin unda go‘zallik tushunchasi sifatida saqlanib qoladigan estetik topilmalar ham bo‘ladi.

Moda - zamonaviy degani, estetik qiymat uchun vaqt o‘zgarmas bo‘lib koladi. Biroq modaning ziddiyatliligi uning progressivliligini inkor etmaydi. Moda insonning yangilanib turishdek tabiiy intilishiga mos bo‘ladi. U zamonaviylik nuqtai nazaridan eng ma’qul yechimlarni tanlab oladi.

Moda - bu yangilanish. Bu tabiat rioya qiladigan prinsipdir! Daraxt eski bargini, odam esa joniga tekkan, ma’nан eskirgan kiyimini tashlaydi. Moda zerikarli bir xillikdan halos qiladi. Odamlar bir - biriga yoqishni hohlaydi: chiroyli kiyinsam, yaxshi ko‘rinsam deydi - bu tabiiy ehtiyoj.

Moda - bu taqlid va yangilik. Lekin bunda hamma vaqt yangilikka yoki g‘ayri tabiiylik taqlid kilinavermaydi. Shaxs bilan jamiyatning o‘zaro munosabatida taqlid bilan bir qatorda, buning aksi bo‘lgan hodisa - o‘ziga xoslik namoyon etilishi ham mumkin.

Moda qaerda paydo bo‘ladi? Ko‘pchilik modellar uyida deb hisoblaydi. Modellar uyi bo‘lmaganda moda qanday paydo bo‘lgan? Hamma vaqt modaning muallifi bo‘lganmi? Moda tarixchilarining ta’kidlashicha - modaning asosiy chizig‘ini hech kim yaratmaydi. Moda jamiyat bilan birgalikda o‘sib boradi va taraqqiy topadi, u - zamona farzandi, lekin o‘zining qat’iy xarakteri bor. Mo‘ayyan konkret moda - ko‘chkiga sabab bo‘ladigan qor soqqaga o‘xshab ketadi.

Ijtimoiy - iktisodiy formatsiya, iqlim, tevarak - atrof, xalq an‘analari, turmush tarzi, yirik ijtimoiy - siyosiy voqealar, fan, texnika sportga ommaviy qiziqish, yaratilayotgan yangi materiallar, kosmik davr kabi turli xil omillar - modaning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

1956 yilda bir guruh yosh ingliz modelerlardan guruhi yaratildi, ular yoshlarga nima kerakligini bilib, kerakli modeldag‘i kiyimlarni tikar edilar. 1974 yilda Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan kiyimlar ko‘rgazmasining shoiri "Amerikaliklardan afzalmisiz?" bo‘lib, ushbu ko‘rgazmada kostyumlar, shimplar, shortilar, yubkalar namoyish etilgandi. A. Levis eng yaxshi, sifatli «jinsi» matosini ishlatish bo‘yicha Amerikaning hamma shtatlarida konkurs e’lon qilgandi.

Moda - yengil sanoat qorxonalariga katta daromad keltirardi. K. Dior, G. Shanel, A. Kurrej, P. Karden - nafakat bular taniqli fransuz rassom-modelerlari, balki ular biznesmenlar ham bo‘lganlar. Har kaysi shaharning o‘ziga xos rasmlariga bog‘liq moda yo‘nalishi bor. Kostyum - yaratilishi tarixida o‘zining belgilariga ega. Masalan: XVI asrda kiyiladigan kiyimlar, ya’ni hasham dor, og‘ir formadagi, taxlamali kostyumlar - erkinlikni, XIX asrda - qizil ro‘mol va teridan tayyorlangan ayollar kostyumidagi Oktabr revolyusiyasidagi davr teng huquqliligini bildirardi. O‘sha davr zamondoshlari yozishicha, kiyimning ba’zi bir elementlari, masalan, baland yoqali ko‘ylaklar va sorochkalar - demokratiya prinsiplaridan edi.

Kiyim bizni sovuqdan asraydi, shuning uchun uni ona himoyasiga qiyoslash mumkin. Chunki ona bolani kiyintiradi, yechintiradi, shu bilan birga o‘z mehrini beradi.

Kadimgi Xitoy xalqi - bayramona kiyimlarning rangini fasllarga o‘xshatishgan. Qizil rangi - bu yoz faslini, olov rangini bildiradi. Oq rang - kuz faslini bildirgan. Bu rang ta’ziyani bildirgan. Qora rang - qish ramzi, shimol rangi, quduqdagi suvning rangini bildirgan. Sariq rangi - yozning oxiri, nonning pishgan vaqtini anglatgan. Bu ranglarning libosga ta’siri juda katta bo‘lgan.

Har kanday kostyum o‘zining funksiyasiga ega va kerakli axborotni yetkazadi. 1921 yilda yaratilgan modellar rangli kostyumlar yoki bahor kostyumi deb atalgan. Chunki kostyumda har xil ranglar tasvirlangan. Shunday kostyumlar yaratildiki, unda geometrik shakllar tasvirlanardi. Kostyum to‘g‘risida har xil pozitsiyadan gapirish mumkin. Keyinchalik vaqt o‘tishi bilan liboslar manekenlarga kiygizib tiqiladigan bo‘ldi. Bunday kiyimlar tanaga yopishib turadigan, loyiqqina qilib tikiladigan bo‘ldi.

XIX asrdagi yevropacha kostyum tarixi 1789 yildagi fransuz burjua revolyusiyasining bo‘ronli voqealaridan boshlanadi, hamda kapitalizmning, fan va texnikaning gurkirab taraqqiy etishi, yangi materiallar, tikuv mashinasи paydo bo‘lishi xarakterli edi. Natijada ilgarigi uslublarning barchasi: antik dunyo va kadimgi rim san’atiga o‘xshab ketadigan klassitsizm, ampir, soxta gotika, borokko, yangi uslublar - kaleydoskopdagi singari birin-ketin o‘tadi. Bu taqlid qilish asri edi.

Konstruksianing vazifasi, mantiqi bilan kiyim materiali o‘rtasida mustahkam aloqa hali yo‘q edi. Kostyumda qator shakllar, siluetlar; karkaslardan halos bo‘lish kuzatilib va gavdani moslab tikish urf bo‘ldi.

XX asr shakl va materiallar tanlashda qat’iyan xizmatboplikni, soddalikni, bemalollikni o‘z prinsipi deb e’lon kildi. Bu asr fan - texnika taraqqiyoti asri, sanoatning gurkirab o‘sish asri, ayol kishining mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida va ijtimoiy ishlab chiqarishda faol qatnashuv asri, kosmos asridir. Bu asr o‘zi uchun anchagina barqaror elementlar topib, shularni ishlatish yordamida murakkab shakllarning nihoyatda ko‘p xilma - xilligiga erishdi. Kostyumning obrazli

ifodaliliga endilikda boshqa vositalar yordamida erishiladi, ya’ni siluetlar tez-tez almashinib turadi, chiziqlar doimiy emas edi; gavda bilan kostyumning o‘zaro bog‘liqligi dinamikada o‘z ifodasini topdi - kiyim bir qarasangiz gavdaga yopishib, gohida unga salgina tegib, ba’zan esa gavdadan juda qochib turadigan bo‘ldi.

Kostyumni shakllantirishda xizmatboplikni asos qilib olgan dizayn yangi sanoat buyumlarini badiiy loyihalashda asosiy rol o‘ynadi.

Biz modaga qaysi munosabatda qaramaylik, bizga birinchi navbatda tashqi ko‘rinish ta’sir ko‘rsatadi, keyin, tabiiyki, psixologik va o‘zimiz baholagandek, ayni paytda, informativ ta’sirlanish, o‘xshatish, inkor qilish yoki tanqidiy anglash va o‘ziga moslashga olib keladi [25]. Har bir davr, uslub, madaniyat, sharoit va kostyum, skulptura va madaniyat orasidagi bog‘lanishni qat’iy shart deb bilishgan. Kostyum atrofdagi buyumlar olami va arxitektura bilan uzviy borliqligi mo‘ayyan tarixiy bosqich madaniyatining belgisidir.

Materiallar, masshtablar farqiga qaramay, arxitektura, skulptura va kostyum umumiylar qurish prinsiplariga va ramziy ishoralarga (Misr, Gresiya davlatlar kostyumi) bo‘ysunib o‘xshash shakllanish qonunlariga amal qiladi.

Ishlab chiqarish bilan kostyum orasida, go‘zallik, estetik ideali bilan kostyum shakli orasidagi bog‘lanish ancha aniq. Birinchi holda, gazlamalarning tolalari tarkibi, ular tuzilishi, eni, ishlov berish usullari va pardozlash yo‘llari aniklanadi, ikkinchi holda esa kiyimning ideal obrazi, uning tashqi ma’lumotlar bilan sun’iy yaratilgan kostyum shakli orasida ajoyib monandlikka erishiladi [24].

Estetik ideal har qaysi davrda sinfiy jamiyatda sinfiy ruhda bo‘ladi. Kiyimda bu eng avvalo, sinfiy bo‘linishda kuzatiladi. Kostyum har doim kishining ijtimoiy o‘rnini va uning pog‘onasini aniqlagan. Hukmron sinflar modani o‘z manfaatlari uchun yaratganlar, ular kostyum yordamida ijtimoiy tabaqaga mansubliklarini ko‘rsatganlar. Shuning uchun o‘tgan davrlar modasi uchun «ish kostyumi» xarakterli emas edi [26].

Hozirgi zamon modasi tarixini o‘n yilni o‘z ichiga oladigan davrlarga bo‘lish qabul qilingan; masalan, 20, 30, 40, 50-yillar modasi va hokazo. O‘n yil shunday muddatki, har qanday moda shu davr ichida o‘zining barcha

imkoniyatlaridan foydalanib ulguradi; moda shartli ravishda davrlarga bo‘linsada, aslida uning yashash muddatini cheklab bo‘lmaydi [24,25].

Har bir davr modasining o‘ziga xos uslubi bor. Kiyimning uslubi deganda, modaga mos mo‘ayyan yo‘nalishni ifodalovchi xususiyatlar majmui tushuniladi; kishi gavdasining go‘zallik timsoli sifatida qabul qilingan proporsiyalari, ansambl tuzilishining rangdorlik prinsipi, kiyimning bichimi, kompozitsiya tuzish prinsipi, kiyim bichish usullari va hokazolar ular jumlasiga kiradi [26].

Kiyimning uslubi jamiyat hayotining jiddiy omillarini o‘zida aks ettiradi. Bir uslub san’atning turli formalari o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘z ichiga olgan bo‘lishi mumkin, bu esa umuman madaniyatni xarakterlaydi. Turli davrlardagi gazlamalar, vazifalar, masshtablar bir-biridan farq qiladi; shunga qaramay, har bir davrdagi forma hosil qilish qonuniyatları bir-biriga o‘xshaydi va yagona tuzilish prinsiplariga, arxitektura, haykaltaroshlik hamda kiyimdagi bir xil ramziy sistemaga bo‘ysunadi. Masalan, arxitekturada va kiyimda formaning negizi bo‘lgan yagona moduldan foydalanilgan [27].

Modaning har bir namunasi uni muxlislariga muayyan maqsadga erishishga, intilishga; zamonaviy ko‘rinib turishiga yoki ommalar orasida ajralib turishiga, atrofdagi insonlarga o‘zi to‘g‘risida ma’lum ma’lumot berishiga imkon beradi.

Moda paydo bo‘lgan davrdan boshlab qaror topmoqda, ko‘paymoqda, takomillashmoqda va o‘zgarmoqda. Parij, London va Rimdagi mashhur moda uylarida, model yaratuvchi firmalarda istiqboldagi yangi modellar namoyish qilinmoqda. Eng istiqbolli modellar mashhur moda jurnallarida e’lon qilinadi. Programmaga asoslangan modali kolleksiylar O‘zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (O‘IYoK) a’zolari hisoblanuvchi mamlakatlarning kiyim madaniyati bo‘yicha doimiy ishchi guruhiга ko‘rib chiqish uchun yil sayin taqdim etiladi. Ana shu kolleksiyalarga asoslanib uslubiy kolleksiylar tuziladi.

Moda - inson ehtiyojining atrofdagi sharoitning turlanishi va doimiy yangilanishi bilan bog‘liq bo‘lgan mo‘ayyan shakllarning qisqa muddatli hukmronligi. Moda aktiv va ko‘zga tashlanadigan darajada, ayniqsa shakllari tez

o‘zgarib turadigan kiyimda namoyon bo‘ladi.

Moda kolleksiyalari mamlakatimizdagi Modalar uylari mutaxassislarining har yili o‘tkaziladigan kengashlarida namoyish qilinadi.

Uslubiy kengashlar modellashtirishga sanoat nuqtai nazaridan yondashishning bir ko‘rinishi hisoblanadi; bu kengashlarda modeler - rassomlar fikr almashadilar, boshqa Modalar uylarining tajribasini o‘rganadilar, shuningdek, yetakchi modalarni sanoatga joriy etish masalalari hal qilinadi. Shundan keyin modellashtiruvchi tashkilotlar sanoat nuqtai nazaridan ahamiyatga ega bo‘lgan kiyim modellari kolleksiyasini tuzadi; bu kolleksiyalarda to‘qimachilik sanoati ishlab chiqarayotgan materiallar hamda kiyimni mukammallashtiradigan detallar ishlatiladi [28].

Moda jurnallari kishining va kiyimning yangi estetik (qiyofasi va ko‘rinishini propaganda qiladigan, iste’molchilar) talab - ehtiyojini qo‘zg‘atadigan va kuchaytiradigan vosita hisoblanadi. Ilgarigi moda jurnallarida modellar katalogi berilmas edi; ularda ko‘proq turli manzaralar tasvirlanib, manzara qatnashchilari yangi modadagi kiyimlarni kiyib hamda nafis harakatlarni namoyish qilishardi. Undagi matnda zamonaviy modaning tahlili berilib, moda turmush tarziga, odob-axloq qoidalari va hokazolarga bog‘lab ketilardi. Bu shunday jurnallarki, haqli ravishda san’at asarlar qatoriga kiritish mumkinlarning tiraji cheklangan bo‘lib, rasmlar mohir ustalar qalamiga mansub bo‘lardi [29].

Hozirgi vaqttagi konstruktorlar o‘zlarining kundalik ishlarida duch keladigan ko‘p sonli moda jurnallari, kataloglar, bukletlar, moda albomlaridan ishning ko‘zini bilib foydalana olishlari lozim.

Modaning asosiy hamda eng muhim yo‘nalishi «Modalar jurnali»da e’lon qilinadi; mazkur jurnalni Yengil sanoat buyumlari assortimenti va Kiyim madaniyati Butunittifoq instituti bosib chiqarmoqda [30]. U boshqa moda jurnallari orasida alohida o‘rin egallaydi. Bu jurnalda kiyim modellari kamroq beriladi, lekin modaning hamma sohalari (bosh kiyimlar, soch turmagi, grim, poyabzal, gazlama, trikotaj, aksessuar)ni o‘z ichiga olgan yo‘nalishiga alohida e’tibor beriladi. Jurnal kitobxonlari estetika komissiyasining moda va kiyim madaniyati to‘g‘risidagi

fikrlari, qarorlari hamda Modalar uylaridagi va jahondagi mashhur modelerlar yaratilgan maqbul, ajoyib modellar bilan tanishtiradi [31].

Rivojlangan mamlakatlar o‘z modasini yaratmoqda va takomillashtirmoqda. Bu moda birinchi navbatda mehnatkashlar didiga va ehtiyojiga mosdir. Kiyimning shakli va materialining odatdagicha o‘zgarib turishi fan va texnika taraqqiyotiga, insonning jamiyatdagi o‘rniga, erkaklar bilan ayollar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgarishiga, sportning rivojlanishi va hokazolarga bog‘liq [31]

Moda tarkibining qiymatlarini orasida birinchisi (atributiv yoki ichki) va ikkinchisi mavjud.

Modani birinchi qiymatlariga zamonaviylik, universallik, demonstrativlik va o‘yin kiradi.

Zamonaviylik – modaning tarkibida fundamental qiymatidir. Har qanday yangiliklar modali bo‘la olmaydi, va har qanday modali standartlar va namunalar ham yangi bo‘lmaydi (masalan, “retro” uslubi). Ekologik uslub modada yangi yuqori texnologik sintetik materiallarni ishlatishni inqor etib, ming yillar maboynda ma’lum an’anaviy zig‘ir, ip, shoyi va jun gazlamalarni kiritdi.

Modada yangilik - bu avvalgi modaga nisbatan yangi g‘oyalardir. Zamonaviylikning qiymati modani muxlisigasiga “vaqt bilan yuruvchi” deb o‘zini his qilishga va tez o‘zgaryapgan zamonga moslashishga imkon beradi.

Universallik (diffuzlik) vaqtidan tashqari xech qanday cheklashni e’tirof etmaydi.

Kostyum tarixida modaning universalligi XIX asrda yuz berdi, XVI asrda esa Yevropada avval italian, keyin ispan modalari keng tarqalgandi. Modaning rivojlanishi jamiyatni barcha o‘zgarishlarini aks etadi: sanoatning gurkurab rivojlanishini, yangi transport va kommunikatsiya vositalarini paydo bo‘lishini, xalqlar aro madaniy aloqalarni kuchayishini. Madaniy namunalarni bir ijtimoiy guruhdan ikkinchisiga, bir mamlakatdan boshqa mamlakatga o‘tishida modaning muhim qiymatlaridan biri universallik hisoblanadi.

V.M.Krasnov moda tarixida universallik bilan bog‘liq uch tomonini

ajratgan: yagona moda (ibtidoiy jamiyatda); mahsus moda (tabaqali jamiyatda); ommabop moda (demokratik jamiyatda).

Qisqa vaqt davomida ommabop bo‘lgan hodisalarni “moda doirasida ichki oqimlar” deb amerikan jamiyatshunos E. Bogardus nomlagan. Ularga fad (injililik, tentaklik, tez utar ishqivozlik barcha jamiyatni emas, balki ayrim ijtimoy guruhlarni og‘ushiga olgan), craze yoki fetish (moda bilan ommabop ishqivoz etilish, moyillik).

Demonstrativlik moda kommunikatsisyaini bir shaklidir, u moda muxlislariga o‘z to‘g‘risida boshqalarga ma’lumot berishiga imkon beradi. Eng avvalo moda o‘z ijtimoiy maqomini yoki undan ham yuqori illyuziyasini namoyish etishga imkon beradi.

Modaning o‘yin qiymati evristik ijodiy faoliyati bilan bog‘liq va u yangilikni izlashni, yangini yaratishni, eskilikni yangi sifatida tavsiya etishni rag‘batlantiradi. XX asr o‘yinni inson miadaniyatini universal elementi sifatida hisoblaydi. Postmodernizmda o‘yin madaniy boyliklar va timsollarni cheksiz kombinatsiyalash usuli yordamida madaniyatni yaratish usuli bo‘ldi. Zamonaviy dizaynda o‘yin elementlari muhim rol o‘ynaydi, chunki o‘yin insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga qaratilgan, unda natijasi emas, balki jarayon muhim (dizayner va iste’molchining hammuallifligi konsepsiysi bilan bog‘liqligi).

6.2.1. Moda funksiyasi

Dizaynerning asosiy maqsadi – buyumning yaxlit badiiy kontekstining belgisi va borlig‘ini loyiha ob’ektini yaratishdir. Buyum muayyan funksiyani bajaradi. Buyumning funksiyalari har xil, uning funksional “portretini” yaratish uchun funksiyalarni tiplashtirib, tagtizimlarini ajratish kerak, ular inson tizimiga kiradi va eng avvalo tagtizim-inson buyum muhitiga. Unda inson va muhitning o‘zaro aloqasi barpo etiladi; inson tabiatni o‘zlashtirib, unga moslashadi.

Buyumda inson siy whole body (individual va ijtimoiy) ifodalash, odam tanasi morfologiyasini tiklash – loyhalovchining vazifasidir, qaerda buyumning funksiyasi modellashtiriladi. Buyum bu holda inson-buyum– muhit tizimida bog‘lanuvchi funksional qismi sifatida qo‘riladi.

“Buyum funksiyasi” tushunchasi – badiiy loyihalashning markaziy kategoriyasidir.

Kostyum funksiyalari tarixiy tashkillangan. Jamoaning turmush tarzi kiyim bilan foydalanishda o‘z aksini ifodalaydi.

Ilk bor kiyim himoya (tashqi muhitdan) funksiyani bajargan.

Xalqning turmush tarzi, asosiy faoliyat turi (tomir va meva yig‘ish, ov va dehqonchilik va hok.) kiyimda spesifik elementlarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgandi (belbog‘lar, yopinchoqlar, to‘qilgan bosh kiyimlar va hok.).

Kostyum funksiyasida jugrafik va iqlim sharoiti, milliy an’analari, estetik didlari va jamoaning ijtimoiy buyurtmalari aks etadi. Shakl va kostyum funsiyasi yoki uning funksional tarkibi bir-birini o‘zaro bog‘laydi.

Kostyuming funksional tarkibini tadqiqod etib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: kostyuming mo‘ljali, uning funksiyasi, “adresi” shakl, gazlama va bezaklarni o‘zaro bog‘likligini aniqlaydi. Ammo funksiya tushunchasini faqat utilitar omillari bilan cheklamaslik kerak.

Ma’lumki, ilk bor funksiya atamasini (lot. functio – bajarish, qilish) XU11 asrni oxirida G.Leybnis matematikaga kiritdi. Gumanitar va tabiiy fanlarda bu ko‘rsatkich boshqacha yechiladi. Ba’zilari funksianing elementlarini o‘zaro bog‘likligini aniqlaydi. Bizni esa sanoatda ishlab chiqaradigan buyumning muljaliga binoan funksiyasi qiziqtiradi.

Funksiya - bu buyumning faoliyati va uni harakatini dinamik tavsifidir.

Mo‘ljal tushunchasi maqsdli kategoriyalariga kiradi va buyum bilan foydalanish imkonini muayyan jarayonda odamning konkret talablarini tavsiflaydi.

Buyum funksiyasini ta’riflash uchun ikki dastlabki nizomni ifodalash mumkin: funksiya buyumning mo‘ljali emas, mo‘ljal va funksiya o‘zaro bog‘liq; funksiya - bu buyumning morfologiyasi emas, funksiya va morfologiya o‘zaro bog‘liq.Demak, bo‘larni asos qilib olganda, funksiyani quyidagicha ta’riflash mumkin: buyum funksiyasi – bu buyumni o‘z vazifasini real bajarish uchun tafsifidir. Boshqacha aytganda, iste’mol jarayonida uni mo‘ljali va morfologiyasi belgilaydigan realizatsiyasi.

Dizaynning asoschilaridan biri G.Zemper XIX asrda quyidagini yozgan: san'atning har bir asarni unga berilgan utilitar belgisini yoki ramziy effektini, unga berilgan moddiy funksiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi lozim; har bir badiiy asar yaratilganda material bilan foydalanish natijasi, foydalangan mehnat qurollarni, mashinalarni va texnologik jarayonlarni ta'siri bo'ladi.

Demak, funksiya, shakl va konstruksiya o'zoro bog'liq.

$I = f(x, y, z, \dots, n)$,

qaerda I – yakuniy rezultat,

x, y, z, \dots, n – o'zgaruvchan ko'rsatkichlar.

"Funksiya" atamasi yaxlit va qisimni o'zaro bog'langan ma'noda qo'llanadi.

Buyumning funksiyasi uning foydasi va ijtimoiy qiymatidan kelib chiqadi. Buyumning foydali funksiyasini uch ko'rsatkich ifodalaydi: nimaga mo'ljallanganligi, foydaligi, qiymati. Buyumning shunday funksiyasini konkret ko'rsatkichlari va ifodasi uni ijtimoiy–qiymat xossalardir – foya, qulaylik, go'zallik.

Buyumning funksiyasi iste'mol sharoiti va buyumning morfologik tarkibi bilan asoslangan. Real funksiyani aniqlash uchun uni iste'mol etish tashqi tavsiflarini bilish zarur. Foydali funksiyani bajarish uchun u bir qator xossalarga ega bo'lishi kerak: vazni, o'lchamlari, materiali, konstruktiv-texnologik xususiyatlari va hok.

Har bir foydali buyum baravariga ijtimoiy, madaniy, estetik ifodali bo'ladi, ya'ni ko'pgina ijtimoiy foydali xossalariiga ega va insonning turli ijtimoiy ixtiyojlariga mos bo'ladi. Agar kostyumda utilitar funksiyasi ustunlik qilsa, kostyum buyum sifatida bo'ladi; mintaqaviy, ijtimoiy, marosim yoki estetik funksiyasi ustunlik qilsa u timsol yoki belgiga ega bo'ladi.

Kostyum funksiyasi badiiy manoga ega emas. Buyumning qiymati uni iste'mol qilinganda aniqlanadi. Muhitsiz, mo'ljali yo'q, inson siy whole dan holi buyum – bu mujmal qobiq, "latta"dir. Shunga ko'ra funksianing mohiyati g'oya va reallikni birligidadir.

Funksiyaning asosiy mazmuni – buyumga insonning talablari va ularni yechish darajasidir. Javob fakturani, shakl, konstruktiv va rang yechimlarida va materialning belgilarida ko‘rinadi.

Kostyum – bu bizning maqsadlarimizni, xarkatlarimizni, intilishilarimizni o‘ziga xos aksidir. Shuning uchun funksiya badiiy siymoga ega bo‘lmasdan, o‘zi siyemoning badiiy qiymatini tasdiqlaydi.

“Ratsionallik va maqsadga muvofiqlik” tushunchalar mohiyati ijtimoiy-iqtisodiy va estetik konsepsiyalarni o‘zgarishi bilan o‘zgaradi. Demak, yangi davrda eski kostyumi avvalgi turida kiiysh mumkin emas.

Kostyum funksiyasini quyidagicha tasniflanishi tavsiya etiladi:

- muhit va insonni o‘zgartiradigan funksiya;
- moslashtiruv funksiya, inson-kostyum tizimini saqlash;
- maqsadga erishishni ta’minlaydigan rezultativ funksiya;
- integrativ funksiya buyumning madaniy yutuqlarini ko‘rsatadi.

O‘zgartirish funksiyasi tashqi muhitni qo‘lay holatda saqlaydi, insonni muhit bilan aloqasini kengaytiradi, uning faoliyatini optimizatsiyalashtiradi.

Rezultativ funksiya buyumni maqsadlarini tavsiflaydi. Buyum uchun iste’molchinig talablari muhimdir.

Integrativ funutsiya inson va jamiyatni birinchi nazarda tutadi. Bu jarayon insonni ijtimoiy yaxlitlikka (madaniyatga, xalqqa, ijtimoiy guruhga, oilaga) aloqadorligini tushunishni nazarda tutadi.

Estetik funksiya har xil xalqlar tomonidan turlicha tushunilgan. Masalan, ba’zi xalqlar tana shaklini deformsiya qilishgan, korset kiyishgan va hok.

Damba-dam estetik funksiya ikkinchi darajali bo‘lgan. Masalan, diniy funksiya - Sharq kostyumida, ijtimoiy va estetik - Yevropa kostyumida, utilitar va himoya funksiyalari esa - ishlash uchun mo‘ljallangan kostyumida ifodalanadi.

Bolalar kiyimida asosan utilitar va estetik funksiyalari ustunlik qiladi.

Umuman aytganda, kostyum asosan himoya, biostimulyatsiya, ijtimoiy, belgi, erotik va estetik funksiyalarni bajaradi.

Kostyum odamni issiq-sovuqdan, hayvon va hasharotlardan, korxona

sharoitlaridan hok. saqlaydi.

Xalq kostyumlarda sehr-jodulardan himoya qiladigan elementlari mavjud (tumorlar, ko‘z munchoqlar, amulet va talismanlar va hok.).

Kostyum begona psixologiya va ahloqlardan himoya qiladi. Masalan, noxayrixohlik sharoitda kiyimni barcha tugmalarga tugmalashardi.

Belgi funksiyasi asosan bezaklar yordamida ifodalanadi.

Tarixiy va zamonaviy kostyum biostimulyatsiya funksiyani bajaradi.

Kostyum yordamida odamni kasal qilish yoki sog‘aytirish mumkin. Ammo, kostyum o‘zgaruvchan bioqobiq sifatida insonning hayotiy jarayonlarini yaxshilashga yordam bergani to‘g‘risida xali taddiqotlar o‘tqazilmagan, garchi tarixda bunga ko‘p misollar bo‘lsa ham: biostimulyator sifatida tanani turli joylarini bo‘yash, gardishlar, og‘ir taqinchoqlar, sirg‘alar, tojlar va hok. taqish.

Kostyuming biologik aspektini o‘rganish optimal issiq va energohimoya xususiyatlarini ta’minlaydigan loyiha yaratishga yordam beradi.

Modada o‘z funksiyalari va omillashtirish qonuniyatları bor.

Yetakchi funksiyalaridan biri – biostimulyatsiya va yangilanishdir. Bu funksiya inson qiyofasini faqat mavsum, iqlim va geografik sharoitlarga mos yangilanmasdan, hayotiy jarayonlarni stimullashtirib, ularni normal bo‘lishiga imkon beradi. Uning ritmi tabiiy ritmlariga mos bo‘ladi.

Moda demokratlashsa ham (shakl oddiy lashadi va haddan tashqari utilitarlashadi), kostyum muayyan ijtimoiy sinf belgisini namoyish etadi.

6.2.2. Moda rivojlanishining asosiy qonuniyatları

Modaning taraqqiyoti ob’ektiv ijtimoiy – psixologik qonuniyatları bilan bog‘liq: biofiziologik o‘zgarishlar, akseleratsiya, ijtimoiy psixologik o‘zgrishlar.

Moda tadqiqotchilari moda taraqqiyotida muayyan qonuniyatlarını aniqlashdi: ijtimoiy – tarixiy hodisalari bilan modani bog‘liqligini; modani internatsionallashuvi; modaning demokratilashuvi; modaning tez tarqalishi hamda modaning siklsimon rivojlanishi.

Moda taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy hodisalari bilan bog‘liqligi kuzatilmoqda: ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar; san’at, fan va texnikada inqilobiy tub o‘zgarishlar.

Modani darhol o‘zgarishlariga siyosiy inqiloblar, yirik tarixiy o‘zgarishlar (urushlar) sabab bo‘ladi. Jamoaning e’tiborini o‘ziga tortadigan barcha siyosiy hodisalar modada yangi standartlar va namunalarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Moda internatsional hodisa, unga chegara yo‘q. Xalqaro aloqalarni va ommaviy axborot vositalarni rivojlanishi, xalqaro bozorni shakllanishi modani internatsionalizatsiyalanishiga asos yaratadi. XVI asrda ispan modasi butun Yevropa modasi bo‘lishi bilan bu jarayon boshlandi. XVII asr oxiridagi G‘arbiy Yevropani shahar kostyumida va XIX asr qishloq kostyumida milliy xossalari amalda yo‘qolgandi. Yevropa modasi paydo bo‘lib, jahon modasiga aylandi. “Global moda” tushunchasi paydo bo‘ldi, dizaynda moda - internatsional uslub. Radio, televidenie, global kompyuter tarmog‘i bu jarayonga o‘z hissasini qo‘shdi. Ular yodamida yer yuzida yangi moda to‘g‘risida ma’lumot tez vaqtida ma’lum bo‘ladigan bo‘ldi.

Internatsional moda g‘arbiy standartlarga turmush tarzini yo‘naltirgan yangi xossalarga ega bo‘ldi: turli xalqlarning madaniy an’analariga o‘ziga xos qiziqish paydo bo‘ldi, chunki zamonaviy dunyo – bu milliy va mintaqaviy madaniyatlarning ko‘pligi, ular zamonaviy sivilizatsiya uchun avlodlarimizdan qolgan beba ho yodgorlik va boylik. Madaniy sabr-toqatlik va etnik plyuralizm zamonaviy madaniyatni muhim yutug‘i bo‘ldi.

Kiyim ommabop ishlanishi, ommabop madaniyatni shakllanishi modani demokratizatsiyalanishiga asosni barpo etdi. Yangi moda standartlari va namunalari barcha ijtimoiy guruhlar uchun moyil bo‘ldi, chunki zamonaviy ishlab chiqarish imkoniyatlari yangi modani tez ishlab chiqarishga va iste’molchilarga taqdim etishga imkon beradi. Ommaviy axborot vositalarini rivojlanishi ham yangi moda paydo bo‘lgani to‘g‘risida ma’lumot olishga imkoniyat beradi.

Yangi moda standartini joriy etishlish jarayoni va tasdiqlanishi, ya’ni moda sikllarini almashishi, modali innovatsiyasi deb nomlanadi. Innovatsiya moda standartida, moda ob’ektida va ob’ektni (insonda, kiyimda moda ob’ektlarida o‘zgaradigan xossalari quyidagilar: rang, uzunlik, hajm va b.) Modaning innovatsiyasi har xil usullar bilan ijro etilishi mumkin:

- an'ana orqali, qachonki moda namunasi utmish modadan taqlid etish (retro moda);

- boshqa madaniyatlardan yoki madaniyat sohalaridan taqlid etish. Libosda yangi moda g'oyalar, uslublar va elementlar tasviriy san'atdan (masalan, 1930yy. modasida syurrealizm uslubiy yo'naliishi), "ekzotik" mintaqalardan (modada etnik uslubi), yoshlar submadaniyatidan (1990 yy. granj uslubi) paydo bo'ldi;

- ixtiolar orqali (innovatsiya) - modada chinkam yangi elementlarni yoki elementlarni yangicha kombinatsiyalash. Ko'pincha bu usul yangi materiallar va texnologiyalar paydo bo'lishi bilan bog'liq. Shunday "kashfiyotlar" sifatida 1930 yy. E.Skypyarelli taqdim etgan plyonkadan ishlangan kiyimi, 1960 yy. P.Rabanani plastik va metalldan ishlagan kiyimi, mini-moda, kiyimnig yangi konstruksiyalari va b.

Moda tadqiqotchilari modada quyidagi sikllarini aniqlashdi:

- yangi moda paydo bo'lishi bir necha bosqichlardan iborat: yangi modani ixtiro etilishi, unga nom berilishi, moda peshqadamlarni paydo bo'lishi;

- modani ommabop tarqalishi (taqlid bosqichi, "chupqi", adaptatsiyasi) ikki bosqichdan iborat: modaga norasmiy peshqadamlari va so'ng ko'pchilik qo'shiladi; buyum ommabop ishlab chiqarilganda moda o'ziga xosligini yo'qotadi, peshqadamlar yangi modani qidirib topadi;

- moda inqiroz bo'lganda bu kiyimlarni odatda "konservatorlar" (modadan ortda qolganlar) kiyishadi.

Bozor iqtisodida modani o'ziga xos roli - iste'mol sikllarini qisqarishiga sabab bo'ladi. Buyumlar imidjini ongli ravishda tez o'zgartiriladi, buyumlar dizayni loyihalaganda estetik va fizik eskirishini nazarda tutilib. Shu bilan, ishlab chiqaruvchi buyumlar bilan foydalanish muddatini kamaytirib, yangilarni sotib olishga majbur etadi (kommersiya dizaynida rivojlantirilgan eskirish konsepsiysi).

6.2.3. Modani bashoratlash

Modani siksimon rivojlanish qonuniyati uni bashoratlashga imkon beradi. Bashorat – bu kelajakda ob'ektnig holatini ilmiy asoslangan mulohazasi. Bashoratlar vaqt davomiga ko'ra quydagicha farqlanadi: operativ – bir oygacha;

qisqa muddatli – bir oydan bir yilgacha; o‘rta muddatli – bir yildan besh yilgacha; uzoq muddatli - besh yildan 15 yilgacha; cheksiz muddatli - 15 yildan ko‘proq.

Shunisi ayonki, modani bashoratlash maxsulotni ommabop ishlab chiqaradigan korxonalarining talablari bilan bog‘liq: uni ishlab chiqarishni rejalashtirish zarurligi, yangi modali namunalarnini paydo bo‘lishini rejalashtirish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, yangi konstruksiyalarni yaratish zarurligi bilan asoslangan.

Yangi kiyimlar kolleksiyasi taxminan yarim yildan oldin namoyish etiladi, loyiha esa 1-1,5 yildan oldin qilinadi. Ko‘pincha qisqa va o‘rta muddatli bashorat qilinadi.

Bashoratlash asosida kelajak to‘g‘risida uch o‘zaro bog‘liq manbalar mavjud:

1) bashoratlanadigan ob’ektni taraqqiyot istiqbolini ma’lum jarayonlar va voqealar analoglari bilan solishtirish. Modani bashoratlaganda san’at asarning yangi rag‘batlarini taqqoslash: me’morchilikda formal–estetik tilini, haykaltaroshni, rangtasvirni, kompyuter grafikani va b. o‘rganish;

2) o‘tmishida va hozirgi vaqtida rivojlanish qonuniyatlarini ma’lum rag‘batlarni kelajakda shartli davomlash (ekstrapolyatsiyalash). Modaning siklsimon rivojlanishi shunday bashorat qilish uchun imkon beradi;

3) kutayotgan yoki hohlayotgan shartlarga mos, ularni istiqboli ayon bo‘lgan modellarni yaratish. Dizaynda shunday modelni futuroloyicha deyishadi. Ularga avangard dizaynerlar kiyim kolleksiyalarini kiritish mumkin.

Modani bashoratlash uchun ikki umuman har xil yo‘llarni ajratish mumkin.

Birinchi yo‘lni rus nazariyachisi A.Gofman “fatalistik” deb nomlagan moda sikllarini tabiiy sikllariga o‘xshatib (mavsumlar almashgan kabi moda ham almashadi). Kostyum dizaynida bu usul kiyim shaklini va uni tarkib elementlarini bashoratlashni nazarda tutadi. Shunday yo‘lni “shakllik ” deb nomlansa bo‘ladi, chunki faqat kostyum shakli, ya’ni stabil elementlari tadqiqot etiladi. T.V. Kozlovaning tadqiqoti bo‘yicha bu qonuniyatlarini aniqlash uchun ma’lum vaqt davomida kostyum shakllari tahlil etilishi kerak. Ushbu tadqiqotga ko‘ra kostyum

shakli oddiy geometrik shakllarga yaqinlantirilganda oval, to‘g‘riburchak va trapesiyadan iborat. Tahlil asosida kiyimnig shakli, uzunligi, shaklning yuzalari, bel chizig‘ini joylanishi va b. xususiyatlari orasidagi o‘zaro aloqalar aniqlanadi. So‘ng jamlangan nazariy yoki formalizatsiyalangan “moda modeli” tuziladi - kostyumda modali shakllari takrorlanishi (matematik modeli) va moda sikllari aniqlanadi.

Aniqlangan kostyum shaklini rivojlanish rag‘batlari kelajakka shartli davom etiladi (ekstrapolyatsiya qilinadi) va kerakli vaqtga kostyum shakli bashoratlanadi. Shunday usulda kostyuming rangi, materiali, naqshi va boshqa xususiyatlari, kostyum shakli tarkibi o‘zgarishi bilan bog‘lanib, bashoratlanishi mumkin.

Ammo, bu usulni bir necha kamchiligi bor, chunki bu yerda bashorat faqat bir manbara – kostyum an’anasiga asoslanadi. A.Gofman fikri bo‘yicha dizayner bu holda o‘tmishni zamonaviy qilishadi yangilikni yaratmasdan.

Modani bashoratlash ikkinchi yo‘li modani barcha tarkibiy qismlariga taaluqli, bu uslda insonlarning turmush tarzinining turli tomonlari va ularning ehtiyojlari bashoratlanadi. Bu holda ayrim moda (kostyum shakli) emas jamoa taraqqiyoti bashoratlanadi.

Yangi buyum aynan iste’molchilarini ehtiyojlaridan boshlanadi, yangi buyumni (modani) yaratuvchisi – iste’molchidir, shuning uchun modanining bashorati uni ijtimoiy ehtiyojlarini bashorati bilan chambarchas bog‘liq.

Buyum ehtiyoji tarqqiyotining bosqichlari uch aspektida bo‘lishi mumkin:

1) ehtiyoj – holat, qachonki iste’molchiga ob’ekt noma’lum yoki faqat loyihalanishga imkon borligi mavjud;

2) ehtiyoj – intilish, qachonki iste’molchi ob’ekt bilan tanishish, ammo u ushbu ob’ektga erisha olmaydi;

3) ehtiyoj – yo‘naltirish, qachonki iste’molchi ob’ektni o‘zi tanlaydi.

Moda bashorati ijtimoiy bashoratlarga asoslanadi, ya’ni ijtimoiy ehtiyojlarga, turmush tarziga, demografik va ta’minlaganlik darajasiga va hok. Ijtimoiy bashoratlar aholiy va ekspertlarni anketa surovi, insonning yoki ijtimoiy

guruhni, insonni yashayotgan buyum muhiti, yashash sharoiti va x.k. asosida bashorat qilinadi. Aynan shunday ma'lumotlar kelajak modani pronozlashga imkon beradi. Bashorat bilan shug'ullanadigan mutaxassislar-“trend-skaut”lar, ular tasodifiy modani o‘rganishadi, diskoteka, premeralar, ko‘p odamlar yig‘ilgan joylarga (rok-konsertlar, stadionlar, savdo markazlr va hok.) borib, yangi tamoyillarni aniqlaydi. Masalan, kiyimni noan’anaviy kiyish usulini, elementlar birikmasini, muayyan uslublarni hohlanishini. Bundan tashqari ular modada dizayner-avangardistlarning so‘ngi kolleksiyalaridan kelajak modaning elementlarini ular anglashi mumkin. Yrik kompaniyalarda albatta shunday tadqiqot bo‘limlari bo‘lishi lozim.

Modaga umuman orientatsiya etish faqat modani e’tiborga olishinigina nazarda tutmaydi, balki unga ta’sir etish, uni boshqarishga imkon beradi. Modani effektiv boshqarish uchun faqat muayyan ko‘p g‘oyalarni mavjudligi emas, balki uni paydo bo‘lish va o‘zgarish ijtimoiy sabablarini tushinish kerak.

Moda - psixologik va ijtimoiy fenomen. Modani tadqiqotlariga muhim hissani psixolog va sotsiologlar muhim hissa kiritishadi. Moda inson psixologiyasini, ijtimoiy guruhning xulq atvorini, inson, ijtimoiy guruh va butunlay jamiyatni ehtiyojlarini ifodalaydigan ijtimoiy hodisa sifatida tahlil etadi. Aynan modani o‘rganish psixologik va sotsiologik yo‘llari uni haqiqiy mohiyatini aniqladi va uni paydo bo‘lish va o‘zgarish sabablarini ochadi.

Modaning psixologik nazariyasi. Moda psixologik fenomen sifatida tadqiqot etilgan. Bu nuqtai nazardan ijtimoiy konformizm va shahsiy erkinlik orasidagi to‘qnashuvni hal etish mexanizm sifatida odamlarning ehtiyojlarini qondiradi.

Moda tadqiqotchilari modani psixologik funksiyasiga aksent qilishgan, u emotsiyal yumshash usuli bo‘lib, odamni yangi to‘yg‘ulari va ehtiyojlarini qondiradi deb hisoblashgan. Psixolog L.Petrov modani damba-dam (6-8 yil) larzasi deb nomladi, uni yordamida inson tez o‘z hissalarini yangilaydi.

Modaga psixologik nuqtai nazaridan qarash, uni o‘zgarish ikki asosiy sabablarini aniqlashga imkon beradi:

1) “orientirovkani so‘lish” psixologik qonuni: orientir refleksini pasayishi, so‘lishi, idroq etilgan siyemoni o‘z ahamiyatini yo‘qotishi, moda ob’ektini astasekin zamonaviylik qiymatini yo‘qotishi;

2) oldingi moda namunalariga nisbatan yangi ta’sir qiluvchini paydo bo‘lishi. Avvalgi namuna o‘z muhimligini yo‘qotgandagina yangi namuna modali bo‘lishi mumkin. Shuning uchun sharoit yetilgandagina yangi modani taqdim etish mumkin. Dizaynerlar shu payitni sezishi lozim, bo‘lmasa g‘oya joriy etilmaydi (masalan, 1922 va 1969 yillarda modaga “maksi” uzunlikni kiritishga o‘rinish behuda bo‘lgandi).

Z.Freyd va E.Fromm psixoanalitklari modani paydo bo‘lish sabablarini g‘ayriyshuriy jarayonlar bilan bog‘lagan. Masalan, Z.Freyd modani shunday ta’riflaydi: “Go‘zallik, ma’nolik va erkinlikka murojatlar ta’sirida yangi moda paydo bo‘ladi”.

Moda prestij yo‘qligini tiklaydi qandaiydir aldanish hisobiga, o‘zgarish illyuzisini yaratib. Masalan, uy bekasi peshbandda o‘zini xizmatchi sifatida his qiladi, bashang kiyimda esa u o‘zini ledi deb his qiladi. Psixotadqiqotchilar nuqtai nazaridan insonning bir hislati yetishmaydigandan kompleksi modani asosiy harakatlantiruvchchi kuchidir.

Moda fenomenida shaxs o‘zini ikki tomonidan ko‘rsatadi: moda jamiyatga, tashqi dunyoga va o‘ziga insonning munosabatini ko‘rsatadi. Bir tomonidan inson o‘z individuallagini saqlashga va ko‘rsatishga xoxlaydi, ikkinchi tomandan esa – jamiyatni boshqa a’zolariga o‘xshashga intiladi. Demak, bittalari moda yordamida ajrab to‘rishga intilsa, boshqalari esa – hammaga o‘xshashga intiladi.

XX asrni oxirida individuallik faqat kiyimdagina ifodalanmasdan, barcha buyum muhitiga mansub bo‘ldi, ammo, ommabop modada “hammadek bo‘lish” shiori tarqalgandi.

Ijtimoiy yoki yosh guruhiga nisbatan inson modaga o‘z munosabatini ko‘rsatadi. Agar yoshlar, ayniqsa tineydjerlar moda yordamida ajralib to‘rishga intilsa, o‘lg‘aygan yoshdagilar modaga tanqidiy qarashadi va faqat o‘ziga yarashadigan modani tanlashadi.

Inson modaga nisbatan befarq va modadan tashqari bo‘lishi mumkin emas: u avangardist, o‘rtacha yoki konservator bo‘lishi mumkin.

Modaga o‘z munosabatini ko‘rsatishdan ko‘ra unga bo‘ysunish onsonroq. Undan tashqari inson tashqi ko‘rinishini atrofidagilarni ma’qullashini xoxlaydi. Bu ehtiyoj “hammadek bo‘lish” xoxishning kuchli stimulidir. Moda koniformizmga bo‘ysunish va individual ajralib turish xoxishni orasidagi to‘qnashuvni yumshatadi, baravariga ikkalasini ta’minlab. Bunda modaning ijtimoiy funksiyalaridan biri namoyon bo‘ladi – bu ijtimoiy nazorat funksiyasidir.

Modaning ijtimoiy mohiyati. Ijtimoiy voqeа sifatida moda ikki asosiy funksiyani bajaradi – prestij va boshqaruvchi.

Modani prestij funksiyasi insonga o‘z real ijtimoiy holatini yoki uni yuqriroq qilib ko‘rsatishga imkon beradi Modali kostyum atrofdagilarga insonni muayyan ijtimoiy guruhga mansubligini namoyon etadi (masalan, ossur-bobilliklar kiyimida qirmizi rangli shokila, rimliklarda qirmizi rangli toga, o‘rta asr kiyimlarida kashtalangan gerb, XVII asr zodagonlarni shlyapalrdagi pat rangi va poyabzning qizil poshnasi, XIX asrda juda yaxshi sifatli tikilgan frak va b.).

An’anaviy va imtiyozli tabaqalar hokimiyatida ijtimoiy guruhlar kostyumida odat va huquq qat’iy cheklangandi. Masalan, o‘rta asr Yevropada past tabaqalarga yorqin rang kiyim kiyish man etilgandi. Kostyumda muayyan material, bezak, shakllarni qo‘llash qirol bo‘yrug‘i bilan belgilanardi. 1480 yilda fransuz qiroli Karl VIII zarbof va kumush kimxobni faqat zodagonlar kiyimida qo‘llanishi mumkin edi, u hattoki poyabzal uchining uzunligini ijtimoiy xoliga ko‘ra belgilagandi. Modada tenglik faqat demokratik jamiyatlarda bo‘ladi.

Xozirgi jamiyatda o‘rta sinf yetakchi rol o‘ynaydi, u moda qonundori bo‘ldi. Aynan o‘rta sinf modada konformizm tarqatuvchisi bo‘ldi. Endi jamiyatning elitasi va marginallari (bomjlar, daydilar) ommabop modasidan xoli va atrofdagilarning fikridan qaram emas bo‘lishdi. Shuning uchun moda ko‘pincha past tabaqalarda yoki elitada to‘g‘iladi, chunki ular odat va ana’nani buzishadi.

Zamonaviy moda – bu bitta standart emas, balki ko‘p modalar. Ammo, moda namunalari muayyan ijtimoiy guruhlariga mansub.

Modaning boshqaruvchi funksiyasi bir tomondan jamiyatda tengsizlikni ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa – har xil ijtimoiy guruhlar orasida tengsizlikni yumshatadi zamonaviy demokratizatsiyalanishni omili bo'lib.

Iqtisodiy yuksalish davrida iste'mol o'z choqqisiga erishadi – insonlar o'z muffaqiyatlarini prestij markali va firmalarning buyumlarini harid qilishadi (masalan, 1980 yilda Shanel, Versachi, Moskino firmalarning kiyimlari elitar deb hisoblangan). Dj.Armani, Cherutti yoki Xugo Boss firmalarning klassik kostyumlarni yappilar (birjada spekulyatsiya qilish natijasida tez boyib ketgan yoshlari) kostyumi bo'lgan. 1990 yillarda yangi iqtisodiy bum ko'r-ko'rona dabdabalikka berilib ketishga olib keldi – “glamur minimalizm”, “xippi-shik” uslublari yuqori maqomini va moddiy imkoniyatlar timsoli bo'ldi. Modaga prestij markalar kirdi, “logomaniya” tarkaldi, logotiplar libosda naqsh va bezakka aylandi.

Inqiroz davrida bu tamoyil so'sayadi. Yuqori tabaqali sinflar past yoki o'rtasinfarga taqlid etishadi. Masalan, 1990 yillarni boshida elita past tabaqalarga o'xshab kiyinshgan, atoqli shaxslar futbolka va yirtilgan djinsni kiyishgan va muxtojlarga yordam berish bilan shug'ullangan.

Moda – ommabop muamola shakli.

Moda – kommunikatsiya shakli sifatida. Moda faqat ijtimoiy maqomni namoyish etmasdan, balki odamlar orasida aloqa qilish vositasi, ijtimoiy qarashlar yoki norozilikni ta'qidlash usuli, ommabop kommunikatsiya shaklidir. Modada guruh orasida va guruhlar orasida kommunikatsiya bo'ladi. Moda asosiy ijtimoiy – psixologik aloqa mexanizmlari bilan bog'liq – ishontirish, ta'qlid etish, xurmat qilish, inontirish.

Moda tarixida taqlid etishda xurmat va musobaqa muhim stimullari bo'lgan. Xurmatdan taqlid etish asosan mutloqlik davrlarda bo'lgan, unda qirolning didi boshqalar uchun namuna bo'lgan. Shuning uchun qirollar va uni yaqinlari moda qonundorlari bo'lgan (masalan, XVII asrda Fransiya qiroli Lyudovik XIV modaga katta ta'sir etgan). Burjuaziya jamiyatida bu rol taniqli shaxslarga o'tdi. XIX asrda akterlarga (Talma, Mariya Taloni, Sara Bernar), shoirlarga (lord Bayron), siyosiy arboblarga (Simon Bolivar, Djuzeppe Garibaldi),

XX asrda kinoyulduzlarga, mashhur pop va rok-musiqachilarga, top-modellarga, siyosatchilarga taqlid etishgan. Odatda har bir ijtimoiy guruhni taqlid etadigan o‘z namunalari bo‘lgan.

Jamiyatda baravariga musobaqa uchun ham taqlid mavjud bo‘lgan. Taqlid bilan birga ayrim shaxslarni yoki ijtimoiy guruhlarning bir-biriga moda yordamida qarama-qarshiligi ro‘y bergan. Moda tarixida shunday misollar ko‘p. Masalan, Angliyada qirolicha Yelizaveta I davrida graf Esseke qirolichani oldida o‘z raqibini O‘olter Ralini badmon qilish uchun ikki ming o‘z mulozimlarni Rali kiyimiga o‘xhash kiyintirgan; XVII asrda qiroly Lyudovik XIV saroy amaldorlarni ingliz qiroli Karl II kiyimini taqlid etganini ko‘rib, o‘z malaylarini shu kiyimga kiyintirgan, amaldorlar oldida ingliz modasini badmon qilib.

Antimoda - rasmiy modaga qarama-qarshi moda. Odat bo‘lib qolgan modaga oppozitsiya antimoda deb ataladi. Odatda, rasmiy modaga e’tirozi insonning tashqi ko‘rinishida aks etadi. Ijtimoiy tizim bilan noroziligini namoyish etish uchun ular o‘zini ijtimoiy guruhiga, turmush tarziga va ehtiyojlariga mos o‘z modasini yaratishadi. Masalan, XVII asrda ingliz burjuaz inqilobi davrida puritanlarning (asosan burjuaziyada diniy seksiya a’zolari) kostyumi bilan e’tiroz bildirishardi. Puritanlar zodagonlar modasini rad etib, qora kul va jigar rang movutdan, oq polotnodan oddiy yoqali kiyim kiyishgan, sochini kalta qirqishgan (shuning uchun ularni dumaloq boshli deb atashgan). Shunday vaziyat Buyuk fransuz inqilobi boshida ham ro‘y bergan, uchinchi tabaqalar zodagonlar modasidan farqlanadigan o‘z modasini yaratgan.

Yakobin klubning a’zolari -sankylotlr aslzodalar kiyigan kalta ishton “kyulot”ni o‘rniga uzun matroslar ishtoni “matlo”ni, duxoba yoki shoyi abini o‘rniga karmanolani (surgunchining kurtkasi) yoki ingliz modasi bo‘yicha frakni va pat bilan bezatilgan uch qirrali shlyapani o‘rniga qizil rangli frigiya qalpog‘ini; kumush tuqa bilan bezatilgan tuflini o‘rniga shnurlangan botinkalarni kiyishgan. Shunday qilib bu kiyim turlari (frak va uzun pantalaonlar va botinkalar) ikki asr davomida bir necha o‘zgarishlarga duch kelib erkaklar modasida klassikaga aylandi.

XX asrni ikkinchi yarmida rasmiy modaga nisbatan negativizm yoshlarga mansub bo‘ldi. Farovonlikni o‘sishi, akselratsiya, o’spirin yoshdan katta yoshgacha masofa ko‘paygani bois yoshlar modasini paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Ikkinci jaxon urshidan keyin avlodlar orasidagi to‘qnashuv yoshlarni kattalar modasidan voz kechishi ro‘y berdi, chunki u munofiqona burjuaz ahloqi, ijtimoiy tengsizlik, shaxsni ustidan zurovonlik timsoli sifatida tasavvur etilardi. “Nyu luk” uslubdagagi dabdaba liboslarni o‘rniga yoki mungli standart erkak kostyumlarni va oq ko‘ynaklarni o‘rniga yoshlar qora pulover (Parij talabalari kiyigan kiyim), djins va trikotaj futbolkalarni (amerikan bitniklari kiyigan kiyim) kiyishgan.

1950 yillarni ikkinchi yarmida London kuchalarida paydo bo‘lgan mini–moda ham “kattalar moda”siga e’tiroz, seksual inqilob va feminizm timsoli bo‘lgan. 1960 yilda mini–moda rasmiy bo‘lganda, e’tiroz timsoli xippilar kostyumida ro‘y berdi, ular har bir shaxsni teng xuquqi va individuallik timsoli bo‘ldi. Ammo, 1970 yillarda xippilar kostyumi “xippi uslub”iga tez aylandi, modaga esa etnik va folklor manbalar, djinslar, rasmiy modada xippidan o‘zlashtirilgan “retro” uslubi modaga kirdi.

XX asrni ikkinchi yarmida yoshlarning e’tirozi har xil bo‘lgan: 1940 yy. – zut AQShda, zazu Fransiyada; 1950 yy. – bitniklar va baykerlar AQShda, teddi-boylar Angliyada, stilyagalar SSSRda; 1960 yy. – rokerlar, modernistlar, xippilar; 1970 yy.- yangi romantiklar, repperlar, yashillar.

Ko‘pincha yoshlar orasida antimodani paydo bo‘lishiga iqtisodiy inqirozlar sabab bo‘ladi, chunki shu payitda yoshlar birichi bo‘lib jabrlanadi – ular ishni yo‘qotadi yoki topa olmaydi. 1970 yy. ijtimoiy inqiroz panklar, 1990 yy. "granj" uslubini paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldii.

Iraqiy ziddiyatlar oq tanali bo‘lmagan aholining orasida antimoda paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘lishi mumkin – ikkinchi jaxon urshi paytida AQShda “zut” kostyumi, 1970-80 yy. Angliyada “ratafara”, AQShda “rep” paydo bo‘lgan.

Shu bilan birga antimodaning yangi g‘oyalari, uslub va siymolari rasmiy moda uchun o‘ziga xos manba bo‘lgan. Masalan, 1950-60 yy. bitniklar, xippilar,

“chap”lar talabalariga ko‘ra djins kiyimlari ommabop modaga aylandi. Aynan, raqobatdosh submadaniyatlar o‘zi katta yangi potensialga ega edi, uni zamonaviy moda o‘zlashtirdi. 1960 yy. libos dizaynerlari g‘oyani rasmiy modadan tashqari mavjud g‘oyalarni o‘zlashtirgan: kucha modasidan va yoshlar submadaniyatidan (bitniklar, baykerlar, xippilar, panklar).

Zamonaviy insonning tashqi ko‘rinishiga xippi submadaniyati o‘zgacha ta’sir etdi. Xippilar kostyumi har xil davr va xalqlar kostyumlarini eklektik aralashmasi bo‘lgan. U yordamida ular o‘zini individualligini ifoda etishgandi.

Rasmiy moda xippi uslubidan insonni tashqi ko‘rinishini individualligini, eski buyumlar va boshqa xalqlar madaniyat elementlarini qo‘llashga qiziqishni, eklektizmni o‘zlashtirgan.

Panklar submadaniyatidan yorqin ranglardan, agressiv aksessuarlar, an’analarga buzuq o‘xshatma qilish, epatajga tamoyilni rasmiy moda o‘zlashtirdi.

Ommabop axborot vositalari, ommabop ruhiy ongini, ijtimoiy hayotni demokratizatsiyalanish tarqqiyoti ta’sirida “yuqori san’at” o‘rniga “ommalar madaniyatlari” bo‘lishi lozim, ular yangi standartlar va ob’ektlar paydo bo‘lishiga tubsiz manbadir.

Moda kommunikatsiyasining ishtiroqchilari. Konkret modani qabul qilishni yoki qilmasligini, odatda, bu masalani har bir shaxs ixtiyoriy ravshda xal qiladi. Modani yaratadigan, u to‘g‘risida ma’lumot tarqatadigan, moda namunasini ist’emolchilari moda kommunikatsiyasining ishtiroqchilari deb ataladi. Ular uch guruhga bo‘linadi: yaratuvchilar, tarqatchilar va iste’molchilar.

Modani yaratuchilar o‘z navbatida ijodkorlariga, ishlab chiqaruvchilarga va ko‘paytiruvchilarga bo‘linadi.

Moda ijodkorlari – bu modali bo‘ladigan namunalarni yaratuvchilari (libos dizaynerlari, yozuvchilar, musiqachilar, rassomlar, kinorejisyorlar va b., ya’ni madaniy namunalarni professional ijodkorlari). Ammo, oddiy insonlar, yoshlar submadaniyat vakillari ham moda ijodkorlari bo‘lishi mumkin. Bu xolda yaratilgan modani tasodifiy, “kucha moda”si deyishadi.

Moda ishlab chiqaruvchilar kelajak moda namunasini tirajlash uchun

xujjatlarni tayyorlashadi (kiyim konstrukturlari va texnologlar, va b.).

Modani ko‘paytiradiganlri moda namunasini tirajlashadi, ular buyumni ommabop ishlab chiqarilishi bilan bog‘liq.

Moda tarqatuvchilari – bular istemolchilarga moda yo‘nalishi to‘g‘risida ma’lumot berishadi. Uni moda jurnallar muxarirlari, fotograflar, modani namoyish etuvchilar va b.

Moda iste’molchilari - bu moda namunalarini o‘zlashtirib kiyadiganlar. Barcha ist’emolchilarni modaga nisbatan quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin (amerika tadqiqodchisi E.Rodgers tipologiyasi bo‘yicha):

- novator va eksperimentatorlar (2,5%) – bular yangi modani yaratishga va eksperimentlashga tayyor. Aynan shu iste’molchilarga avangard dizaynerlarning kolleksiyalari yaratilgan, ular yangi uslub va ekstravagant shakllarni taqdim etishadi;

- ilk muxlislari (13,5%) – ular birinchi bo‘lib modaning yangi g‘oyalarini o‘zlashtirishadi va o‘z muhitida peshqadam bo‘lishadi;

- ilk ko‘pchilik (34%) – ular modaga amal qilishadi, ammo, avaylab, barcha zid tomonlaridan voz kechib. Bu iste’molchilar uchun yangi shakl, rang materiallarni qo‘llab libos yaratishadi;

- kechikkan ko‘pchilik (34%) – moda jamiyatda keng tarqalganda, ular shundagina modani o‘zlashtirishadi. Ular eng yangi uslublar, shakllarni qabul qilmasdan, utgan modaga amal qilishadi;

- konservatorlar (ana’nachilar 16%) – yangi moda yo‘nalishidan voz kechgan iste’molchilar, ular faqat utmish modaga amal qilishadi. Bu iste’molchilar uchun klassik uslubdagi buyumlarni taqdim etilidi.

Moda peshqadamlari modada faol katnashadi – ular moda standartlar va namunalarni ilk tarqatuchilaridir. Ular modada o‘ziga xosligini ko‘rsatish va guruhda ajralib turish uchun modani peshqadam pozitsiyani egallahga intilishadi. Bu ularni g‘ayriodatiylikka va yangi moda namunalarni qidirishga turtadi.

Moda peshqadamlari rasmiy va norasmiyga bo‘linadi.

Rasmiy peshqadamlari (birichi bosqichni peshqadamlari) yangi modani

baynalminal yoki milliy tarqatish bilan bog‘lik. Bu xolda ma’lumot ommabop kommunikatsiya vositalari orqali tarqaladi. Moda tarixida qiollar, saroy amaldorlari, artistlar bo‘lgan bo‘lsa, hozir moda peshqadamlari – yoshlari.

Norasmiy peshqadamlari (ikkinchi bosqich peshqadamlari) o‘z guruhida peshqadam bo‘lishadi.

Moda – reklama shakli sifatida. Yangi moda yo‘nalishining reklamasi bir necha turda qilinadi: modalar jurnallari, magazin vitrinasi, modellar namoyishi, internet, dizaynerning imidji.

Moda yo‘nalishi bo‘yicha eng effketli ma’lumat beradigan reklami turi – modalar jurnallari.

Moda jurnallar o‘tmishdorlari: tahminian XIII asrda rasm solingan qo‘lyozmalar, XVI asrda moda gravyuralari, 1672 yilda Lionda “Mercur Galante” gazetasida ilk bor modaga bag‘ishlangan illustrasiyali chop etilgan rubrikasi, 1785 yilda Parijda “Kabinet moda” nomli birinchi modalar, 1779 yilda Rossiyada “Modnoe yejemesyachnoe izdanie yoki Biblioteka damskogo tualeta” nomli chiqqan nashrlar. XIX–XX asrlarda moda jurnallari firma, modelerlar va dizaynerlar uchun reklamaning aosiy vositasi bo‘ldi [31].

Turli moda muxlislariga muljallangan jaxonda ko‘p moda jurnallari chop etiladi: andazali jurnallardan boshlab (masalan, ”Burda moden”), ommabop iste’molchilar uchun ayollar “o‘qidigan jurnalar” (“El”, “Mari - Kler”, “Kosmopoliten” va b.) to elitar jurnallargacha (Amerikada 1867 y. F.Xarperz tashkil etgan “Xarpperz Bazar” va 1892 yilda K.Nast tashkil etgan “Vog” moda jurnallari) va moda sohasida ishlaydigan mutaxassislar uchun mahsus jurnallar (masalan, nemis jurnali “Tekstil Virtshaft”).

Moda jurnallarida biznesi bilan bog‘liq turli kasb egalari ishlaydi: muharirrlar, moda sharhlovchilari, stilistlar, rassomlar va fotograflar. Ilk bor moda yo‘nalishi to‘g‘risida manba mashhur moda rassomlari chizgan tasvirlar bo‘lgan: XIX asrda – graf de Kaliks, XX asr boshida – J Barbe, J. Lepan, Erte (R.Tyrov), E.Diran, X.Drayden; 1930-1950 yy. – K.Berar, Erik (Erikson), Benito, R. Gruo, 1960-1980 yy. Antonio (A.Lopes va X. Ramos), T.Peres va b. Modali tasvirni,

odatda, mashhur kutyure va dizaynerlarning tayyor modellaridan chizishardi. So‘ng modali rasmni o‘rniga avval oq-qora, keyin rangli fotografiya uslub, siymo va va shakllar to‘g‘risida ma’lumot berilardi. Moda fotografiyasi zamonaviy san’atning bir yo‘nalishiga aylanganiga mashhur fotograflar E.Steyxen, P.Xorst, G.Goyningen-Gans, S Biton, N.Parkinson, I. Penn, X.Nyuton. R.Avedon, D.Isserman. S.Meyzel va b. sabab bo‘lgan.

Magazin vitrinasi – moda to‘g‘risida eng muhim manba. Vitrinadan tashqari savdo zali bezatilishi uslubga, firma konsepsiyasiga (ayniqsa mullif nomidagi butiklarda) mos bo‘lishi lozim. 1980-1990 yy. dizaynerlar faqat libosdagina o‘z konsepsiyasini taqdim etmasdan, sotish konsepsiyasini ham taqdim etishgan: AQShda R.Loren va Angliyada P.Smit. Ihtimol kelajakda moda jurnallari va magazinlar vitrinasi o‘rniga Internetning kompyuter global tarmog‘i o‘rinni egallayidi. Hozir Internetta atoqli dizaynerlarni o‘z saytlari bor, qaerda moda kolleksiyalarini reklama qilishadi.

Moda namoyishi - moda reklamaning mahsus turi. Ilk bor moda namoyishi deb Katta Pandora (tantanali libosga kiyintirilgan) va Kichkina Pandora (ertalabki uy kiyimi kiyintirilgan) mum qo‘g‘irchoqlarni hisoblash mumkin, ularni 1642 yildan boshlab yilda ikki marotaba Parijdan boshqa mamlaktlarni poytahtlariga yuborishardi.

Kolleksiyani namoyish etish – dizaynerlar orasidagi raqobat kurashida muhim reklama vositasi va dizaynerning ijodiga matbuotning e’tiborini jalb etish uchun usuldir. Bu kostyum modellar namoyishni teatrlash tendensiyasiga, uni shouga aylantirishga olib keldi.

Moda namoyishlari 1960 yy. shou bo‘ldi, manekenshchitsalar mahsus grimda va tanlangan musiqa jo‘rligida modellarni namoyish etishgandi (ilk bor Pako Rabanna 1965 yilada namoyish o‘tqazgan). Tamomila Yaponiya dizaynerlari I.Miyake va K.Yamamoto sharofati bilan bu tamoyil 1970 yilda o‘rnashdi. Ular o‘z kolleksiyalar namoyishini noan’anaviy joylarda pirotexnika effektlarini qo‘llab o‘tqazishgandi (garaj, basseyn, gimnastika zalida). 1980 yy. boshlab yevropa dizaynerlariga bu tamoyil ommabop bo‘ldi. Zamonaviy dizaynerlar an’anaviy

yuqori moda va pret-a-porte xafiasi namoyish etiladigan joylardan tashqari tramvay deposida (Jan PolGote), metroda (Jivanshi), vokzalda (Dior, Vestvud), muzeyda (Shanel, Dior) o‘tqazishgandi. 1990 yy. namoyishni podiumda emas, polda, professional manekenshchitsalarni emas, kuchadagi odamlarni yoki noan’anaviy qiyofali odamlarni taklif etib o‘tqazishgan. Shouni qiziqarli qilish uchun namoyish tashkichilotchilari harajatni ayamas edilar, sport zalda urmon changalzorlarni, suv yoyilgan podiumni, harakantlaniruvchi yo‘llarni qurib, musiqachilar va raqqosalarni jalb qilib, tirik janvorlarni va qushlar bilan foydalanishardi [32,33].

An’anaviy moda namoyishi professional manekeshchitsalarisiz o‘tqazish mumkin emas. Manekenshchitsa (top-model, fotomodel) moda standartiga o‘tish mumkin bo‘ladigan moda siymosini mujassamlantiradi. Manekenshchitsa kasbini yuqori moda sindikati asoschisi Ch.F.Vort o‘ylab chiqargan. Uning rafiqasi Mariya Vort bиринчи top-model bo‘lgan desa bo‘ladi, chunki salonni taniqli buyurtmachilar zakaz qilishidan oldin u modelni namoyish etardi. Undan tashqari Vort qizlarni yollar edi, ularni “dublyor” deb nomlagandi, chunki ularning figuralari vaqt va imkoniyati yo‘q bo‘lgani uchun primerkaga kelaolmaydigan zodagon mijozlarnikiga o‘xshar edi. Aynan Vort “dublyorlarga” primerka qilardi va ular yangi modellarni salonda mijozlariga namoyish etardi.

XIX asrni oxirida - XX asrni boshida manekenshchitsa sifatida artistlar bo‘lgan, ular fotograflarga modelni rasmga olish uchun kerakli holatda turishardi va yangi modellarni namoyish etishardi.

1920-1930 yy. manekenshchitsa kasbi obruyli bo‘lgan, chunki ular aslzodalar edi (amerikaliklar va rus emigrantlar).

1950 yy. manekenshchitsalar taqlid qilish uchun namuna bo‘lgan (Angliyada – Barbara Goalen, AQShda – Parker, Fransiyada – Bittina Gratsiani va Viktuar). Ular go‘zal bo‘lgani bois muvaffaqiyatli to‘rmushga chiqib, malika, gersoginya, baronessa va x.k. bo‘lishi mumkin edi.

1960 yy. manekenshchitsalar yoshlar modasini yangi go‘zallik etaloni sifatida taqlid etish uchun namuna va pir bo‘lishdi (Penelopa Tri, Peggy Moffit,

Djin Shrimpton, Verushka). Yangi go‘zallik etaloni Angliyadan Tvggi (Lessi Xornbi) – “1966 yil qiyofasi”, birinchi model ommabop sanami bo‘lgan.

Fransuz kutyuresi Andre Kurrej o‘z modellarini namoyish etish uchun faqat yosh adil qomatli, avvalgi davr nozik ayollarga o‘xshamaydigan manekenchilarini tanlagandi.

1970 yy. atoqli manekenshchitsalar kinoyulduzlari singari shartnoma tuzishardi (masalan, Loren Xatton “Revlon” firmasining mahsulotini reklama kilganda, “astronomik ish xaqini olgan”).

1980 yy. supermodellar fenomeni paydo bo‘ldi. Ular modellarni namoyish etish uchun juda katta gonorarlarni talab qilgani bois, juda boy bo‘lishgan. Ularning kasb muvaffaqiyati yuqori jamoga propusk bo‘ldi. Naomi Kembell, Klaudia Shiffer, Xelena Kristenen, Linda Yevangelista, Karla Bruni, Sindi Kroufrd o‘z mashhurligi bilan kinoyulduzlarni orqada qoldirishdi.

1990 yy. modasi supermodellar kultini davom etdi. Ko‘plar ularga o‘xshashga intilardi, tineydjerlar orasida bu kasb eng mashhur bo‘lgandi.

1999 yy. boshida iqtisodiy inqiroz va siyosiy va ekologik muammolari natijasida supermodellar holati o‘zgardi. “Granj” uslubida yangi siymolar podiumda paydo bo‘ldi: supermodellar o‘rniga podiumga uspirinlarni eslatadigan yosh manekenshchitsalari chiqdi. K.Klyayinni reklama kompaniyasida Keyt Moss “1993 yil qiyofasi” bo‘ldi. Endi individuallik ko‘proq afzal bo‘ldi – Stella Tennat, Kristen Mak-Menami, Erin-o-Konnor, Devon Oaki, Alek Vek yangi moda namunalari bo‘ldi. Professional modellardan voz kechish tendensiyasi ro‘y berdi, bu faqat iqtisodiy inqiroz bilan bog‘liq bo‘lmasdan, balki dizaynni gumnizatsiyalash tendensiyasi bilan bog‘liq edi. 1971 yildan boshlab Londonda “Badbashara” model agentligi mavjud, ular noan’anaviy qiyofali odamlarni (kalta yoki juda uzun bo‘yli, semiz yoki juda ozg‘in, kal va b.) modellarni namoyish etish uchun taklif etishgan. Bu xolda namoyish etilgan kiyimlar va iste’molchilar orasidagi farq yo‘qoldi. Shunday qilib, dizaynerlar yaratgan liboslarni barcha ist’emolchilarga mosligini ko‘rsatishardi. Shu bilan birga modellar kolleksiyasini manekenda yoki veshalkada ko‘rsatish tamoyili kirdi: bu xolda

manekenshchitsaning fazilati emas, balki kiyimni yaxshi tomoni ko‘rsatilardi.

Dizaynerning imidji ham reklamaning bir turi, ayniqsa XX asrni oxirida, bu payitda shou biznes kabi u taniqli shaxs bo‘lib qoldi. Uning tashqi ko‘rinishi yaratgan modellar kollesiyasiga mos bo‘lgan [34].

Dizaynerning imidj tarkibiga quyidagi komponentlar kiradi:

- dizaynerning tashqi ko‘rinishi. Birinchi astoidl o‘ylab yaratilgan imidjning misoli – K.Shanel. Ko‘pkina mijozlarini u yaratgan modeli emas, balki “buyuk madmuazel” siy়mosi o‘ziga jalg etardi. O‘z siymolarini Jan-Pol Gote, Ralf Loren, Djon Galyan, Viven Vestvud, Sonya Rikel yaratishgan;

- jamoa oldida chiqish, kitob va maqolalari, xikmatli so‘zlari, o‘z fikrlarni ifodali rasm solish, intervyu berish, film chiqazish (Kristian Dior, Elza Skapyarelli, Karl Lagerfeld). Bu manoda ham K.Shanel birinchi bo‘lgan – uning ajoyib shior-maksimalari hozirgacha eslatiladi (garchi ularning muallifi K.Shanelning dusti P.Reverdi bo‘lsa ham): “Moda o‘zgaradi, haqiqiy uslub esa – xech qachon”, “kurimsizlikka o‘rganish mumkin, ammo isqirtlikka xech qachon”, “yubka oyoqlarni chalishtirish uchun, yeng o‘mizi qo‘llarni ko‘krakka qovushtirish uchun”, “modaning ikki maqsadi bor – komfort va sevgi. Ikki maqsad amalga oshsa – go‘zallik ro‘y beradi”. Mashhur ism haqiqiy boylik bo‘ladi, qo‘shimcha daromad olishga imkon beradi. 1949 yilda K.Dior xizmatchisi J.Rue o‘ylab chiqqan litsenziya aynan shunga asoslangan. U bilan xozirgacha dizaynerlar foydalanadi;

- pressada nashr etilish;
- dizayner ismi u yaratgan uslubi bilan bog‘likligi;
- dizaynerning imidji yangi badiiy uslub bilan bog‘liqligi;
- modani muvaffaqiyatli reklama qilish uchun yangi moda tamoyillarini differensiatsiya qilish kerak, shuning uchun har bir mavsum yangi uslublarni ishtiroq etadi, bittalari kam vaqt bo‘lsa, ikkinchilari esa – muayyan vaqt ramzi bo‘ladi. 1930 yy. - modada neoklassitsizm uslubi (M.Vionne va Aliks), tarixiylik (Ye.Balansega, E.Molino), syurrealizm (E.Skapyarelli); 1950 yy. – Nyu luk (K.Dior), K.Shanel uslubi; 1960 yy. – London uslubi (M.Kvant), kosmik uslub

(Andre Kurrej, Per Karden, P.Rabani); 1970 yy. - etnik uslub (Kenzo); 1980 yy. - neoklassik (K.Lagerfeld), neobarokko (K.Lakrua), seksi (A.Alayya, T Myugler), - “mul kulchilik” (Jan Pol Gote); 1990 yy. – minimalizm (K.Klyayn, D.Keran, D.Sander, M.Prada), dekonstruktivizm (A.Domelmeyster, D.Van Notten, Yo.Yamamoto, R.Kavakubo), kiber-pank (V.Van Berendonk), tarixiylik (Dj.Galyano, V. Vestvud) va b. bo‘lgan [35,38].



58-rasm. 2021 yil bahorgi-yozgi mavsum moda liboslari



59-rasm. 2021 yil kuzgi-qishki mavsum moda liboslari

2021 yil bahor va yoz mavsumida gulli va burmali ko‘ylaklar, hajmdor yenglar, qirqimli va tasmali liboslar, denim jinsilari urfda bo‘ladi [35-40].

7. KOSTYUM KOMPOZITSIYASIDA IJODIY MANBALAR

7.1. Zamonaviy liboslar kompozitsiyasini yaratishda turli ijobiy manbalarni uslublash

Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manba sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitning turli elementlari, dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet, teatr, sirk, kino, tomosha tadbirlari, etnik mavzular, me’morchilik, muhandislik inshootlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san’at asarlari (shisha, tosh, yog‘och, metall, keramika va bosh.), musiqa asboblari, yulduzli osmon, origami o‘yini, ekologiya, tarixiy, xalq va klassik kostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usuli va h.k. bo‘lishi mumkin.

Har bir dizayner o‘z faoliyatining muayyan bosqichida tarixiy va xalq an’analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbalarga murojaat qiladi.

Ekzotik mamlakatlarning madaniyati ko‘p badiiy uslublarda g‘oya o‘zlashtirish moda tarixida doimo bo‘lgan. XX asr modasi ko‘pincha etnik va tarixiy manbalarga murojaat qilgan. Klassik shaklni va ekzotik xalqlarnikidan o‘zlashtirilgan bezakni birga qo‘shib, modellarni barpo etadigan dizaynerlar avlodи paydo bo‘ldi, masalan, J.P.Gotening “eskimos” kolleksiysi.

Tabiat azaldan inson uchun ish maydoni bo‘lgan. Tashqi dunyoni tushunish va o‘rganish ehtiyoji uning qonunlarini o‘rganishga va o‘zlashtirishga olib keladi.

Asrlar mobaynida ma’lumot yig‘ib, odamzod bionika (yunoncha bio – “hayot elementi”) fanni barpo etdi. Bu yo‘nalish 1950 yillarning oxirida paydo bo‘ldi. Ushbu fanning asosiy maqsadi – biologik tizimlar va jarayonlarning imkoniyatlarini o‘rganish edi. Leonardo da Vinchi, N.Ye.Jukovskiy, L.Galvani bionikaning kashfiyotchilari deb hisoblasa bo‘ladi.

Bionika (yun. bion - hayat elementi, asl ma’nosı - yashovchi)-biologiya va kibernetikaning yanada mukammal texnik vositalari yoki qurilmalarini yaratish maqsadida organizmlarning tuzilishi va hayat faoliyatini o‘rganadigan bir yo‘nalishidir. Bionika 20-asrning 2-yarmida shakllangan. Nerv sistemasida axborotning qayta ishlanish usuli, sezgi organlarining tuzilishi va ishlashi

xususiyatlari, navigatsiya, orientatsiya va lokatsiya tamoyillari yoki odam va hayvonlarda sodir bo‘ladigan boshqa jarayonlar, shuningdek foydali ish koeffitsienti juda yuqori bo‘lgan bioenergetik jarayonlar bionikaning asosiy masalalaridir. Nerv sistemasi signallarni aniq va bexato qabul qilishi, ishonchli, ixcham va energiyani tejab sarflashi bilan elektron hisoblash mashinalariga nisbatan katta afzallikka ega.

Nerv sistemasi va sezgi a’zolarini o‘rganish "o‘ylovchi" mashinalar, yorug‘lik, harorat va elektr maydonini sezuvchi ixcham va o‘ta sezgir datchiklar hamda harakatdagi jismni kuzatib boradigan asboblar yaratishda katta ahamiyatga ega. Hid bilish a’zosini o‘rganish esa havodagi yoki suvdagi hidli moddalarning eng kam miqdorini bilishga imkon beradigan qurilmalarni yaratishga yordam beradi. Hayvonlarda uchraydigan infraqizil nurlar, ultratovush va haroratni sezuvchi retseptorlar asosida matn va sxemalarni o‘qiydigan va taniydigan, ossilogrammalar va rentgenogrammalarni tahlil eta oladigan qurilmalar ishlab chiqilgan. Qushlar, baliqlar va boshqa hayvonlarning navigatsiya qobiliyatini o‘rganish navigatsiyada foydalilaniladigan uskunalarini takomillashtirishga imkon beradi.

Hayvonlarning morfologik tuzilishini o‘rganish esa texnik konstruksiyalarni barpo etishda yangi g‘oyalar manbai hisoblanadi. Suvda tez suzadigan hayvonlarning terisini o‘rganish tez suzar kemalar, suyaklarning tuzilishini o‘rganishdan olingan ma’lumotlar yengil va mustahkam konstruksiyalar yaratishga imkon berdi.

XIX-XX asrlar oralig‘ida paydo bo‘lgan badiiy uslub Modern jonli tabiatga asoslangan va aynan shu davrda cheklangan me’morchilik imperiyasi paydo bo‘ldi. Ispan me’mori A.Gaudining ishlari bunga yorqin dadildir. Uning ishlarida egri chiziqli yuzalar me’mor konstruktiv shakllarni biologizatsiyalanishi desa bo‘ladi. Bionika boshqa sohalarda jadal tarqaldi: maishiy texnikada, harbiy sanoatda (suv osti kemalarining shakli baliq shaklida) va bosh. Zamonaviy kostyumda bionikaning timsoli chakamug‘ o‘simglikning tikani asosida kashf etilgan “velkro” tasmasi keng qo‘llaniladi [41].

Tabiat million yillar davomida durdona asarlar yaratib, o‘z mahoratini doimo oshirib kelmoqda.

Tabiatning organik va mantiqiy bog‘liqlari mujassamlashgan yangi shakllarni yaratish imkoniyatni topish, zamonaviy dizayn yangi yo‘nalishining asosiy vazifasi hisoblanadi, bunga o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan bionika va kristallografiya, ya’ni translyatsiya (lot. translatio - uzatish ma’nosini bildiradi, ya’ni voqeal yuz berayotgan joy (teatr, konserz zali, stadion, bayram marosimlari)dan radio eshittirish va teleko‘rsatuvlarni studiyadan tashqarida bevosita eshittirish yoki ko‘rsatish, shuningdek, boshqa shaharlardan xalqaro aloqa liniyalari bo‘yicha keladigan dasturlarni mahalliy radiostansiya yoki telestansiyadan uzatish) katta ta’sir etmoqda. Ularning asosida ko‘p ob’ektlar va dizayn buyumlari (aksessuarlar, zargarlik buyumlari va b.) barpo etilmoqda.

Jonli tabiatda yashash jarayoni organik moslik bilan bog‘liq. Huddi shunday odam ham o‘z faoliyatida istagan natijaga erishishga intiladi. Muammoni yechish uchun birinchi ahamiyatli darajasiga buyumning ko‘pfunkcionalligi chiqadi, ya’ni buyumlar bir necha maqsadda qo‘llash mumkinligidir. Bu muammoni transformatsiyasiz yechish mumkin emas (ushbu usulni 1920 yillarda konstruktivistlar taqdim etishgan bo‘lishsada, u hozirgi kunlarda amalga oshirildi).

7.2.Tabiat shakllarini transformatsiyalash usullari

Transformatsiya – bu buyum shakli va hajmini har xil usulda biriktirish, joyini o‘zgartirish, ayrim detallarni almashtirish hisobiga o‘zgartirish hisoblanadi. Boshqacha aytganda, buyum loyihasiga qandaydir qo‘zg‘aluvchanlikni asos qilinadi, chunki iste’molchining hamkorligi nazarda tutiladi.

So‘nggi yillarda ayniqla dizaynning stilistik o‘zgarishlarga uchraganligi seziladi, bu stilistik o‘zgarishlarning impulslari esa faqat funksional - konstruktiv tarkibidagina emas, balki formal - estetik izlanishlarida ham ahamiyatlidir. Dizaynerlar ko‘proq shakllantirish sohasida konstruktivizmga murojat etishadi. Bu yo‘nalish “Hi-tech dizayn” deb nomlanadi. “Hi-tech dizayn”ning rivojlanishida zamonaviy usullardan biridir [42].

Oxirgi paytlarda sun'iy muhitning o'zgarish tezligi insonning unga moslashish qobiliyatidan o'tib ketdi. "Hi-tech dizayn" – bu o'ziga xos shakllantirish, sensorlik, moddiylik, rang, muhitning akustik rejimidir.

Kostyum kompozitsiyasida ifodali siymolarni barpo etishga assotsiativ fikrlash imkon tug'diradi – buyum, abstrakt va psixik assotsiatsiyalarni, ob'ekt yechimini grafik izlanishlarga aylantirish, ya'ni assotsiativ rasm solishdir.

Hozirgi sharoitda kiyim dizaynni o'qitishning asosiy vazifasi loyhalash uchun har xil usullaridan foydalanib, ijtimoiy va madaniy muamolari bilan bog'liq, oldida muhim loyiha vazifalarini qo'yadigan va uni yechadigan mutaxassis tayyorlash.

Postmodernizm estetikasi iste'molchining estetika ehtiyojlariga binoan paydo bo'lib, yani estetik va ekologik muammolari yangi siymolar, yangi shakllar, texnologik usullar va kiyim modellarida zamonaga yarasha yangi tamoyillarni talab qiladi.

Eski loyihalash prinsiplarini o'rniga "muhit" loyihalash prinsiplari keldi: inson ekologiyasini inobatga olib, loyihalash real madaniy-tarixiy kontekstga kiritish; abstrakt iste'molchiga emas, balki individual shaxsga in'om etish; dizayn obektining asosiy iste'molchisi bilan hammmualiflik etish; dizayner bergen sxemasiga bilan passiv foydalanmasdan, dizayn maxsulotigiga aktiv ijodiy munosabatda bo'lish; dizayner faoliyatining mohiyati, buyum muhitning ko'pgina obektlarini yaratmasdan, insonning turmush tarzi ssenariysini taqdim etishdir.

Shu sababdan dizayn muxsulotlariga yangi talablar qo'yiladi: go'zallik, inson psixikasiga yaxshi ta'sir etishi, ijobiy hissalarni tug'dirishi, ijod etishga imkoniyat berishi lozim.

Kostyumni modellashda ayrim vazifa qo'yilsa, dizayn esa umumiyligi muammoni qo'yib, uni yechishga urinib ko'radi. Bu muammolar modali tendensianing jihat bo'lmasdan, insonni jamiyatdagi faoliyatiga taaluqlidir. Agar kiyimni modellash yaxshi shakl hosil qilish, figuraga mos bo'lish, zamonaviy bo'lish maqsadi qo'yilsa, dizayn esa muayyan maqsadda erkinlik berib "shaklni

buzadi” (dekonstruksiya usuli), buyumni gavdada boshqa klassik yevropa an’analariga oid bo‘lmagan o‘rnashishni ataylab sinab ko‘radi.

Dizayn yangi yo‘nalishlarni ishlab chiqadi, ularga asoslanib modada tendensiyalar rivojlanadi.

XXI asr kostyum dizayni quyidagi masalalarni yechadi deb taqazo etish mumkin: oddiy shaklni murakkabga transformatsiyalash; razmersiz kiyimni ishlab chiqish; tikilmagan kiyimni tavsiya etish; oddiy bichim asosida kiyim yaratish; har xil assortimentlarning bir-biriga kirishishi va qo‘shilish tendensiyasini rivojlantirish; oddiy vositalar yordamida kiyim ishlab chiqish; “uniseks” buyumlarni yaratish; komfortni taqdim etish uchun kiyimni transformatsiya etish; yangi materiallar, fakturalar va naqshlarni qidirish; yangi texnologik usullarini taqdim etish; ideal buyumni ishlab chiqish; noan’anaviy materiallardan bir marta foydalalanadigan kiyim loyihalash.

Natijada kostyum dizayni kiyimni komfortliligini, tashqi muhit bilan uyg‘un qo‘silishin, kiyimning yangi shakllarini yaratish muammolarini yechishga urinadi. Kombinatorika, modul, dekonstruksiya va boshqa usullaridan foydalanib, dizayner keljak kiyimni rivojlanish yo‘llarini taqdim etadi.

Dizaynerning fikrlashi ixtisos yo‘nalishga oid rivojlansa va dizayner o‘zi quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lsa, loyihalash shundagina foydali natija beradi: masalani aniq ko‘rish va ifodalash qobiliyati bo‘lishi lozim; qisqa vaqt davomida ko‘p g‘oyalarni tez ishlab chiqishi lozim; ajoyib yechimlarni topish; berilgan muammoga oid juda zo‘r yechimlarni tez o‘ylab chiqish mahorati bo‘lishi lozim.

Loyihalanayotgan masalani yechish uchun dizynerni ijodiy jarayonida reja mavjud bo‘lishi lozim: g‘oyani paydo bo‘lishi va masalani qo‘yish; ma’lumotni yig‘ish va to‘plash, ijodiy manbani tanlash; kuchni konsentratsiyalash, intensiv ishlash, har xil evristik va loyihalash usullaridan foydalanish; tanffus etish, diqqatni chetga tortish va bir necha vaqt o‘tgandan so‘ng yana yechimga qaytish, yangi nuqtai nazar bilan uni baholash; fikrning ravshanlashuvi – yakuniy optimal yechimni hosil qilish.

Nazariy va amaliy ish barcha loyihalash bosqichlarida umumiy loyihalash usulida tuzilishi mumkin: muammo situatsiyasini anglash; loyihalashdan oldin tahlil etish; masalani yechish uchun vositalar va prinsiplarni ta’riflash; formal siyemoni tashkil etish; loyihani ishlab chiqish.

Loyihalash uslubiy jurayonni to‘rt asosiy bosqichga bo‘lish mumkin:

- informatsion qism;
- tahliliy-tadqiqot qism;
- sintetik qism;
- kommunikativ-amaliy qism.

Kostyum dizaynida loyihalash usullari quyidagilardan iborat:

1. Kombinatorika usullari.
2. Joyini o‘zgartirish.
3. Ko‘sishimcha (o‘yib o‘rnatish).
4. Transformatsiy.
5. Kinetizm.
6. Razmersiz kiyimni ishlab chiqish.
7. Yaxlit mato bo‘lagidan kiyim ishlab chiqish.
8. Loyihalashning modul usuli.
9. Dekonstruksiya usuli.
10. Inversiya usuli.

Kombinatorika usullari. Kiyim loyihalashda kombinatorika usullarni ilk bor 1920 yillarda konstruktivistlar A.Ekster, A.Rodchenko, L.Popova, V.Stepanova qo‘llashgan.

Tizimga oid tarkibiy taxlilini o‘zlashtirib va abstrakt rangtasvirda “formal tajribalar” bilan shug‘ullanib, konstruktivistlar bu usullarni kiyim ishlab chiqishda foydalanishgan. Kiyim loyihalashda ular bir necha shakllantirish usullarnini qo‘llashgan: oddiy geometrik shakllar to‘plamidan standart elementlarni kombinatsiyalash; bazaviy shakl asosida har xil bezaklarni kombinatsiyalash; tayyor standart obektlarini kombinatsiyalash. Keyinchalik shaklni hosil qilishning

programmalashtirilgan usullari sanoatga oid kolleksiyalarni loyihalashda faqat yetakchi usul bo‘lmasdangina grafik kompyuter dasturlarning asosiga yotadi.

Kombinator usullariga quyidagilar kiradi: kombinatorika, transfrmatsiya, kinetizm, razmersiz kiyim ishlab chiqish, yaxlit bo‘lak matodan kiyim yaratish.

Kombinatorika – dizaynda fazoviy, konstruktiv, funksional, grafik tarkiblarni variantli o‘zgarish qonuniyatlarini qidirish, tadbiq etish, foydalanishga va tipik elementlaridan dizayn obektlarini loyihalash usullariga asoslangan kiyim shaklini hosil qilish tarzi.

Soddaroq aytganda, kombinatorika – bu har xil tarzda shakl va uning elementlarini kombinayiyalash.

Kombinatorika – bu variantli izlanish, uni loyihalashda bir qator asosiy usullarga ajratish mumkin:

- to‘qimachilik kompozitsiyalarini, rapportli gazlamalarni yoki trikotaj polotnosini ishlab chiqqanda elementlarni tekslidka kombinatsiyalash;
- yaxlit shakl hosil qilinganda tipik standart elementlarni (modul) qombinatsiyalash;
- muayyan shakl ichida (bir konstruktiv asos yoki bazaviy shakl) detallarni va proporsional bo‘linishlarni kombinatsiyalash;
- tayyor komplektlarni tashkil etish, tayyor variantlarni kompyuterda qidirish.

Kombinatorika ma’lum usullardan foydalanadi: joyini o‘zgartirish, qo‘sishma guruhlash, aylanish, ritmlarni tashkil etish.

Joyini o‘zgartirish yoki evristik kombinatsiyalash, elementlarni o‘zgartirish yoki alamashishni nazarda tutadi. Bu usul loiyihalashda keng tarqaldi, chunki oddiy va deyarli kutilmagan natija beradi. Kiyim bo‘ylab detallarni kompanovka qilinganda, bir detallar boshqalari bilan almashtirilganda, bir konstruktiv asosda buyumning detallari variantli foydalanishda bu usul qo‘llanadi. Masalan, yoqani chuntak, belbog‘, sumka, transformatsiyalanadigan kvadrat, uchburchak, doiraga va boshqaga almashtirish. Ba’zan, bu g‘oya be’mani bo‘lsa ham, unda oqilona g‘oyani topish mumkin.

Qo'shimcha (o'yib o'rnatish) usuli oddiy shakldan murakkab shakl hosil qilinganda foydalanadi. Oddiy shakl ma'lum yo'nalishda (vertikal, gorizontal, diagonal yoki aralash) qirqiladi va turli shakllli geometrik shakllar (kvadrat, to'g'riburchak, uchburchak, doira, kapalak, gul va b.) orasiga kiritiladi.

Transformatsiya (lot. transformasio – o'zgarish) – kiyim shaklini boshqa turga aylantirish yoki o'zgartirish uchun kiyim loyihalashda ko'pincha foydalanadigan usul. Transformatsiya jarayoni dinamika, o'zgartirish harakati bilan mavjud bo'ladi.

Transformatsiya quyidagicha amalga oshiriladi: bir shaklni ikkinchisiga o'zgartirish (masalan, uzun yubkani kalta qilish, taxlama sumka va b.); bir detal shaklini o'zgartirish (masalan, yoqaning uchi qaytariladi, uriladi, bog'lanadi va hok.).

Kinetizm (yunon. kinetikos – harakatga keltirmoq) kombinatsiya qilish nazarda tutilgan loyihalash usuli, uning asosida ko'z ilg'aydigan shaklni harakatga keltiradigan g'oya olingan.

Kinetizm usuli shaklda bezakda, naqshda va b. ko'z ilg'aydigan dinamikani hosil qilish. Shaklning harakat g'oyasi V.Tatlin, K.Melnikov, A.Rodchenko, va b. mansub, 1920-1960 yy. bu g'oyani L.Moxoy-Nad, M.Dyushan, R.Soto, N.Shoffer, Vazarelli va b. rivojlantirishgan.

Kostyum dizaynida kinetizm usuli kiyimni transformatsiyalaydigan detallar dinamikasida, aylanayotgan va harakat qilayotgan elementlarida qo'llanadi. Ko'zni aldaydigan grafik vositalar yordamida "op-art" uslubida modellar kolleksiyasi ishlangan. Asosan illyuziya effekti to'qimachilik sohasida kuchli dinamikani yaratishi mumkin.

O'lchamsiz kiyimni ishlab chiqish – har xil qomatli odamlarga mos keladigan o'rta razmerli kiyimni ishlab chiqish uchun kombinatsiyalangan loyihalash usulidir. O'lchamsiz kiyim turli hajmli trikotaj kiyimlarida mavjud. Bunday kiyim turini loyihalash va ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi, ya'ni ma'lum kombinatsiya yordamida hayotning barcha hodislariga mos kostyum garderobini tashkil etish mumkin.

Shuni ham hisobga olish kerakki, buyumlar oddiy, hattoki shakli primitiv bo‘lishi kerak, ulardan oddiy va murakkab komplektlarni tashkil etish mumkin. Bu yerda “oddiydan murakkabkga” o‘tish usuli.

1990 yilda amerikan dizaynerlar trikotajdan modali kiyimlarning o‘zgaruvchan garderobini taqdim etishdi. Taqdim etilgan komplektning ayrim qisimlari (“truba”) juda oddiy bo‘lgan. Ushbu oddiy shakllar komplektning qismi sifatida bir-biri yoki boshqa kiyimlar bilan kombinatsiyalanib kiyilishi mumkin.

O‘lchamsiz kiyimning assortimenti har xil: qo‘s sh burmali toplar; har xil qo‘s sh burmali yubkalar; yopishgan siluetli, uzunligi minidan maksigacha yubkalar; har xil razmerli “xomutlar” yoqalar, lif, belbog‘simon kiyish mumkin.

O‘lchamsiz kiyim g‘oyasini yapon dizaynerlari ham taqdim etgan. Masalan, I.Miyake barcha odamlarga mos, bo‘yiga va kundalangigia gofreni qo‘llab, kiyim kolleksiyalarini taqdim etgan. Demak, kiyimning tanaga yopishib turish effektiga elastik trikotajdan tashqari, gofre, plisse, g‘ijimlangan faktura, laykra va rezinka qo‘shilgan mato, kuliska va drapirovska yordamida erishish mumkin.

Elastik materiallar rivojlanganligi bois “hammabop kiyim” loyihalash uchun imkoniyatlar ko‘p. Imte’molchi esa komplekt yaratganda o‘z ijodini ham qo‘sadi.

Yaxlit mato bo‘lagidan kiyim ishlab chiqish – bichilmagan va tikilmagan kiyimni kombinatorika usulida yaratish. Bu usul qadimdan bo‘lgan: ibtidoiy xalqlarda, qadimiy yunon va rimda, hind va hindularda va b. xalqlarda.

Tikilmagan kiyim usuli texnologiya va konstruktiv jihatdan juda qiziqarli va samarali. Har xil moslamalar (bog‘lash, tugun, bantlar, furnituralar) yordamida transformatsiya o‘zgarishi ro‘y beradi. Masalan, Fransiya “Ermes” firmasi o‘z “kare” ro‘moli bilan dunyoga mashhur ko‘rgazmalarda doimo o‘z mahsuloti bilan foydalanish usullariini namoyon etadi. Masalan, ro‘mol-karedan (90x90 sm) bo‘yni va belida bog‘lanadigan lif, xalqa yordamida lif-bikini, o‘rab kiyiladigan yubka-sarong, bo‘yin bezaklarni va h.k. barpo etish mumkin.

Matoda kesim qilib, har xil kiyim turlarini taqdim etish mumkin.

“Origami” usulni qo’llab kompanyon-materiallar, ikkiyuzli gazlamalar, turli matolar, har xil bezak, moslamalar, kesimlar, qo’shimchalar va turli geometrik shaklda mato bo‘laklarini qo’llab kostyum qismlarining turlicha variantlarini taqdim etish mumkin.

Texnikaviy progressning templarini tezlashtirgan ilmiy-texnikaviy progress (ITP) badiiy madaniyatga kuchli ta’sir ko’rsatdi.

San’at va ITP bir-biriga qarama-qarshi emas. ITP qo‘ygan masalalar “hayotni go‘zallik qonunlari bo‘yicha” tasdiqlashni nazarda tutadi. Ikki sohani o‘zaro bog‘liqligi ijodiy fikrni konsentratsiyalashda aniq ifodalangan. San’at jamiyatda ijodiy fikrning akkumulyatori bo‘lib, faol ijodiy shaxsni tarbiya qililishi lozim [42].

Zamonaviy san’at, ya’ni jahon san’ati, jahon badiiy madaniyati, bir xil emas va o‘zaro keskin qarama-qarshidir. Mamlakatlar va jahon xalqlar zamonaviy san’atda universal badiiy uslub mavjud emas. Jahon san’ati o‘z ijtimoiy-tarixiy tipologiyasi bo‘yicha har xil badiiy madaniylatlarni o‘zaro bir-biriga ta’sir etib barpo etilmoqda. Hozirgi davrda jahon san’at tarixini dialektikasiga binoan g‘oyaviy-badiiy harakatlarni yaqinlashi va tuqnashi ro‘y bermoqda.

Ammo, bu sharoitda ayrim san’at turlari orasida uyg‘un bog‘lanish muammosi, yagona uslub yaratish, yaxlitlik va mukammallikni barpo etish lozimligi juda muhimdir. Zamonaviy demokratik ruhlangan rassomlar jahondagi ziddiyatlarni oqlaydigan va uyg‘unlikni inqor qiladigan estetikaga qarama-qarshi insonparvar ideallarni tasdiqlamoqda. XX asr ilmiy-texnikaviy inqilob voqelik va hayotga yangi qarashlar bilan bog‘liq. Yangi san’at o‘tmishning ulug‘ligini o‘zlashtirib, ana’nalarga yangiliklarni kiritdi.

San’at bilan aniqlik, tejamlik, tektonik, ravshanlik, yetakchilik qilmoqda. Zamonaviy san’atning asosiy vazifasi - insonning faoliyatiga maksimal mos bo‘lish va unga komfort va qanoatni hosil qilish.

Korxonani ijtimoiy funksiyalariga mos yangi uslub sanoatda ishlab chiqaradigan mahsulotlarda yangi estetik qiymatlarni hosil qiladi. Bu buyumlarda

sanoat mollarnni yangi sifat prinsipi mavjud: ritm, musiqalik va shakllari geometrizatsiyalanishi.

Sanoat san'ati – dizayn moddiy ishlab chiqarish sohasida borlikni estetik o‘zlashtirish faoliyati sifatida ishtiroq etmoqda. Hozirgi zamon – bu texnikani kuch-qudratiga tan berishdir, endi u akl va mantiqani ifodasidir.

Buyumlarning funksionalizmi va keyinroq psixologizmi zamonaviy go‘zallik va madaniyatni ifodasi deb ayon etiladi. Buyumlarning funksionalizmi va u bilan bog‘liq konstruktivizm hozirgi davrda asosiy g‘oya bo‘lib qoldi.

XIX asr kostyumidan yaratilib, zamonaviy kostyum undan butunlay farqlanadi – u sodda, oddiy, hajmi katta emas, yengil, figuraga yaqinlashgan. Ammo, o‘tgan asr kostyumini inqor etib, zamonaviy kostyum uni prinsiplarini rivojlab qo‘llaydi. Siymo inson va kostyuming uygunligida hosil bo‘ladi.

Zamonaviy kostyum go‘zal proporsiyalarni yaratmasdangina ularni ko‘rsatadi. U o‘zgaruvchan, egiluvchan va dinamiklik. Kostyum figurani o‘zgartirmasdan uni go‘zalligini namoyon etadi.

Zamonaviy davr quyidagilarni talab qiladi: mukammal shaklni; figurani yaxlit tasavvur etilishini; buyumni texnikaviy jihatidan yaxshi ishlanishi; buyum figurada “yaxshi turibdi” ideali o‘rniga yangi estetik ideal paydo bo‘ldi – “buyum figuraga plastik moslanishi”.

XX-XXI asrlar garderobini ta’minlanishi vaqtlar sari sinalgan shakllar asosida barpo etilmoqda, ularni asosida moda yo‘nalishlari yaritilmoqda, ular har doim yangi timsol tizimlari va badiiy siymolari bilan boyitilmoqda.

Zamonaviy kostyumi quyidagilar tavsiflaydi:

- kostyum ansamblining yorqin siymoligi;
- qo‘shimchalar kostyumi nimaga mo‘ljallanganligini ko‘rsatadi;
- kiyim yagona turlarining materiallarini erkin kompozitsiyasi;
- rang aksentlarini erkin joylanishi;
- ko‘pfunksiyaliigi, mavsumga mos emasligi, turlanishi kostyumi universalligi va qo‘layligini ifodalaydi;
- yangi kiyim turlarini yaratish va ana’naviyarlari transformatsiyash;

- materiallarning qo'llanishini qayta taqsimlash;
- materiallarni universalligi;
- ichki kiyimlarni ustki kiyim sifatiga o'tishi;
- kostyumda uzunliklar va hajmlar, va siluetlarni kontrast birikmalari, ko'pqavatlik, ko'ppog'onlik, komplektlarni notipikligi ustunlik qilmoqda;
- sport uslubini yetakchiligi;
- uslublarni mosligi yoki kontrastligi;
- uslublar, materiallar va buyum turlarini barcha yosh guruhlarida eklektik birikmalari yangi estetik sifatni barpo etdi;
- kostyum elementlarini kiyish turli usullari, ulardan har xil birikmalarni yaratish;

- inson garderobida bir xil mo'ljalga belgilangan buyumlar kamaymoqda.

Kiyimni takomillashtirishiga majbur etadigan asosiy kuch – bu inson talablarini rivojlantirish va ularni qondirishdir. Kiyimga qo'yiladigan talablar inson – kostyum – muhit – korxona tizimida tuziladi, qayerda inson, iste'molchi bo'lgani bois tizimni loyihalashga yo'naltiriladi.

Kiiym assortimentining rivojlanish tamoyillari tizimli nuqtai nazar prinsiplari va o'zidan o'zi jalb etadilishi bilan asoslanadi: insonni shakllantiradigan kiyim (figurani ta'qidlaydigan yoki yashiradigan); tashqi muhit o'zgarishlariga odamni moslanishiga va rivojlanishiga imkoniyat beradigan kiyim; chiqindisiz kiyim.

Kostyumnig an'anaviy turlari va bir xil materiallardan tayyorlangan kiyimlar endi insonlarning ehtiyojlarini qondirmaydi.

Hozirgi davrda insonning ruhiy rivojlanishi, o'z fikrini erkin ifodalashi nazarda tutiladi. Shuningdek jismoniy rivojlanishi, o'z o'zini takomillashtirishi ro'y bermoqda.

Birinchisi – insonning rivojlanishida ko'zga yaqqol tashlanadigan tengsizlikni ifodalasa;

ikkinchisi – odamlarning sport bilan shug'ullanishi va korxona talablari bilan bog'liq.

Kostyum assortimenti bo‘limlarga parchalanishi va odamda sinalish jarayoni ro‘y bermoqda. Tizimli tahlil nuqtai nazaridan bu aholining zichligi bilan bog‘liq.

Zamonaviy va kelajak kostyumga quyidagi talablar qo‘yladi: har xil qomatli odamlarga kiyish imkoniyatini yaratish; tashqi muhitni o‘zgarishiga va uslubiy yo‘nalishiga mos siymoni kostyum bilan ta’minalash; insonning ahvolini tezlik bilan tiklash; materialning universalligi va konstruksiya tuzilishalar yordamida kiyimni har xil qomatli odamlarga kiyish imkoniyatini yaratish (bu talablarga relefli yuzalar yoki olib qo‘yiladigan detallar yordamida erishish mumkin).

Yangi kiyim yaratish uchun iste’molchi va korxona talablari nuqtai nazaridan loyihalash usullarni, ishlab chiqish texnologiyasini va qo‘llanadigan asbob-uskunalarini butunlay qayta kurib chiqishni majbur etadigan muammolar:

1) sog‘lomlashtiradigan, davolaydigan va kasalliklarni oldini oladigan kostyum uchun materiallar, shakllar, konstruksiyalar va texnologiyalarni yaratish (masalan, charchashni, ruhiy-jismoniy keskinlikni yo‘qotish, jarohatni davolash, odamning harorati o‘zgarishga ko‘ra rangini o‘zgartiradigan kiyimlar va h.k.);

2) noyob xususiyatli materiallar shakllar, konstruksiyalar va texnologiyalarni yaratish: odamni o‘z-o‘zidan isitadigan yoki sovutadigan material va kostyumlar; rang sezgili va yorug‘lik o‘tishni rostlaydigan kostyum; ovozni rostlaydigan kostyum; hidni sezadigan kostyum; odamni ovoziga javob beradigan kostyum elementlari; o‘z-o‘zidan tiklanadigan materiallar; belgilangan muhitda istem’olchi talablarini ta’minalaydigan kostyum; himoya kostyumlarni yaratish: o‘z-o‘zidan tashqi muhitning har xil zarali tahsirlaridan rad etadigan; har xil mikroblar uchun tuzoqli kiyimlar; sanitariya kiyimi – odam organizmi chiqindi moddalaridan himoya qiluvchi.

3) insonning jismoniy, ruhiy va psixik imkoniyatlarini kengaytiradigan kostyum uchun yangi materiallar, shakllar, konstruksiyalar va texnologiyalarni yaratish: aqliy va jismoniy og‘irlikni yengillashtiradigan yoki olib tashlaydigan (masalan, shaxtyorlar kostyumida kumirdan qo‘srimchalar va o‘zgarmas magnitlar

yordamida bu muomala yechiladi); ogohlantiradigan kostyumlar (bolalar, ko‘zi ojizlar, qarilar va b. uchun); inson amalga oshirmagan (san’atga, fanga va hok.) potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqaradigan kostyumlar; insonni nohush rag‘batlarini ogohlantiradigan kostyumlar.

4) bir marta kiyiladigan kiyimlar: o‘zidan o‘zi yuviladigan, erib ketadigan, kimyoviy hodisalaridan darak beradigan kostyumlar.

Shu ravshda kostyum assortimentini kengaytirish va sifatini yaxshilash real perspektivalar kiyimni tizimli loyihalashda o‘zaro bog‘liqlarni prognozlash va optimizatsiyalashganda barpo etilishi mumkin, u inson - kostyum – muhit – korxona tizimida o‘zlashtirilishi lozim.

Hozirgi kunda bu muammolar Fransiya, Yaponiya, AQSH, Janubiy Koreya va b. mamlakatlar laboratoriyalarda tadqiqot etilmoqda. Masalan, Fransiyada chiqarilgan maxsus gazmol bir tomoni odamni isitsa, ikkinchi tomoni esa - sovutadi; Yaponiyada vitamin S bilan ishlov berilgan gazlama yaratilgan, u odamni ushbu vitamin bilan ta’minlaydi (50 karra yuvilishni chidaydi), xidi bo‘lmaydigan paypoqlar chiqarilmoqda (maxsus antimikroblı modda bilan ishlov berilgan); haroratga ko‘ra rangi o‘zgaradigan gazlama chiqarilgan, va hok.

7.3. Kostyum loyihalash jarayonida ijodiy manba sifatida tarixiy va milliy liboslardan foydalanish

Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manba sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitning turli elementlari, dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet, teatr, sirk, kino, tomosha tadbirlari, etnik mavzular, me’morchilik, muhandislik inshoatlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san’at asarlari (shisha, tosh, yog‘och, metall, keramika va b.), musiqa asboblari, yer fakturasi, yulduzli osmon, origami o‘yini, ekologiya, tarixiy, xalq va klassik kostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usuli va h.k. bo‘lishi mumkin.

Har bir dizayner o‘z faoliyatining muayyan bosqichida tarixiy va xalq an’analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbalarga murojat qiladi.

Ekzotik mamlakatlarning madaniyati ko‘p badiiy uslublarda g‘oya o‘zlashtirish moda tarixida doimo bo‘lgan. XX asr modasi ko‘pincha etnik va tarixiy manbalarga murojat qilgan. Klassik shaklni va ekzotik xalqlarnidan o‘zlashtirilgan bezakni birga qo‘sib, modellarni barpo etadigan dizaynerlar avlodi paydo bo‘ldi, masalan, J.P.Gotening “eskimos” kolleksiyasi.

B. V. Mantanov yozishiga ko‘ra, gnosilogik shartlilik bilimning majburiylikdan halos etib, keyingi ifodani oldinlab - ideal modelga o‘tish demakdir, ya’ni ifoda voqeilikdagi asosni ko‘rsatish demakdir. Kiyimdagи sistemaviy timsol - rassomdan tomoshabinga informatsiyaning o‘zatilishidir. Bunday bog‘liqlik kiyim va kod ma’lumotlar manbai o‘rtasida kommunikatsiya o‘rnatilish usuli hisoblanadi. Bunda kiyim mazmuni ma’lum belgi, timsol va boshqalar bilan «kodlashtiriladi» [25].



XIX asr. Zodagon erkak kiyimi

60– rasm



XIX asr. Amaldor erkak kiyimi

61– rasm

Kiyim belgisi - kommunikatsion funksiyani bajarib, ijtimoiy nyuanslarni chegaralaydi, ya’ni kiyim iqtisodiy darajasi belgisi kiyim ma’lum g‘oyaviy

guruhgaga daxldorlilik (xudojo‘y, zamonaviy, konservativ) kiyim etnik sifat belgisi (mintaqaviy, milliy), kiyim jinsiy farqlilik belgisi, kiyim insonning did belgisi, kiyim madaniyat belgisi dastlab belgililik odam tanasining qismlari va uning funksiyalarini belgilaydi (60, 61 rasmlar). Keyinchalik u libos turi, materialning shakli, rangi, detallarning joylashuvi, tasnifi, kiyimning ifodasi va bezaklari sifatida ishlatiladi.

Tabiat azaldan inson uchun ish maydoni bo‘lgan. Tashqi dunyoni tushunish va o‘rganish ehtiyoji uning qonunlarini o‘rganishga va o‘zlashtirishga olib keladi.

Asrlar mobaynida ma’lumot yig‘ib, odamzod bionika (yunoncha biou – “hayot elementi”) fanni barpo etdi. Bu yo‘nalish 1950 yillarning oxirida paydo bo‘ldi. Ushbu fanning asosiy maqsadi – biologik tizimlar va jarayonlarning imkoniyatlarini o‘rganish edi. Leonardo da Vinchi, N.Ye.Jukovskiy, L.Galvani bionikaning kashfiyotchilari deb hisoblasa bo‘ladi.

XIX-XX asrlar oralig‘ida paydo bo‘lgan badiiy uslub Modern jonli tabiatga asoslangan va aynan shu davrda cheklangan me’morchilik imperiyasi paydo bo‘ldi. Ispan me’mori A.Gaudining ishlari bunga yorqin dadil. Uning ishlarida egri chiziqli yuzalar me’mor konstruktiv shakllarni biologizatsiyalanishi desa bo‘ladi. Bionika boshqa sohalarda jadal tarqaldi: maishiy texnikada, harbiy sanoatda (suv osti kemalarining shakli baliq shaklida) va b. Zamonaviy kostyumda bionikaning timsoli chakamug‘ o‘simglikning tikani asosida kashf etilgan “velkro” tasmasi keng qo‘llaniladi.

Tabiat million yillar davomida durdona asarlar yaratib, o‘z mahoratini doimo oshiradi. Tabiatning organik va mantiqiy bog‘liqlari mujassamlashgan yangi shakllarni yaratish imkoniyatni topish, zamonaviy dizayn yangi yo‘nalishning asosiy vazifasi bo‘ldi, bunga o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan bionika va kristallografiya katta ta’sir etmoqda. Ularning asosida ko‘p ob’ektlar va dizayn buyumlari (aksessuarlar, zargarlik buyumlari va b.) barpo etilmoqda.

Jonli tabiatda yashash jarayoni organik ma’qullik bilan bog‘liq. Huddi shunday odam ham o‘z faoliyatida istagan natijaga erishishga intiladi. Muammoni yechish uchun birinchi planga buyumning ko‘pfunksionalligi chiqadi, ya’ni

buyumlar bir necha mo'ljalda qo'llash mumkinligi. Bu muammoni transformatsiyasiz yechish mumkin emas (bu usulni 1920 yillarda konstruktivistlar taqdim etishgandi, ammo u hozirgi kunlarda amalga oshirildi).

Transformatsiya – bu buyum shakli va hajmini har xil usulda biriktirish, joyini o'zgartirish, ayrim detallarni almashtirish hisobiga o'zgartirish. Boshqacha aytganda, buyum loyihasiga qandaydir qo'zg'aluvchanlikni asos qilinadi, chunki iste'molchining hamkorligi nazarda tutiladi. Standart detallar to'plamidan asosiy shaklga har xil biriktiruv usullari yordamida ko'p variantlarni hosil qilish mumkin. Zamonaviy moda buyumlarni funksional trasformatsiyasi- normativ operatsiyalarni doimo bo'lganligi oqibatidir.



62– rasm. Libosda tranformatsiya elementi

So'nggi yillarda dizayn stilistik o'zgarishlarga uchraganligi ayniqsa seziladi, bu stilistik o'zgarishlarni impulslari esa faqat funksional-konstruktiv tarkibidagina emas, balki formal-estetik izlanishlaridan ham. Dizaynerlar ko'proq shakllantirish sohasida konstruktivizmga murojat etishadi. Bu yo'naliш “xay-tach” deb nomlanadi. Xay-tach dizaynning rivojlanishida zamonaviy yo'llardan biridir. Bu yuqori texnologiyalar, insonning yashash muhitiga korxona elementlarini o'tqazishdir. Oxirgi paytlarda sun'iy muhitning o'zgarish tezligi insonning unga moslashish qobiliyatidan o'tib ketdi.

Texnogen muhitda antropologik adaptatsiyaning asosiy qiyinchiligi buyum dunyosining real moddiyligini yo‘qotilganligi, shuning uchun dizaynerlar oldida yangi o‘ta ta’sirli dunyoni hosil qilish masalasi qo‘yilgan.



63 – rasm.“Hi-tech” dizaynda loyihalangan kiyimlar

“Xay-tech” – bu o‘ziga xos shakllantirish, sensorlik, moddiylik, rang, muhitning akustik rejimi, yorug‘lik dizaynidan foydalanishdir.

FANGA DOIR TEST SAVOLLARI

1. Moda -bu nima?

- *a) moda - bu yangilanish, taqlid va yangilik (me’yor, tarz, usul)
- b) moda - tashqi ko‘rinish
- v) moda - madaniyat belgisi
- d) moda - bu yangilanish

2. Kostyum uslubi deganda nimani tushunasiz?

- a) go‘zallik
- b) garmoniya
- *v) davning badiiy tili, uning badiiy harakteristikasi
- d) jamiyat moddiy va ma’naviy madaniyati

3. «Garmoniya» so‘ziga ta’rif bering?

- a) plastik nafis obraz
- b) xususiyatlar orasidagi mutanosiblik
- *v) yunoncha so‘z bo‘lib predmetlar, voqealar, butun qismlarning turli sifatlarining bog‘liqligi, muvofikligi, monandligi
- d) barkamollik

4. Badiiy asar shakli barcha elementlarning obrazli, g‘oyaviy – badiiy mazmundagi yagona to‘liqliq asosida birlashuvchi nima deb ataladi?

- a) garmoniya
- b) dizayn
- *v) kompozitsiya
- d) tektonika

5. Rangning shartli belgisi (qizil, ko‘k, to‘q sariq, havo rang) rangning nomi yoki bironta predmet, o‘simlik nomiga yaqinlashtirib aytildigan so‘z?

- a) ranglar yig‘indisi
- b) ranglar xalqasi
- *v) rang tusi
- d) ranglar tozaligi

6. Rang kuchi va xromatik rangga axromatik rang aralashgani bilan xarakterlanadigan rang tusi sofligining ko'rsatkichi qanday nomlanadi?

- a) rang tusi
- b) rang boyligi
- v) rang ko'rinishi
- *d) rang to'qligi

7. Xromatik rangning oq rangga yaqinlik darajasi belgilang?

- *a) oqishlik
- b) ochiqlik
- v) nafislik
- d) och ranglar

8. Xromatik ranglar qanday ranglar?

- a) oq, qora
- b) tabiiy ranglar
- *v) sof ranglar
- d) moviy ranglar

9. Axromatik ranglar qanday ranglar?

- a) ko'k
- *b) qo'shilgan ranglar
- v) qizil
- d) binafsha

10. Material yuzasining tuzilishini xarakterlovchi xususiyat nima?

- *a) faktura
- b) zichlik
- v) to'yinganlik
- d) tabiiylik

11. Dekorativ motivlar ko‘rinishlari qanday bo‘ladi?

- a) aralash motivlar
- b) qo‘shma motiv
- v) naqshli motiv
- *d) abstrakt yoki geometrik motivlar

12. To‘r, tasma, popuk, lentalar, gullar yordamida bezash nima deb aytildi?

- a) bezash
- *b) maxsus bezak materiallar bilan bezash
- v) bezak berish
- d) maxsus bezash

13. Kiyimdagи shakl nimani anglatadi?

- A) moda va kostyum murakkab o‘zaro tashkil etuvchi tizim bo‘lganligi sababli kiyim shakli yetuqligi va to‘liqligi
- b) fazoviy vaqt tizimining o‘zgarmas modeli
- v) kiyim shakli yetuqligi va to‘liqligi
- *d) fazoviy vaqt tizimiinig dinamik modeli

14. Shakl mavjudligining qoidasini ko‘rsating?

- a) shakl mavjudligining asosiy qoidasi kiyim shakli haqida ma’lumot beruvchi omilning mavjudligidir.
- b) bir kiyim shaklining o‘qilishi va qabul qilinishi ma’lum bir vaqt oralig‘iga yuzaga kelishidir.
- *v) shakl mavjudligining asosiy qoidasi uning yetuqli gi va tashkil etilishidadir.
- d) kiyim shakli dinamik holatda teatrlashtirilgan guruh yoki bir kishilik manekenchilar yordamida namoyishi bilan olib boriladi.

15. Shakl nechta aspektda bo‘lishi mumkin?

- *a) 3 ta
- b) 2 ta
- v) 4 ta
- d) 6 ta

16. Semiotika nima?

- a) ma’lum bir ifoda turli tomoshabin tomonidan o‘zgacha qabul qilinishi
- b) rassomning g‘oyasi ma’lum bir qisqa timsol bo‘lib, «kalit» yoki «kod» bilan belgilanishi
- *v) obektning sifati o‘ziga xosligi va ifodalash ma’nosining yoritilishi
- d) vositalarning tanlanishi va ko‘p jihatdan ishning muvaffaqiyat bilan tugashi

17. Kiyimdagи belgilar nimani anglatadi?

- a) kostyum obrazli yechimining birinchi ikki turi ko‘rgazmalar ishi bilan bog‘liqligini
- b) u tufayli borliqdagi buyum va hodisalarning aks etishi
- v) kiyimning mastikligi, ritmikligi va kompozitsion tarkibi va ularning tartib joylashuvi
- *d) kiyimning ma’lum g‘oyaviy guruhga taalluqliligi (xudojo‘y, zamonaviy, konservativ); kiyimdagи etnik sifat belgisi (mintaqaviy, milliy); kiyimning jinsiy farqlilik belgisi; kiyim insonning did belgisini aniqlovchi; kiyim - madaniyat belgisi; kiyim vazifalarini

18. Kostyum - axborot vositasi deganda nimani tushunasiz?

- a) hayvonot olami yoki biologik jarayon imitatasiyasi (tatuirovka, barg va teridan yopinchiq) tushunilishi.
- b) kiyimdagи shakl va rang tabiiy elementlarning timsoli sifatida
- *v) kiyim kommunikatsiyasining ma’lum bir ko‘rinishi bo‘lib, u uslub, moda, o‘sha davr estetik va ilmiy konsepsiyalari, jamiyatning, moddiy va ma’naviy

hayotning tarzi, darajasi, texnologiyasi va hokazolari to‘g‘risida ma’lumotlarni berishi

d) tabiiy elementlar haqida ma’lumotlarning berilishi

19. Faktura nima?

- a) faktura kattaligi va uning gazlama yuzasi birligiga elementlari miqdoriga ko‘ra gazlamalar ifodaliligi
- b) gazlama tuzilishining tashqi ko‘rinishi
- v) gazlama yuzasi xarakteri bo‘yicha gazlamalarni silliq, dag‘ir-dug‘ir, buklirlangan, bo‘rtma choklilarga ajratilishi
- d) o‘rilish turi, iplarning shakllanish xarakteri

20. Plastiklik nima?

- a) materiallarning nam o‘tkazuvchanlik, chang o‘tkazuvchanlik, issiq o‘tkazuvchanlik xususiyatlari
- *b) materiallarning mayinlik, osiluvchanlik, dag‘allik kabi xususiyatlari
- v) gazlamalar, trikotaj, mo‘yna, charm, zamsha, noto‘qima materiallar qavat gazlamalar, pylonka, yog‘och, plastmassa, shisha kabi materiallar xususiyatlari
- d) gazlamalarning bezak va pardoz xususiyatlari

21. Materialning rangi, rasmi va fakturasi nima?

- a) geometrik shakl va usullariga xos bo‘lgan uyg‘unliklari
- b) kiyim shakliga, materialning fakturasiga, jins-yosh omiliga, odam gavdasining turiga, gavdaning o‘ziga xos xususiyatlari, xarakteriga bog‘liqligi
- v) gazlama rasmlari turli-tumanligi, geometrik, o‘simplik, hayvon va aralash xarakterdagi rasmlar bilan namoyon etilishi, bunda geometrik rasmlar alohida o‘rin tutadi
- *d) fonini zinch to‘ldirib turgan yirik rasmlli odam yoki to‘q rangli metallar va fakturasi yaltiroq materiallar vazni maksimal, fonini siyrak to‘ldirib turgan mayda

rasmli ochiq rang, oqish materiallar fakturasi siyrak materiallar vaznining minimal bo‘lib ko‘rinishi

22. Bezaklar material va shakliga ko‘ra necha guruhga bo‘linadi?

- a) 5 guruhga
- *b) 7 guruhga
- v) 3 guruhga
- d) 2 guruhga

23. Bezkaklarni materiali va shakliga binoan qanday guruhlarga bo‘linadi:

- a) beykalar, mag‘izlar, bo‘rtma mag‘izlar, bantlar, galsto‘qlar, xlyastiklar, fatalar, pogon lar, to‘r, tasma, popuk
- *b) bo‘rttirma chok, taxlama, bo‘rtma burma, drapirova, plisse, gofre, bezak baxyaqator, qo‘yma burma, ikki tomonlama qo‘yma burma, aylana burma, beyka, mag‘iz, bo‘rtma mag‘iz, bant, galsto‘q, xlyastik, fata, pogon , to‘r, tasma, popuk, lenta, gul, tugma, to‘qi, dekorativ piston, blokcha-piston, molniyalar, kashta, qoplama bezak, emblema, mo‘yna, teri, trikotaj, zamsh, to‘r, bosma gul solib bezash
- v) lentalar, gullar, tugmalar, to‘qilar, deqora tiv pistonlar, blokcha-piston lar, molniyalar, kashta, qoplama
- d) bezak, emblemalar, mo‘yna, teri, trikotaj, zamsh, to‘r, detallarini bosma gul solib bezash

24. Bolalar kiyimi uchun qanday gazlamalar tanlanadi?

- *a) kompozitsiya alohida aniqligi, murakkab bo‘lmagan, kulgili rasmlarning oson o‘qilishi va rang sofligiga qarab tanlanadi
- b) sho‘x rasmli gazlamalar tanlanadi
- v) yorqin rasmli gazlamalr tanlanadi
- d) quvnoq rasmli gazlamalar tanlanadi

25. Kiyimning har xil turlarini modellashtirishda nimaga e'tibor beriladi?

a) gazlama tuzilishiga

b) gazlama fakturasiga

*v) gazlama rasmlarini tanlashga jiddiy qarash, uning xarakteri va xususiyatlari jins yosh belgiga qarab kiyim taqsimlanishiga ko'ra, funksional vazifasi, mavsum va kiyimni tayyorlash xarakteriga

d) matoning rasmi va fakturasiga

26. Keksa yoshli kishilar uchun qanday gazlamalar tanlanadi?

a) ko'k rangli gazlamalardan

*b) past tuslarda, naqshli motiv mayda yoki o'rtacha kattalikdagi rasmli gazlamalardan

v) kulrangli gazlamalardan

d) oq qora rangli gazlamalardan

27. Yasli yoshidagi va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qanday rasmli matolar tanlanadi?

*a) ochiq, mayin rangli, mayda va siyrak rasmli materiallardan tanlanadi

b) gullar rasmi tushirilgan matolar tanlanadi

v) avtomobillar, o'yinchoqlar rasmi tushirilgan matolar tanlanadi

d) quvnoq va rasmlи matolar matolar tanlanadi

28. Maktab bitiruvchilari tantanali marosimi uchun qanaqa matolar tanlanadi?

a) yorqin rangli, yaltiroq rasmlи matolar

b) mumtoz rangli matolar

*v) oq, pushti, havo rang va boshqa rangdor gulli matolar

d) oqish rangli rasmlar bilan bezatilgan matolar

29. Dekorativ bezak nima?

a) bezak beruvchi qism

- *b) bezak kompozitsiyaning mustaqil elementi emas – bu qo'shimcha, ziynat bo'lib, kiyimda u yo'q bo'lishi ham mumkin
- v) yaltiraydigan qismi
- d) turli ko'rinishli bezak qism

30. Rasmi murakkab materiallardan kiyim qanday modellashtiriladi?

- a) klassik uslubda
- b) fantaziya uslubida
- v) xippi uslubi
- *d) detallarda rasmlar yo'nalishi bir tomonga qaragan bo'lishini, o'q chiziqlar ining joylashishini, umumiy rang yechimini hisobga olganda

31. Naqsh gulli materiallardan kiyim qanday modellashtiriladi?

- *a) turli chiziqlar, bo'rtma choklar, drapirovkalar, mayda detallar foydalanmasdan
- b) milliy rusumdag'i
- v) mumtoz uslubdag'i
- d) klassik rusumdag'i

32. Dekorativ bezak necha xil bo'ladi?

- a) 3 xil
- b) 4 xil
- v) 6 xil
- *d) 2 xil

33. Dekorativ bezakning qanaqa turlari bor?

- a) dekorativ
- b) konstruktiv
- *v) dekorativ va konstruktiv
- d) dekor bezak

34. Formali kiyimni modellashtirishda qanday naqshli mato tanlanadi?

- a) to‘q rangli matolar
- *b) mehnat jamoasini atrof-muhitda ko‘proq ifodaliroq namoyon etadigan matolar
- v) rasmiy ko‘rinishdagi matolar
- d) naqshsiz matolar

35. Bayramona va turli dam olish turlari uchun qanday tanlanadi?

- a) yaltiroq va atlas nusxa matolar
- b) bezakli va yorqin rangli matolar
- *v) juda keng rasmlar qamrovi bo‘lgan matolar
- d) jimjimador, sidirg‘a matolar

36. Bahorgi-yozgi davr uchun qanday rang va rasmlli mato tanlanadi?

- a) tabiat, gul va yaproqlar rasmi tushirilgan mato
- *b) o‘simlik rasmlli o‘tkir kontrast ranglar yoki ochiq sof tusli mato
- v) bezakli va yorqin rangli gullar rasmi tushirilgan mato
- d) yaltiroq va atlas nusxa tabiat rasmi tushirilgan mato

37. Tugmalar, dekorativ pistonlar, pistonlar, to‘qa, «chaqmoq-taqilmalar».....ni tashkil qiladi?

- a) yordamchi bezaklar
- b) yordamchi dekor
- *v) furnitura
- d) dekor bezak

38. To‘r, tasma, popuk, lentalar, gullar va boshqalar yordamida bezash qanday bezak turiga kiradi?

- a) bezak tasmalar
- *b) maxsus bezak materiallar
- v) bezak to‘rlar

d) qo‘l bezaklari

39. Kundalik ish kiyimi uchun qanday rasmlı mato tanlanadi?

- *a) mayda yoki o‘rtacha tasvirli kontrast rangldagi matolar
- b) sidirg‘a rangli matolar
- v) gulsiz matolar
- d) qora, ko‘k, yashil, jigar, oq rangli matolar

40. Rassom-modeler uchun gazlamaning qanday tavsiflari muhim hisoblanadi?

- a) manzarali, aniq plastik va faktura xususiyatlari
- *b) tasvir, plastik va faktura xususiyatlari
- v) yumshoqligi, plastik va faktura xususiyatlari
- d) egiluvchanligi, plastik va faktura xususiyatlari

41. Gazlama yuzasi xarakteri bo‘yicha necha xil bo‘ladi?

- *A) silliq, dag‘ir-dug‘ir, buklirlangan, bo‘rtma chokli
- B) to‘qli, to‘qsiz
- V) sochiqsimon
- D) silliq, dag‘al

42. Materiallarn gigienik xususiyatlarining kiyim shaklini hosil qilishdagi ta’siri degani nima?

- a) bichimga o‘zgartirish zarurligi
- b) konstruksion o‘zgartirish zarurligi
- *v) havo va nam o‘tkazishi yomon materiallardan kiyim tagidagi havo ventilyatsiyasi bo‘lishi, gavdaga yopishmaydigan shaklda tikish zarurligi
- d) mato sifatiga o‘zgartirish zarurligi

43. Qanday matolarda plastiklik xususiyati kuchli bo‘ladi?

- *a) harir shifon gazlamalar mayin, osiluvchan, drapirovkabop matolarda

- b) yumshoq matolarda
- v) silliq matolarda
- d) harir matolarda

44. Proporsiya nima?

- a) simmetriklik
- b) bir xillik
- *v) o‘lchamlar mosligi
- d) takrorlanish

45. Asosiy ranglar xalqasida qanday ranglar mavjud?

- a) ko‘k, qora qizil, oq
- *b) qizil, sariq, yashil, ko‘k
- v) yashil, binafsha, siyoh, ko‘k
- d) sariq, moviy, havorang, yashil

46. Rang tusi nima?

- a) rangning balandligi
- b) rangning oqishligi
- *v) rangning shartli belgisi (qizil, ko‘k, to‘q sariq, havo rang) rangning nomi shartli yoki bironta predmet, o‘simlik nomiga yaqinlashtirilishi
- d) rangning ko‘rinishi

47. Rang to‘qligi nima?

- a) rangning kuchli ta’siri
- b) rangning balandligi
- *v) rang kuchining va xromatik rangga axromatik rang aralashgani bilan xarakterlanadigan rang tusi sofligining ko‘rsatkichi
- d) rangning to‘qlik darajasi

48. Rangning oqishligi nima?

- a) ochlikning balandligi
- *b) rangning oq rangga yaqinligi
- v) och rangning to‘qligi
- d) rang tusining pastligi

49. Kontrast ranglar qanday ranglar?

- a) oq va qora, ko‘k va qizil, sariq va yashil
- *b) har xil asosiy ranglardan hosil bo‘lgan va ranglar doirasining qarama - qarshi turgan choraklardagi ranglar
- v) sariq va yashil, oq va qizil, yashil va ko‘k
- d) qizil va pushti, sariq va jigar

50. Kompozitsiyada qanday ranglar bor?

- *a) axromatik va xromatik ranglar
- b) baland va past ranglar
- v) pastel, issiq va sovuq ranglar
- d) to‘q va och ranglar

51. Axromatik ranglar deb qanday ranglarga aytildi?

- a) pushti va siyoh ranglar
- b) issiq va sovuq ranglar
- *v) bo‘yalmagan ranglar
- d) bo‘yalgan va bo‘yalmagan ranglar

52. Axromatik ranglar deb qanday ranglarga aytildi?

- a) spektr ranglar
- b) qora, oq, kulrang
- v) tusi past ranglar
- d) oqishligi baland ranglar

53. Xromatik ranglar deb qanday ranglarga aytildi?

- a) oq va qora ranglar
- *b) bo‘yalgan ranglar
- v) qizil, qora ranglar
- d) sariq va qizil ranglar

54. Iliq ranglar deb qanday ranglarga aytildi?

- a) tabiat ranglari
- *b) issiq jismlar rangini eslatuvchi ranglar
- v) lola va binafsha rang
- d) kungaboqar va atirgul rangi

55. Sovuq ranglar deb qanday ranglarga aytildi?

- a) ko‘k, qizil va sariq ranglar
- *b) suv, muz, metallni eslatuvchi rangalar
- v) sariq, ko‘k va qora ranglar
- d) yashil, sariq, qizil ranglar

56. Qizil rang kishiga qanday ta’sir etadi?

- a) hayajonga soladi
- b) aggressiya chaqiradi
- v) xursand qiladi
- *d) bosh og‘rig‘i va charchoqni kuchaytiradi, hamda qon bosimini ko‘taradi

57. Yashil rang kishiga qanday ta’sir etadi?

- a) o‘tloqni eslatadi, raqsga chorlaydi
- b) maysani eslatadi
- v) bahorni eslatadi, qo‘sish qaytingiz keladi
- *d) insonni tinchlanadiradi, qon bosimini pasaytiradi.

58. Binafsha rang kishiga qanday ta'sir etadi?

- a) xursand qiladi, raqsga chorlaydi
- *b) o'pka va yurakka yaxshi ta'sir ko'rsatadi va chidamliligini oshiradi
- v) umid beradi, kayfiyatni yaxshilaydi
- d) insonni tinchlantiradi, qon bosimini pasaytiradi

59. Sariq rang kishiga qanday ta'sir etadi?

- *a) kayfiyatni ko'taradi, issiqlik hisi, quvnoq kayfiyatni chaqiradi, aqliy mashg'ulotlarga ko'maklashadi, ishtahani ko'taradi
- b) o'pka va yurakka yaxshi ta'sir ko'rsatadi va chidamliligini oshiradi
- v) insonni tinchlantiradi, qon bosimini pasaytiradi
- d) bosh og'rig'i va charchoqni kuchaytiradi, hamda qon bosimini ko'taradi

60. Qora rang kishiga qanday ta'sir etadi?

- a) zeriktiradi, uyquni chaqiradi
- b) kayfiyatni ko'taradi, issiqlik hisi, quvnoq kayfiyatni chaqiradi
- v) tantanani eslatadi, aqliy mashg'ulotlarga ko'maklashadi
- *d) kayfiyatni tushiradi, qo'rquv hissini uyg'otadi

61. Moviy (ko'k) rang kishiga qanday ta'sir etadi?

- *a) tomir urishini sekinlashtiradi, qon bosimini pasaytiradi, nafas olishni tekislashtiradi
- b) osmonni eslatadi
- v) dengizni eslatadi
- d) sokin qiladi

62. Yozgi kiyimlar uchun qanday ranglar tanlanadi?

- a) sho'x ranglar
- b) yorqin ranglar

v) yaltiroq ranglar

*d) ko‘k, moviy osmon, dengiz, sariq qum va boshqa yorqin ranglar

63. Kayfiyatni tushiradigan, insonni qisadigan rang qaysi?

a) ko‘k, yashil

b) jigar rang

*v) qora rang

d) pushtirang

64. Rangning signal funksiyasi qaerda keng foydalilanildi?

a) uy-ro‘zg‘orda

b) oliy ta’lim muassasalarida

v) davolanish va dam olish muassasalarida

*d) ishlab chiqarish muhitida keng foydalilanildi

65. Gazlamaning plastik tuzilishi nimaga bog‘liq?

a) harirligiga

b) yumshoqligiga

v) elastikligiga

d) gazlamaning fakturasiga

66. Gazlamada qanaqa rasmlar bo‘lishi mumkin?

*a) o‘simlik, gullar, geometrik naqshlar, chiziqlar

b) naqshli, naqshsiz, sidirg‘a

v) yo‘l- yo‘l, naqshli, naqshsiz, sidirg‘a

d) katakli, naqshli, naqshsiz, sidirg‘a

67. Gazlamaning fakturasi?

a) mato silliqligi

b) mato qalinligi

*v) mato sirtining tuzilishi

d) mato yupqaligi

68. Simmetriya nima?

a) bir xillik

*b) bir shaklning barcha nuqtalari simmetriya o‘qiga nisbatan boshqa shakl nuqtalariga mos kelishi

v) o‘xshashlik

d) tenglik

69. Assimmetriya nima?

a) qarama qarshi ko‘rinish

b) elementlarning har xil joylashuvi

v) teskari trapesiya

*d) assimmetriya tushunchasi shakl elementlarining fazoviy tashkil etilishidagi murakkab tobeklikning yoki simmetriya elementlarining yo‘qligidir

70. Statiklik nima?

*a) shakl turg‘unlik va tinchlik holatining bo‘rttirilishi

b) shaklda turg‘unlik

v) shakl ifodasining bo‘rttirilishi

d) shaklda gorizontal va vertikal bo‘linishdagi muvozanatlilik

71. Dinamiklik nima?

a) bo‘ysunuvchanlik, turg‘unlik

b) shakl ifodasining bo‘rttirilishi

*v) u hayot, rivojlanishi va harakatning ifodasi

d) shakl ifodasining bo‘rttirilishi

72. Kompozitsiyada massa nima?

a) og‘irlilik o‘lchovi

*b) kiyim shakli yoki uning qismlari ko‘rinishidagi og‘irlilik miqdori

v) og‘irlilik vazni

d) og‘irlilik o‘lchovi

73. Markazda bo‘lish qonuni degani nima?

a) kostyum markazida bo‘lishi

*b) bo‘rttirib ko‘rsatiladigan qismning nisbatan markazda bo‘lishi

v) siluet markazida bo‘lishi

d) kiyim markazida bo‘lishi

74. Ma’no omili qonuni degani nima?

a) kostyum ma’nosiga monandligi

b) bezaklarning ko‘pligi

*v) bir butunning ma’nosini bor bezakli qismi rasmiy xarakterdagi bezakli qismlardan ustun turishi

d) markazda bo‘lish

75. Sifat qonuni degani nima?

a) me’yor darajasi

b) dekorlar me’yori

v) bezaklar me’yori

*d) xususiyati yoki bir guruh xususiyatlari jihatidan ko‘proq bo‘lgan qismning ustunligi

76. Miqdor qonuni degani nima?

a) dekorativ bo‘laklanish me’yori

b) bezaklar me’yori

- *v) bir turli bezakning katta-kichikligi, hajmi, vazni yoki miqdo ri kattaroq bo‘lgan boshqa qismlaridan ustunligi
- d) me’yor darajasi

77. Kompozitsion markaz nima degani?

- a) kiyim markazi
- *b) kostyuming diqqatni jalg etuvchi eng chiroyli qismi
- v) kostyum o‘rtasi
- d) bosh kiyim markazi

78. Siluet deganda nimani tushunasiz?

- *a) kostyum shaklining ma’lum geometrik shakl, o‘lchamlar, massa, siluet yuzasi bilan tavsiflanishi
- b) kiyim tuzilishi ma’lum geometrik shakl, o‘lchamlar, massa, siluet yuzasi bilan tavsiflanishi
- v) eskiz ko‘rinishi ma’lum geometrik shakl, o‘lchamlar, massa, siluet yuzasi bilan tavsiflanishi
- d) to‘qimachilik materiallarining ma’lum geometrik shakl, o‘lchamlar, massa, siluet yuzasi bilan tavsiflanishi

79. Siluetlar yopishib turish darajasiga binoan qanday sinflanadi?

- a) ovalsimon, to‘g‘rito‘rtburchaksimon, prapesiyasimon
- b) ovalsimon, uchburchaksimon, prapesiyasimon
- v) yopishib turadigan, sal yopishib turadigan, bemalol turadigan
- d) aylanasimon, to‘g‘rito‘rtburchaksimon, prapesiyasimon

80. Siluet chiziqlari deganda nimani tushunasiz?

- *a) shaklning kontur chiziqlari
- b) siluet atrofidagi chiziqlar
- v) bichiq chiziqlari

d) konstruksiya chiziqlari

81. Siluet chiziqlari necha xil bo‘ladi?

- a) chiziqli, bezakli, bahyali
- *b) konstruktiv; konstruktiv-dekorativ; dekorativ
- v) bezakli, dekor
- d) bahyali

82. Dekorativ pardozlash

- a) dekor, applikatsiya, kashta, rangli baxyaqatorlar, beykalar, jiyaklar, tasmalar va hok.
- b) pardoz, applikatsiya, kashta, rangli baxyaqatorlar, beykalar, jiyaklar, tasmalar va hok.
- *v) applikatsiya, kashta, rangli baxyaqatorlar, beykalar, jiyaklar, tasmalar va hok.
- d) bezak, applikatsiya, kashta, imkonи bor bo‘lgan rangli bahyaqatorlar, beykalar, jiyaklar, tasmalar va hok.

83. Insonni tashqi muhit ta’siridan saqlovchi qobiq

- a) qoplama
- *b) kiyim
- v) kostyum
- d) ansambl

84. Kostyum nima?

- a) libos, oyoq kiyimi, bosh kiyimi
- b) kiyim, oyoq kiyimi, bosh kiyimi
- *v) kiyim, oyoq kiyimi, bosh kiyimi, soch turmagи, grim, aksessuarlar majmuasi
- d) qobiq sistema, oyoq kiyimi, bosh kiyimi

85. Kiyim yoshga ko‘ra qanday sinflarga bo‘linadi?

- a) erkaklar va ayollar
- *b) kattalar va bolalar
- v) qizlar va o‘g‘il bolalar
- d) ayollar va qiz bolalar

86. Ishlatishga qarab kiyim qanday sinflarga bo‘linadi?

- *a) ichki va ustki kiyim
- b) ko‘rpa - to‘shak va tungi kiyim
- v) ustki va ichki, bosh kiyim
- d) zamonaviy va qadimiy kiyim

87. “Garmoniya” degani nima?

- a) moslik, monandlik
- b) hamohanglik, uyg‘unlik
- v) uyg‘unlik, muvofiqlik
- *d) yunoncha so‘z bo‘lib, predmet lar, voqealar, butun qism larning turli sifatlari bo‘yicha bog‘liqligi, muvofiqligi

88. Moda nima?

- a) taqlid, yangilik
- *b) moda jamiyat bilan birgalikda o‘sib boradi va taraqqiy topadi, u – zamona farzandi, lekin o‘zining qat’iy xarakteriga ega
- v) fason, model
- d) yangilik, zamona bilan hamohang

89. Kostyum kompozitsiyasi aksenti -kulminatsiyasi qaerda joylashadi?

- a) kostyum bezaklarida
- b) bezak gullarda
- *v) kompozitsiya markazida

d) ustkm yoki bosh kiyimda

90. Kompozitsion markaz kattalar kostyuming qaerida joylashadi?

- *a) kostyumning urg‘uli qismida
- b) kostyumning ichki tomonda
- v) kostyumning bosh kiyimida
- d) ustki kiyim bel qismida

91. Kompozitsion markaz ayollar kostyuming qaerida joylashadi?

- *a) yuz qismiga yaqin, bel, yubka - pastida yoki yuqorisida, poyabzalda
- b) bosh kiyimida
- v) taqinchog‘ida
- d) poyabzalida

92. Kompozitsion muvozanat nima?

- a) kompozitsion muvozanat kostyum shaklining shunday holatiki, unda barcha elementlar o‘zaro uyg‘unlikda bo‘ladi
- b) kompozitsion muvozanat kostyum shaklining shunday holatiki, unda barcha elementlar o‘zaro moslikda bo‘ladi moslik
- v) kompozitsion muvozanat kostyum shaklining shunday holatiki, unda barcha elementlar o‘zaro hamohanglikda bo‘ladi
- *d) kompozitsion muvozanat kostyum shaklining shunday holatiki, unda barcha elementlar o‘zaro balansda bo‘ladi

93. Shaklning uyg‘un yaxlitligi nima?

- a) rassom ijodining mukammaligida bo‘ladi
- *b) shaklning uyg‘un yaxlitligi - shaklni tashkil etuvchi qismlar, elementlar, xususiyatlarning mos o‘lchamlarda bo‘ladi
- v) yuz qismiga yaqin, bel, yubka - pastida yoki yuqorisida, poyabzalda, ranglarda bo‘ladi

d) kiyim shaklining shunday holatiki, unda barcha elementlar o‘zaro balansda bo‘ladi

94. Shakl tektonikligi nima?

- a) shaklning fakturasi va xususiyatlaridagi bog‘liqlik
- b) shaklning mintaqaga va iqlimga mosligi
- *v) ergonometrik omillar, ijtimoiy psixologik omillar va funksional mo‘ljallanganligiga bog‘liqligi
- d) shaklning konstruksiyasi va texnologiyasida

95. Tektoniklik nima?

- *a) shakldagi konstruksiya va material bajarayotgan ishining ko‘zga ko‘rinib turadigan aksidir
- b) chiroyli va zamonaviy model yaratish
- v) matoning siluetga mosligi
- d) konstruksiyaning modelga to‘g‘ri kelishi

96. Applikatsiya, kashta, imkonи bor bo‘lgan rangli baxyaqatorlar, beykalar, jiyaklar, tasmalar orqali nima bajariladi?

- a) kiyim sifati oshishi
- *b) dekorativ pardozlash
- v) pardoz berish
- d) maxsus bezak

97. Lotincha «composition» so‘zidan olingan bo‘lib, birikma, tuzilma ma’nosini bildiradi) – badiiy asar qismlarining ahamiyatli nisbati - bu nima?

- *a) kompozitsiya
- b) kompozit materiallar
- v) kiyimlar yig‘indisi
- d) kostyum

98. Vertikal yoki gorizontal bukib tikiladigan, konstruktiv funksiya bajaradigan, kostyum tashkil etilishida vitochkalar o‘rnini bosadigan va qiziqarli ritm hosil qiladigan bezak bu.....

- *a) mayda taxlamalar
- b) volanlar
- v) konstruktiv chiziqlar
- d) texnologik bahyaqatorlar

99. Kiyim shaklini hosil kilishdagina qatnashadigan chiziqlar; yelka choklari, vitochkalar, yeng o‘tqazish choklari.

- *a) konstruktiv chiziqlar
- b) biriktirma choklar
- v) bostirma choklar
- d) bahya choklar

100. Kiyim formasining erkinligi, yeng bichimining har xilligi, qoplama cho‘ntaklari, cho‘ntak qopqoqlari, belbandlar, koketkalar, baxyalar, to‘qa, ilgak, piston, tugma kabi, chaqmoq taqilma va shnur kabi furnituralar mavjudligi bilan ajralib turadigan uslub.....

- *a) sport uslubi
- b) erkin kiyim
- v) zamonaviy kiyim
- d) modaga xos kiyim

GLOSSARIY

Kostyum - bu kiyim qismlarining mo‘ayyan obrazli - badiiy sistemasi bo‘lib, ushbu qismlarni insonning individual obrazini yoki ijtimoiy gruppasini xarakterlovchi, qaror topgan prinsiplarga asosan yaratilgan va muayyan tarixiy bosqichda erishilgan ma’lum texnik, ilmiy va madaniy yuto‘qlarni aks ettirishi

Kostyum - erkaklar va ayollar kiyimining pidjak va shimdan yoki jaket va yubkadan iborat turi.

"**Ko‘ylak**" terminining ikkita ma’nosi bor. Birinchidan, bu bevosita badan ustidan kiyiladigan ich kiyimni bildirsa, ikkinchidan ich kiyim ustidan kiyiladigan yengil kiyimdir. Bundan tashqari ayollarning eng keng tarkalgan kiyim turi xam ko‘ylak deyiladi.

Kiyim - kechak - bu ma’lum vazifaga mo‘ljallanganlikni ifoda etuvchi detallar xarakteriga binoan sinchiklab tanlangan, kosmetika va soch turmagi bilan qo‘silib, kostyumi to‘ldiruvchi va bezovchi predmetlar bilan birlashgan kiyim. Maqsadiga qarab kiyim-kechak maishiy, kechalik, ishlik, tantanavor, sportbop va hokazo bo‘lishi mumkin.

Garnitur - bu odatda aynan bir tur materialdan tayyorlanib, ma’lum bir maqsadga mo‘ljallangan bir sidra kiyimlar yig‘indisi (ich kiyim garnituri, zargarlik buyumlari va hokazo).

Garderob - bu bir qator hollarda zarur bo‘lgan bir sidra kiyim komplektlari va kostyumi to‘ldiruvchi boshqa qo‘sishma predmetlar, ya’ni bir kishining yoki butun oila a’zolari barcha kiyimlarining yig‘indisi.

Komplekt - bir xil yoki xar xil materialdan tayyorlangangan, maqsadi va uslubiy hal etilishi umumiy bo‘lgan to‘la bir sidra buyumlar to‘plami: komplektdagi ayrim buyumlarni mo‘ljallanganligi va uslubiy hal etilishi o‘xshash boshqa buyumlarga almashtirish mumkin.

Komplekt - bu ochiq sistema bo‘lib, ayrim buyumlarni unga qo‘sish va undan olish mumkin.

Ansambl - kostyuming muayyan badiiy uslub birligiga ega bo‘lgan barcha qismlarining yig‘indisidir o‘zaro mustahkam birligidir.

Ansambl - bu biror qismini olib tashlab bo‘lmaydigan va biror boshqa qism qo‘shib bo‘lmaydigan yopiq sistema.

Ansambl - u bir yo‘nalishga qaratilgan kostyum bo‘lib, aniq obrazga ajratilgan kiyimlar majmuasidir.

Nabor - umumiy vazifa ado etuvchi bir qancha buyumlar: unda material bilan uslub birligi bo‘lishi shart emas (bolalarning ich kiyim nabori).

"**Model**" so‘zi - kiyimga nisbatan ko‘rinishi, shakli, materiali, bezagi yoki boshqa sifatlari yangicha bo‘lgan kiyim namunasidir .

Fason - bir nomli kiyim gruppasidagi shakl, bichiq va boshqa xususiyatlar farqidir.

Kolleksiya - obrazli yechimi, uslubi, konstruksiyasi, shakli va materiallar strukturasining yagonaligi asosida qurilgan, vazifasi turlicha bo‘lgan modellar seriyasidir.

Maket - bu bir predmetning ob’emini tasviri. Uning formasini, proporsiyasi va funksiyasini tasvirlovchi predmet.

Uslub - jamiyatning moddiy va ma’naviy madaniyatidagi muhim va xarakterli belgilar obrazli sistemasi ijodiy prinsiplarining tarixan tarkib topgan bir qadar barqaror mushtarakligidir.

Uslub - bu davrning badiiy tili va xarakteristikasidir.

Moda - (fransuzcha «mode» so‘z bo‘lib - me’yor, tarz, usul ma’nosini bildiradi) paydo bo‘lishi anchagina murakkab voqeа bo‘lib, jamiyat hayotidagi qator hayot omillariga bog‘liq.

Pret-a-porte (so‘zma-so‘z tarjimasi «kiyish uchun tayyor») – taniqli modelerlar yoki firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan yuqori sifatli tayyor kiyimdir. «Kiyim dizayni» tushunchasi faqatgina ommaviy tarzda kiyim ishlab chiqarish degani emas, balki, umuman kostyum yaratish faoliyati demakdir. 1960 yillardan dizayn deganda sanoatda ishlab chiqariladigan kiyimlar to‘plamini yaratish tushunilardi. Yuqori darajadagi moda elitar dizayn sohasiga kiritildi. Libos dizayni sohasiga kutyure va stilistlarning ijodi ham kiritila boshlandi.

Kutyure – fransuzcha haute couture – so‘zma-so‘z tarjimasi «yuqori darajadagi tikuv» bo‘lib, ularning faoliyati ilgari hunarmandchilik turi hisoblangan

renchkot — shinelning inglizcha nomi. Nimyopishgan siluetli, taqilmasi tomoqqacha, qaytarma yoqali, pogonlar, xlyastiklar, belbog‘, shlevkasi bor va ort bo‘lagida shlitsali palto yoki plashch. Bu ustki kiyimning klassik shaklidir.

Olster — dag‘al junli suknodan tayyorlangan keng, uzun, ikki bortli, kapyushon va belbog‘li palto. Unga Irlandiyadagi Olster shahrining nomi berilgan. Chunki u yerda dastavval jun gazlamasi—bobrik ishlab chiqarilgan va undan shunday paltolar tikilgan.

Palmerston — ort bo‘lagi belgacha yopishib turadigan erkaklar paltosi. Unga Angliya bosh vaziri va tashqi ishlar vaziri lord vikont Palmerstonning (1784-1865yy.) nomi berilgan.

Chesterfield — odatda qora rangli, duxoba yoqali, qirqma cho‘ntakli va yashirin taqilmali, uzun erkaklar paltosi. Unga graf Chesterfieldning (1694-1773-y.y.) nomi berilgan. Bu ustki kiyimning klassik shaklidir.

akintosh: 1) suv o‘tkazmaydigan rezinalangan gazlamadan tayyorlangan palto yoki plashch. Unga Shotland kimyochisi Ch. Makintoshning (1830-y.y.) nomi berilgan. 2) to‘g‘ri siluetli, qaytarma yoqali, oil bo‘lagi shlitsali, yashirin taqilmali, yengi reglan bichimli, qiya qirqma listochka cho‘ntakli yengil palto.

Daflkot (daffl-kout) —qalin jun gazlamadan tikilgan kapyushonli, taqilmasi tayoqchasimon yog‘och tugmali, shnur yoki charm izmali nimpalto. Unga Belgiyaning Dyuffel shahri nomi berilgan, chunki u yerda dastlab shu palto uchun gazlama ishlab chiqarilgan. Avval daflkotni Angliyada ovga chiqqanda kiyishgan. Ikkinci jahon urushida esa uni Britaniya qirollik flotining dengizchilari kiyishgan. Keyin bu bolalar, ayollar va erkaklar ustki kiyimining klassik shakliga aylandi.

Manto — odatda mo‘ynadan tayyorlangan, etak qismi kengaygan, keng shaklli ayollar paltosi.

Sak — qopsimon shaklli, to‘g‘ri bichimli ayollar paltosi.

Svinger—mo‘yna yoki jun gazlamadan tikilib, ort bo‘lagi juda keng, klyoshlangan, tizzagacha uzunlikdagi ayollar paltosi.

Redingot — nimyopishgan siluetli palto. Dastlab ort bo‘lagi uzun shlitsali, qaytarma yoqali (bir necha qavatli — karrik), otga minib yurish uchun kiyiladigan ustki kiyim.

Erkaklar redingoti nimyopishgan siluetli bo‘lgan, ayollarniki esa bel qismigacha yopishib turadigan va bel qismi qirqilgan bo‘lgan.

Pilnik — astarsiz engil yozgi palto. Uni XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida chang va shamoldan muhofaza qilish uchun haydovchi va yo‘lovchilar kiyishgan. XX asrda pilnik ayollar ustki kiyimiga aylandi.

Plashch: 1) ustiga tashlab kiyiladigan, yengsiz, keng ustki kiyim; 2) odatda suv o‘tkazmaydigan gazlamadan tikiladigan yengil palto.

Barberri: 1) Angliya firmasi ishlab chiqaradigan elegant plashch; 2) yuqori sifatli gabardin (ishlab chiqarilgan firma nomi berilgan) materialdan tikilgan plashch.

Dojdevik — suv o‘tkazmaydigan materialdan (ko‘pincha plenkadan) tikilgan yengil plashch.

Shuba — tabiiy yoki sun’iy mo‘ynadan tikilgan palto. Shubaning avvalgi ko‘rinishi mo‘ynaning tuki ichkariga qaratilgan, gazlama qoplangan, mo‘yna yoqali oldi ochiq ustki kiyim ko‘rinishida edi.

Dublenka (po‘stin) — mo‘ynaga maxsus usulda tuki ichkariga qaratib ishlovberilgan, odatda qo‘y terisidan tikilgan, mo‘yna hoshiyali palto yoki ustki kiyim.

Kurtka — qat’iy, muayyan holatda mahkamlangan, shakli har xil, turli uzunlikdagi taqilmali, yengil. kalta ustki kiyim.

Bluzon — belbog‘ yoki rezinka bilan yakunlangan kurtka.

Norflok — uzunligi bo‘ksagacha, belida bebog‘ tikilgan, ort bo‘lagida ikkita taxlamali, ko‘kragi va bo‘ksasi qoplama cho‘ntakli ovga kiyishga mo‘ljallangan kurtka. Bu kurtkaga Norflokning nomi berilgan.

Bushlat — qora movutdan tikilgan qaytarma yoqali dengizchilarining ustki kurtkasi. 1854-yilda Qrim urushi vaqtida rus dengizchilarining kiyimi sifatida paydo bo‘lgan.

Kompozitsiya – musiqa, amaliy san’at yoki mo‘yqalam asari

Kostyum kompozitsiyasi - kiyimning tuzilishi hamda bichimni hosil qiluvchi detallar birlashmasi bo‘lib, uning mazmunini ifodalaydi.

Kompozitsiyadan maqsad - funksional, texnik va texnologik jihatdan takomillashtirilgan zamonavny forma hosil qilish bilan birga, chiroqli, uyg‘un,

hamma qismlari o‘zaro mutanosib, majoziy, atrof-muhitga uslubin jixatdan bog‘liq bichim hosil qilishdir.

Kostyum kompozitsiyasi - insonning kostyumdagi badiiy - obrazlilik ifodasini ta’minlovchi hajm, detal va elementlarning o‘ziga xos tuzilishi

Shaklning yaxlitligi - konstruktiv yechim bilan uning kompozitsiyaviy mujassamligi o‘rtasidagi aloka mantiqi va uyg‘unligining aks etishidir

Kompozitsion markaz gavdaning istalgan qismida bo‘lishi mumkin. Masalan, u yuzga yaqin joyda, belda, ko‘krakda, bo‘ksada, oyoq yaqinida, oldinda yoki orqada va hok. qismida bo‘ladi.

Miqdor qonuni - bir turli bezakning katta-kichikligi, hajmi, vazni yoki miqdori kattaroq bo‘lgan boshqa qismlardan ustunrok kelishidir.

Markazda bo‘lish qonuni - bo‘rttirib ko‘rsatiladigan qismning nisbatan markaziy joyda bo‘lishi boshqa hamma jihatlari teng bo‘lgan holda shu qismni asosiy kompozitsion markaz qilib ko‘rsatilishidir.

Ma’no omili konuni - bir butunning ma’nosini bor bezakli qismi (emblema, gullar va boshqalar) rasmiy xarakterdagi bezakli qismlardan ustun turishidir.

Simmetriya - kompozitsyaning eng yorqin va ko‘zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri.

Asimetrik kompozitsiya - simmetrik kompozitsiya singari funksional vazifani hal etishning ob’ektiv natijasidir.

Kompozitsyaning ifodaliligi - uning tushunishga qulayligi shaklning bo‘ysungan qismlardan 6osh kompozitsion markaz tomon xarakatda bo‘lib ko‘rinishi qay darajada hosil kilinganligiga bog‘liq.

Statiklik - shakl turg‘unligining, tinchlik holatining bo‘rttirib ifoda etilganidir.

Proporsiyalar - bu kiyim alohida qismlardagi mos o‘lchamlarning bir - biriga hamda gavdasidagi mos o‘lchamlarga bo‘lgan nisbatidir.

Masshtablilik - kiyimda proporsiya garmoniyaning ushbu vositasi - bilan ajralmaslikda bo‘ladi.

O‘xshashlik - shakl elementlari o‘xshashlik prinsipiga prinsipiga binoat birlashgan bo‘lishi, ya’ni hamma qismlar takrorlanishga asoslangan yoki shakl, rang,

hajmlilik darjası, fakturadagi chiziqlar jihatidan bir - biriga muvofiq bo‘lishi mumkin.

Konstrast - kompozitsiyadagi turli yo‘nalishlar o‘rtasidagi kurash, bir - biriga qarama - qarshiligi bo‘lib, u eng keng foydalanib kelingan vositalardan biri.

Nyuans - kompozitsiya vositasi tariqasida proporsiyalarda, maromda, gul va tus nisbatlarida, dekorda, plastikada, lekalo qo‘yib chizadigan murakkab egri chiziklar yordamida shakllar tuzishda va hokazolarda ko‘rinadi.

Ritm tushunchasi umumiy ko‘rinishda - bu shakl elementlarining navbatma - navbat qonuniy almashinib turishidir.

Ritm - kostyumni tashkil etgan shaklning hamma qismlarini bir-biriga bog‘lovchi vositalardan biri.

Aksentli (e’tibor tortadigan) **elementlar** - aktiv elementlardir

Passiv eementlar - aksentsiz eementlar.

Dinamik odim - aktiv elementlar o‘rtasidagi oraliq (interval).

Sur’at - elementlar harakatining orta borish tezligidir.

Oddiy metrik qator - bir xil shakllarning teng intervallarda takrorlanishi kompozitsiya tuzishga asos qilib olinadigan eng oddiy qonuniyat.

Murakkab metrik qator - ikki yoki undan ortiq oddiy metrik qatorlarning birga qo‘shilganidan iborat qator.

Ritmik tartib - shakllar va ular o‘rtasidagi intervallarning birin-ketin qonuniy o‘zgara boradigan (kattalashib yoki kichraya borishi) shakllar joylanishidir.

Rang - predmetning eng muxim informatsiyaviy sifatlaridan biri hisoblanadi. Amaliy san’at predmetlarida rangning vazifasi turlicha. Bular psixologik, ijtimoiy, estetik vazifalardir.

Rang - iliqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik, yengillik va vazminlik hissini beruvchi vosita.

Rang to‘qligi - rang kuchining va xromatik rangga axromatik rang aralashgani bilan xaraterlanadigan rang ko‘rsatkichidir.

Eng sof, eng to‘q ranglar - spektrdagи ranglardir.

Pastel (mayin) ranglar - oq aralash (pushti, havorang, bargikaram) ranglar.

Odmi ranglar - ranglarga kulrang qo'shilganda hosil bo'ladi.

Neytral ranglar - ranglarga o'zaro ta'siri bo'lмаган ranglardir. Kulrang, ko'kintir kulrang, yashilroq kulrang va boshqa ranglar ana shunday ranglarga kiradi.

Absorbsiya – biror yuzaga tushuyotgan nur, uning jism malekulalari tomonidan yutilishi.

Absolyut rang - toza ochroq va toza to'q, ya'ni ochroq ham, to'qrok ham bulmagan rang.

Adaptatsiya - ko'zning yorug'likka, qorong'ulikka, yoki ranga moslashishidir.

Additiv aralashma - ikkita bir biriga qarama-qarshi (ko'k va zarg'aldoq) ranglarni optik yo'li bilan qo'shganda hosil bo'lган rangsizlik, ya'ni oq rangiga aytildi.

Qardosh ranglar - bir-biriga issiqlik yoki sovuqlik sifatlari bilan yaqin ranglar.

G'oya - kompozitsiyaning asosiy mazmuniy yo'nalishi.

Akvarel buyog'i - tarkibi: yelim, o'ta mayin pigment, dekstrin, glitserin, asal kabi aralashmalaridan iborat bo'lib chiqariladi.

Axromatik ranglar - kul rang, va oq rang ranglar.

Borliq -butun borliq, voqelik, mavjudot, ob'ektiv borliqqa nisbatan kishi ongi, ya'ni sub'ektiv qarashlar, real dunyoga nisbatan yuzaga kelishidir.

Grafika - tasviriy san'atning bir turi, grafika odatda oq-qora rangda ishlanadi yoki chegaralangan, shartli ranglarda ishlanib, asosan bosma usulda tasvirga tushiriladi.

Dizayn - (loyiha-fikr) asosaiy maqsadi uyg'unlashgan jiismlar muhitini yaratish. Shuningdek insonning moddiy va ma'naviy, estetik talabalarini kondirishga karatilgan ijodiy faoliyat turlaridan biri.

Diffo'ziya - yorug'lik biror yuzaga tushganda va undan kaytayotgan nurlar tartibsiz qaytsa bu diffo'ziyali aks etish deyiladi.

Yengil ranglar - bunday ranglarga sariq-zarg'aldoq, och ko'k (havo rang) kabilar kiradi.

Yorug'lik ranglar - absolyut ranglardan oq kutbga tomon ocharib, yorug'lanib borgan ranglar.

Yorug'lik - tabiiy, sun'iy tarzda quyoshda, elektr lampada va boshqa

yoritgichlardan taraladi. U sekundiga 300000 km tezlikda (havosiz bo'shliqda harakatda bo'lib fatonlar oqimi, elektromagnit nurlanishning muayyan bir bo'lagi.

Ijodiy faoliyat - har kanday san'at yoki adabiyot sohasidagi yaratuvchanlik faoliyat ijodiy faoliyat deyish mumkin. Ijod bu albatta yaratuvchanlik bilan bog'lik bo'ladi. Tasviriy san'atda musavvir kartina yaratadi, ya'ni u kompozitsion mavzu yechimini beradi. Agar biror tayyor shakldan ko'chirilsa u ko'chirma bo'lib ijodkorlikga kirmaydi.

Illyuziya - tasviriy san'atda biror jismni tasvir orqali qayta eslatish, uning aynan shaklini jonli eslatish. Teatr sahnasida suv, quyosh, oy, yulduzlar, harakatdagi bulutlar va hokazolarning illyuziyasini tasvirlash.

Impressionizm -(fransuz tilidan-ta'surot) XIX-XX asrlarda tasviriy san'atdagi bir oqim. XIX asr oxirlarida boshlangan bu oqim tasviriy san'atda hukm surgan "akademizm" va "klassitsizimga karshi bo'lib, jonli hayotiylikka, oddiy syujetlilikka muhitning o'z go'zalik holatida tasvirlashga intilganlar.

Interer - binoning ichki ko'rinishi. Xonalar, foye, koridor, va xok.

Issiq ranglar - doiradagi sariq ranglardan binafsha ranglargacha bo'lgan ya'ni sarik, zarg'aldoq, qizil, purpur ranglari.

Keramika - amaliy san'at turlarining biri bo'lib, uning mahsulotlari sopoldan ishlanadi. Keramika xalk amaliy san'ati va badiiy keramika turlariga bo'linib birinchisi asosan uy-ruzg'or buyumlari, me'morlikda dekorativ bezak beruvchi detallar, suv eltuvchi quvurlar va xok. bilan shug'ullanadi. Oxirgisi badiiy ijod turiga kirib u monumental asarlar, badiiy dekorativ bezaklar, me'moriy muhit yaratishda eksterer intererlar uchun kichik formalar yaratadi.

Kolorit - badiiy asarning rang tonlari jihatida tuzilishi. Rang tonlarining uyg'unligi, obrazliligi koloristik yechim issiq yoki sovuq tonlarda bo'lishi mumkin. Kolorit tomoshobinda zavq uyg'otishi, kayfiyatiga har xil ta'sir etishi mumkin.

Kompozitsiya - badiiy asarning strukturaviy tuzilishi, qismlarining munosabat uyg'unligi, ma'naviyligi, obrazliligi kabi sifatlarining yechimi.

Konstruksiya - jismlarni tuzilishi, qismlarining biri-biriga birikib konstruktiv yaxlitlikda bo‘lishi.

Kontrast - tonlarning bir - biriga nisbati, axromatik yoki xromatik ranglarning bir-biridan ajralib turishi; soya va yorug‘likning o‘zaro farqi; qarama-qarshilik, zidlik.

Nyuans - ranglarni bir-biridan juda nozik farqlanishi; yorug‘lik va soyaning biridan-ikkichisiga sezilar-sezilmas darajada o‘tishi.

Obraz - san’atda borliq voqeligini aks ettirish formasi, voqelikni badiiylashtirib ifodalash, tasviriy san’atda g‘oyaning hissiy aniq, ko‘rgazmali ifodalash.

Og‘ir - ranglar bunday ranglarga qizil, binafsha ko‘k, yashil malla, qora kabi ranglar kiradi.

Och ranglar – oq kutbga tomon yaqinlashgan sari ocharib borgan ranglar, oq aralashgan ranglar.

Perspektiva - jismning shakl va o‘lchamlari, shuningdek uning rang xususiyatlarini masofadan o‘zgarib ko‘rinishi.

Pigmentlar - barcha buyoklar - metallar ko‘kinlaridan tabiiy xolda ya’ni usimliklar tomirlari, yer yoki mayda xashoratlarni maxsus usulda yanchilib ularning talkonlaridan tayyorlanadi. Buyoklar rang talkonlariga yelim kushilgan suv buyoklar hamda emal, yog kushilgan ya’ni yoglik asosda tayyorlanadi.

Rang - bu jismning, ko‘rinish jihatdan xususiylik alomati. (Temir-kul rang, oltin-sariq, daraxt-yashil, yoki qizil mato va xok.). Ranglar jismlarga kuyosh nuri yoki sun’iy yorug‘lik tushish okibatida uz xarakterini namoyon qiladi. Kuyosh nurida 7 xil spektr ranglari mavjud. Bular-qizil, zarg‘aldoq, sariq yashil, ko‘k havorang, binafsha ranglar.

Rang dog‘lari - biror yuzaga surtilgan, ma’lum maydonda o‘z xususiy ta’sir kuchiga ega rang dog‘lariga aytildi.

Ranglar munosabati - ranglarning bir-biri bilan yonma-yon turishi yoki ranglarning o‘zaro muhitidagi bir-biriga ta’sirchanligi oqibatida yuzaga kelgan majmui.

Ranglar majmuasi - tasviriy asarda asos qilib olingan ranglar va undagi umumiylrang ohanglari.

Ranglar toni - xromatik ranglar o‘zining rang tonlari farklanishi bilan bir biridan ajralib turadi. Masalan absolyut yashil rangi oq qutbga ocharib boradi; qora kutbga uning rangi to‘qlashib, qoramtilr tuslanib boradi.

Rangtasvir -tasviriy san’atning asosiy yo‘nalishi. Atrof muhitni ranglar vositasida ifoda etuvchi tasvir turi.

Siluet - soya profili yorug‘ fonda biror shaklning chegaralanib yaqqol ko‘rinishi masalan: odamning qomati yorug‘ osmon fonida, yorug‘lik orka tomondan tushayotgan holatda siluet bo‘lib ko‘rinadi.

Ramz - obraz, ramziylik (tor ma’noda biror rangni ramziyligi masalan O‘zbekiston bayrog‘idagi ranglar ramziy ifodalananadi, ya’ni osmon, yer tabiat va hok.)

Simmetriya -o‘q chizig‘iga nisbatan tomonlarning bir-biriga tengligi, o‘xshashligi, simmetrik joylashganligi. Tabiatdagi barcha mavjudotlar qismlari asosan simmetrik tartibida bo‘ladi. (ko‘z, qo‘l, oyoq, va hok. joylashuvi).

Sovuq ranglar -ranglar doirasidagi binafshadan yashil rangigacha ya’ni: binafsha, ko‘k, havo rang, yashil ranglar kiradi.

Spektr -oynada yoki diffraksiyon prizmadan o‘tgan nurning 7 xil rangda ko‘rinishi, quyosh nurining spektri.

Soyalar -tasviriy san’atda, tasviriy ifodalashning asosiy formasini tashkillashtirish jarayonida asosiy rol uynaydi. Chunki har kanday jism yorug‘lik ta’sirida soyalanib, uz formasini namoyon kiladi. Agar u yoritilmasa, u ko‘rinmaydi.

Tasviriy san’at - tasviriy san’at bu insonning estetik qarashlarini ifodalovchi faoliyat turi. Uning turlari dastgohli rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, keramik, monumental san’ati, miniatyura rangtasviri, dizaynning barcha turlari kabilar bo‘lib, badiiy ijod tizimida musavvir o‘z g‘oyaviy qarashlarini his-tuyg‘ularini tasviriy yo‘l bilan amalga oshiradi.

Taqqoslash - o‘lchamlarni, xajmlarni shuningdek rang farqlanishini taqqoslash, bir-biriga nisbatan farqlarini ajratish.

Ton - xromatik yoki axromatik ranglar toni, ular qoradan oqgacha bir necha yuzlab pog‘ona tonlar bilan farqlanishi mumkin.

Tuyg‘un ranglar - absolyut ranglardan qora kutb tomonga intilgan ranglar.

Uyg‘unlik (garmoniya) - qismlar munosabati, tuzilishining go‘zalligi, birlik, yaxlitlik, o‘lchamlilik, rang uyg‘unligining mujassamliligi. Garmoniya kayfiyatga yoqimli ta’sir kiladi.

Faktura - biror jismning sirti, yuzasini sillik yoki g‘adir-budirligi.

Fon - har qanday jism o‘z foniga ega bo‘ladi. (tasviriy san’atda) kuzatilayotgan jism albatta biror fonga nisbatan yaqqollashadi.

Xromatik ranglar - o‘z rangiga ega bo‘lgan barcha ranglar, ya’ni kulrang, qora va oq ranglardan tashqari ranglar.

Xususiylik - jism o‘zining sifat jihatlari bilan boshka jismlardan ajralib turishiga aytiladi.

Shakl - predmetning o‘ziga xos proporsional, konstruktiv xususiyati; chizma shakllar; geometrik shakllar va hokazo.

Shaffof - tiniq narsa shisha, plastik, suv yoki shuning kabi yarqiroq jismlar.

Eskiz - bo‘lajak asarning xomaki qoralamasi. Har bir badiiy asar eskizlashdan boshlanadi va eskiz o‘z yechimini topgandan so‘ng shu asosda ishlanadi.

Estetika - san’at va badiiy ijodiyotdagi nafosat, tabiat va hayotdagi go‘zalliklar xaqidagi falsafiy ta’limot.

Kombinatorika – dizaynda fazoviy, konstruktiv, funksional, grafik tarkiblarni variantli o‘zgarish qonuniyatlarini qidirish, tadbiq etish, foydalanishga va tipik elementlaridan dizayn ob’ektlarini loyihalash usullariga asoslangan kiyim shaklini hosil qilish tarzi.

Bionik usuli -bionika konkret ob’ektlarning tahlilidan iborat. Masalan, hashoratlar kanotlarini tahlil etib, yangi o‘ralish shakllairni, ustki kiyimlarning qavatlanishini, detallar transformatsiyasini yaratish mumkin. Ba’zi hashoratlarni nurlanishi ichiga yoritqich o‘rnatilgan poyabzalni yaratish g‘oyasini tug‘dirdi.

Transformatsiya (lot. transformasio – o‘zgarish) – kiyim shaklini boshqa turga aylantirish yoki o‘zgartirish uchun loyihalashda ko‘pincha foydalanadigan usul.

Kinetizm (yunon. kinetikos – harakatga keltirmoq) - kombinatsiya qilish nazarda tutilgan loyihalash usuli, uning asosida ko‘z ilg‘aydigan shaklni harakatga keltiradigan g‘oya olingan.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF – 4947 - sonli “2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmonidagi - T.: 2017 yil 7 fevral
3. Пармон Ф. М. Композиция костюма. М.: Легпромбытиздат, 1985 г.
4. Пармон Ф. М. Художественное проектирование одежды промышленного производства. М., Легпромбытиздат, 1981 г.
5. Козлова Т. В. Эстетика проектирования одежды. М., Легкая индустрия, 1989 г.
6. Козлова Т. В. Моделирование и художественное оформление женской и детской одежды. М., Легкая индустрия, 1990 г.
7. Ростовцев Н. Н., Игнатьев С. Е., Шорохов Е. В. Рисунок. Живопись. Композиция. М., Просвещение, 1989 г.
8. Козлова Т. В. Основы теории проектирования костюма. М., Легпромбытиздат, 1988 г.
9. Дейнека. А. Из моей рабочей практики. Москва, Издательство Академии художеств СССР, 1961 г.
10. Фаворский В. А. О композиции. Москва, «Искусство» 1933, № 1.18-6.
11. Янчевская Е. Л. Аёллар устки кийимини конструкциялаш. Тошкент, Ўқитувчи., 1998 й.
12. Рогова А. П. Эркаклар ва болалар устки кийимини конструкциялаш асослари. Тошкент, 1988 й.
13. Soyipov T. Kompozitsiya. Toshkent. O‘zbekiston. 1999 y.
14. Abdullaeva Q. M. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish asoslari, Toshkent, 2006 y.

15. Hasanboeva G. K., Shomansurova Sh. M., Maxsus kompozitsiya, Toshkent, Yangi asr avlodi, 2007 y.
16. Hasanboeva G. K., To‘qimachilik dizayni tarixi, Toshkent, Iqtosidiyot moliya, 2006 y.
17. Kamilova X. X., Xamraeva N. K., Tikuv buyumlarini konstruksiyalash, Tohkent, Cho‘lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2011 y.
18. Karimova G., Komilova X., Reklama va dizayn, Toshkent, O‘zbekiston, 2012 y.
19. Ермилова В. В., Ермилова Д. И. Моделирование и художественное оформление одежды. – М.: Академия, 2001. – 177с.
20. Рачицкая Е. И., Сидоренко В. И. Моделирование и художественное оформление одежды. – Ростов-на-Дону.: Феникс, 2002. – 599 с.
21. Устин В. Б. Учебник дизайна. М.: Астрел, 2009. 254 с.
22. Gafurova N. T., Maximov L. E. Kompozitsiya asoslari. – Т.: Yangi asr avlodi, 2014.– 185 b.
23. Голубева О. Л.. Основы композиции: Учебное пособие-2-е изд/.Голубева О. Л –М.: Изд. дом «Искусство», 2004.120 с.
24. Паранюшкин Р. В. Композиция: теория и практика изобразительного искусства / Паранюшкин Р. В - Изд. 2-е. - Ростов н/Д: Феникс, 2005. - 79 с.
25. Чернышев О. В. Формальная композиция. Творческий практикум/Чернышев О.В. -Мн.: Харвест, 1999-312 с.
26. Мода и стиль: Аксёнова М., Дукелская Е, Евсеева Е.,- М.: Аванта, 2002,- 482 с.
27. Мода и дизайн: исторический опыт новые технологии / материалы Международной научной конференции.- СПб.: 2010.-538с.
28. Сидоренко В. Ф. История стилей в искусстве и костюме / - М.: Феникс. 2006.- 267с.
27. Hart U.S. 4909632: Персональный цветовой анализирующий метод. Патент США. Заявление № 632944. Зарегистрировано 20.08.84. США класс: 434/99; 434/102, 356/419. Международный класс Г09Б 019/00.

28. Симпсон. Метод для подбора совместимости цветов. Патент США. Заявление № 355041. Зарегистрировано 15.05.89. США класс: 356/402, 356/421, 434/99. Международный класс Г01 Ж003/46.
29. Mac. Фарлане и др. Метод и оборудование для подбора персональной совместимости цветов. Патент США. Заявление № 021657. Зарегистрировано 22.02.93. США класс: 356/405, 356/421, 346/526, 434/99, 434/100. Международный класс: Г01 Ж003/50. Г01 Ж003/52.
30. Bina Abing. Fashion Sketchbook.-USA, New York: Fairchild Books, 2012
31. Xywel Davies. Fashion Designers Sketchbooks.-United Kingdom, London: Laurence King Publishing, 2010
32. Han Seong JI. Fashion Design. – South Korea: Giyo Hak Peachech, 2015
33. <http://politeh.debesi.ru/files/IvshinCOMPOSITIONhtml/5.html>
34. <http://library.fentu.ru/book/arhid/osnovkompoz/22.html>
35. <http://www.coposic.ru/pravila/simmetriya/>
36. <http://paintmaster.ru/osnovy-kompozitsiji.php>
37. <http://www.kodiz.ru/abcompos/complaw.html>
38. <http://shar08.narod.ru/-arch-grafika.html>
39. http://baranovweb.narod.ru/pri_1.html
40. <http://prodslr.ru/2012/10/teoriya-tsveta/>
41. http://library.tuit.uz/skanir_knigi/book/komp_tehn_v_dizayne/dizayn.htm
42. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bionika>